

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**



OILA PEDAGOGIKASI

FANIDAN O'QUV USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:

100000-Gumanitar fanlar

Ta'lif sohasi:

110000 – Pedagogika

Ta'lif yo'nalishi:

5110900- Pedagogika va psixologiya

GULISTON – 2017

H. Abdurakov, Ya. Nurumbekova. Oila pedagogikasi G' O'quv –uslubiy majmua. – Guliston: 2017. – 269 bet.

O'quv –uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2014 yil "13"11 dagi 430 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va № BD-51109003. 03 raqam bilan ro`yxatga olingan fan dasturi asosida ishlab chiqildi. Majmuada oila pedagogikasining nazariy asoslari, oilaviy hayotning shaxs hayotidagi o'rni, oilada barkamol shaxsni tarbiyalash, ota- onalarning majburiyatları, huquqlari, ota-ona obro'si, oila a'zolarining shaxs shakllanishidagi ta'siri, o'g'il va qiz bolalar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari, oila – mahalla – ta'lim muassasasi hamkorligida oila mustahkamligini ta'minlashning nazariy xususiyatlari kabi masalalar yoritilgan.

Taqrizchilar:

B. Raximov – pedagogika fanlari doktori, professor

O.Suvanov Pedagogika va psixologiya kafedrası
Katta o'qituvchisi

MUNDARIJA

Kirish.....
Nazariy materiallar (ma’ruzalar kursi).....
Amaliy ishlarini bajarish buyicha uslubiy ko’rsatmalar.....
Semenar ishlarini bajarish buyicha uslubiy ko’rsatmalar.....
Mustaqil ta’lim buyicha materiallar.....
Glossariy.....
Test savollari.....

Ilovalar:

Fan dasturi.....
Ishchi fan dasturi.....
Ingliz va rus tilidagi xorijiy o’quv materiallari (elektron shaklda).....
Taqdimotlar va multimedya vositalari (elektron shaklda).....
Qo’shimcha didaktik materiallar.....

I. O’QUV MATERIALLAR

OILA PEDAGOGIKASI - FAN SIFATIDA

Reja:

1. “Oila pedagogikasi” fanining maqsadi, vazifalari va predmeti.
2. “Oila pedagogikasi” fanining boshqa fanlar bilan o’zaro aloqadorligi.
3. “Oila pedagogikasi” fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

Tayanch tushunchalar: oila, nikoh, qon-qarindoshlik, ota-on, farzandlar, keksa avlod (buva, buvi), qarindoshlar, pedagogika, oila pedagogikasi, oila tarbiyasi, oila an’analari, oila tarbiyasi tamoyillari.

“Oila pedagogikasi” fanining maqsadi, vazifalari va predmeti. Har qanday jamiyat oilalardan tarkib topadi. Oila jamiyatning kichik, biroq, eng asosiy bo’g’ini sanaladi. Zero, jamiyatning mavjudligi unda yashovchi kishilarni o’z ichiga olgan oilalarning borligi bilan belgilanadi. Shunga ko’ra oila va jamiyat o’rtasidagi aloqaning mustahkamligi, bir-birini taqozo etishi nihoyatda muhim. Bu muhimlik jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishi uchun nafaqat ta’lim muassasalarida, balki oilada ham bola (farzand)lar tarbiyasini to’g’ri, samarali tashkil etishni taqozo qilishida aks etadi.

Kishilik taraqqiyotining turli bosqichlarida ham oila tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib kelingan. To’g’ri, ba’zan bu e’tibor bir qadar sustlashgan (sobiq Ittifoq davrida sotsializm g’oyalariga ko’ra shaxsning tarbiyasida oila emas, balki jamiyatning etakchi o’rin tutishi alohida uqtirilar edi). Biroq, shuni alohida atib o’tish lozim, hech bir jamiyat va ijtimoiy tuzumda oilaning shaxs tarbiyasidagi ahamiyati, o’rni va roli butunlay inkor etilmagan.

O’zbekiston hududida esa qadim-qadimdan oilaning ijtimoiy-tarbiyaviy kuchga egaligi alohida e’tirof etilib, yuksak baholangan. O’zbekiston mustaqilligi yillarda esa bu bahoning qiymati yanada oshdi. Jumladan, “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida oilaning jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeい, uning jamiyat taraqqiyotiga qo’shadigan hissasi, shaxs tarbiyasida g’oyaviy asos bo’luvchi mafkuraviy qarashlarni shakllantirishdagi roliga alohida urg’u beriladi: “Oila – mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila – jamiyat negizi bo’lib, ko’p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo’lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o’giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog’lom muhit – sog’lom mafkurani shakllantirish manbaidir¹. Shu bilan birga ushbu risolada “jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o’zaro hurmat va ahillikni ta’minalash” respublika ma’naviy hayotida ustuvor o’rin tutadigan milliy mafkurani shakllantirish, uning maqsadlarni amalgamoshirishda tayanch bo’lishi aytib o’tiladi.

Darhaqiqat, oila va jamiyat o’zaro yaxlit ekan, o’z-o’zidan ijtimoiy taraqqiyotning negizi uning muhim bo’g’inda tashkil etiladigan tarbiya mazmuni, g’oya va tamoyillari asosida qo’yilishi shubhasiz. Shu sababli O’zbekiston tarixiy

¹ Миллий истиқтол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар. – Тошкент. Ўзбекистон, 2000. – 66-бет.

taraqqiyotida yangi davr bo'lgan mavjud sharoitda oilada bolalarni tarbiyalash masalasiga ham yangicha yondashuvni qaror toptirish taqozo etilmoqda.

Milliy mustaqillikka erishilgach, O'zbekiston Respublikasida pedagogika fani taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati milliy qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, boyitish, milliy meros va madaniyat namunalarini chuqur o'rganish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy harakatga uyg'un ravishda milliy pedagogik ta'limotlarni tadqiq qilish, shaxsga ta'lim berish, uni tarbiyalash borasidagi Sharq va Farb tajribalarini o'zaro muvofiqlashtirish asosida uzlusiz ta'lim tizimini takomillashtirishda, tobora jahon ta'limi standartlari darajasiga erishilayotganlikda aks etadi.

O'zbekiston mustaqilligi yillarda milliy ta'lim mazmunining asosi bo'lgan – uzlusiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida o'qitiladigan o'quv fanlarini ilmiy-metodologik, g'oyaviy yangilash, ijtimoiy taraqqiyot, ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan eng so'nggi yutuqlar bilan boyitish, ilg'or metodika hamda pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayoniga samarali tatbiq etish yo'lida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jamiatning mavjud ehtiyojidan kelib chiqib, uzlusiz ta'lim tizimida muayyan o'quv fanlarini o'qitish yo'lga qo'yildi. Mavjud o'quv fanlar mazmuni barkamol shaxs kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega qarashlar, tamoyillar bilan boyitildi. Xusan, mustaqillik yillarda oliv ta'lim tizimida pedagogik turkum fanlar sirasida alohida o'ringa ega bo'lgan "Oila pedagogikasi" fanining nazariy-metodologik asoslari yanada rivojlantirildi, asrlar davomida milliy pedagogikada qo'llanilib kelayotgan shakl, metod va vositalar bilan boyitildi.

Oila – jamiatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarni inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan alohida tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini, eng avvalo, oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat tarixi qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiat oldidagi majburiyatlarini bajarish nuqtai nazaridan asl mohiyatini saqlanib qolgan **ijtimoiy tuzilma** sanaladi

Jamiatning ajralmas bo'lagi bo'lgan oila nafaqat har bir shaxs, balki har bir millat, elat taraqqiyotida ham muhim o'rinni tutadi. Biror bir xalq, millat yoki jamiat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarni inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday jamiatning rivoji, millatning taraqqiy etishida oilaning o'rni alohida ekanligini ta'kidlar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni bayon etadi: "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik

va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir”².

Oila nikohga yoki a’zolarining ijtimoiy turmush tarzi, o’zaro axloqiy javobgarligi va o’zaro yordamiga asoslangan qon-qarindoshlarning kichik guruhi³.

Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo’lgan oilaga quyidagicha ta’rif mavjud: “Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo’g’ini bo’lib, yuridik ma’noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog’langan shaxslar doirasidan iborat bo’lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an’analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir”⁴.

Psixolog olimlar oilani kichik bir ijtimoiy guruh sifatida ta’riflaydilar. Oilani tashkil etuvchi ushbu guruh nikoh orqali hamda yaqin urug’chilik rishtalari bilan bir-biriga bog’langan bo’lib, ular o’rtasidagi munosabatlarga xos bo’lgan muhim jihatlar – bu o’zaro mehr-muhabbat, g’amxo’rlik, mas’uliyatlilik va albatta, hayot, turmush tarzidagi umumiylilikdir⁵.

Sotsiologiya oilaga yaxlit ijtimoiy organizmning qismi, jamiyat bo’g’ini, ijtimoiy tarbiya jamoasi sifatida qaraydi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada sodir bo’layotgan o’zgarishlar albatta, oilada o’z aksini topadi. Biroq boshqa – ishlab chiqarish, kasbiy, siyosiy-ijtimoiy birlashmalardan farqli ravishda oila to’g’ridan-to’g’ri qayta qurishga uchramaydi. Oilaning axloqiy, psixologik jihatdan yangilanishi uzoq, murakkab, qarama-qarshiliklarga bog’liq jarayondir.

Iqtisodiy o’zgarishlarga nisbatan yangi axloq me’yorlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlar oilada sekin sur’atlarda shakllanadi. Oilaviy o’zgarishlarning amalga oshishida ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari biologik, psixologik, demografik omillar ham ishtirok etadi.

Psixologlarning qayd etishicha, shaxs hayotining birdan-bir to’g’ri yo’li – bu oilaviy hayot sanaladi. Oilaviy hayotning samarasi unda sog’lom muhit qaror topganligi bilan belgilanadi. Binobarin, “oila sog’lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir”⁶.

Oila inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi. Shuningdek, oila muhim tarbiya o’chog’i hamdir. Oilada bolalar tarbiyasida ota-bobolar, momolardan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o’tgan yaxshi udum, odatlar mavjud. Pedagog olima M.Inomova oilaning quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko’rsatgan:

- oila o’ziga xos va takrorlanmas ta’sirga ega;
- oila bola uchun o’ziga xos “ko’zgu” bo’lib, ota-onaning shaxsiy namunasi, ibrati bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi;

² Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – 52-бет.

³ Педагогический энциклопедический словарь – Москва: Владос, 2002. – С.257.

⁴ Каримова О. Оила ҳукуқи асослари – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2003.

⁵ Каримова В. Оилавий хаёт психологияси – Тошкент: Фан, 2006. – 10-бет.

⁶ Ўша асар. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – 58-бет.

- oila o'ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo'lib, unda ijobjiy va ba'zan salbiy his-tuyg'ular jamuljam bo'ladi;
- oila sharoitida bolalarda o'zgalarga nisbatan hamdardlik tuyg'ulari ham tarbiyalanadi;
- oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili sanaladi;
- oila – er-xotinlik, ota-onalik vazifalarini aks ettiradi. Ota-onanining bir-biriga bo'lgan muhabbati bolaga ta'sir ko'rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillardan biriga aylanishi mumkin⁷.

Demak, oila – tarbiyaviy jamoa va hech kim hech qanday holatda oilaning vazifasini bajara olmaydi.

Oila hayoti ko'p tomonlamali munosabatlar bilan tavsiflanadi: ijtimoiy-biologik, xo'jalik-iqtisodiy, axloqiy, psixologik. Oila rivojining har bir bosqichi bir funktsiyasining tugashi, boshqasining paydo bo'lishi, uning a'zolarining ijtimoiy faoliyatining o'sib borish ko'lami va tavsifi bilan bog'liq. V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Isaevlarning fikricha, oila jamiyat va shaxsga munosabati bo'yicha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funktsiyalarini bajaradi.

Xo'sh, oliv ta'lim tizimida "Oila pedagogikasi"ning o'quv fani sifatida o'qitilishi qanday nazariy va amaliy ahamiyatga ega? Ushbu o'quv fani doirasida qanday masalalar o'r ganiladi? Bo'lajak pedagog hamda psixolog sifatida talabalar "Oila pedagogikasi" bo'yicha qanday bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtira olishlari zarur?

"Oila pedagogikasi" fanining mohiyatini to'la anglab olish uchun yuqoridagi kabi savollarga javob topish talab etiladi. Quyida ana shular to'g'risida so'z yuritiladi.

O'quv fanining umumiy mohiyatini anglab olishda har bir fan, o'quv fani asoslarini o'zlashtirishda bo'lgani kabi tanya tushunchalar mazmunidan etarlichcha xabardor bo'lish talab etiladi.

"Oila pedagogikasi" o'quv fanining markazida **oila, nikoh, qon-qarindoshlik, ota-ona, farzand (farzandlar), keksa avlod (buva, buvi), oila tarbiyasi** kabi tushunchalari yotadi.

Oila har bir shaxs hayotida o'ta muhim ahamiyatga ega. Zero, har bir shaxs oilada dunyoda keladi, unda qaror topgan muhitda yashaydi, kamolotga erishadi, tarbiyalanadi. Shaxsning ruhiyati, irsiy, etnik hamda mental xususiyatlari, axloqiy, jismoniy, irodaviy sifatlari va dunyoqarashining shakllanishida ham oila "yadro" bo'lib xizmat qiladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "oila" atamasi arab tilidan tarjima qilinganda "bola-chaqa", "xonodon", "urug'", "avlod" ma'nolarini anglatilishi aytilib, u bevosita shaxsga dahldorlik nuqtai nazaridan tushuncha sifatida shunday ta'riflanadi: "Er-xotin, ularning bola-chaqlari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui"⁸. "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi"da

⁷ Иномова М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 1999. – 20-21-бетлар.

⁸ Ўзбек тилининг изохли лугати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 97-бет.

esa oilaning nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh⁹ ekanligi ta'kidlanadi.

Demak, **oila** – o'zaro rozilikka asoslangan nikoh va qon-qarindoshlik rishtalari asosida birlashgan kishilar majmui. Oilaning shakllanishi va mavjud bo'lshi negizida ikki jins – er va xotin o'rtasida tuzilgan nikoh yotadi. **Nikoh** – oila qurish, farzand ko'rish va ularni tarbiyalash maqsadida ikki jins vakillarining o'zaro roziligi asosida tuzilgan, huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan ittifoqi¹⁰

Rasmiy nikoh unga kirishayotgan ikki jins vakili – erkak va ayolga birgalikda kechiriladigan turmushda, shuningdek, tug'iladigan farzandlar oldida ma'lum majburiyat (burch) va huquqlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga oila shakllantirilgandan so'ng farzandlarning tug'ilishi o'z-o'zidan nikohlangan ikki jins vakili – erkak va ayolning ota hamda ona maqomiga ega bo'lishini ta'minlaydi. **Ota va ona** biologik jihatdan farzandlarga ega bo'lib, ularga ijtimoiy-huquqiy jihatdan vasiylik qilish, keksaygan chog'larida esa ularning g'amxo'rliklariga munosib bo'lgan erkak va ayol. **Farzand (farzandlar)** – bitta ota-onadan dunyoga kelgan o'g'il yoki qiz (lar).

Oila ota-onsa va farzandlardangina iborat bo'lmay, balki keksa avlod (buva, buvi) hamda qarindoshlarni ham o'z ichiga oladi. **Buva** – ota yoki onaning otasi bo'lsa, **buvi** – ota yoki onaning onasi sanaladi. Qarindoshlar oilaga qondoshlik nuqtai nazaridan birlashadi. **Qarindoshlik** – bir avlod-ajdodga mansub bo'lib, bir necha kishidan iborat gurujni qondoshlik asosida muayyan oilaga birlashishini ifodalovchi biologik-ijtimoiy hodisa.

“Pedagogika” (yun. “παιδαγωγική”; “παῖς” (“pais”) – bola, “ἄγω” (“agogos”) – etaklayman) tushunchasi esa “shaxsni shakllantirishga qaratilib, muayyan tizim asosida tashkil etiladigan faoliyat, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli, metod va vositalari haqidagi fan”¹¹ ma'nosini anglatadi. Oddiyroq qilib aytganda, “pedagogika” tushuncha sifatida shaxsni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim hamda tarbiyaning mazmuni, shakli, metod va vositalari to'g'risida ma'lumot beradigan fan (fanlar turkumi)ni yoritadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda o'quv fani sifatida “oila pedagogikasi” tushunchasini shunday ta'riflash mumkin:

“**Оила педагогикаси**” – оилада фарзанд(лар)ни камолга етказиш,

тарбиялашда ота-оналар ёки кекса авлод вакиллари (бува ва бувилар)

томонидан ташкил этиладиган тарбия мазмуни, жараёни, тамойил, етакчи

фоя, шакл, метод ва воситалари ҳақида маълумот берадиган ўқув фанидир.

⁹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Мирий – Пархиш / 6-том. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – 469-бет.

¹⁰ (Тарбия / Ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия. Тузувчи: М.Аминов. Масъул муҳаррир А.Мажидов. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. – 306-бет)

2.1

¹¹ Педагогика. Изохли луғат / Ў.Аскарова, М.Усмонбоева, X.Рахматова, Ф.Эхсонова, Ф.Аскарова. – Наманган: Наманган давлат университети, 2014. – 149-бет.

Ma'lumki, har bir fan, shu jumladan, o'quv fani oldiga muayyan maqsad qo'yiladi. Odatda o'quv fanlari (har qanday fan)ning maqsadi uning mohiyatini umumiylar nuqtai nazardan yoritishga xizmat qiladi.

“Оила педагогикаси” фанининг мақсади: талаба-ёшларга оила тарбиясининг умумий асослари (мазмуни, қонуниятлари, тамойиллари, ўзига хос жиҳатлари, устувор ғоялари, самарали шакл, метод ва воситалари)га оид назарий билимларни бериш, уларни бўлажак педагог сифатида оилаларга болалар тарбиясини тўғри, самарали ташкил этишда педагогик ёрдам кўрсатишга тайёрлашдан иборат

“Inson ijtimoiy biologik jonzot sifatida o’zining yashashi uchun zarur bo’lgan ovqat eyish, nafas olish, uqlash, jinsiy hayot, issiq-sovuqdan himoyalanish va shu kai biologik ehtiyojlarini, insonlar bilan o’zaro muloqot, jamiyada o’z o’rni va mavqeiga ega bo’lish, farzandlar tarbiyasi, o’zining yashashi va ijod qilishi, salomatligini saqlashi, uy-joy, kiyim-kechakka bo’lgan ehtiyojlarini, shuningdek, farovon turmush kechirishi uchun zarur boshqa sharoitlarni yaratish kabilardan iborat bo’lgan ijtimoiy ehtiyojlarini, moddiy ehtiyojlarini qondirish, o’z-o’zini va atrof-borliqni anglash, qadriyatlarni bilib olish, hayotning mazmunini tushunish orqali o’z yo’lini topib olish kabi ma’naviy ehtiyojlarini oilaviy sharoitda amalga oshiradi. Inson o’zining yuqorida sanab o’tilgan asosiy ehtiyojlarini faqat oiladagina to’la qondira oladi”¹².

Yuqorida bildirilgan fikrlar “Oila pedagogikasi” o’quv fanining predmeti nimadan iborat” degan savolga javob topish imkonini beradi.

“Оила педагогикаси” фанининг предмети оила тарбиясининг умумий асослари (мазмуни, қонуниятлари, тамойиллари, ўзига хос жиҳатлари, устувор ғоялари, самарали шакл, метод ва воситалари)га оид ғоя, қараш, концепция, назария ва таълимотлар йиғиндиқисидан иборат

¹² Тарбия / Ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия. Тузувчи: М.Аминов. Масъул мухаррир А.Мажидов. – Тошкент: “Ўзбекистон миллый энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. – 323-324-бетлар.

O'quv fani sifatida "Oila pedagogikasi" aniq maqsadni ifodalash bilan birga muayyan vazifalarni ham hal qilishga yo'naltirilgan.

"Oila pedagogikasi" quyidagi vazifalarini hal qiladi:

- talabalarni oilaning ijtimoiy, iqtisodiy, xuquqiy va madaniy

asoslari, oilaning shaxs hayotidagi o'rni, oilaning funktsiyalari, oila tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati, tarbiyaviy imkoniyatlari, oila turlari, muayyan turdagi oilalarning shaxs rivojiga ta'siri, shuningdek, zamonaviy o'zbek oilalari rivojlanishining o'ziga xos jihatlari, oila tarbiyasi muammolari, oilada bolalar tarbiyasini samarali tashkil etishga oid mahalliy va xorijiy mamlakatlarning tajribalari, bu boradagi ilg'or yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish yo'llari bilan yaqindan tanishtirish;

- talabalarga oila tarbiyasining umumiy asoslari (mazmuni, qonuniyatlar, tamoyillari, ustuvor g'oyalari, samarali shakl, metod va vositalari), oila va ijtimoiy tarbiyaning yaxlitligi, shuningdek, ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning ahamiyati, texnologiyalari xususida ma'lumot berish;

- talabalarda oila pedagogikasiga nisbatan G'arb va Sharq mamlakatlaridagi yondashuv, ushbu yondashuvlarning shaxs ruhiyatining shakllanishi, kamolotini ta'minlashdagi hissasi borasidagi tasavvurlarni hosil qilish hamda ota-onalarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish yo'lida ilmiy izlanishlarni olib borish ko'nikmalarini shakllantirish;

- talabalar tomonidan oila tarbiyasining shaxsni kamolotidagi rolining munosib baholanishini ta'minlash;

- talabalarni bo'lajak pedagog sifatida oilalarda tashkil etiladigan bolalar tarbiyasining samarali bo'lishi, oila tarbiyasini yo'lida qo'yishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda metodik yordam ko'rsatishga muvaffaqiyatli tayyorlash;

- talabalarda kelgusida ta'lim muassasalarida olib boriladigan pedagogik faoliyatni oilalarda yo'lga qo'yilayotgan tarbiya bilan o'zaro muvofiqlashtirishga erishish ko'nikma, malakalarini shakllantirish.

- talabalarda bo'lajak oila sohibi (ota yoki ona) sifatida ijtimoiy faollikni shakllantirish.

O'quv fanining predmeti o'z navbatida "Oila pedagogikasi" fanining aynan qaysi masalalarni o'rganishi borasidagi tasavvurlarni oydinlashtiradi. "Oila pedagogikasi" o'quv fani quyidagi masalalarni o'rganadi:

- oila pedagogikasining nazariy muammolari aniqlash;

- oila tarbiyasini tashkil etish borasidagi ilg'or, samarali ish tajribalarini o'rganish;

- zamonaviy sharoitda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, texnologik sohalarda erishilayotgan yutuqlarni oila pedagogikasi amaliyotiga izchil tatiq etish;

- ota-onalar yoki bolalar tarbiyasiga mas'ul shaxs (vasiy)larning pedagogik madaniyatini rivojlantirish;

- ijtimoiy va oila tarbiyasini, shuningdek, ijtimoiy va oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etishga xizmat qiladigan texnologiyalarni o'zaro muvofiqlashtirish.

“Oila pedagogikasi” o’quv fanining asosiy manbai o’zbek xalqining oilada bolalar tarbiyasini samarali tashkil etish borasida asrlar davomida shakllanlangan boy hayotiy tajribasi, bolalar tarbiyasiga nisbatan yondashuvlari, milliy urf-odatlar, an’analar, marosimlar, shuningdek, xalq og’zaki ijodi namunalari (alla, lapar, ertak, afsona, masal, matal, maqol, pand, nasihat, o’git va qahramonlik eposlari) sanaladi.

Demak, “Oila pedagogikasi” fani ota-onaning yosh avlod tarbiyasini samarali tashkil etishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatining mazmuni, umumiy qonuniyatlar, tamoyillar, asosiy shakllari, metodlari, vositalari hamda texnologiyasini yoritishga xizmat qiladi.

“Oila pedagogikasi” fanining boshqa fanlar bilan o’zaro aloqadorligi. O’z mohiyati, amaliy ahamiyatiga ko’ra “Oila pedagogikasi” fani ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Shunga ko’ra u boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan ham o’zaro bog’liqlik va aloqadorlikda rivojlanadi.

“Oila pedagogikasi” fanining rivojiga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi fanlarni ularning yo’nalishiga ko’ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin (1-jadval):

1-jadval. Oila pedagogikasi” fanining rivojiga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi fanlarning guruhlari

Nº	Fanlar turkumi	Fanlar
1.	Pedagogik turkum fanlar	“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”, “Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi”, “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Pedagogik texnologiya”, “Pedagogik mahorat”, “Pedagogik konfliktologiya” hamda “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”
2.	Psixologik fanlar	“Umumiy psixologiya”, “Ijtimoiy psixologiya”, “Yosh va pedagogik psixologiya”
3.	Gumanitar fanlar	“Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Etnografiya”, “Axloqshunoslik”, “Estetika asoslari”, “Oila huquqi”
4.	Tabiiy fanlar	“Yosh fiziologiyasi va gigiena”, “Iqtisodiyot asoslari”

Quyida “Oila pedagogikasi” fanining boshqa fanlar bilan o’zaro aloqadorligi va ularning asoslardan foydalanish imkoniyatlari xususida so’z yuritiladi.

“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” – maktabgacha ta’lim yoshi bolalarini tarbiyalash, ularga boshlang’ich bilimlarni berish masalalarining tadqiqi bilan shug’ullanuvchi fan. U ota-onalarning maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni to’g’ri tarbiyalash, mazkur yosh davrining o’ziga xos xususiyatlarga tayangan

holda bolalarda muayyan ko'nikmalarini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" fani shu yoshdagi bolalar nutqini boyitish, organizmni to'g'ri parvarishlar, salomatligini mustahkamlash hamda ularda ma'lum harakat ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu blan birga ushbu fan maktabgacha ta'lim yoshi bolalarini maktab ta'limiga samarali tayyorlash yo'llari, shakl, metod hamda vositalari to'g'risida ma'lumotlarni berish imkoniyatiga ega. Maktabgacha ta'lim yoshida bolalar hayotida o'yin faoliyati etakchi o'rinni tutadi. Shu sababli ota-onalar fanning imkoniyatlariga tayangan holda bolalarni o'yin faoliyati orqali ijtimoiy munosabatlarga samarali tayyorlash imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" – boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonining mazmuni, qonuniyatlar, tamoyillari, tarkibiy tuzilmasi, shakl, metod va vositalarini o'rganadigan fan bo'lib, u oilada bolalar tarbiyasini tashkil etishda boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning yosh, psixologik xususiyatlariga tayanish imkoniyatini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktab ta'limiga samarali moslashishlarini ta'minlashda ona-onalarga yaqindan yordam beradi. Bu yosh davri bolalarini to'g'ri tarbiyalashda ularning qat'iy belgilangan kun tartibiga ega bo'lishlari, o'qish va o'yin faoliyatini uyg'unlashtira olish maqsadga muvofiqdir.

"Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" – muayyan tizim asosida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli, metod va vositalari, shuningdek, pedagogik fikrlarning paydo bo'lish va rivojlanish tarixini, turli davrlarda bola tarbiyasini tashkil etishga oid bilimlarning shakllanishini tadqiq qiluvchi fan. Ushbu fan oilada farzandlar tarbiyasini tashkil etishda ota-onalarni insoniyat, xususan, o'zbek xalqi tomonidan to'plangan tarixiy tajriba bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qiladi. Xususan, xalq pedagogikasining etakchi g'oyalari, bolalarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash, ularagi salbiy odatlarni bartaraf etishda qo'llaniladigan xalqona pedagogik faoliyatning samarali, shakl, metod hamda vositalar, oilada farzandlar tarbiyasini tashkil etishga nisbatan milliy yondashuvning o'ziga xos jihatlariga oid ma'lumotlar bilan ota-onalarni tanishtirishda "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fani o'ziga xos o'rinni tutadi.

"Ijtimoiy pedagogika" – shaxsni ijtimoiylashtirish qonuniyatlar, voyaga etmaganlar bilan bog'liq ijtimoiy muammolar (pedagogik qarovsizlik, bolalar ichkilikbozligi, voyaga etmaganlar, jinoyatchiligi, giyohvandligi va fohishabozligi kabilalar)ni pedagogik nuqtai nazardan hal qilish, ijtimoiy pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish texnologiyalarini yaratish masalalarini o'rganadigan fan. Oila tarbiyasini tashkil etishda ota-onalarning "o'tish davri" – o'smirlikning o'ziga xos xususiyatlari, bu davrda o'smirlar xulqida kuzatiladigan pedagogik og'ish, o'smirlarni to'g'ri tarbiyalash yo'llari, shakl, metod, vositalari, shuningdek, ularning shaxsida ko'zga tashlanadigan salbiy sifatlarni bartaraf etishga oqilona yondashuv, o'smir hamda o'spirinlarni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etishning pedagogik afzalligi kabilardan xabardor qilishda "Ijtimoiy pedagogika" fani muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, mazkur fan ota-onalarni pedagogik qarovsizlik, bolalar ichkilikbozligi, voyaga etmaganlar, jinoyatchiligi,

giyohvandligi va fohishabozligi kabi salbiy ijtimoiy illatlardan muhofaza qilish, voyaga etmaganlarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirishga oid nazariy hamda amaliy bilimlar bilan qurollantiradi.

“Pedagogik mahorat” – bo'lajak pedagog (o'qituvchilar)da pedagogik jarayonni metodik jihatdan to'g'ri, samarali tashkil etish, o'qituvchi munosabatlarini oqilona yo'lga qo'yish, bo'lajak mutaxassislarini kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlash masalalarini o'rganadigan fan. Ushbu fan asoslari ota-onalarning pedagogik bilimlarini boyitish bilan birga ularda shaxslararo, xususan, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yuksak mahorat bilan tashkil etish ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ota-onalarning pedagogik mahorat asoslaridan xabardorliklari oila tarbiyasini tashkil etishda o'zlari bilan farzandlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarning mehr-muhabbatga, o'zaro yordamga asoslanishini ta'minlab, har qanday ziddiyatni bartaraf etadi. Fanning imkoniyatlaridan foydalanish ota-onalar tomonidan farzandlar bilan bo'ladigan munosabatlarda muloqot uslubi (avtoritar, liberal va demokratik uslubi)ning to'g'ri tanlanishiga olib keladi. Qolaversa, oila sharoitida farzandlarning bilim olishlari va muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishlarida ota-onalarning pedagogik mahorat mohiyatini yorituvchi bilimdonlik, qobiliyat, muloqot, kommunikativ ta'sir ko'rsatish, pedagogik texnika, nutq texnikasi, refleksiya, relaksatsiya, shu bilan birga tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishlari oila tarbiyasining samaradorligini oshiradi.

“Pedagogik konfliktlogiya” – pedagogik konfliktlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida ijobiy xususiyatga ega ziddiyatlarni boyitish, ulardan maqsadli foydalanish, salbiy xarakterdagi nizolarni bartaraf etish yo'llari, tamoyillari, shakl, metod, vosita va texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishni tadqiq etuvchi fan. Ota-onalar pedagogik konfliktlarning mohiyatidan xabardor bo'lar ekanlar, oila a'zolari o'rtasidagi yuzaga keladigan ziddiyatlarni to'g'ri baholash, ijobiy xarakterdagi ziddiyatlardan oila tarbiyasi samaradorligini oshirishda foydalanish, salbiy xarakterdagi nizolarni esa o'z vaqtida aniqlab, tezda bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga “Pedagogik konfliktlogiya” fani ota-onalarga oilaviy munosabatlarni salbiy nizolarsiz yo'lga qo'yishga yordam beradi. Ota-onalarning nizolar to'g'risidagi bilimlariga ega bo'lishlari farzandlarni bolalar jamoasida yuzaga keladigan nizolarga nisbatan to'g'ri yondashishga ham o'rgatishga xizmat qiladi. Shunday vaziyatlar bo'ladiki, farzandlar mustaqil ravishda bolalar jamoasda yuzaga kelgan nizolarni hal qila olmaydi. Ana shu holatlarda ota-onalar ularga amaliy yordam ko'rsatadi. Agarda ularning nizolarning mohiyatiga oid bilimlari etarli bo'lsa, u holda farzndlarga beradigan ko'rsatmalari ham ijobiy natijalarini kafolatlaydi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” – o'quvchilar jamoasida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning shakl, metod va vositalari, ularni tashkil etish, o'tkazish va natijalarini tahlil qilish masalalarini o'rganuvchi fan. Tarbiyasini tashkil etishda ota-onalarning tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga oid pedagogik, metodik bilimlarni puxta o'zlashtira olishlari nihoyatda muhim. Zero, oila pedagogikasining asosini oilada tarbiyaviy ishlarni to'g'ri, samarali tashkil

etish etish tashkil qiladi. Shu sababli ota-onalar har bir xatti-harakatlarining tarbiyaviy mohiyatga, ta'sirga egaligini chuqur anglab etishlari zarur. Albatta, oilada tashkil etiladigan tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy) ishlar ta'lim muassasalarida bo'lgani kabi reja, dastur hamda maxsus tayyorgarlik asosida amalga oshirilmaydi. Oila tarbiyasining murakkabligi, qiyin jarayon ekanligi ham aynan shunda namoyon bo'ladi. Aksincha, ota-onaning yurish-turishi, o'zini tutishi, so'zlari, atrofdagilar bilan muomasi, oila xo'jaligi, hatto kasbiy faoliyatiga bo'lgan yondashuvi ham farzandlarning ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois tarbiyaviy ishlar metodikasiga oid bilimlar ota-onaga o'zlarining yurish-turishi, o'zini tutishi, so'zlari, atrofdagilar bilan muomasi, oila xo'jaligi, hatto kasbiy faoliyatiga bo'lgan yondashuvini ijobiy mazmunga ega bo'lislarni ta'minlashga yordam beradi. Oila davrasida tashkil etiladigan suhbat, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi savol-javoblarda kutilgan natijaga erishish, oila xo'jaligini boshqarish, uni tashkil etishda yoki fanlarni o'zlashtirishda farzandlar o'rtasida o'zaro musobaqalarni uyushtirish, oila hayoti uchun muhim bo'lgan masalalarni muhokama qilish jarayoniga ularning jalb etish katta tarbiyaviy ta'sirga egaligini ota-ona etarli darajada anglay olishi zarur. Bunda, albatta, ota-onalarga "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fani yordamga keladi.

"Umumiy psixologiya" – psixologik hodisalarning umumiyligi qonuniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rgangan holda ruhiyat va shaxs xulq-atvori mohiyati yuzasidan eng umumiyligi tushunchalarni beruvchi fan. Ota-onalarning "Umumiy psixologiya" asoslari borasidagi bilimlarga ega bo'lislari farzandlarning ruhiy holatlari, xulq-atvorlarini to'g'ri baholash, ularda ruhiyat salomatligini ta'minlash, ijobiy xulq-atvorni tarbiyalashga imkon yaratadi. Mazkur fan asoslariga oid bilimlarga ega bo'lislari, shuningdek, ota-onalar tomonidan oilada sog'lom psixologik muhitning yaratilishi, oila a'zolari o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni oqilona tashkil etilishiga zamin yaratadi. Qolaversa, ota-onalarning umumiyligi psixologik bilimlarga egaliklari farzandlarning komil inson bo'lib voyaga etishlarin ta'minlashga erishishda, shuningdek, farzandlarning ruhiyati va xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishda qo'l keladi.

"Ijtimoiy psixologiya" – ijtimoiy sub'ektlarning turli ijtimoiy guruhlardagi xulq-atvori va faoliyati qonuniyatlarini, shuningdek, ushbu guruhlarning psixologik xususiyatlari o'rganuvchi fan. Mazkur fan asoslari ota-onalarga ijtimoiy hamkorlikka asoslangan munosabatlar jarayonida sub'ektlarda yuzaga keladigan g'oya, tasavvur, kechinma, his-tuyg'u hamda kechinmalar, shakllanadigan xulq-atvor mohiyatini anglash imkoniyatini yaratadi. Mazkur bilimlarga tayangan holda ota-onalar oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning farzandlar ongi va xulq-atvoriga ta'sirini etarlicha baholay oladi. Har qanday ijtimoiy munosabatning bola shaxsiga ko'rsatadigan ta'siri yuqori ekanligini anglagan holda bu jarayonda imkon qadar oila a'zolari tomonidan salbiy hissiyotlarni ifodalanishining oldini olish tadbirlarini ko'radilar. Aksincha, ijobiy – o'zaro yordam, bir-birini qo'llab-quvvatlashga, hamdardlikka asoslangan munosabatlarni yanada rivojlantirish choralarini belgilashga urinadilar. Fan asoslarini o'rganish orqali ota-onalar oila muhitida namoyon bo'ladigan har bir munosabatning sabab va oqibatlari o'rtasidagi aloqani anglashni o'rganadilar. Bu boradagi bilimlarning takomillashib

borishi esa oila hayotini, faoliyatini to'g'ri, oqilona tashkil etishga doir tajribaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

“Yosh va pedagogik psixologiya” – individning tug'ilganidan boshlab to keksaligigacha bo'lган ontogenetik rivojlanishi davomidagi shaxs psixologik taraqqiyoti hamda uning shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganuvchi fan¹³. Fan asoslari ota-onalarga turli yoshdagi farzandlar bilan muloqotni tashkil etish, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy, irodaviy sifatlarni, sog'lom ruhiyatni samarali shakllantirishda yordam beradi. Qolaversa, ota-onalar farzandlarni yosh, psixologik xususiyatlariga tayangan holda ularni turli mazmun, yo'nalish va ko'lamdagi ijtimoiy munosabatlarga jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xususan, maktabgacha ta'lrim yoshidagi farzandlar bilan muloqotda ularni ko'proq atrof-muhit bilan tanishtirish, nutqini boyitishga e'tibor qaratsalar, boshlang'ich maktab yoshidagi farzandlarda faoliyat, xususan, o'qish faoliyatiga nisbatan mas'uliyatli yondashish, o'yin va mehnat faoliyati uyg'unligiga erishish orqali esa oddiy mehnat ko'nikmalarining asta-sekin shakllanishiga muvaffaq bo'ladilar. O'smirlarda esa shaxsini shakllantirish ustida ko'proq ishlash, nafaqat mehnat faoliyati, shu bilan birga sport turlari bilan faol shug'ullanishga oid malakalarning shakllanishiga erishsalar, o'spirinlarda kasbiy faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash, qiziqish, xohish-istiklariga tayangan holda muayyan kasb yoki hunar yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislik bilimlarini puxta o'zlashtirishga nisbatan mas'uliyat hissini tarbiyalanishining uddasidan chiqadilar. Shu bilan birga ota-onalarning yosh va pedagogik psixologiyaga oid bilimlari yoshlik, navqironlik va keksalik davrlarida kundalik, ijtimoiy va kasbiy faoliyatni, turli doiralarda kechadigan muloqotni eng maqbul shakllarda tashkil etish borasidagi tajribalarining farzandlarga samarali tarzda uzatilib boradi.

“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” – mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, har tomonlama etuk, komil insonni tarbiyalashga oid yaxlit, izchil ta'lilot mohiyatini yorituvchi fan. Oila – jamiyatning kichik bo'g'ini. Boshqacha aytganda, oilaning o'zi bir kichik jamiyat. Shu sababli oilaning barqarorligi, undagi sog'lom muhit, uning farovonligi bevosita jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy munosabatlarning sog'lomligi hamda mamlakat farovonligini ta'minlashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ota-onalarning fan asoslaridan xabardorliklari oila va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish, oila istiqbolini mamlakat taraqqiyoti bilan bog'liq holda ko'rish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga ota-onalar fan asoslari blan tanishish orqali fuqaro sifatida komil insonni tarbiyalashga mas'ul ekanliklarini anglab etadilar. Turli madaniyatlar qorishuvi, “ommaviy madaniyat” ta'siri, mafkuraviy kurash tobora kuchayib borayotgan mavjud sharoitda oilalarda milliy tarbiyani tashkil etish, farzandlarni turli yot, buzg'unchi g'oyalardan himoyalash, ularni asrlar davomida qadrlanib kelinayotgan an'analar ruhida tarbiyalash yo'llari, metod va vositalaridan xabardor bo'ladilar.

¹³ Большая психологическая энциклопедия Самое полное современное издание. – Москва: Эсмо, 2007. – С. 92.

“Etnografiya” (“Xalqshunoslik”; “ethnos” – qabila, xalq Q “grapho” – yozaman) – jahondagi barcha xalqlarning, etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va ma’naviy taraqqiyot darajasidan qatiy nazar, teng holda o’zaro tafovuti yoki umumiyligi va o’xshashligini, ularning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganuvchi maxsus fan sohasi¹⁴. Ota-onalarning fan asoslari bilan tanishishlari ularning asrlar davomida oila tarbiyasida qo’llanib kelinayotgan milliy tarbiyaviy ta’sir shakllari, metod va vositalardan xabardor bo’lish, shaxsiy faoliyatda ulardan foydalanishlariga yordam beradi. Qolaversa, “Etnografiya” fani asoslari ota-onalarni farzandlarning yosh, psixologik xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlariiga tayangan holda milliy tarbiyaviy ta’sir metod va vositalarini o’rinli, maqsadli qo’llashga o’rgatadi. Natijada ular milliy tarbiyaviy ta’sir metod va vositalarining shaxs kamolotiga ta’sirini to’g’ri baholash, turli vaziyatlarda metod va vositalarni birga qo’llash, bir metod yoki vositani ikkinchisi bilan o’rinli almashtirishga doir ko’nikma, malakalarini o’zlashtiradilar.

“Axloqshunoslik” (“Etika”; lot. “ethica” < yun. “ethos” – urf-odat, xulq-atvor) – axloq va uning shaxs hamda jamiyat hayotidagi o’rnini¹⁵, axloqning shakllanish shart-sharoitlarini va shakllarini o’rganuvchi¹⁶ fan. Ota-onalar tomonidan “Axloqshunoslik” fani asoslarining o’zlashtirilishi ularda farzandlar shaxsida namoyon bo’ladigan ma’naviy-axloqiy sifatlar xususidagi tasavvurlarni, farzandning ma’naviy-axloqiy fazilatlari uning kamolotini belgilovchi asosiy mezonlar ekanligi to’g’risidagi tushunchalarni hosil qiladi. Farzandlarning muayyan ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo’lishi ularning kamoloti darajasini belgilaydi. Shu sababli ota-onalar jamiyat, oila hamda bola mansub bo’lgan mikromuhitda shakllangan munosabatlarning unda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga ta’sirini bilishlari nihoyatda muhim. Qolaversa, farzandlarning shaxs sifatidagi ijtimoiy mavqeい uning borliqqa bo’lgan munosabati bilan belgilanadi. Bolada o’z shaxsiga, atrofdagilarga, tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirishda “Axloqshunoslik” fani asoslaridan ota-onalarning xabardorlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Estetika asoslari” (“Nafosatshunoslik”; yun. “aisthetikos” – his qilish, hissiy idrokka oid) – inson va olam o’rtasidagi qadriyatlari munosabatning o’ziga xos jihatlarini, kishilarning badiiy faoliyati sohasini o’rganuvchi fan¹⁷. Shaxsning ijobiy his-tuyg’ularga, estetik didga ega bo’lishi unda ijtimoiy borliqqa nisbatan samimiyn munosabatni shakllantiradi. Shu sababli bolalarda juda yoshlikdan ijobiy his-tuyg’ularni tarbiyalash, ularning estetik didini o’stirish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarning estetika bilimlaridan xabardor bo’lishlari ular tomonidan farzandlarni ijobiy his-tuyg’ularga boy qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

¹⁴ Ўзбекистан миллий энциклопедияси. Шарқ – Қизилқум / 10-жилд. Тахрир ҳайъати А.Азизхўжаев ва б. – Тошкент: “Ўзбекистан миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – 283-бет.

¹⁵ Ўша манба. – 278-бет.

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрон – X / 5 жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Тахрир ҳайъати: Э. Бегматов ва б. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 61-бет.

¹⁷ Ўзбекистан миллий энциклопедияси. Шарқ – Қизилқум / 10-жилд. Тахрир ҳайъати А.Азизхўжаев ва б. – Тошкент: “Ўзбекистан миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – 269-бет.

Binobarin, shaxsning ijobiyligi his-tuyg'ularga ega bo'lmasligi, ularda ijtimoiy borliqqa, hatto o'z oilasiga nisbatan befarqlikni, e'tiborsizlikni qaror toptiradi. Borliqqa nisbatan befarq, e'tiborsiz shaxsda xudbinlik sifatlari shakllanadi. Bunday shaxsning hayotiy maqsadi – hech bir ijtimoiy majburiyatlarni zimmaga olmagan holda faqat o'zi uchun yashash, o'z ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir. Bu esa insonning ijtimoiy maqomiga ziyon etkazadi. Zero, har bir shaxs shaxslararo munosabatlar jarayonida shakllanadi, ularning ta'sirida muayyan ijtimoiy ong va madaniyatga ega bo'ladi. Jamiyat, oilasi uchun qayg'urmeydigan shaxs ijtimoiy nuqtai nazardan hech bir qiymatga ega bo'lmaydi. Ota-onalarning vazifasi esa farzandlarni jamiyat, oilasi uchun kerakli, ularning manfaatlari uchun kurashadigan faol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. "Estetika asoslari" fani ota-onalarning pedagogik bilimlarini, hayotiy tajribalarini shu nuqtai nazardan boyitishga xizmat qiladi.

"Oila huquqi" – nikoh va oila munosabatlarining huquqiy asoslарини о'рганувчи фан¹⁸. O'zbekiston Respublikasida huquqiy jamiyatni barpo etish jarayonida ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy mohiyatidan xabardor bo'lish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, "Oila huquqi" fani asoslari borasidagi bilimlarni o'zlashtirish orqali ota-onalar farzandlar, ularning kamoloti va taqdiri oldidagi o'z majburiyatlarini chuqurroq anglaydilar. Ota-onalar, ayniqsa, voyaga etmagan farzandlar oldida burchli sanaladilar. Zero, hali dunyoqarashi to'la shakllanmagan, ijtimoiy munosabatlarda mustaqil ishtirok eta olmaydigan farzandlarni har tomonlama, eng avvalo, huquqiy jihatdan muhofazalash majburiyati ota-onalarni ularning tarbiyasiga jiddiy yondashishga undaydi. Qolaversa, ota-onalar oila muhitida ham farzandlarning huquqiy bilimlar bilan tanishtirib borish asosida ularni ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga samarali tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu holat huquqiy jamiyatni barpo etishning eng muhim talablaridan biri bo'lgan – huquqiy madaniyatga ega fuqaroni tarbiyalab voyaga etkazishda o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Fan asoslaridan xabardorlik asosida ota-onalar, shuningdek, farzandlarni oila muhitida huquqiy mazmunga ega ijtimoiy munosabatlar – nikoh va oila munosabatlariga ham tayyorlab boradilar. Voyaga etayotgan yigit va qizning nikoh va oilaviy munosabatlarga fiziologik, jismoniy, ruhiy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tayyor bo'lishida ham ota-onalarning zimmalariga mas'uliyatli vazifalar yuklatiladi. Bu boradagi vazifalarni anglashda ham ota-onalarning "Oila huquqi" asoslari borasidagi bilimlarga ega bo'lislari muhimdir.

"Yosh fiziologiyasi va gigiena" – voyaga etmaganlarni fiziologik jihatdan to'g'ri o'sishlarini ta'minlash, ularda gigienik madaniyatni shakllantirish yo'llari, shakl, metod va vositalarini tadqiq etadigan fan. Globallashuv va texnikaning mislsiz rivojlanishi sharoitida inson salomatligini ta'minlash har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Garchi tibbiyot zamонави yutuqlarga erishayotgan, ijtimoiy sub'ektlarning ishlab chiqarish qobiliyatiga egalik yoshi uzayib borayotgan bo'lsa-da, biroq, voyaga etmagan yigit yoki qizlarning fiziologik

¹⁸ Каримова О., Фоффоров З. Давлат ва хукук асослари / Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 463-бет.

jihatdan to'g'ri tarbiyalanmasligi ularning organizmida muayyan qusurlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'rinda zamonaviy taraqqiyot ta'sirida kelib chiqayotgan – kam jismoniy harakatsizlik, tana vaznining oshishi kabi kasalliklarning oldini olish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Ota-onalar "Yosh fiziologiyasi va gigienasi" fani asoslaridan xabardor bo'lar ekanlar, oila sharoitida farzandlarning gigienasiga alohida e'tibor qaratib, shaxsiy gigienik madaniyatni yoshlikdan shakllantira oladilar. Shu bilan birga o'g'il va qiz bolalarning fiziologik nuqtai nazardan to'g'ri kamolotga etishishlari, reproduktiv salomatlikka ega bo'lishlarini ta'minlashga muvaffaq bo'ladilar.

"Iqtisodiyot asoslari" – iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlarni samarali tashkil etish, shuningdek, oila xo'jaligini oqilona yuritish shartlari, qonuniyatlar, ustuvor tamoyillarini o'rganuvchi fan. Fan asoslarining puxta bilishi ota-onalarga oila iqtisodiyotini samarali boshqarish, oila byudjetini muvaffaqiyatli shakllantirish, uni to'g'ri taqsimlash bilan birga farzandlarni tejamkorlikka o'rgatishga xizmat qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida, ayniqsa, farzandlarni yoshlikdan oila xo'jaligini tashkil etish va boshqarishga o'rgatib borish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Farzandlarni yoshlikdan tejamkorlikka o'rgatib borish ularni mustaqil oilaviy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlashga ham yordam beradi. Oil a'zolari o'rtasida mehnat taqsimotining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, oilaviy munosabatlarning o'zaro yordam, hamjihatilikka asoslanishi esa farzandlarni mehnatsevarlikka, oqibatga, tartib-intizomga, o'zgalar mehnatini qadrlashga, mehnat mahsuli bo'lgan ne'matlarni isrof qilmaslikka o'rgatadi. Bu esa oila tarbiyasini samarali tashkil etishda nihoyatda muhimdir.

Oila pedagogikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari. Oila pedagogikasi fani rivoji oilaviy munosabatlar va farzand tarbiyasidagi muammolarni tadqiq etish maqsadida olib boriladigan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon etkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul va ayni vaqtida samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya masalalariga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzlusizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbliji va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob'ektiv yondashuv;

5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalg etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;

6) tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o'tish;

7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda oila tarbiyasi muammolarini tadqiq etishda quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanilmoqda:

1. Педагогик кузатиш.
2. Сухбат методи.
3. Анкета методи.
4. Интервью методи.
5. Тест методи.
6. Педагогик тажриба методи.
7. Ижтимоий-педагогик ретроспектив метод.
8. Математик-статистик метод

Pedagogik kuzatish. Ushbu metod yordamida tadqiqotchi tomonidan oilda tashkil etiladigan pedagogik (tarbiyaviy) jarayon bevosita yoki bilvosita sinchiklab o'r ganiladi. Pedagogik kuzatish orqali oiladagi tarbiyaviy jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq aniqlanadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil, tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish oila tarbiyasi samaradorligiga erishish, barkamol shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, u holda metodning ahamiyati yanada oshadi.

Oila muammolari yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar jarayonida pedagogik kuzatuv metodini qo'llashda tadqiqotchi samaradorlikka erisha olishi zarur. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Ilmiy tadqiqot metodlaridan biri bo'lgan – suhbat asosida tarbiyani tashkil etish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, oilaviy muammolar echimini topishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo echimiga jalg etishga yordam beradi. Suhbat metodi maqsadga muvofiq holda individual, guruhli va ommaviy shakllarda tashkil etiladi. Uni tashkil etish jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishiga erishish muhimdir. Oila tarbiyasini tashkil etishda suhbat metodini qo'llashda ham muayyan shartlarga amal qilish talab etiladi. Ular quyidagilardir:

- 1) tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash, savollar o'rtasida o'zaro mantiqiy bog'lanish va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan ayrim ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin, batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi. Oila muammolari yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot jarayonida anketa metodi yordamida kuzatish hamda suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Muammo yuzasidan tuzilgan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etish anketa metodiga asoslanadi. Odatda anketa savollariga javoblar yozma holda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa ochiq yoki yopiq savollandan tashkil topadi. Ochiq savollarga asoslangan anketa respondentlarning muammo yuzasidan erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beradigan savollandan tarkib topadi. Yopiq savollarga ega bo'lган anketa bilan ishlashda esa respondentlar "ha", "yo'q", "qisman", "ijobiy", "qoniqarli", "salbiy" va h.k. tarzdagi javob variantlaridan birini tanlaydilar.

Oila masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari jarayonida anketa metodini qo'llashda quyidagi shartlarga amal qilish talab etiladi:

- 1) savollar tadqiq etilayotgan oilaviy muammo mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) savollar yirik hajmli, noaniq bo'lmasligi kerak;
- 3) savollar oilaviy muhitning xususiyatlarni inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) savollar respondentlar tomonidan beriladigan javoblarning to'la bo'lishini ta'minlovchi vaqtini kafolatlay olishi zarur;
- 5) savollarni tuzishda oilaning o'ziga xosligi inobatga olinishi zarur;
- 6) javoblar muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Test metodi. Ilmiy tadqiqot metodlaridan yana biri bu test metodidir. Ushbu metod orqali oila masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqot jarayonida respondentlar tomonidan mavjud nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test metodi:

- 1) ochiq turdag'i testlar;
- 2) yopiq turdag'i testlar;
- 3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollandan iborat bo'ladi.

Metodning afzalligi javoblarning aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi, vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik tahlil. Oila, oilaviy munosabatlar mavzusidagi tadqiqotlarni olib borishda pedagogik tahlil metodidan ham keng foydalilanadi. Uni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik, pedagogik

yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Pedagogik tajriba. Oila muammolari yuzasidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda pedagogik tajriba (eksperiment – lot. “sinab ko'rish”, “tajriba qilib ko'rish”) metodi ham keng qo'llaniladi. Pedagogik tajriba metodidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi va samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo echimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Pedagogik tajribani tashkil etayotgan tadqiqotchi o'zi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodika samaradorligini baholay olishi zarur.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiyl xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ijtimoiy-pedagogik retrospektiv metod. Oila va oilaviy munosabatlar muammolarini tadqiq etishda ijtimoiy-pedagogik retrospektiv metodni qo'llash ham ijobiy natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi. Ushbu metod muayyan shaxs, guruh yoki jamiyatning shakllanish tarixini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, pedagogik ob'ekt (yoki sub'ekt)ni qiyosiy o'rganish va yakuniy xulosalarga kelish imkoniyatini beradi.

Turli oilalarning hayoti, ota-onalar faoliyati bilan tanishish orqali ularning farzandlar tarbiyasini tashkil etishda tarbiya metodlaridan foydalanish tajribalarini o'rganish yoshlar uchun o'ziga xos tajriba maktabi vazifasini o'taydi. Ijtimoiy-pedagogik retrospektiv metodni qo'llashda quyidagi savollardan foydalanish oila tarbiyasida samarali ta'sirga ega metod va vositalardan qay darajada foydalanilaganligini aniqlash imkonini beradi:

1. Bolalarga ta'sir ko'rsatish vositalarining barchasi ham samarali tarbiyaviy ta'sirga egami? Fikringizni misollar yordamida bayon eting.
2. Oilada farzandlarga samarali pedagogik ta'sir ko'rsatishning qanday yo'llari mavjud deb o'ylasiz?
3. Farzandlaringizning harakatlaridan norozi yoki xursand ekanligingizni ularga qay tarzda bildirasiz?
4. Farzandlarning axloqi, xatti-harakatlariga qo'yiladigan talablar turi va shakli jihatdan ko'pligini qanday izohlaysiz? Tarbiya jarayonida ulardan birdek foydalanish maqsadga muvofiqmi? Fikringizni dalillar yordamida asoslashga urinib ko'ring.
5. Farzandlarni mustaqil hayotga tayyorlashni qachondan boshlash zarur? Bu jarayonda qanday usullardan foydalanish samarali hisoblanadi? Hayotiy tajribangizda farzandlarni mustaqil hayotga tayyorlashda qanday usullardan foydalanasiz?
6. Oila sharoitida bolalarda ogohlilik hissini shakllantirishda qanday usullarni qo'llash samarali sanaladi?
7. Uyaltirish metodi qanday vaziyatda samarali tarbiyaviy vosita bo'la oladi? Fikringizni shaxsiy tajribangiz, hayotiy misollar yordamida bayon eting.

8. Bolalarda tadbirkorlik xislatini tarbiyalashda qanday metodik talablarga amal qilish zarur?

9. Ota-onangiz tomonidan Sizga nisbatan qo'llanilgan tarbiya usullarini eslay olasizmi? Ularning qaysi birlaridan amalda foydalanayapsiz?

10. Tajribangizda qo'llanilayotgan ijobiy va salbiy tarbiya metodlarni guruhlab, salbiylarini cheklashga urining.

Matematik-statistik metod. Ushbu metod oila, oilaviy munosabatlar muammolarini tadqiq qilishga doir tajriba-sinov ishlarining, umumiy holda pedagogik tajribaning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Unga ko'ra muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'naliшhda, tadqiqotlar olib borishda Styudent, V.P.Bespalko, V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

Oila, oilaviy munosabatlar masalalari bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlarining quyidagi sxema asosida amalga oshirilishi kutilgan natijaga ega bo'lismi kafolatlaydi: muammoning dolzarbligi; o'rganilganlik darjasasi; tadqiqotning maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifalari, ilmiy farazi, metodlari, metodologik asoslari, ilmiy yangiligi, nazariy ahamiyati, amaliy ahamiyati va tuzilishi.

Demak, oila – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya maskani sanaladi. Oilaning yosh avlod tarbiyasida tutgan muhim o'rni bu muhitda tashkil etiladigan tarbiya mohiyatini o'rganishni taqozo etadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, oila tarbiyasini tashkil etishning samarali yo'llari, ustuvor tamoyillari, shakl, metod va vositalarini o'rganuvchi fan sifatida "Oila pedagogikasi"ning shakllanishi mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yoshlar, qolaversa, ota-onalarning pedagogik bilimlarini boyitishga xizmat qiladi. O'z navbatida fan ijtimoiy, gumanitar, hatto, tabiiy fanlar bilan o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlikda rivojlanadi. "Oila pedagogikasi" fanining istiqboli bevosita oila, oila munosabatlariga oid masalalarda turkum ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishiga bog'liq. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning pedagogik nuqtai nazardan oqilona tashkil etilishi, kutilgan natijalarga erishish ilmiy-pedagogik metodlarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Nazorat uchun savollar:

1. "Oila pedagogikasi" qanday fan?
2. Fanining predmetini nima tashkil etadi?
3. Fan o'z oldiga qo'yilgan qanday vazifalarni hal qiladi?
4. "Oila pedagogikasi" fani bilan "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fani o'rtasida qanday uzviy aloqadorlik mavjud?
5. "Oila pedagogikasi" fani va "Oila psixologiyasi" fanlari o'rtasida aloqadorlik mavjudmi?
6. Oila, oilaviy munosabatlarga doir muammolar qanday ilmiy pedagogik tadqiq metodlari yordamida tadqiq etiladi?

7. Oila pedagogikasi fan sifatida qanday rivojlanib kelmoqda?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. – 52-58-betlar.
2. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur G' O'quv qo'll. – Toshkent: "O'qituvchi", 1999. – 42-50-betlarG'
3. Oila pedagogikasi G' O.Hasanboeva va b. – Toshkent: "Aloqashi", 2007. – 5-16-betlar.
4. Safarov O. Oila ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 14-39-betlar.

Amaliy topshiriqlar:

1. "Klaster" metodi yordamida oilaning umumiy mohitini yoriting!
2. "Oila pedagogikasi" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligini sxema yoki jadval asosida ifodalang!
3. Oila tarbiyasi muammolarini tadqiq etishda keng foydalilaniladigan ilmiy-pedagogik metodlar mohiyatini blits-so'rov metodi yordamida yoritishga urinib ko'ring!

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. Odatda "Klaster" metodi qo'llanilganda akademik guruh talabalarining ikki, uch yoki to'rt guruhga ajratish samarali sanaladi. Talabalarning bu tarzda guruhlanishi: 1) klasterlarning to'laqonli shakllantirilishini ta'minlaydi; 2) ikki, uch yoki to'rtta klasterni bir-biri bilan taqqoslash nisbatan oson kechadi; 3) klasterlar orasidan mazmunan eng to'liq, mukammal bo'lgan variantni ajratib olish qiyin kechmaydi.
2. Sxema, jadval yoki tasvirni shakllantirishga oid topshiriqlarni bajarishda talabalarning kichik guruhrilar yoki juftliklarda ishlashlari maqsadga muvofiq. Zero, bunday holatda ular o'zaro fikr almashish, o'z fikrini qat'iy lashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.
3. Talabalar blits-so'rov metodi yordamida oila tarbiyasi muammolarini tadqiq etishda keng foydalilaniladigan ilmiy-pedagogik metodlar mohiyatini yoritishda ularning har biriga imkon qadar qisqa ta'rif bera olishlari kerak.

M: pedagogik kuzatish – tadqiqotchi tomonidan oilada tashkil etiladigan pedagogik (tarbiyaviy) jarayon bevosita yoki bilvosita sinchiklab o'rganilishini ifodalovchi metod.

Mashg'ulotlar jarayonida talabalar quyidagi metodlar mohiyatini yuqoridagi kabi qisqa ta'riflar asosida yorita olishlari kerak:

1. Suhbat metodi – ...
2. Anketa metodi – ...
3. Intervyu metodi – ...
4. Test metodi – ...
5. Pedagogik tajriba metodi – ...
6. Ijtimoiy-pedagogik retrospektiv metod – ...

ChET ELLARDA OILA PEDAGOGIKASI FANINING RIVOJLANISH TARIXI

Reja:

1. Qadimgi yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga yondashuvlari.
2. Evropa Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tarbiyasi masalalarining yoritilishi.
3. Ma'rifatparvarlarning asarlarida oila tarbiyasiga oid qarashlarning aks etishi.
4. Rus pedagoglarining oila pedagogikasiga oid qarashlari.

Tayanch tushunchalar: qadimgi Yunoniston, qadimgi Rim, Evropa Uyg'onish davri, ma'rifatparvar mutafakkirlar, rus pedagoglari, oila tarbiyasini tashkil etishga tarixiy yondashuv.

Qadimgi yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga yondashuvlari. Oil va oilaviy munosabatlar masalalari juda qadimdan o'rganilib kelingan. Xususan, qadimgi Yunoniston va Rimda davlat boshqaruv tartiblarining joriy etilishi oilaning davlat rivojidagi ahamiyatini asoslab berishni taqozo etdi. Bunday mas'uliyatli vazifa faylasuflar – Suqrot, Arastu, Aflatun, Demokrit, Plutarx, Kvintilian kabi olimlar har tomonlama etarli darajada hal qilib berilgan. Ularning asarlari bilan tanishish shunday xulosaga kelish imkonini beradi. Quyida yuqorida nomlari keltirilgan faylasuflarning asarlarida oila va oilaviy munosabatlar masalalarining o'rni xususida so'z yuritiladi.

Suqrot (mil.av. 447-399 yy.; Afina) – qadimgi yunon mumtoz falsafasining asoschisi, afinalik birinchi faylasuf. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joiz, allomaning fikrlarigina emas, balki o'zi ham bolalarni oilada tarbiyalashda boshqalarga shaxsan ibrat bo'la olgan. Suqrot oilada bolalarni davlat qabul qilgan qonunlarni hurmat qilish, ularga so'zsiz amal qilishga o'rgatishni lozim, deb hisoblaydi. Manbalarda yoritilishicha, allomani dinga qarshi chiqqanlikda ayblab, zindonband etishganda shogirdlari uni zindondan ozod qilish va qochirib yuborish chorasi topganlar. Biroq, faylasuf "Afina qonunlarini tanqid qilib, ularni etuk emas deb bilsam-da, bu qonunlarni afinaliklar qabul qilgan ekan, ularga bo'ysunmaslikka haqqim yo'q. Yoshim bir joyga borganida ularni buzib, avlodlarning tavqi-la'natiga qolmay" deb zindondan qochib ketmagan. Qolaversa, o'ziga chiqarilgan hukmga e'tiroz bildirmay, o'limini ixtiyoriy tan olib, bir qadah zahar ichgan.

Faylasuf o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-ko'y, maydon va hiyobonlarda shogirdlari bilan tashkil etilgan suhbatlar asosida bayon qilganligi sababli uning birorta ham yozma asari mavjud emas.

Suqrotning oila tarbiyasi borasidagi qarashlari uning shogirdlari – Ksenofont, Aristofan va Aflatunlarning asarlari orqali bugungi kunga qadar etib kelgan. Xususan, Ksenofont "Suqrot haqida esdaliklar" asarida o'z ustozи haqida so'z yuritib, uni oliyanob ustoz, axloq-odob borasida tengsiz inson, chin insoniy

fazilatlarni qadrlovchi shaxs sifatida ulug'lagan bo'lsa, Aflatun ham o'z ustozini chuqrul mulohazali, insonni ulug'lovchi donishmand siyosida gavdalantirgan. Aflatuning o'z ustozi borasidagi mulohazalari uning "Suqrot" nomli asarida o'z ifodasini topgan.

Suqrot ta'limotiga ko'ra jamiyatning taraqqiyoti tinchlik, osoyishtalik, farovonligi esa fuqarolarning yuksak axloq, odobga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Shaxsning yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlari oila muhitida shakllanadi. Alloma fuqarolarni oila muhitida bolalarni bilimli qilib tarbiyalashga da'vat etgan. Uning "Kuch – bilimda", "Men faqat hech narsani bilmasligimni bilaman"¹⁹, "Qancha ko'p bilsam, shuncha ko'p bilmasligimni bildim", "O'z-o'zingni anglagin va bilgin", "Kim o'zini yaxshi bilsa, uning uchun nima foydali ekanligini biladi va o'zining nimaga qodirligini-yu, nimani uddalay olmasligini tushunadi"²⁰ kabi g'oyalari faylasuf ta'limotining markazida turuvchi komil inson qiyofasini yoritishga xizmat qiladi.

Aristotel (mil. av. 384-322 yy.) – qadimgi Yunonistonda o'ziga xos falsafiy-pedagogik ta'limot yaratgan mashhur mutafakkir. Uning oila tarbiyasi bilan bog'liq fikrlari, ayniqsa, diqqatga sazovor. Allomaning fikricha, jamiyatni davlatdan ajratib bo'lmaydi. Aristotel jamiyat a'zolarini quyidagi uch toifaga ajratadi:

- 1) boylar;
- 2) o'rta hollar;
- 3) kambag'allar.

Faylasuf boy hamda kambag'allar toifasini xush ko'rmaydi. Zero, uning fikricha, jamiyatdagi barcha noxushliklar, siyosiy beqarorlik, turli tahdidlar aynan shu toifa kishilarining xatti-harakatlari evaziga yuzaga keladi. Aholining eng ideal toifasi – o'rta hol kishilar sanaladi. Ular tufayli jamiyat rivoj topadi, yurtda tinchlik o'rnatiladi, vaziyat barqarorlashadi.

O'z asarlarida oila va oilaviy munosabatlar masalasiga to'xtalib o'tar ekan, faylasuf oila muhitida shaxsda tarkib topadigan ezgu fazilatlarni ham uch guruhga ajratadi. Ular:

- 1) dianoetikaga asoslangan (intellektual) fazilatlar (ular, asosan, ta'lim-tarbiya jarayonida uning natijasi sifatida shakllanadi);
- 2) aqlga asoslangan fazilatlar;
- 3) axloqiy irodaga asoslangan fazilatlar (ular urf-odatlar ta'sirida shakllanadi).

Insonning baxt-saodati haqida fikr-yuritib, mutafakkir uni umrning kuchg'ayrati, energiyasi deya ta'riflaydi. Har qanday shaxs ezgu fazilatlar hamda bu bilan bog'liq ravishda baxt-saodat sohibi bo'la olmaydi. Ezgu fazilatlarni o'zida namoyon qila olgan insongina baxtli, saodatli bo'lishni da'vo qila oladi.

Allomaning fikriga ko'ra, ezgulik ijtimoiy sub'ektlarning tabiatiga xos degan fikr noto'g'ridir. Tabiat ularga faqatgina ezgu fazilatlarga ega bo'lish imkonini beradi. Ularning sohibiga aylanish esa kishilarning o'ziga, ularning xohish-irodasiga, faolligiga bog'liq.

¹⁹ Педагогик маҳорат: схема ва расмларда / Методик кўлл. Н.Эркабоева, М.Усмонбоева, М.Иргашова, Н.Хўжаназарова. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. – 57-бет.

²⁰ Ўша манба. – 56-бет.

Aristotel tarbiya maqsadini inson ruhiyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda belgilaydi. Allomaning yondashuviga ko'ra, aql va irodaning rivojlanishi shaxs rivojining yuqori darajasidir. Shu sababli Aristotel bolalarni tarbiyalashda tabiiylik, tabiat bilan o'zaro uyg'unlik, jismoniy kamolot, axloqiy etuklik va aqliy salohiyatni, qolaversa, ularning yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligini uqtiradi.

Xalqning hafta davomiyligini etti kunga bo'lishiga tayangan holda oila tarbiyasi davrini yigirma bir yil deb belgilaydi. Bu davrni quyidagi uch bosqichga ajratadi:

1-bosqich – tug'ilgandan boshlab etti yoshgacha;

2-bosqich – etti yoshdan o'n to'rt yoshgacha;

3-bosqich – o'n to'rt yoshdan yigirma bir yoshgacha.

E'tiborli jihat shundaki, alloma oila tarbiyasini tashkil etishda har bir yosh bosqichi negizida tarbiya maqsadini aniq belgilashni, mazmunini shakllantirishni hamda metodlarni tanlash oqiolna yondashuv ekanligini qayd etadi.

Aristotel birinchi bosqichda bolalarning tarbiyasida oila muhim o'rinnegallashiga alohida e'tibor qaratadi. Shaxs hayoti davomida nimalarni o'rganishi zarur bo'lsa, go'dakligidan boshlab o'shalarni o'rgatish kerakligi to'g'risidagi g'oya allomaning oila tarbiyasiga doir qarashlari asosini belgilab beradi.

Allomaning fikricha, bolalarning axloqiy tarbiyasi axloqiy mazmundagi xattiharakatlarni mashq qilish (harakatlarni tez-tez ixtiyoriy takrorlash)ga asoslanadi. Bolalarning axloqiy tarbiyasida asosiy mas'uliyat ota-onalarning zimmasida ekanligini ta'kidlar ekan, Aristotel ularning o'zlari ham axloq borasida farzandlarga o'rnak, ibrat bo'lishga chaqiradi.

Aflatun (Pluton; mil.av. 427-347 yy., Afina) – faylasuf, san'atkor, shoir, dramaturg. Attika qiroli sulolasiga tegishli Kodra oilasida tug'ilgan. Onasi Periktiona ham o'z davrining taniqli olimlari Salon va hukmdor Kritiylar sulolasidan bo'lган. Alloma suhbatlar shaklidagi badiiy-falsafiy asarlarni yozib qoldirgan. Uning ma'rifiy-axloqiy qarashlari "Siyosat", "Davlat", "Qonunlar" asarlarida aks etgan. Faylasufning pedagogik va axloqiy qarashlari siyosiy ta'limoti bilan uzviy bog'liq. Aflatun tomonidan "ideal davlat" nazariyasi asoslangan. Ushbu nazariyaga ko'ra jamiyat quyidagi uch tabaqaga ajratiladi:

1) davlat arboblari – faylasuflar;

2) soqchilar (harbiylar);

3) dehqonlar va hunarmand.

Oilalarda ana shu uch tabaqa vakillari shakllantirilishi lozimligi alloma asarning negizini tashkil etadi.

Allomaning fikricha, tarbiyaning mazmuni kattalar ta'sirida bolalarda axloqiylik va oliyjanoblikni shakllantirish g'oyasini ifodalaydi. U bolalarni tarbiyalashda ichki asos – hissiyotning shakllantirilishiga e'tibor berish muhimligini ta'kidlaydi.

Aflatun tarbiyaning eng samarasi vositasi sifatida o'yinni e'tirof etadi. Bundan tashqari bolalarga adabiy asarlarni o'qib berish, hikoya qilish katta ahamiyatga egaligini e'tirof etadi. Materiallarni sinchiklab tanlash badiiy asarlarning bolalar tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'sirini yanada kuchaytiradi, deb hisoblaydi alloma. Faylasufning barcha ma'naviy-axloqiy va siyosiy qarashlari oilada bolalarni

yoshligidanoq ijtimoiy nuqtai nazardan tarbiyalash zarurligini yoritishga xizmat qiladi.

Demokrit (mil.av. 460-370 yy.) – qadimgi yunon faylasufi, atom nazariyasining asoschisi. U o’z asarlarida oilada bola tarbiyasiga boshqa yunon mutafakkirlari singari katta ahamiyat qaratadi.

Alloma “tabiat bilan tarbiya bir-biriga o’xshaydi” g’oyasini ilgari surish orqali tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo’lib kun tartibiga olib chiqadi. “Ta’lim mehnat asosidagina go’zal narsalarni hosil qiladi” mazmunidagi qarashlar esa Demokritning tarbiyada mehnatning roli katta ekanligiga e’tibor qaratganligini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan oila tarbiyasida ham mehnatning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish foydadan holi emasligini uqtiradi. Alloma shaxsdan doimo mehnat bilan band bo’lishni talab qildi. Zero, faylasufning uqtirishicha, shaxs mehnat qilishga odatlanib borgan sari o’zida o’zgacha zavjni tuyadi. Bu borada ota-onalarning farzandlariga o’rnak bo’lishlari shart.

Demokrit bolalarni ularning yoshligidanoq gigienik maqsadlarga erishish uchun ayrim mashqlarni bajarishga o’rgatish, ularning nozik, zaif tanalarini chiniqtirish zarurligini aytadi. Uning fikricha, bolalarga qattiq yig’lash va qichqirishlariga halaqit qilmaslik lozim. Zero, bu holatlar ular uchun o’ziga xos gimnastika hisoblanadi. Bir qadar katta yoshdagilar uchun esa bolalar o’yinlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega²¹.

Ulug’ mutafakkir “insondan inson, hayvondan hayvon tug’iladi, shunga ko’ra yaxshi ota-onadan faqat yaxshi farzandlar tug’ilishi lozim. Tabiat ana shunga harakat qiladi, biroq, bunga hamisha ham erishilavermaydi”²², – deb ta’kidlaydi.

Ota-onalarga bolalarda yaxshi xulq-atvorni hosil qilishda mashq metodidan ko’proq foydalanishni uqtiradi.

Mark Fabiy Kvintilian (eramizning 35-96 yy.) – mashhur rimlik notiq va pedagog. U o’z maktabi tajribalari va antik dunyodagi pedagogik fikrlarga asoslanib, pedagogik masalalarni aks ettirgan birinchi maxsus qo’llanma – “Notiqni tarbiyalash haqida” nomli asarini yaratgan.

Alloma oilada bolalarni tarbiyalashga e’tibor qaratib, bola shaxsining rivojlanishida uning tabiiy qobiliyatlarini hisobga olishga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, “bilishga intilish irodaga bog’liq, majburan o’qitish mumkin emas”²³.

Kvintilian bolalar katta tantanalarda ishtirok etadigan hamda kattalarning nojo’ya xatti-harakatlarining guvohi bo’ladigan Rim jamiyatining yuqori qatlamlaridagi oila tarbiyasini qattiq tanqid qiladi. U ota-onalardan bola ta’sirchan bo’lishi, unda yaxshi va yomonlikning oson ildiz otishini esda tutishni talab qildi va tarbiyachi-pedagoglarni tanlashda ham bunga e’tibor qaratish zarurligini uqtiradi.

Allomaning pedagogik qarashlarida oilada bolalarni notiqlik san’ati asoslarini egallashlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqligiga oid fikrlar ham mayjud. O’tkir xotira, badiylik, to’g’ri talaffuz, yorqin nutq va boy mimika bo’lajak

²¹ Ўша манба. – 65-бет.

²² Ўша манба. – 65-бет.

²³ Квинтилиан. О воспитании оратора. Часть 1. – Москва, Сант-Петербург: 1834г. – С. 3-8.

notiqni shakllantirishda muhim omillar sanaladi. Kvintilianning fikricha, oilada bo'lajak notiqni tarbiyalashda bolalarni she'r yod olishga o'rgatish eng samarali vosita sanaladi. Alloma o'z davrida bugungi kunda ham ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan she'mi yod olish metodikasini asoslagan. Mashhur pedagog birinchi bo'lib, she'r yodlash metodikasini quyidagicha asoslaydi:

1. She'rni to'lig'icha o'qish.
2. She'rni mantiqiy jihatdan qismlarga ajratish.
3. She'rning har bir qismini yodlash.
4. She'rni to'lig'icha ifodali o'qish²⁴.

Mashhur pedagogning fikricha, bolalarning qobiliyatlari quyidagi belgilarda namoyon bo'ladi: kuchli xotira, o'tkir zehn, tezkor fikrlash, egallangan bilimlarni uzoq vaqt saqlash, bolada juda yoshlikdan rivojlangan taqlidchilik²⁵.

Evropa Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tarbiyasi masalalarining yoritilishi. XV-XVII asrlarda G'arbiy Evropada ilm-fan, madaniyat, shu jumladan, san'at va adabiyotda Uyg'onish (Renessans) davri kuzatildi. Evropada Uyg'onish davri o'z-o'zidan sodir bo'lmay, bevosita Markaziy Osiyoda ro'y bergen Uyg'onish davri asosida yuz berdi. Evropa Uyg'onish davri ham o'zida muayyan belgilarni namoyon qildi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- jaholat va mutaassiblikni rad etish;
- insonni ulug'lash; uning iste'dodi, aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;
- antik davr (qadimgi Yunon va Rim) madaniyatini tiklash va boyitish;
- adabiyot va san'atda boqiy dunyoni emas, hayot go'zalliklarini kuylash;
- inson erki uchun kurash.

Tarixdan ma'lumki, XV-XVII asrlarda ilm-fan sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar, Buyuk geografik kashfiyotlar insoniyatning olam, unda kechadigan harakat qonuniyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini o'zgartirib yubordi. Shuningdek, madaniy aloqalarning kengayishi uchun imkoniyat yaratdi.

Evropa Uyg'onishi davrida ilm-fan va madaniyat sohalarida insoniyat tarixiy taraqqiyotiga bebaho hissa bo'lib qo'shilgan ilmiy bilimlar hamda adabiyot, san'at sohalarida durdona asarlar yaratildi. Buning natijasida qadimgi Yunon va Rim madaniyatining qayta tiklanishiga muvaffaq bo'lindi.

Uilyam Shekspir (1564-1616 yy.) Uyg'onish davrining iste'dodda tengsiz vakillaridan biri, aktyor va dramaturg edi. Allomaning asarlari oilada bolalarning tarbiyasini tashkil etishga mas'uliyatli yondashish zarurligini ifodalashga xizmat qiladi. U.Shekspir asarlari yoshlarda qat'iyatlilik, irodalilik, to'g'riso'zlik, jasurlik, shuningdek, xiyonat, sotqinlik va ikkiyuzlamachilikdan nafratlanish, tubanlikka qarshi kurashish kabi sifatlarni samarali tarbiyalashga imkon yaratadi. Adib yoshlarni hayotda baxtli bo'lishga erishish uchun kurashishga, insonni sevishga, qiyinchiliklardan qo'rqlmay ularni mardona engishga da'vat etadi.

Dramaturg asarlarining deyarli barchasida oila va oilaviy munosabatlarning muayyan qirralari yoritilgan. M: "Otello" tragediyasida Otello siymosida ayrim salbiy omillar

²⁴ Ўша манба. – 70-бет.

²⁵ Ўша манба. – 72-бет.

(tuhmat)ning ta'sirida oilaning buzilishi ifodalangan bo'lsa, "Qirol Lir" asarida esa qirol Lirning farzandlari tarbiyasida yo'l qo'ygan xatolarining ayanchli oqibatlari yoritilgan. Qirol Lir farzandlari tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratmaganligi sababli darbadar hayot kechirishga, gadolikka mahkum etiladi. Oilalar o'rtasidagi o'zaro dushmanlik, nafrat, hasad tufayli esa Romeo va Julettalar halok bo'ladi.

Ayni o'rinda shuni aytib o'tish joizki, adib qahramonlarini hech qanday omil "erkinlik" deb ataluvchi yuksak, ezgu, yorug' tuyg'udan voz kechishga majbur qila olmaydi. Adib o'z asarlarida oila muhitida bola har tomonlama shakllanishi uchun uning erkin bo'lishi muhimligi ko'rsatilgan. Qolaversa, shaxsning kamolotga erishishida oilada tashkil etiladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning alohida o'rin tutishi badiiy obrazlar orqali ta'sirchan yoritilgan.

Evropa Uyg'onish davrining yana bir mutafakkiri **Tomas Mor** (1478-1555 yy.)dir. Adib o'zining "Utopiya" asarida shaxsiy manfaat jamiyat rivoji uchun zasarli, aksincha, barcha fuqarolarning ijtimoiy-foydali mehnatda birdek faol ishtirok etishlari ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili ekanligini ta'kidlash orqali ikkita muhim tamoyilni ilgari surgan. Muallif tasavvurlarining mahsuli bo'lgan Utopiya davlati (ilmiy asosga ega bo'lмаган ideal jamiyat)da barcha fuqarolar mehnat qilishga majburdirlar. Bundan tashqari bu kabi jamiyatda ayol va erkak, shuningdek, bolalarning huquqiy jihatdan tengligi e'tirof etiladi, unga ko'ra hatto bolalar ham o'qish bilan mehnatni birga olib borishlari zarur. Tomas Mor o'z asarida bolalarni oilada tarbiyalashda mehnat vositasida, jamoa yordamida va jamoada tarbiyalashning ahamiyatini ko'rsatishga uringan.

Adibning bolalarni ona tilini sevishga o'rgatishni oiladan boshlash muhimligi haqidagi g'oyasi bugungi kun uchun ahamiyatlidir. Shu bilan birga Tomas Mor bolaning sog'lom o'sishi uchun oilada jismoniy tarbiyani yo'lga qo'yish, har qanday yo'nalishdagi tarbiya jarayonida ota-onalarning shaxsiy namuna ko'rsatishlari, farzandlarga hunar sirlarini o'rgatishda ko'rgazmalilikka e'tibor qaratishlari borasidagi fikrlari g'oyat ahamiyatlidir.

Evropa Uyg'onish davrining etakchi siymolaridan yana biri – **Tomazo Kampanella** bo'lib, uning pedagogik g'oyalari "Quyosh shahri" asarida o'z ifodasini topgan.

"Quyosh shahri" ham xuddi Tomas Morning "Utopiya" asari kabi ijtimoiy birlik, mehnatning umumiyligi va majburiylik xarakteriga egaligi tamoyillariga asoslanuvchi, fuqarolari ilm-fan va san'at bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lgan davlat. Tomazo Kampanella Tomas Morga nisbatan bir qadar rivojlangan jamiyatda bolalarni tarbiyalash tizimi xususida so'z yuritadi. Mutafakkirning qayd etishicha, davlat hatto bo'lg'usi avlodning sog'lom bo'lishi uchun erkak va ayolning turmush qurishi haqida qayg'urishi, bu jarayonni nazorat qilishi zarur.

Tomazo Kampanellining fikricha, bolani ikki yoshidan boshlab ijtimoiy munosbatlarga tayyorlashni boshlash, uch yoshida ko'rgazmali vositalardan samarali foydalangan holda to'g'ri talaffuz qilishga, alifboni o'rganishga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Shu davrlarda bolalarning jismoniy tarbiyasini kuchaytirish, sakkiz yoshidan boshlab esa ularni tizimli ravishda o'qitishni boshlash kerak. O'g'il bolalar o'n to'qqiz yoshga to'lgach, harbiy tayyorgarlik ko'nikmalarini o'zlashtira olishi zarur. Mutafakkir o'z asarlarida hatto ayollarga ham harbiy ta'lim berishni ijtimoiy zaruriyat deb hisoblaydi. Buning sababi urushlar sharoitida

ularning ham ishtiroki mumkinligidir. Qisqa qilib aytganda, T.Kampanellining g'oyalari oila tarbiyasi bilan ijtimoiy tarbiyani o'zaro uyg'un holda olib borishni targ'ib etadi.

Ma'rifatparvarlarning asarlarida oila tarbiyasiga oid qarashlarning aks etishi. XVI asrdan boshlab o'zida mualliflarning hayotiy tajribalari asosida Evropada bevosita ta'lism hamda bolalarni to'g'ri tarbiyalash masalalarini yoritgan asarlar yaratila boshlandi. Ularning mualliflari "ma'rifatparvarlar" deb nomlandi. O'rta asr ma'rifatparvarlari orasida chex pedagogi, "Didaktika" fanining asoschisi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yy.) alohida o'rinn tutadi. 1627 yilda pedagogik faoliyatini boshlagan Ya.A.Komenskiy 1632 yilda "Chex didaktikasi" asarini yaratdi. 1633-1638 yillarda esa ushbu asarni qayta ishlab, lotin tiliga tarjima qildi va uni "Buyuk didaktika" deb nomladi. Mazkur asar ma'rifatparvarning mumtoz asari hisoblanadi.

Asarda har bir inson hayoti uchun muhim masalalar xususida so'z yuritilgan. Pedagogning keyingi faoliyatida ushbu masalalar yanada rivojlantirilib, ular negizida qator darslik va qo'llanmalar yaratildi. "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi" (1631 y.), "Fizika" (1633 y.), "Astronomiya" (1632 y.), "Onalar maktabi" (1632 y.) va b. asarlar shular jumlasidandir.

Ya.Komenskiyning shaxs ta'limi va tarbiyasini tashkil etishdagi buyuk xizmati oila va maktab tarbiyasini o'zaro uyg'unlashtirish muammosining ilmiy jihatdan asoslab bergenligi bilan belgilanadi. Ya.A.Komenskiy yashagan davrga qadar bolalar tarbiyasi, asosan, ikki muhit – mакtab va oilada amalga oshirilar edi. Buyuk pedagog oilaning tarbiyaviy imkoniyatini, ota-onalarning tarbiyachi sifatidagi maqomiga daxl qilmagan holda yosh avlodni maktabda o'qitish va tarbiyalashning afzalligini asoslashga urindi. O'z yondashuvining to'g'rilingini Ya.A.Komenskiy "Buyuk didaktika" asarining VIII bobida shunday izohlaydi: "Ota-onalar va ularning kasbi turlicha bo'lganligi sababli o'z bolasini tarbiyalash qo'lidan keladigan yoki ishdan so'ng etarlicha vaqt ajratib, bola tarbiyasi bilan shug'ullanadiganlar juda kam topiladi. Shuning uchun ham necha asrlardan buyon ko'pchilik oilalar o'z bolalarini biliimli, og'ir tabiatli maxsus kishilarga berib o'qitib kelmoqdalar. Yoshlarni tarbiyalovchi bunday kishilar, odatda, ustoz, tarbiyachi, muallim, professor deb atab kelinadi, bolalarni to'plab birga mashg'ulot o'tkazadigan joyni esa mакtab, o'quv yurti, auditoriya, kollegiya, gimnaziya, akademiya va h.k. deb ataladi"²⁶.

"Buyuk didaktika" asarining IX bobida o'g'il bolalar bilan bir qatorda qiz bolalarni ham o'qitish zarurligi asoslab berilgan: "Maktablarda faqat boylar va aslzodalarning bolalarinigina emas, balki umuman hammani: barcha shahar va qishloqlardagi aslzodalar va oddiy xalqni, boylar va kambag'allarni, o'g'il va qiz bolalarni ham o'qitish zarur".

Qizlarni ham maktablarda o'qitish zarurmi, degan savolga Ya.A.Komenskiy shunday javob beradi: "Xotin-qizlar erkaklar singari, ko'p holatlarda esa

²⁶ Коменский Я.А. Буюк дидактика. Изб.пед.соч. В.2 том. 1982. Т 1. – с 384.

erkaklardan ham ko'ra o'tkir aql-idrokka ega, erkaklar qatori eng yuqori lavozimlarni bajarib kelmoqda.

Buyuk pedagog shaxsnинг rivojlanish bosqichlarini quyidagi to'rt davrga bo'ladi:

- 1) go'daklik;
- 2) bolalik;
- 3) o'smirlilik;
- 4) etuklik²⁷.

Har bir davr olti yilni o'z ichiga oladi. Har bir yosh davriga mos keladigan mакtab mavjud bo'lishi kerak. Xususan, go'daklik davri uchun – ona maktabi, bolalik davri uchun – boshlang'ich mакtab (ona tili maktabi), o'smirlilik davri uchun – lotin maktabi yoki gimnaziya, etuklik davri uchun akademianing bo'lishi maqsadga mvofiqdir.

Ya.Komenskiyning fikricha, har bir oila, har bir xonodon "ona maktabi" hisoblanadi, zero, tarbiya dastlab oilada beriladi. "Ona tili maktabi" esa har bir jamoada, har bir qishloqda, gimnaziya – har bir shaharda, akademiya har bir davlat yoki viloyatda bo'lishi zarur.

Buyuk pedagog qanday qilib bolada o'qishga ishtiyooq uyg'otish mumkin, degan savolga quyidagicha javob beradi: "Bolalarda o'qishga nisbatan ishtiyoqni uyg'otish va uni saqlab qolish ota-onalar, mакtab, o'quv fanlari, o'qitish metodi va mакtab boshliqlariga bog'liq... Agar ota-onalar bolalarning ko'z oldida donolik va donishmandlar to'g'risida yaxshi gaplar aytishsa, yaxshi kitob, chiroyli kiyim yoki boshqa yaxshiroq narsalar olib berishni va'da qilib, bolaning g'ayratini oshirsa, ayniqsa, bolani o'qitishi lozim bo'lgan muallimning bilimdonligi va xushmuomalaligini maqtashsa (axir, sevish va qoyil qolish taqlid qilishning eng samarali vositasi hisoblanadi); nihoyat boladan ba'zan muallimga biror topshiriq yoki kichik sovg'a bilan yuborib turishsa va h.k. bolalar fanni ham, ota-onani ham astoydil sevib qoladilar".

Umuman olganda, Ya.A.Komenskiy bolalarga ta'lim va tarbiya berishni ilmiy jihatdan birinchi bor asoslab berar ekan, bu jarayonda oilaning, ota-onaning rolini asosli ravishda ko'rsatib bera oldi.

XVII asrning oxiri va XVIII asr boshlarida G'arbiy Evropada absolyutizm va feodal tartiblar tanqid qilinib, ilm-fan va maorif keng targ'ib qilindi. Ijtimoiy fikr borasidagi bu yo'nalish "ma'rifat" deb atalib, uning vakillari tarixga "ma'rifatparvarlar" nomi bilan kirdilar. Ma'rifatparvarlar eski tartiblarni bekor qilishga, yangi ilg'or tartiblarni joriy qilishga qaratilgan g'oyalarni ilgari surdilar.

Ana shunday ma'rifatparvarlardan biri ingliz faylasufi **Jonn Lokk** (1632-1704 yy.) sanaladi. Jonn Lokk o'zining pedagogik qarashlarini "Tarbiya haqida ayrim fikrlar" (1963 y.) asarida bayon etgan.

Jonn Lokk o'z pedagogik qarashlarida bolalarni ham oilada, ham mакtabda tarbiyalash zarurligiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, bolada axloqiy sifatlarni oila muhitida hosil qilish samarali bo'lsa, mакtab bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.

²⁷ Коменский Я.А. Буюк дидактика. Изб.пед.соч. В.2 том. 1982. Т 1. – с 384.

Ma'rifatparvar oilada bolalarni tarbiyasini yo'lga qo'yishda jismoniy tarbiyaga katta ahamiyat berdi. "Salomatlik bizga kasbiy faoliyatimiz muvaffaqqiyati uchun zarur", – deb ta'kidlash bilan birga o'sha davr uchun o'ta mukammal bo'lган tizimni taklif etdi. U bolalarni yoshlikdanoq charchoq, qiyinchilik, g'am-g'ussani oson engib o'tishga tayyorlab borishni muhim deb hisobladi. Jonn Lokk bola hayotida qat'iy belgilangan tartibning ahamiyatini yuqori baholaydi. Shu bilan birga pedagog ota-onalarga turli yoshdagি bolalarni kiyintirish, ovqatlantirish yuzasidan maslahatlar beradi. Pedagog bolani erkalatib o'stirishni zararli deb hisoblaydi va bunday yondashuvga qarshi turdi.

Uning fikricha, bolalarni oila muhitida tarbiyalashda eng muhim shart ularda ijobjiy odatlarni tarkib toptirishdir: "Agar siz ularni nimagadir o'rgatish muhim, deb hisoblasangiz, buni amaliyot vositasida hodisalarni hosil qilish yo'li bilan tarkib toptiring! Odatlarni tarbiyalash ilk bolalikdanoq boshlanishi zarur".

Bundan tashqari, Jonn Lokk tarbiyada ijobjiy natijalarga erishish uchun ota-onalar bolaning individual xususiyatlarini o'rganishlari, ularning qiziqishlaridan etarli darajada xabardor bo'lislari kerakligini alohida ta'kidlaydi.

Evropada ma'rifat g'oyalaring targ'ib etilishida frantsuz mutafakkiri, gumanist va demokrat **Jon-Jak Russo** (1712-1778 yy.) ham o'ziga xos o'rın egallagan. Uning erkin tarbiya borasidagi g'oyalari 1762 yilda nashr etilgan "Emil yoki tarbiya haqida" asarida o'z aksini topgan. U ham boshqa ma'rifatparvarlar singari oilada bolani tarbiyalashda yosh va individual xususiyatlarni hisobga olishni, bolani har tomonlama chuqur o'rganishni talab qildi.

Jonn Jak Russoning fikricha, bola tabiat etuklikni aks ettira olishi, uning o'zida tabiiylikni namoyon eta olishi uchun g'amxo'rlik qilish zarur. Ota-onalar yoki tarbiyachi o'z qarashlari, e'tiqodlari yoki tayyor axloqiy qoidalarni bolaning ongiga singdirishi kerak emas, balki unda tabiat tomonidan inom etilgan xususiyatlarning tobora rivojlanib, boyib borishi uchun imkoniyat yaratib berishi lozim. Tabiiy tarbiya – erkin tarbiyadir.

Ko'pchilik ma'rifatparvarlar singari Jonn Jak Russo ham shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi quyidagi to'rt davrni ajratib ko'rsatadi:

1-bosqich – tug'ilgandan ikki yoshgacha, to nutq hosil bo'lгungacha bo'lган davr. Bu davrda bolaning jismoniy tarbiyasiga e'tibor qaratish lozim.

2-bosqich – ikki yoshdan o'n ikki yoshgacha bo'lган davr. Jonn Jak Russo bu davrni obrazli tarzda "bolaning aqlga ega bo'lisl davri" deb ataydi.

3-bosqich – o'n ikki yoshdan 15 yoshgacha bo'lган davr. Bu yoshda asosiy e'tiborni bolalarning aqliy jihatdan rivojlanishiga va ular tomonidan mehnat ko'nikmalarining o'zlashtirilishiga qaratish zarur.

4-bosqich – 14 yoshdan balog'atga etgungacha bo'lган davr. Jonn Jak Russoning iborasi bilan aytganda, bu bosqich "shiddat va tug'yon davri" sanaladi.

Jonn Jak Russo o'zining "Emil yoki tarbiya haqida" asarida qizlar tarbiyasiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Jonn Jak Russoning fikricha, ona bo'lisl uchun qizlar ro'zg'orni yurita olishlari, oilada saranjom-sarishtalikka erishishlari, kiyinish, yurish-turish va muomalada turmush o'rtog'iga yoqa olishlari kerak. Qizlarning tarbiyasida o'g'il bolalarning tarbiyasida qo'llaniladigan farq usullardan foydalanishga e'tibor qaratish lozim. Oila muhitida qizlarni tarbiyalashda ularda

itoatkorlikni, garchi ularga yoqmasa-da, biroq, shaxsiy faoliyatni tashkil etishda boshqalarning nuqtai nazarlarini inobatga olish ko'nikmasini tarbiyalash kerak.

Ma'rifatparvarning fikricha, ayol go'zal, latofatlari bo'lishi, sog'lom, ruhan tetik, jismonan baquvvat bolalarni dunyoga keltira olishi uchun jismoniy mashqlarni bajarishi, jismoniy mehnat bilan shug'ullanishi zarur. Qizlarning voyaga etishlarida jiddiy aqliy mashg'ulotlar ular uchun ahamiyat kasb etmaydi. Jonn Jak Russoning qizlar tarbiyasiga oid qarashlarida ayollarning mustaqilligi, erkinligiga nisbatan konservativ yondashuvi inobatga olinmasa, boshqa barcha fikrlari amaliy xarakterga ega.

Evropa ma'rifatparvarlari orasida **Iogann Genrix Pestalotstsi** (1746-1827 yy.)ning nomi alohida qayd etiladi. Zero, shveytsariyalik bu pedagog-demokrat o'zining butun hayotini xalq bolalarini tarbiyalash va o'qitish ishiga bag'ishlagan. Uning "Lingard va Gertruda" (1781-1787 yy.), "Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi", "Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma" kabi asarlarida oilaning bola tarbiyasidagi o'rni, onaning bu boradagi namunasi bayon etilgan.

Iogann Genrix Pestalotstsining fikricha, tarbiyaning maqsadi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirish, o'stirganda ham bir-biriga uyg'un ravishda o'stirishdir. Tarbiyaviy omilning bolaga ko'rsatayotgan ta'siri uning tabiatiga uyg'un bo'lishi lozim.

Pedagog tarbiyaning mohiyati to'g'risidagi o'z tasavvurlariga asoslangan holda tarbiyaning yangi, ya'ni, shaxsning tabiatiga muvofiq holda uning kuchi, imkoniyatlarini rivojlantirib borishga yordam beruvchi metodlarni yaratishga intiladi. Iogann Genrix Pestalotstsi ham boshqa pedagoglar kabi bolani tarbiyalashni uning tug'ilgan kundanoq boshlash lozimligini uqtirib o'tadi: "Bola tug'ilgan soat unga ta'lim berishning birinchi soatidir". Shu sababli pedagog chinakam pedagogika onani to'g'ri tarbiyalash metodlari bilan qurollantirishi lozim, deb hisoblaydi. Pedagogika san'ati esa tarbiya metodikasini har bir ona, shu jumladan, oddiy dehqon ayoli ham egallab oladigan darajada soddalashtirib bera olishi lozim. Tabiatga muvofiq tarbiya oilada boshlanib, mакtabda davom ettirilishi kerak.

Iogann Genrix Pestalotstsi tarbiyaning asosiy vazifasini kelgusida ijtimoiy jihatdan foyda keltira oladigan hamda har jihatdan uyg'un kamol topgan insonni tarbiyalab voyaga etkazishdir, deb hisobladi. Bolalar boshqalarga foyda keltiradigan ishlarga jalb etilib, bu borada izchil mashq qildirish yo'li bilan axloqiy jihatdan kamolotga etkaziladi. Pedagogning fikricha, organizmning tabiiy ehtiyojlarini qondirish asosida bolada onaga nisbatan tug'iladigan mehr-muhabbat axloqiy tarbiyaning eng oddiy ko'rinishi (elementi)dir. Bolaning axloqiy etuk bo'lishi uchun oila muhitida asos solinadi. Bolaning o'z onasiga bo'lgan muhabbati asta-sekin oilaning boshqa a'zolariga nisbatan ham namoyon bo'la boshlaydi.

Qisqa qilib aytganda, Iogann Genrix Pestalotstsi oilada shaxsning barcha tabiiy kuchi va qobiliyatlarini uyg'un qilib o'stirishni tarbiyaning asosiy vazifasi deb hisoblaydi. Pedagogning bolani jismoniy, axloqiy va aqliy jihatdan etuk qilib tarbiyalashga oid fikrlari bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Polyak pedagogi, bolalar yozuvchisi bo'lgan **Yanush Korchak** (taxallusi; haqiqiy ismi va familiyasi – Genrix Goldshmit; 1879-1942 yy.) tibbiy ma'lumotga egaligi sababli dastlab Varshava shahrida bolalar shifokori sifatida faoliyat ko'rsatgan. So'ngra bolalar koloniyalarida tarbiyachi lavozimida ishlagan. 1911 yilda Varashavadagi "Bolalar uyi" direktori lavozimiga tayinlandi. Ya.Korchak o'zining tarbiyaviy kontseptsiyasini II Jahon urushi vaqtida frontda "Bolalarni qanday sevmoq kerak?" ("Kak lyubit detey?") nomli asarida bayon etdi. XX asrning 20-30-yillarida tarbiya masalalarini o'zida qamrab olgan maqolalar hamda bolalar uchun badiiy asarlar yaratdi. Uning eng mashhur asarlari – "Qirol Matiush II" ("Korol Matiush II"; 1923 y.), "Qachon men qaytadan bolaga aylanaman?" ("Kogda ya snova stanu malenkim?"; 1925 y.), "Qaysar bola. L.Pasterning hayoti" ("Upryamo'y malchik. Jizn L.Pastera"; 1938 y.) kabilar sanaladi.

Ya.Korchak tomonidan ilgari surilgan pedagogik kontseptsiyaning asosini har bir bola shaxs sifatida qadr-qimmatga ega g'oyasi tashkil etadi. Tarbiyaning maqsadi esa – har bir bolaning qobiliyatini erkin, to'laqonli rivojlantirish, uning shaxsini ezgulik, go'zallik, erkinlik g'oyalari asosida shakllantirish. Tarbiyaning zarur sharti sifatida Ya.Korchak oilada samimiylilik, o'zaro ishonchga asoslangan sog'lom muhitni yaratish, bolani turli zo'ravonliklardan himoya qilish deb hisoblaydi. Pedagogning tarbiyaviy tizimlari negizini bolaning o'z-o'zini anglashi, baholashi, nazorat qilishi va o'z-o'zini takomillashtirishiga imkon beradigan iroda va uni shakllantirish tashkil etdi. Tarbiyachi, qolaversa, "Bolalar uyi"ning rahbari sifatida Ya.Korchak o'z faoliyati va asarlarida demokratik g'oyalar hamda o'z-o'zini boshqarishga asoslangan bolalar jamoasini shakllantirishga asosiy e'tiborni qaratadi.

Rus pedagoglarining oila pedagogikasiga oid qarashlari. Mashhur rus yozuvchilari – A.I.Gertsen, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy va N.A.Dobrolyubovlar taraqqiyotparvar shaxslar sifatida jamiyat hayotiga daxldor, xususan, oila tarbiyasi samaradorligini oshirishga doir ilg'or fikrlarni ilgari surishgan. Boshqa ma'rifatparvarlarning pedagogik yondashuvlaridan farqli ular oila tarbiyasining imkoniyatlarini yanada keng, alohida ajratib ko'rsatishga uringanlar.

Aleksandr Ivanovich Gertsen (1812-1870 yy.) o'z davrida birinchilardan bo'lib, dvoryan oilalarida bolalarni o'qitish va tarbiyalashga yo'naltirilgan harakatlarning tashkil etilishini keskin tanqid qildi. Adib dvoryan oilalarida yo'lga qo'yilayotgan tarbiyani "qullik va mustabidlik maktabi" deb nomladi. Obrazli ravishda bunday oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarni zamonaviy liboslar osib qo'yilgan garderobga qiyosladi. A.I.Gertsning fikricha, dvoryan oilalaridagi tarbiyachilar "bolalarning qotillari" bo'lib, ular bolalarni aqliy va axloqiy jihatdan nopol qilib o'stiradilar, xolos.

Adib oila tarbiyasini "muhim ahamiyatga ega ijtimoiy ish", deb baholaydi. Shu sababli ota-onalar bolalarni tarbiyalash borasida jamiyat oldida majbur, burchli ekanliklarini qayta-qayta uqtiradi.

A.Gertsen ayollarning erkaklar bilan ijtimoiy tengligining tarafdori edi. U ayollarning faoliyati faqat bolani tarbiyalash bilan chegaralanmasligi ta'kidlaydi: "Ayollarning oilaviy vazifasi har qanday holatda ham uning ijtimoiy roliga ta'sir

etmaydi. Dunyo erkaklar singari ayollar uchun ham birdek ochiq”. Adibning qayd etishicha, ayollarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki uning tarbiyaviy rolini kuchaytirishgagina xizmat qiladi. Bundan tashqari, u ayollar to’laqonli ta’lim olishlari kerak, degan g’oyani yoqlab chiqqan.

Otaning bola tarbiyasidagi roli nihoyatda mas’uliyatli, bolalarning taqdiri otaga bog’liq ekanligini uqtirgan A.Gertsen o’z bolalarining tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratdi: “Agar bolalar yomon yo’lga kirib ketishsa, bu mening aybim bo’ladi”. Adib farzandlarining tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratdi, ular uchun tarbiyachilarni o’zi tanladi, doimiy ravishda ularning faoliyatini kuzatib bordi va yo’l qo’ygan xatolarni to’g’rilashga harakat qildi.

A. Gertsen asosiy e’tiborni tarbiyaning g’oyaviy mohiyatiga qaratib, barcha imkoniyatidan foydalangan holda farzandlarining vatanparvar, insonparvar, o’zgalarga g’amxo’r, mehribon, shaxsiy orzu-umidlarga nisbatan esa sadoqatli bo’lib voyaga etishlari uchun harakat qildi.

Adib har bir oilaning muayyan qadriyatlarga ega bo’lishi muhimligini, buning uchun ota-onalar va farzandlar, oilaning barcha a’zolari o’rtasida o’zaro hurmat, mehr-muhabbatni shakllantirish zarurligini qayd etgan. Bolalar yoshligidanoq bir-birlariga, oilaning barcha a’zolariga nisbatan muhabbatlarini namoyon eta olish, yaqin kishilar haqida g’amxo’rlik qilishlari kerak.

A.I.Gertsenning bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini, ongli xulq-atvorni shakllantirish oilaning asosiy vazifasi ekanligi borasidagi fikrlari bugungi kun uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir.

Rus pedagoglari orasida **Konstantin Dmitriy Ushinskiy** (1824-1870 yy.) munosib o’rin tutadi. Pedagogik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan qo’shib olib borgan K.D.Ushinskiy “Bolalar dunyosi” (“Detskiy mir”), “Muallimlar uchun qo’llanma” (“Posobie dlya uchiteley”), “Shaxs – tarbiya predmeti sifatida” (“Pedagogik antropologiyadan tajriba”) kabi asarlarida oila va uning bola tarbiyasidagi o’rnii masalasi batafsil yoritilgan.

K.Ushinskiy muktabgacha ta’lim va tarbiyaning tabiiy vositasi – oila deb hisobladi. Binobarin, oilada bolalar borliq haqidagi dastlabki tushunchalarga ega bo’ladi, eng oddiy bilim va ko’nikmalarini egallaydi, odatlarni o’zlashtiradi, o’z qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bola shaxsining rivojlanishida ota-onalar va tarbiyachilar asosiy rolni o’ynaydi, ularning hayoti, faoliyati, xulq-atvori, muomalasi bolalar uchun namuna bo’lib xizmat qiladi. Mas’uliyatli fuqarolik burchlarini bajarish uchun ota-onalar bolalarga nisbatan g’amxo’rliklarini ijtimoiy ahamiyatlari talablar bilan uyg’unlashtira olishga erishishlari lozim. Buning uchun ota-onalar pedagogik bilimlarga ega bo’lishlari, pedagogik adabiyotlar bilan tanishib borishlari, tarbiyaviy ish uslubini, tarbiyachilarni to’g’ri tanlay bilishlari, farzandlarining kelgusi hayot yo’lini aniqlashga ongli yondasha olishlari lozim.

Rus yozuvchisi **Natalya Grigorvna Dolinina** (1928-1979 yy.) ham o’z ocherklarida oila sharoitida bolalarni axloqiy tarbiyalash masalalarini keng yoritdi. Adibaning pedagogik g’oyalarni o’zida aks ettirgan asarlari sirasida quyidagilarni sanab o’tish mumkin: “Mening o’quvchilarim va ularning ota-onalari” (“Moi ucheniki i ix roditeli”; 1959 y.), “Non qancha turadi?” (“Skolko stoit xleb?”; 1963 y.), “Kattalar yoki bolalar?” (“Vzroslo’e ili deti?”; 1965 y.), “Qadrli ota-onalar”

(“Dorogie roditeli”; 1975 y.), “Oneginni birgalikda o’qiymiz” (“Prochitaem “Onegina” vmeeste”; 1968 y.), “Pechorin va bizning davr” (“Pechorin i nashe vremya”; 1970 y.) kabi ocherklar, “Biz Seryoja bilan egizakmiz” (“Mo’s Serejkoy bliznetso””; 1962 y.), “Turli odamlar” (“Razno’e lyudi”; 1976 y.) kabi qissalar; “Ota” (“Otets”; 1974 y.) nomli avtobiografik qissa.

Xulosa qilib aytganda, oila tarbiyasi va uni samarali tashkil etish masalasi xorijiy mamlakatlarida barcha davrlar uchun muhim ijtimoiy muammolardan biri sifatida e’tirof etib kelingan. Har bir davr va makonda ham jamiyatning ilg’or kishilari – mutafakkirlar, ma’rifatparvarlar va pedagoglar bolalarni oila sharoitida tarbiyalash, bu borada yuqori samaraga erishish masalalarini tadqiq etishga jiddiy e’tibor qaratganlar. Ular tomonidan yaratilgan aksariyat asarlarda oila tarbiyasining samarali tashkil etilishi ijtimoiy taraqqiyotni kafolatlashi, shu sababli bolalar tarbiyasini tashkil etishda ota-onalarning mas’ul ekanliklari bayon etilgan. Ota-onalar tomonidan bolalarning etuk shaxs sifatida tarbiyalashga erishilishida ularning pedagog bilimlarga ega bo’lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ular pedagogik bilimlarni o’zlashtirish orqali bolalarni oila muhitida etuk shaxs qilib tarbiyalashga imkon beradigan samarali metod va vositalardan xabardor bo’ladilar.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Yunoniston va Rimda qaysi mutafakkirlarning asarlarida oila tarbiyasi masalasiga e’tibor qarilgan?
2. Suqrot, Aristotel, Platon va Demokritlarning qaysi asarlarida oilada bolalarni tarbiyalash masalalari yoritilgan?
3. Evropa Uyg’onish davri mutafakkirlarining qaysi asarlarida oila tarbiyasi muammolari bayon etilgan?
4. U.Shekspir va T.Kampellinning oilada farzandlarni tarbiyalashga oid qanday g’oyalari bilan tanishsiz?
5. Evropa ma’rifatparvarlari orasida kimlar oila tarbiyasi masalariga o’z asarlarida alohida e’tibor qaratgan?
6. Rus pedagoglari orasida kimlarning oila tarbiyasi va uni samarali tashkil etish g’oyalarini o’zida aks etirgan asarlari mashhur?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Pedagogika tarixi G’ K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov. – Toshkent: O’qituvchi, 1996.
3. Istorya pedagogiki G’ http: G’G’ top. 100. rambler.ru.
4. Trotsyan V. Istorya obrazovaniya i pedagogicheskoy mo’sli. – Moskva: Eksmo, 2006.

Amaliy topshiriqlar:

1. Qadimgi yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga yondashuvlari asosida jadval shakllantiring. Unda Qadimgi yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga yondashuvlarini ifodalovchi eng muhim g'oyalalar tezis sifatida aks etsin.

2. Ulug' dramaturg Uilyam Shekspirning "Qirol Lir" hamda Onore de Balzakning "Gorio ota" nomli asarlari bilan tanishib, garchi o'zi mamlakat qiroli bo'lsa-da, farzandlarining kirdikorlaridan aziyat chekkan qirol Lir va qizlariga haddan ziyod mehr ko'rsatsa-da, umrining so'nggi kunlarini ularning diydoriga zor holda muhtojlikda o'tkazgan Gorio otaning qismatini solishtiring. Qirol Lir va Gorio otalarning fojiasi nimada ekanligi haqida o'ylab ko'ring.

3. Buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asari yoshlarni tarbiyalovchi kishilarning ustoz, tarbiyachi, muallim, professor deb atalishi, bolalar to'planib birgalikda mashg'ulot o'tkazadigan joyning esa mакtab, o'quv yurti, auditoriya, kollegiya, gimnaziya, akademiya va h.k. deb atalishini ta'kidlab o'tgan edi. Ya.A.Komenskiy yashagan davr (XVII asr) nuqtai nazaridan bolalarning oiladan ko'ra ta'lif muassasalarida tarbiyalanishi tobora keng yoyilishining asosiy sabablarini yoritishga harakat qiling. Siz qanday fikrdasiz, ushbu hodisa ota-onalar zimmasidan farzand tarbiyasi borasidagi mas'uliyatning soqit etilishi uchun asos bo'ldimi? Farzand tarbiyasining asta-sekin to'la ravishda ta'lif muassasalari zimmasiga yuklanishi G'arb mamlakatlarida kuzatilayotgan oilaning qadrsizlanishi, ajralishlar sonining keskin oshishi, g'ayriaxloqiy hodisa – bir jinsli nikohning paydo bo'lishiga olib kelmadimi. Bu haqda qaday fikrdasiz?

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. Qadimgi yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga yondashuvlarini o'zida aks ettiruvchi jadval quyida keltiriladigan shaklga ega bo'lishi mumkin. Talabalar qadimgi yunon faylasufi Suqrotning qarashlari misolida qadimgi yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga yondashuvlarini ifodalovchi eng muhim g'oyalarni tezis shaklida quyidagicha yoritadilar:

Qadimgi yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga oid muhim qarashlari		
1.	Suqrot	Shaxsning ma'nnaviy-axloqiy sifatlari oila muhitida shakllanadi. Fuqarolar bolalarni oila muhitida bilimli qilib tarbiyalashlar zarur
2.	Aristotel (Arastu)	
3.	Aflatun (Pluton)	
4.	Demokrit	
5.	Mark Fabiy Kvintilian	

2. Uilyam Shekspirning “Qirol Lir” va Onore de Balzakning “Gorio ota” nomli asarlaridagi qirol Lir hamda Gorio otaning o’z farzandlari bilan munosabatlarini quyidagi jadvalda keltirilgan misol namunasida aks ettiring:

Qirol Lir va uning farzandlari o’rtasidagi munosabat xususiyatlari	Gorio ota va uning qizlari o’rtasidagi munosabat xususiyatlari
Qirollik boshqaruvi bilan farzandlar tarbiyasini o’zaro uyg’unlikda olib boraganlik	Qizlarni tarbiyalashda nihoyatda ko’ngilchanlik qilish

4. Ya.A.Komenskiy yashagan davr (XVII asr) nuqtai nazaridan bolalarning oiladan ko’ra ta’lim muassasalarida tarbiyalanishi tobora keng yoyilishining asosiy sabablarini yoritishda talabalar o’rtasida munozarani tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, munozara jarayonida talabalarda jamiyatda kechadigan har qanday ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o’zgarishlar oilaning farzandlar tarbiyasidagi o’rni va rolini inkor eta olmasliklari borasidagi qat’iy xulosa shakllanadi.

O’ZBEKISTONDA “OILA PEDAGOGIKASI” FANINING RIVOJLANISH TARIXI

Reja:

1. “Avesto” asarida nikoh va oilaviy munosabatlarning yoritilishi.
2. “Qur’oni karim” va hadislар oila tarbiyasining muhim manbaları sifatida.
3. Sharq mutafakkirlarining oila pedagogikasiga oid fikrlar.

Tayanch tushunchalar: “Avesto” asari, zardushtiyarning oila va oilaviy munosabatlarga yondashuvlari, nikoh va oilaviy munosabatlarning “Qur’oni karim”dagi talqini, hadislarda nikoh va oila munosabatlari masalalarining aks etishi, Sharq mutafakkirlarining nikoh va oila borasidagi qarashlari.

“Avesto” asarida nikoh va oilaviy munosabatlarning yoritilishi. Eramizdan avvalgi VII asrda yaratilgan zardushtiylik dinining muqaddas manbai – “Avesto” asari o’zbek xalqining milliy-madaniy merosi, tarixiy yodgorligi sanaladi. Asar o’zida ijtimoiy hayotning barcha sohalari, xususan, nikoh va oilaviy munosabatlar masalalarini o’zida qamrab olganligi bilan nafaqat badiiy, balki pedagogik ahamiyatga ham ega. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarning milliy ma’naviyatni shakllantirishdagi roliga to’xtalar ekan quyidagilarga urg’u berib o’tadi: ““Avesto”ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan “Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal” degan tamoyilni oladigan bo’lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo’lgan saboqlar borligini ko’rish mumkin. Ana shunday fikrlar, yani, ezgu niyat, so’z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g’oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi manaviy ideallarimiz bilan naqadar uзвиb

o “Avesto” tushunchasi lug’aviy jihatdan “o’rnatilgan, muqarrar qilingan qonungoidalar, hayotning asosiy yo’riqnomasi” ma’nolarini anglatadi. Nikoh va oila masalasi ijtimoiy munosabatlarning muhim asoslari sifatida muayyan davr va tuzumlar uchun o’ziga xos ahamiyat kasb etgan. Shu jumladan, zardushtiylar davrida ham ijtimoiy munosabatlarning istiqboli nikoh va oila rivoji bilan uзвиy bog’liq ekanligi chuqur anglangan. Shu sababli hayotning asosiy yo’riqnomasi bo’lgan – “Avesto” asarida bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan.

Zardushtiylar balog’at yoshini aniq belgilashgan. 15 yoshga balog’at yoshi hisoblanib, ushbu yoshga to’lgan o’smirlar e’tiqod ramzi sifatida beliga yung ipakdan to’qilgan kamar bog’lab yurishlari, “otashparastlar ibodatxonasida o’tkaziladigan diniy marosimlarda qatnashishi shart bo’lgan”. Otashparastlik ibodatxonasida diniy tarbiya yo’lga qo’yilgan bo’lib, u bola 7 yoshga to’lgandan so’ng tashkil etilgan. Ibodatxonalarda tashkil etilgan tarbiya quyidagi go’nalishlarga asoslangan:

- ’ 1) diniy va axloqiy tarbiya;
- 1 2) jismoniy tarbiya;
- i 3) o’qish va yozishga o’rgatish.

k “Avesto” asarida qayd etilishicha, zardushtiylik ta’limotida ip yigirish, liboslar tikish qiz bolalar, kurash tushish, chavandozlik, qilichbozlik, suvda suzish, kamondan o’q uzish kabi jismoniy-harbiy malakalarni egallah o’g’il bolalar uchun majburiy bo’lgan. Bu boradagi malakalar o’zlashtirilgandan so’ng qizlar 15, s’g’il bolalar esa 16 yoshida oqsoqol boshchiligidagi jamoa oldida maxsus imtihondan o’tkazilgan. Imtihondan o’ta olmagan bolalarning ota-onalariga a’isbatan muayyan jazo qo’llanilgan.

h

k

^a Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 32-бет.

m

h

a

O'smirlar 15-16 yoshlarida balog'atga etgan hisoblanib, turmush qurish xuquqiga ega bo'lishgan. Oila qurish va farzand ko'rish har bir zardushtning insoniylik burchi deya e'tirof etilgan. Bordi-yu, balog'atga etgan yigit yoki qiz oila qurishni istamasa, bu holda unga nisbatan keskin jazo belgilangan: "Agar erkak surriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa unga tamg'a bosishar yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilishgan. Er yuzida surriyotni ko'payishiga qarshi chiqib, turmush qurmagan qiz qopga solinib, 25 darra kaltaklangan.

"Avesto"da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qonun bilan qat'iy man qilingan. Ko'p bolali ayollarga tuyalar berilgan. Bolasini nobud qilgan ayollar esa o'limga mahkum etilgan. Shuningdek oilasini, bolalarini sarson qilgan oila boshlig'iga, zinoga berilgan erkak va ayolga nisbatan darra bilan kaltaklash yoki o'lim jazosi ko'llanilgan. Bir yo'la 2-3 ta farzand ko'rgan ayolga bir juft sog'in sigir, sariq tuya berilgan, davlat xazinasidan nafaqa to'langan.

O'g'il tomonidan otaga qo'l ko'tarish, oila a'zolariga shikast etkazish, zinokorlik, bachchavozlik, er va xotin, ota va o'g'il o'rtasidagi ahdnama – "so'z qasami"ni buzgan odam malum miqdorda qamchin bilan savalangan.

O'sha davrda yashagan xalqlarning e'tiqodi, urf-odatlari, turmush tarzi, shuningdek, bolalarni tarbiyalash va o'qitish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish asosida aytish mumkinki, "Avesto" asarining nikoh, oila masalalariga oid g'oyalari bolalar tarbiyasini oqilona, to'g'ri tashkil etishga doir ko'rsatmalar bilan boyitib borilgan. Asar g'oyalari ko'ra har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qisin, so'ngra hayotiy tajribalarni o'rganish orqali shaxsi sifatida rivojlanishda yuqori pog'onalarga ko'tarila olsin.

Zardushtiylar bolalarga gigienik ta'lim berishga ham alohida e'tibor qaratishgan. Bolalar yoshlikdan daraxt ko'chati o'tkazish, uy-ruzg'or qurollari yasash, erga ishlov berish va chora bilan shug'ullanish kabi mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishlari shart bo'lgan. Ulardan har kuni uch marotoba yuvinish, ota-ona bilan birqalikda duolarni takrorlash talab etilgan.

"Avesto" asarida o'g'il bolalarni yigitlikka o'tkazish o'ziga xos marosim tarzida tashkil etilgan. Balog'atga etgan o'g'il bolalar quyoshga qarab "Men zardo'shtiylik diniga sodiq bo'lishga va'da beraman, men yaxshi fikr, yaxshi so'zlar, yaxshi ishlarni amalga oshira olishimga ishonaman" deya etti marta takrorlagan.

Yoshlarda to'rt narsa, ya'ni, quyosh, suv, tuproq va olov muqaddas degan tushunchalar shakllantirilgan. Dunyo yorug'lik va qorong'ulik, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashdan iborat. Bolalarni mehnat qilishga, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlarni yaratishga o'rgatish yaxshilik, ezguliklarning yomonlik, yozuvlik ustidan g'alaba qozonishini ta'minlaydi. Mehnat qilmaydigan odam yot eshiklarga ta'zim qilishga, o'zgalar oldida bosh egishga mahkum deb hisoblangan.

"Qur'oni karim" va hadislар oila tarbiyasining muhim manbalari sifatida. Islom dinining muqaddas kitobi – "Qur'on" jahon madaniyatining bebaho boyligi sanaladi. Arab tilida "qiroat" ma'nosini anglatuvchi mazkur manbada shaxs ma'naviyatining yuksak namunasini ifodalovchi g'oyalar o'z aksini topgan.

Qur’oni karimda tabiiy va ijtimoiy borliq, ularning mohiyatini yorituvchi g’oyalar ifodalangan bo’lib, ushbu manba orqali ijtimoiy, shaxsiy faoliyatning halol va harom, yaxshi va yomon, ezgulik va yovuzlik tamoyillarga asoslanishi, oqibatlari, shaxslararo munosabatlar, shuningdek, jamiyat rivojiga ta’siri kabi ko’plab masalalar yoritilgan.

Eng e’tiborli jihatni Qur’oni karim g’oyalari ijtimoiy munosabatlarning kishilar o’rtasidagi o’zaro tenglik, birodarlik, hamjihatilikka asoslanishi, har bir insonning ma’naviy-axloqiy kamolotga intilishi borasidagi g’oyani targ’ib qiladi. Ijtimoiy hayotning qaysi sohasiga taalluqli bo’lmasin kishilarni o’zaro tinch-totuv yashashga, ezgu amallarni bajarishga da’vat etadi. Shu nuqtai nazardan asar katta ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy qiymatga ega. Qur’oni karimda e’tirof etilishiga ko’ra, inson – eng oliv qadriyat sanaladi. Binobarin, Er yuzidagi jamiki tirik mavjudotlar orqasida faqat insongina ong va so’zlasha olish qobiliyati (nutq)ga ega va u o’zining har bir xatti-harakatini ongli ravishda tashkil etish, nazorat qilish, boshqarish, tahlil qilish, baholash hamda to’g’rilay oladi. Insonning ana shunday qobiliyatlarni o’zlashtira olishida Qur’oni karim g’oyalari ham asos vazifasini bajaradi.

Yuqorida aytib o’tilganidek, Qur’oni karimda jamiyat hayotining barcha sohalariga oid g’oyalalar bilan birga nikohning muqaddasligi, oilaning har bir inson uchun qadrli maskan ekanligi hamda oilaviy munosabatlarning shaxs kamolotidagi o’rni borasidagi qarashlari alohida o’rin tutadi.

Islom dinining muqaddas manbai bo’lgan – Qur’oni karim g’oyalarini o’rganish asosida ularning “Oila pedagogikasi” fani mazmunini boyitishdagi imkoniyati katta ekanligiga guvoh bo’linadi. Manbada ilgari surilgan quyidagi g’oyalalar bu o’rinda g’oyat samarali va ahamiyatlidir:

- nikoh qurish va uni bekor qilish tartibi (Qur’oni karimda nikohning muqaddasligi, har qanday sharoitda ham uni imkon qadar saqlab qolish zarurligi aytiladi);
- oilaviy munosabatlarni to’g’ri, samarali yo’lga qo’yish shartlari;
- ota-onalar va farzandlar, oilaning boshqa a’zolari ega bo’lgan huquq va majburiyatlar;
- oila a’zolarining bir-birlariga bo’lgan munosabatlarida etakchi o’rin tutadigan g’oyalalar;
- farzandlar tarbiyasini muvaffaqiyatl tashkil etishga nisbatan yondashuv mazmuni;
- oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlar, ularning oldini olish va bartaraf etish yo’llari;
- oila xo’jaligini oqilona yuritish va oila a’zolari o’rtasidagi mehnat taqsimoti;
- oila sharoitida mulkiy munosabatlarni tashkil etish shakllari;
- oila a’zolari o’rtasidagi mulkni taqsimlash tamoyillari va b.

Nikoh va oilaning ijtimoiy ahamiyati Qur’oni karim “Rum” surasining 21-oyatida shunday ifodalanadi: “Uning alomatlaridan (yana biri) – sizlar (nafsi qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o’zlaringizdan juftlar yaratgani va

o'rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir”²⁹.

Qur'oni karimda “Niso” surasining 34-oyatida oilani shakllantirish, uning mavjudligini ta'minlash, muhofaza qilishda erkak kishining zimmasiga katta majburiyat yuklatilishiga alohida urg'u beriladi: “Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig'i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba'zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o'z oilasiga) o'z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir”³⁰. Shuningdek, oila boshlig'i sifatida erkak kishi zimmasidagi muayyan vazifalarni hal etish bilan birga o'z ayoli oldida ham ijtimoiy, jismoniy va moliyaviy jihatdan burchli ekanligi ta'kidlab o'tiladi: “...Ular bilan totuv turmush kechiringiz...”³¹.

Er yuzidagi barcha jonzotlar, shu jumladan, insonlar ham tabiiy instinktga ko'ra juft-juft bo'lib yashaydi. Ikki jins vakili o'rtasidagi kelishuvga asoslanib quriladigan oila insoniyat tarixining barcha davrlarida ham sharaflı yumush hisoblanadi. Oila qurishdan asosiy maqsad sulolaning mavjudligini ta'minlash, umumiy holda insoniyat, juz'iy yondashuvga ko'ra esa millat (elat, qabila, urug') hayotini davom ettirishdir. Bu haqida muqaddas manba “Nahl” surasining 72-oyatida shunday deyiladi: “Alloh sizlar uchun o'zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o'g'llar va nabiralar paydo qildi va Sizlarni pok narsalardan rizqlantirdi”³².

Oila qurish muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Nikohga kirishish va oila qurish orqali har bir balog'atga etgan yigit va qiz zimmasidagi ana shu muhim ijtimoiy vazifani ado etadi. Bu xususida Rasululloh (s.a.v.) har bir oila qurish layoqatiga ega yigitlarga shunday murojaat qilganlar: “Ey, yoshlar jamoasi! Sizlardan uylanishga qodirlari uylansin, chunki uylanish ko'zni va a'zoni haromdan saqlaydi. Uylana olmaganlar ro'za tutsin, chunki ro'za uning uchun bichilishdir”³³. Boshqa bir hadisda esa uylanish nafaqat Islom ta'limoti nuqtai nazardan, balki boshqa dinlar g'oyalalariga ko'ra ham sunnat (hadislarda targ'ib etilib, ibodat, muomala hamda ijtimoiy munosabatlarda qo'llaniladigan amal) sanaladi: “To'rtta yaxshi ish bor, ular payg'ambarlar sunnatidan sanaladi: hayo, xushbo'ylik, misvok tutish va uylanishdir”³⁴.

Oila – insoniyat mavjudligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholanadi. Qur'oni karim “Ra'd” surasining 38-oyatida oilalarni yaratish uchun har bir voyaga etgan hamda oila qurish layoqatiga ega shaxs, hatto payg'ambarlarning ham insoniy burchi ekanligi uqtiriladi: “Darhaqiqat, Sizdan ilgari ham (ko'p) payg'ambarlar yuborganmiz va ularga xotinlar va surriyotlar berganmiz”³⁵.

²⁹ Қуръони карим маъноларининг таржима ва тавсири / Тарж.ва тафсир муал. Шайх А.Мансур. Таҳр.ҳайъати: У.Алимов ва б. – Тошкент: “Тошкент ислом университети” НМБ, 2012. – 404-бет.

³⁰ Ўша манба. – 84-бет.

³¹ Ўша манба. – 80-бет.

³² Ўша манба. – 274-бет.

³³ Бухорий, Муслим, Абу Довуд, Термизий, Насойй, Доримий, Аҳмад.

³⁴ Ал-Бухорий, Имом Испоил. Ал-жоме ас-саҳих. – Тошкент:

³⁵ Қуръони карим маъноларининг таржима ва тавсири / Тарж.ва тафсир муал. Шайх А.Мансур.

Таҳр.ҳайъати: У.Алимов ва б. – Тошкент: “Тошкент ислом университети” НМБ, 2012. – 254-бет.

Qur’oni karim “Niso” surasining 19-oyatida ijtimoiy munosabatlarning samimiyligi, sog’lom, o’zaro yordam, hamjihatlik, totuvlikka asoslanishi er va xotinning bir-birlariga bo’lgan mehru muhabbatini, bir-birlarini qo’llab-quvvatlashlari, hayotiy qiyin vaziyatlarda bir-birlariga taskin berishlari, baxtli, saodatli vaqtarda esa bir-birlarining quvonchlariiga sherik bo’lishlari, bir-birlarini ayb va kamchiliklari uchun kechirishlari hisobigagina ta’milanishi aytildi: “Ey, imon keltirganlar! Sizlarga xotinlarni majburiy ravishda meros qilib olish halol emasdir. Yana, ularga bergen mahrlaringizning bir qismini qaytarib olib ketish niyatida xotinlaringizga tazyiq qilmangiz! Agar ular aniq buzuqlik qilsalar (bu mustasnodir). Ular bilan totuv turmush kechiringiz. Agar ularni yomon ko’rsalaringiz, (bilib qo’yingki,) balkim sizlar yomon ko’rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko’pgina yaxshilik paydo qilishi mumkin”³⁶.

Ushbu g’oya Rasululloh (s.a.v.) hadislarida yanada rivojlantirilib, oiladagi tinchlik, totuvlikni ta’minlovchi, farzandlarning etuk shaxs bo’lib voyaga etishlarini kafolatlovchi shartlardan biri – bu oila boshlig’i bo’lgan erkaklarning o’z ayollariga nisbatan yaxshi munosabatda bo’lishi ekanligiga urg’u berib o’tiladi. Abu Hurayradan rivoyat qilingan quyidagi hadisda bu xususida shunday deyilgan: “Sizlarning ichingizdagagi yaxshi erkak o’z ahli ayoliga nisbatan yaxshi munosabatda bo’lganidir. Men esa o’z ahlimga sizlardan ko’ra yaxshiroq munosabatdaman”³⁷. Shu bilan birga erkaklar oilaviy hayot, oilaviy munosabatlar muvozanatining barqaror bo’lishiga ham mas’ul ekanliklari aytildi: “Hech bir mo’min hech qaysi mo’mina ayolini yomon ko’rmasin! Agar uning xulq atvordan birini yoqtirmasa, boshqa xulqini yoqtirishi mumkin”³⁸.

Ayni o’rinda shuni ham alohida qayd etib o’tish joizki, Islom ta’limoti o’zida insonparvarlik g’oyalarini aks ettiradi. Buning isbotini bиргина ayollarga bo’lgan munosabatda ham ko’rish mumkin. Islomgacha bo’lgan insoniyat tarixidan ma’lumki, ayollar matriarxal (urug’chilik jamiyatining ona hukmronligi davri)ni istisno qilganda boshqa bosqichlarda ayol kishiga nisbatan past nazar bilan qaralgan. U bir buyum sifatida e’tirof qilingan va ayolga bir buyumga qilganidek munosabatda bo’lingan. Islom ta’limotida esa ayollar ham muayyan haq-huquqlarga egaligi ko’rsatib o’tilgan. Xususan, oila muhitida erkaklarning zimmalarida xotinlarning ham haqlari borligi aytildi. Bu o’rinda misol sifatida quyidagi hadisni keltirib o’tish joiz. Abu Dovuddan rivoyat qilingan ushbu hadis mazmuniga ko’ra sahobalar Rasululloh (s.a.v.)dan: “Zimmamizda xotinlarimizning qanday haqlari bor?” – deb so’rashganda Ular: – Eganingizda uni ham edirmog’ingiz, kiyganingizda kiydirmog’ingiz, yuziga urmaslik, yomon so’zlar bilan haqorat qilmaslik, faqat xonadan chiqmagan holda o’rinni boshqa qilib yotmoqlik”, – dedilar”³⁹.

Boshqa bir hadisda esa shunday g’oya yoritiladi: “Ayollar haqida Allohdan qo’rqinglar, darhaqiqat, ular sizning yordamchilaringiz bo’lib, sizlarning ulardagi

³⁶ Ўша манба. – 80-бет.

³⁷ Ал-Бухорий, Имом Исмоил. Ал-жоме ас-саҳиҳ. – Тошкент: (Манбани юқоридаги мисол асосида тўлиқ келтиринг).

³⁸ Ўша манба. – xx-бет.

³⁹ Ўша манба. – xx-бет.

haqqingiz shundan iboratki, sizning uyingizga siz yoqtirmagan birorta kimsa bostirib kirishiga yo'l qo'ymaslik. Bordi-yu, shunday qilsalar ularni jarohat etkazmaydigan qilib urishib qo'yingiz! O'z navbatida sizlar ham ularni yaxshilik bilan edirib, kiydingiz”⁴⁰.

Erkaklar tabiatan ayollardan fiziologik va jismoniy imkoniyatlari ko'ra ustun qilib yaratilgan. Hadislarining birida oilaning moddiy ta'minotini yaratish, uni oqilona sarflash, o'z qaramog'idagilar – ayoli, farzandlari, ota-onasi va uning vasiyligidagi shaxslarni moddiy jihatdan ta'minlash uchun ham mas'ul ekanliklari, ularni bu omildan mahrum etish gunoh ekanligi alohida qayd etilib o'tilgan: “Kishi o'z qaramog'idagilarini nafaqasiz tashlab qo'yishi uning qattiq gunohkorligiga kifoya qiladi”⁴¹.

Rasululloh (s.a.v.) hadislarida jamiki yaxshiliklarning eng afzali – oilaga, uning a'zolariga qilingan yaxshilik ekanligiga alohida urg'u berib o'tilgan. Bu xususida Tabaroniydan rivoyat qilingan ushbu hadisda shunday deyiladi: “Yaxshilik qilishni, mehr-shafqat va mehribonlikni oilangdan boshla!”⁴².

Qur'oni karim hamda Rasululloh (s.a.v.) hadislarida oilaviy munosabatlarni tashkil etishning huquqiy asoslari borasida ham so'z boradi. Xususan, oila tarbiyasida o'ziga xos ahamiyatga ega masala – ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabat mohiyati, jumladan, ularning bir-birlari oldilaridagi haqlari aniq ko'rsatilgan. Ota-onaning o'z farzandlari oldidagi haqlarini uzishlari qanchalik muhim bo'lsa, farzandlarning o'z ota-onasiga ko'rsatadigan mehribonligi, rahm-shafqati ham shunchalik ahamiyatga ega. Muqaddas manbalarda farzandlarning ota-onar oldidagi haqlarining quyidagilardan iboratligi qayd etilgan:

- farzandga ota-onaga xatti-harakatlarining malol kelmasligi;
- ota-onaga ularning dillariga og'ir botadigan so'z aytmaslik;
- ota-onaga ehtirom bajo keltirish;
- otan-onaga rahm-shafqat ko'rsatish;
- ota-onaning haqlariga duo qilish.

Qur'on karimda insonga xos eng yuksak axloqiy fazilat sifatida sabr-qanoat ulug'lanadi. Buning isbotini sifatning Qur'on karimda eng ko'p tilga olinishida ham ko'rish mumkin. Muqaddas manbada qayd etilganidek, sabr-qanoatlilik, sabotlilik qiyinchiliklarga, musibatlarga bardosh berish, yomon kishilar tomonidan etkazgan nohaqliklarga chidash deganidir. Shu blan birga Qur'oni karimda muayyan xislatlar sabrning, ya'ni ba'zi holatlarga nisbatan shaxs munosabatining darajasini belgilovchi mezon sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, qiyinchiliklarga nisbatan shijoat, shahvoniy hirsga nisbatan iffat, jahlg'a nisbatan esa halimlik sabrning eng muhim mezonlar sanaladi.

Rasululloh (s.a.v.) hadislarida insonning kamolotini ta'minlovchi insoniy fazilatlar qayd etilgan. Bunday fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-on, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga g'amxo'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-

⁴⁰ Ўша манба. – xx-бет.

⁴¹ Ўша манба. – xx-бет.

⁴² Ўша манба. – xx-бет.

hunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabilar kiritilgan.

Hadislarda komil inson qiyofasida namoyon bo'lувчи ijobiy xislatlar ulug'lansa, aksincha, isrofarchilik, ta'magirlik, ochko'zlik, nafs, shahvoniy hislarga berilish, baxillik, johillik kabi illatlar qoralanadi.

Sharq mutafakkirlarining oila pedagogikasiga oid fikrlar. Oila tarbiyasi masalalari Sharq mutafakkirlarining shaxsga ta'lim berish, unda ijobiy sifatlarni shakllantirish borasidagi qarashlarining muhim unsuri sanaladi. Xususan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Unsurul Maoliy Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning asarlarida bolalarni oila sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga oid g'oyalar keng yoritilib, bu boradagi samarali yo'llar ko'rsatib berilgan.

Agarda **Muhammad ibn al-Xorazmiy** o'z asarlarida ota-onalarni ikki toifa (tug'ilish otasi (ya'ni, biologik ota) bolaning jismoniy yaratilishi, unib-o'sishi uchun mas'ul bo'lsa, ta'lim beruvchi ota (ya'ni, ma'naviy ota) esa bolaning ruhiy jihatdan to'laqonli voyaga etishi uchun javobgar kabi toifa)larga ajratgan bo'lsa, **Abu Rayhon Beruniy** inson tabiatining, eng avvalo, oila muhitida shakllanishini alohida qayd etib o'tgan. Alloma ota-onalarga bola ruhiyatini mo''tadil saqlashni tavsiya etadi. Bola ruhiyatini mo''tadil saqlash uni qattiq g'azablanish, qo'rqish, xafalik, jismoniy toliqish hamda uyqusizlikdan muhofazalash orqali ta'minlanishini aytadi. Shuningdek, ota-onalarni bolalar xohlagan va ular uchun foydali bo'lган narsasini topishga, ularni imkon qadar yoqtirmagan narsalaridan uzoqlashtirishga undaydi. Allomaning qayd etishicha, ota-onalar bolaga nisbatan bir xil munosabatda bo'lishlari uni to'g'ri tarbiyalash uchun nihoyatda ahamiyatli. Ota-onaning bolaga nisbatan turlicha munosabatda bo'lishlari uning xulqida salbiy odatlar namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratib beradi.

Abu Rayhon Beruniy bola xulq-atvorining mo''tadilligi uning jismonan va ruhiy sog'lomligi uchun muhim asos ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergen. Shuningdek, alloma o'z asarlarida bolaning kamolga etishida irsiyat, ijtimoiy muhit va tarbiyaning birdekk ta'sirga egaligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Oilanning bola tarbiyasidagi roli masalasi buyuk mutafakkir **Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'r'in egallaydi.** Allomaning "**Tadbiri al-manozil**" nomli asarining alohida bobo oila tarbiyasini samarali tashkil etish masalalariga bag'ishlangan. Mutafakkir o'zining tibbiyotga oid bilim va hayotiy tajribalariga asoslangan holda "Tadbiri al-manozil" asarida "Alla" qo'shig'inining bolani ruhiy va jismoniy kamolotga etishida muhim ahamiyatga ega omillardan biri sifatida e'tirof etadi. Abu Ali ibn Sino "Alla" qo'shig'i ikki muhim vazifaning hal qilinishini ta'minlaydi. Birinchisidan, bolani tebratish unga jismoniy orom bag'ishlaydi; ikkinchisidan, beshikning bir maromda tebranishidan onaning mehri jo'sh uradi, farzandiga bo'lган muhabbatdan onaning yuragida orzu, umidlar uyg'onadi. Sehrli, jozibali qo'shiq bolasi uchun qasida kabi yangraydi va farzandining murg'ak qalbiga singib boradi. Shu tarzda bolada u hali anglamagan

holat paydo bo'ladi, asta-sekin borliqni anglay boshlaydi. Borliqning bu tarzda dastlabki anglanishi o'rganishning ilk bosqichidir. Bu bosqichda o'rganish asosida bola shaxsi shakllanib boradi. Alloma o'rganishning sezgiga asoslanini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Qolaversa, Abu Ali Ibn Sinoning yosh bolaning sezgirlik quvvati katta yoshli kishining sezgirligiga teng degan fikrni ilgari surgan.

Alloma bolani sekin-sekin tebratish va unga ohang yordamida alla aytish bola mijozining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi"⁴³.

Ibn Sinoning yondashuviga ko'ra, bola tarbiyasida oila boshlig'i sifatida ota alohida rol o'ynaydi: "Agar oilada oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin". Bola tarbiyasi samarali yo'lga qo'yilgan oilalargina baxtli bo'ladi. Zero, oilaning eng muhim vazifasi bolani har jihatdan to'g'ri kamolotga etkazishdir. Ota-onha kim bo'lismidan qat'iy nazar ushbu ma'suliyatlari vazifani to'la-to'kis ado etishi lozim.

"Tadbiri al-manozil" asarida farzandlarning to'g'ri kamolot topishi, kelajak taqdirining belgilanishida ular uchun ibrat bo'ladi sanab o'tiladi.

Ibn Sinoning alohida qayd etishicha, mehnat oilada bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda eng muhim vosita sanaladi. Bolalarda mehnatsevarlikni xislatini tarbiyalashda ota-onalarning farzandlar tomonidan muayyan kasb-hunar asoslarining o'rganilishiga e'tibor qaratishlari muhimdir. Alloma mehnat insonni ulug'lasa, mehnat qilish ko'nikmalarini yoshlikdan o'zlashtirmaslik bolada salbiy odatlarning rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Mutafakkir er-xotinning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari, bir-birlarini hurmat qilishlari bola axloqining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. Buning uchun ota-onaning har biri oilada ma'lum vazifalarni bajarishi zarur. Xususan, erkak kishi, asosan, oilaning ta'minotini yaratishi, ayol kishi esa oila boshlig'i topib kelgan mablag', moddiy ne'matlarni tejab-tergashi, uy-joylarni saranjom-sarishtaligini ta'minlashi, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi zarur.

Ibn Sino bola tarbiyasiga oid o'z fikr va mulohazalarni bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim topadi hamda bolalarga yaxshi ism tanlashni ota-onaning dastlabki olijanob vazifalaridan hisoblaydi.

XI asrda yashagan mutafakkirlardan biri **Yusuf Xos Hojib** ham o'zining mashhur "Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi masalasiga alohida to'xtalib o'tgan. Xususan, ushbu asarda quyidagi g'oyalar o'z aksini topgan: "Farzand qanchalik bilimli, aqli-hushli bo'lsa ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi".

Yusuf Xos Hojib ham bola tarbiyasida otaning ma'suliyati yuqori ekanligini ta'kidlaydi: "Kimning o'g'il-qizi erka bo'lsa u ung'a shu kishining o'zi mungli

⁴³ Ибн Сино, Абу Али. Тиб конунлари. 1-китоб. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1959. – 293-бет.

bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa, bolada gunoh yo'q, barcha jafo otaning o'zida; o'g'il-qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarini nazorat qilib, turli hunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach, o'g'il-qizim bor, deb sevinadi; o'g'il-qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin”.

Mutafakkir bolalar tarbiyasini o'ta murakkab jarayon deb tushunadi. Bu jarayon beldan madorni, tanadan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi. Agar insonning o'zida go'zal fazilatlar bo'lsa, ularni boshqalarga o'rgatishi lozim. Lekin odob-axloq, odat va irodani hosil qilish uchun katta kuch va harakat talab etiladi. Bu jarayonda ta'lim va tarbiyaning samarali tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, shaxsni tarbiyalashdan maqsad uning ongiga atrofdagilarga yaxshilik qilish, borliqqa mehr-muhabbat bilan yondashish zarurligi to'g'risidagi tushunchalarni singdirishdan iboratdir. Ana shu maqsadga yo'naltirilgan mas'uliyatli vazifani bajarishda esa ota-onas asosiy o'rinni egallaydi.

Sharq mutafakkirlaridan yana biri **Unsurul Maoliy Kaykovus** o'zining “Qobusnoma” asarida oila, oilaviy munosabatlar hamda oilada farzandlarni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratadi. Asarning alohida bobi “Farzand parvarish qilmoq zikrida” deb nomlangan. Alloma ushbu bobda ota-onaning zimmasiga yuklatiladigan vazifalarni yoritadi. Bu vazifalar quyidagilardir:

- 1) bolaga yaxshi ism qo'yish;
- 2) bolani oqil va mehribon enagaga topshirish;
- 3) to'y-tomashta qilib, sunnat to'y o'tkazish;
- 4) o'qish-yozishni o'rgatib, kasb-hunarli va ilmli qilish;
- 5) harbiylar ahlidan bo'lsa, sipohiylikni o'rgatish.

Kaykovusning yondashuviga ko'ra, bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlik birga qo'shib olib borilishi lozim. Ammo bunda ota-onaning bolaga nisbatan qahrli bo'lishi, uni bevosita o'zlari jazolashlari to'g'ri emas, chunki bu bolada ularga nisbatan nafratni yuzaga keltiradi. Eng to'g'ri yo'l bu o'rinda muallimlarning yordamiga tayanish, ular orqali bilvosita bolani jazolashdir: “Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqtigil! Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglidagina qolmasin”.

Buyuk mutafakkir **Alisher Navoiy**ning badiiy-ilmiy merosida ham oilaviy munosabatlar va oilada farzand tarbiyasini tashkil etish masalasi alohida o'rinni egallagan. Uning fikricha, jamiyatning taraqqiyoti, istiqboli yoshlar kamoloti bilan bevosita bog'liq. Shu sababli bolani har jihatdan etuk, olivjanob qilib tarbiyalash ota-onalar oldida turgan eng muhim vazifadir. Alloma bolalarning tarbiyasida ota-onaning o'rni beqiyos ekanligini qayd etadi. “Mahbub-ul-qulub” asarida ayolning oiladagi, xususan, bolalarning tarbiyasidagi roli mas'uliyatli ekanligini ta'kidlaydi: “Yaxshi xotin oilaning davlati va baxti, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo'lsa – ko'ngil ozig'i, xushmuomala bo'lsa, jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi. U beandisha bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'q oladi, aqlsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi”.

A.Navoiy o’z asarlarida oilada o’zaro kelishmovchiliklar, ota yoki ona, oilaning boshqa a’zolari xulqidagi illatlarning, qolaversa, ijtimoiy omillarning bola tarbiyasiga salbiy ta’sirini ko’rsatib beradi. Shu bilan birga alloma bola shaxsida namoyon bo’ladigan yaxshi va yomon xulqlar, ularni kelib chiquvchi manbalarni ko’rsatib berar ekan, bolada yomon xulq paydo bo’lishining oldi olinmasa, u holda bora-bora illatga aylanishini alohida qayd etib o’tadi.

Mutafakkir o’zining “Mahbub-ul qulub” asarida komil insonga xos ijobiy fazilatlar haqida so’z yuritar ekan, asosiy e’tiborni har bir shaxs, shu jumladan, bolalarda ham ana shu ijobiy sifatlarni shakllantirishning ijtimoiy zaruriyat ekanligini asoslab beradi. Bolalarning bilimli, oliyjanob va rostgo’y insonlar bilan izchil muloqotda bo’lishlari ularda halollik va to’g’riso’zlik sifatlarini tarbiyalashiga alohida urg’u berib o’tadi.

Oilaning har bir shaxs hayotidagi o’rni, oila muhitida tashkil etilayotgan tarbiyaning bola shaxsi shakllanishiga ko’rsatadigan ta’siri **Abdulla Avloniy** asarlaridan ham markaziy o’rin egallagan. Ma’rifatparvarning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yaxlit holda komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo’lgan ijobiy fazilatlar, shuningdek, biologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanishi mumkin bo’lgan salbiy illatlar, ular keltirib chiqaradigan oqibat xususidagi g’oyalarni ifodalaydi.

Alloma bola tarbiyasida u yashayotgan muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, turmush tarzi qanchalik muhim bo’lsa, sub’ektlar, xususan, ota-onaning roli shunchalik ahamiyatli ekanlagini ko’rsatadi. Bolaning axloqi, xulq-atvoriga kuchli ta’sir etuvchi shaxslar, eng avvalo, ota-onalar ekanligini e’tirof etgan holda ularni farzandlar tarbiyasida mas’uliyatli bo’lishga chaqiradi.

Abdulla Avloniy o’z asarlarida Abu Ali ibn Sino kabi tana salomatligini ruhiyat sog’lomligi bilan uzviy bog’liq ekanligiga e’tiborni qaratadi. Ma’rifatparvarning qayd etishicha, bolada ezgu fikr, yaxshi axloq va ma’rifatga ega bo’lish uchun dastlab badanni tarbiya qilish zarurligini aytib, bolani sog’lom qilib tarbiyalash uchun ota-onani javobgar deb hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, nikoh, oilaviy munosabatlar va farzand tarbiyasi masalasi o’zbek xalqi tarixidan juda qadimdan o’rganib kelingan. Zardushtiylik dinining muqaddas manbai – “Avesto” asarida, milliy madaniy qadriyatlarimizning muhim tarkibiy qismi bo’lgan Islom madaniyati g’oyalalarini o’zida aks ettirgan Qur’oni karimda, shuningdek, Sharq mutafakkirlarining asarlarida komil inson shaxsi, uni voyaga etkazishda asosiy o’rinni egalovchi oila, unda tashkil etiladigan bolalar tarbiyasi masalalarining tahliliga alohida o’rin ajratilgan. Ularda qayd etilishicha, har bir oila jamiyatning kichik bir bo’g’ini. Minglab oilalarning o’zaro birlashuvi esa jamiyatni hosil qiladi. Shunday ekan, har bir oila, unda qaror topgan tarbiyaviy muhit bevosita jamiyatning taraqqiyotini belgilab beradi. Oila va jamiyatning o’zaro aloqadorligi o’z-o’zidan ota-onalar zimmasiga bolalar tarbiyasini to’g’ri tashkil etishdek muhim ijtimoiy vazifani yuklaydi.

Nazorat savollari:

1. Tarixiy manba “Avesto”da oila masalalarining qaysi jihatlari yoritilgan?

2. “Avesto” asarida balog’at yoshi va farzand tarbiyasiga qanday yondashilgan?
3. Qur’oni karimda ota-onaning farzandlar tarbiyasidagi mas’uliyati qanday baholangan?
4. Islom ta’limotiga ko’ra farzandning ota-onasi oldidagi burchlari nimalardan iborat?
5. Qur’oni karimda oila mustahkamligini ta’minlovchi omillar sifatida nimalar e’tirof etilgan?
6. Hadislarning oila tarbiyasidagi ahamiyati qanday? Fikringizni hadislar misolida asoslang.
7. Ota-onsa va farzanlar o’rtasidagi munosabat masalasiga hadislarda qanday o’rin ajratilgan?
8. Sharq mutafakkirlarning asarlarida oila tarbiyasiga oid qanday g’oyalar mavjud?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Boboev X., Hasanov S. “Avesto” – ma’naviyatimiz sarchashmasi. – Toshkent: “Adolat”, 2001.
2. Maxmudov T. “Avesto” xaqida. – Toshkent: “Sharq”, 2001.
3. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g’urur G’ O’quv qo’ll. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1999.
4. Pedagogika tarixi G’ O’quv qo’llanma. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov. – Toshkent: O’qituvchi, 1996.
5. Safarov O. Oila ma’naviyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
6. Trotsyan V. Istoriya obrazovaniya i pedagogicheskoy mo’sli. – Moskva: Pedagogika, 2006.
7. Hoshimov K., Ochil S. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: “O’qituvchi”, 2010.

Amaliy topshiriqlar:

1. Qur’oni karim va payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida bayon etilgan nikoh, oila qurish, oilaviy munosabatlар, farzandlar tarbiyasiga qarashlarni jamlang va ularni jadval asosida ifodalang!
2. Turk olimi Yusuf Tovasliyning “Hikmatlar xazinasi” asarida keltirilgan onaning o’z qiziga aytgan 10 ta nasihat bilan tanishib chiqing va u asosida bo’lajak kelinlar uchun kichik tavsiyanoma tayyorlang!

Qizim! Senga aytadigan o’nta o’gitimga qulq sol! Bularni doimo yodda tut!

1. Qanoat sohibasi bo’l. O’z holingga shukr qil. Ya’ni ering uyga nimaiki olib kelsa, u xoh eydigan xoh kiyadigan narsa bo’lsin, xushfe’lllik bilan, go’zal odob bilan qabul qilib ol. Eringga tashakkur aytib, xushnudlik ko’rsat. Zero, baxtli hayot kechirmoqning bir yo’li o’z holiga shukr etmoqlikdir. Holiga shukr etmagan o’z nafsiyi tiymagan kishida ko’ngil huzuri, qalb rohati bo’lmaydi.

2. Eringga itoat qil, qil degan ishlarini qil, qilma deganini qilma! Ya’ni, ering bilan suhbatlashganda, muloqotda bo’lganda itoatli bo’lishingni, uning so’zlarini odob bilan tinglab ado etishingni, sening so’zlashib, qulq solishingdan tushunib

oladigan bo'lsin. Shunda Alloh Taolo sendan xushnud va uyingiz saodat nuridan porloq bo'ladi.

3. Eringning ko'zi tushadigan joylarga yaxshi e'tibor ber! Ya'ni uyning ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut. Shunday qilki, eringning ko'ziga bir chirkin er ko'rinishmasin.

4. Ust-boshingni toza tut. Ering faqat xush bo'yni sezsin, dimog'iga yomon hid kelmasin. Chunki yomon hidlar ering ko'z o'ngida sening obro'ingni tushiradi. Sendan irganishiga sabab bo'ladi. Shuni yaxshi bilgilki, tozalik va zaiflik eng yaxshi narsalardir. Inson ko'ziga xush ko'rinishlik shular bilandir.

5. Ovqatni vaqtida tayyorla. Ya'ni ovqatlanish vaqtini hech qachon kechiktirma. Ering qachon ovqatlanishga o'rgangan bo'lsa, o'sha paytda ovqatini tayyorla. U kelishi bilan darhol dasturxon sol. Shuni yaxshi bilginki, ochlik insonning tez jahlini chiqaradi.

6. Uyqu vaqtini, uyg'onish paytini yaxshi bilib ol! Ya'ni, uning qachon uyquga ketish payti bo'lsa o'rnini tayyorlab qo'y. Zero, uyqusizlik insonni xafaqon etadi. Asablari buzuqlik, xafaqonlik odamlarning ehtirosi, muhabbatini sekin-sekin so'ndiradi.

7. Eringning moli va ashvosiga juda e'tiborli bo'l! Ya'ni, eringning mol-dunyosini yaxshi saqla, ashyolarini avayla, muhofaza qilgil. Chunki uning mol-dunyosi senikidir. Erning mol-dunyosini isrof etmaslik ish bilish va qadriga etish demakdir.

8. Eringning qarindosh va yaqinlariga hurmat ko'rsat! Ya'ni eringning qarindoshlari va yaqinlariga hurmat uning e'tiborini qozonmoq demakdir. Ularni hurmat qilish eringni hurmat qilish demakdir. Bu esa qadr va e'tibor qozonishdir.

9. Eringning sirini boshqalarga aytma! Ya'ni, eringning ba'zi sirlarini bilgan vaqtingda ehtiyyot bo'lib, uni saqla, birovlarga aytib yurma. Agar aytib qo'ysang, uning g'azabini keltirib qo'ysan, ishonchini yo'qotasan. Bunda tuzayotgan oilang buziladi.

10. Eringning dinga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil! Hech qachon unga nisbatan itoatsiz bir harakat bo'lmasin. Agar bir shunday harakat bo'lsa, senga kek saqlab oxiri dushman bo'ladi. U senga dushmanlik yo'lini tutsa, sen ko'p zarar ko'rasan va qo'lingdan hech narsa kelmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. Qur'oni karim va payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida bayon etilgan nikoh, oila qurish, oilaviy munosabatlar, farzandlar tarbiyasiga qarashlarning quyidagi jadval asosida jamlanishi ularning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi:

№	Nikoh, oila qurish, oilaviy munosabatlar, farzandlar tarbiyasiga qarashlar	
	Qur'oni karimda ifodalangan qarashlar	Hadisi sharifda ifodalangan qarashlar
1.		
2.		

3.		
...		

2. Turk olimi Yusuf Tovasliyning “Hikmatlar xazinasi” asarida keltirilgan onaning o’z qiziga aytgan 10 ta nasihatasi asosida tayyorlanadigan kichik tavsiyanomada asosiy g’oyalarning tayanch tushuncha yoki iboralar yordamida ifodalanishiga e’tibor qaratish zarur. Kichik tavsiyanomani tayyorlashda quyidagi namunadan foydalanish mumkin:

Бўлажак келинлар учун кичик тавсиянома

1. Қаноатли, шукрли, хушфеъл ва одобли бўл! Турмуш ўртоғингниг ҳар бир яхши амали учун миннатдор бўлишни ўрган!
2. Турмуш ўртоғингга итоатли бўл ва уни диққат билан тинглашни ўрган!
3. Уйингниг ниҳоятда озода, тартибли бўлишига эриш!
4. ...
- 5.
- 6.
- 7.
- 8.
- 9.

OILANING HUQUQIY ASOSLARI. OTA-ONALAR VA FARZANDLARNING HUQUQ HAMDA BURCh (MAJBURIYaT)LARI

Reja:

1. Oilaning ijtimoiy va huquqiy asoslari.
2. Ota-onalarning huquq va burch (majburiyat)lari.
3. Farzandlarning huquq va burch (majburiyat)lari.

Tayanch tushunchalar: O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasining “Oila Kodeksi”, oila, oilaning huquqiy asoslari, ota-onalarning huquqlari, ota-onalarning burch (majburiyat)lari, farzandlarning huquqlari, farzandlarning burch (majburiyat)lari.

Oilaning ijtimoiy va huquqiy asoslari. Oila o’z mohiyatiga ko’ra ijtimoiy maqom hamda huquqiy asosga ega bo’ladi. Ijtimoiy maqom oilaning jamiyatdagi

moslashuvchanlik darajasini belgilaydi. Oila hamda oilaviy munosabatlar masalalari bo'yicha olib borilgan uzoq yillik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra oilaning ijtimoiy maqomini belgilovchi asosiy jihatlar belgilab olingan. Ular xususida quyida batafsil so'z yuritiladi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning alohida turi bo'lgan oila munosabatlarining har tomonlama tartibga solishda yangi sifat darajasiga erishish imkonini berdi. O'zbek xalqiga xos milliy qadriyatlar va an'analar zamonaviy tajribalar bilan uyg'unlashtirilgan holda oila qonunchiligi, oilaviy munosabatlarining yangi xuquqiy asoslari shakllantirildi.

Qariyib chorak asr davomida O'zbekistonda oila, uning mustahkamligini ta'minlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buning isbotini muayyan yillar, 1998 yilning "Oila yili", 2012 yilning "Mustahkam oila yili" deb nomlanishida ko'rish mumkin. Asosiy maqsad yillarni shunday nomlash emas, balki qayd etilgan davrda butun yil davomida oila mustahkamligini, farovonligini ta'minlash, oilalarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivoji uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bu borada har bir yil bilan bog'liq holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus Davlat dasturlari ishlab chiqilib, turkum vazifalar belgilandi, ushbu vazifalarni amalga oshirishning puxta asoslangan mexanizmlari ishlab chiqildi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar doirasida oilalarni ijtimoiy muhofazalash masalasiga katta e'tibor qaratildi. Mazkur e'tiborning yorqin ko'rinishi sifatida Respublika Prezidentining "Ko'p bolali oilalarga ijtimoiy yordam tizimini mukammallashtirish to'g'risida"gi (1994 yil 16 iyun) Farmoni, Vazirlar Mahkamasining "Ko'p bolali oilalarga yordam ko'rsatish to'g'risida"gi (1996 yil 10 dekabr) Farmoyishi hamda "Voyaga etmagan bolali oilalarga nafaqa to'lash to'g'risida"gi Nizomlarini qayd etib o'tish mumkin.

"Voyaga etmagan bolali oilalarga nafaqa to'lash to'g'risida"gi Nizomida muayyan toifadagi oilalarning ijtimoiy nafaqa olish huquqiga egaligi ko'rsatilgan. Bu kabi oilalar sirasiga quyidagilar kiradi:

- ногирон болали оилалар;
- ота-онасидан ажралган болаларнинг тарбияси билан шуғулланувчи қариндошларнинг оилалари;
- ота-онадан бири ёки иккаласи ҳам ногирон бўлган оилалар;
- ота-онадан бири ёки иккаласи ҳам ишсиз бўлган оилалар

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyatning eng muhim, ajralmas qismi bo'lgan oila institutining xuquqiy maqomini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjatning 14-bobi bevosita "Oila" deb nomlangan bo'lib,

uning tarkibiga kiritilgan moddalarda oila, uning ijtimoiy maqomi, ota-onalar va farzandlarning haq-huquqlari ko'rsatib berilgan. Xususan⁴⁴:

№	Mazmuni	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalari
1.	Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng xuquqliligiga asoslangan holda tuziladi	63-modda
2.	Huquqiy nuqtai nazardan ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdir	64-modda
3.	Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar	65-modda
4.	Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar esa o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar	66-modda

Nikoh, oilaviy munosabatlар va oilada farzandlar tarbiyasini tashkil etish masalalari O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida keng va batafsil yoritilgan.

Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси 1998 йилнинг 30-апрелида қабул қилинган бўлиб, у 8 та бўлим, 30 та боб ҳамда 238 та мoddадан иборат.

Oila kodeksi davlat tomonidan izga solinishi talab qilinadigan munosabatlarni tartibga solib turadi, qolaversa, nikohdan o'tish tartibi va shartlarini belgilaydi; oilada er-xotin o'rtasida, ota-onalar va bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida paydo bo'ladigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solib turadi; boshqalarning bolalarini o'ziga bola qilib olish, vasiylikka olish, homiylik qilish, bolalarni o'z tarbiyasiga olish munosabati bilan vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi; nikohni bekor qilish tartibi va shartlarini belgilaydi; fuqarolik holati to'g'risidagi hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilaydi⁴⁵.

Ma'lumki, har qanday me'yoriy hujjatlar, shu jumladan, respublika qonun (yoki kodeks)lari ham muayyan vazifani hal etishga xizmat qiladi. Ana shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi oilalarni mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ullikni his etishi, biror-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashshishiga

⁴⁴ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (1992 йил 8 декабрда қабул қилинган). – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. – 21-22-бетлар.

⁴⁵ Каримова О., Faffarov Z. Давлат ва хукуқ асослари / Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 463-бет.

yo'l qo'ymaslik, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqiniksiz amalga oshirish hamda bu huquqlarni himoya qilish kabi vazifalarni ijobiy hal etishga xizmat qiladi⁴⁶.

Oila kodeksining ustuvor qoidalari quyidagilar sanaladi:

- bir nikohlilik;
- nikohga kirishishning erkin va ixtiyoriyligi;
- nikohni bekor qilishda erkinlikka ega bo'lish, er yoki xotinning bu masalaga mustaqil yondasha olishlari;
- barcha oilaviy masalalarni hal qilishda er-xotinning teng huquqqa egaligi;
- millati, irqi, dinga munosabatidan qat'iy nazar er-xotin hamda oiladagi boshqa a'zolarning teng huquqqa egaliklari;
- onalik va bolalikni muhofaza qilish, rag'batlantirish;
- davlat, jamiyatning balog'atga etmagan bolalarni tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlik qilishi va ularning manfaatlarini himoyalashi;
 - oilaviy munosabatlardan jarayonida oila a'zolarining bir-birlarini ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari, bir-birlari to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari.

O'zbekiston Respublikasida qonunchilik asoslari nikohdan o'tishning majburiy shartlari va tartibiga rioya etilishini talab qiladi. Nikohdan o'tishning majburiy shartlari⁴⁷ quyidagilardan iboratdir:

- 1) nikohga kirishayotganlarning o'zaro roziligi;
- 2) tomonlarning nikoh yoshiga etgan-etmaganligi;
- 3) tomonlardan biri nikohda turgan bo'lsa, shuningdek, nasl-nasabi shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tutashgan yoki o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shu bilan birga farzandlikka olinganlar o'rtasida nikohning tuzilishi mumkin emas;
- 4) nikohlanuvchi shaxslarning loqal bittasi ruhiy kasal yoki aqli zaif bo'lsa va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, nikoh tuzish mumkin emas.

Nikoh yoshi O'zbekistonda ayollar uchun 17 yosh, erkaklar uchun 18 yosh deb belgilangan; uzrli sabablar (erkak harbiy xizmatga chaqirilayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan bo'lajak yigit nikohdan o'tish uchun qisqa muddatga yashash joyiga kelgan yoki u yana harbiy xizmatga qaytib ketayotgan, ayol homilador bo'lsa yoki bola tug'sa, shoshilinch ravishda uzoq muddatli xizmat safariga jo'nab ketishga to'g'ri kelsa va b. holatlar) bo'lganida nikoh yoshi bir yilga kamaytirilishi mumkin; bordi-yu, ota yoki onadan biri 16 yoshga to'limgan, ammo ular o'rtasida farzand bo'lган taqdirda ham ushbu holat nikohning qayd etilishi uchun asos bo'la olmaydi; yoshlar FHDYo organlariga ariza berilgan vaqtida emas, balki nikoh qayd etiladigan vaqtida nikoh yoshiga etgan bo'lishlari shart; mamlakat qonunchiligi asoslariga ko'ra nikohdan o'tish yoshining oxirgi muddati belgilanmagan; nikohga kirishuvchilarning yoshi o'rtasidagi farq ham ahamiyatli deb topilmagan.

⁴⁶ Karimova O. Huquqshunoslik / Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007. – 106-бет.

⁴⁷ Ўша маңба. – 107-бет.

Yuqorida qayd etilgan shartlarga asoslanish bilan birga nikohning qayd qilinishi muayyan tartibga asoslanadi. Ushbu tartib quyidagichadir:

O'zbekiston Respublikasida nikohni qayd qilish tartibi	
Bosqichlar	Faoliyat mazmuni
1- bosqich	Nikohga kirishuvchilar nikohdan o'tishdan avval FHDYo (fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish (yozish) organi)ga ariza bilan murojaat qiladilar
2- bosqich	FHDYo organlari xodimlaridan nikohdan o'tish shartlari va tartibi, er-xotin hamda ota-onalarning huquq va burchlari bilan tanishadilar
3- bosqich	Nikohni qayd qilish kuni belgilanadi
4- bosqich	Oradan kamida bir oy o'tgach nikoh qayd qilinadi

Ariza bilan birga FHDYoga nikohga kirishuvchilar tomonidan quyidagi hujjatlar ham topshirilishi zarur:

- a) nikohga kirishayotgan shaxslarning turar-joyi – mahalla Fuqarolar yig'ini (MFY) tomonidan ma'lumotnomasi;
- b) nikohga kirishuvchilarning o'qish yoki ish joyidan ma'lumotnomasi;
- v) nikohga kirishayotgan shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotnomalar (ushbu ma'lumotnomada quyidagi organlar tomonidan berilgan bo'lishi shart):
 - 1) ruhiy kasalliklar dispanseri;
 - 2) teri-tanosil kasalliklari dispanseri;
 - 3) narkologiya dispanserlari;
 - 4) OITS kasalliklarini davolovchi muassasalar;
 - 5) sog'liqni saqlash tizimidagi boshqa muassasalar)

Ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish zarur, nikohga kirishuvchilarning tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi qonunchilik asoslariga ko'ra majburiy xarakterga ega. Bundan ko'zlangan maqsad nikohga kirishayotgan shaxslarni teri-tanosil va OITS kasalliklarining yuqtirib olish, ruhiy kasalliklar yoki giyohvandlik tufayli ma'naviy ziyon etkazilishidan muhofazalash, bola tug'ilishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Agar nikohga kirishayotgan shaxslardan biri FHDYo organiga tibbiy ko'rikdan o'tganlik to'g'risidagi soxta ma'lumotlarni taqdim etgan va unda yuqorida qayd etilgan kasalliklardan biri mavjud bo'lsa, u holda ikkinchi tomon nikohni haqiqiy emas deb topilishini talab qilish huquqiga ega.

Muayyan holda shaxslar nikohdan o'tish huquqiga ega bo'lmaydilar. Ular quyidagi holatlardir:

- nikohdan o'tayotgan shaxslarning bittasi ayni vaqtida nikohda bo'lsa (qonuniy nikohga ega bo'lmay, birga yashash nikohdan o'tishga amalda to'siq bo'la

olmaydi; biroq, ikki yoki undan ortiq nikohga ega bo'lish jinoyat sanaladi va ularga ega bo'lgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi; yangidan nikohga kirishayotgan shaxs avvalgi

- nikohining bekor qilinganligini tasdiqlovchi hujjatni FHDYo organlariga taqdim etishlari zarur; nikohga kirishayotgan shaxslardan biri chet el fuqarosi bo'lsa, u holda ushbu shaxs o'z mamlakatining tegishli organlari tomonidan berilgan va uning nikohga ega emasligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi lozim);

- nikohga kirishayotgan shaxslar (bir ota-onadan tarqalgan qarindosh-urug'lar, tug'ishgan aka-ukalar bilan opa-singillar, otasi yoki onasi boshqa bo'lган aka-ukalar bilan opa-singillar, shuningdek, bolalikka olinganlar bilan bolalikka olganlar) o'rtasida yaqin qarindosh-urug'chilik mavjud bo'lsa;

- nikohlanayotganlardan loaqlal biri ruhiy kasallik yoki aqli zaifligi sababli sud tomonidan muomala layoqatiga ega emas deb topilsa (chunki ular o'z xattiharakatlarining mohiyatini anglay olmaganliklari sababli ularni boshqara olmaydi);

- nikohga kirishayotgan shaxs qattiq mast holatda bo'lganida, giyohvandlik yoki boshqa ruhiyatga ziyon etkazuvchi salbiy holatlar ta'sirida bo'lganida.

D.Ro'zieva, M.Usmonboevalar⁴⁸ning qayd etishlaricha, oilaning ijtimoiy maqomini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi asosiy to'it jihatni ko'rsatish mumkin:

Oilaning ijtimoiy maqomini belgilovchi holatlar		
Nº	Muhim holatlar	Ularning mohiyati
1.	Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy darajasi	Oilaning moddiy holatini belgilab, bu oila daromadlari, turmush darajasi, moddiy jihatdan to'kinligini ifodalaydi (oilaning daromadi yuqori, o'rtacha va past bo'lishi mumkin)
2.	Oiladagi ijtimoiy-ruhiy holat	Oilada sog'lom yoki nosog'lom psixologik muhit mavjudligini anglatadi; oiladagi sog'lom psixologik muhit oila a'zolarining bir-birlari bilan yaqinliklari, o'zaro hamkor, hamfikr va teng huquqli ekanliklarini anglatsa, nosog'lom psixologik muhit esa, aksincha, oilada janjal-nizolarning ko'pligi, oila a'zolarining bir-birlariga nisbatan mehrli, oqibatli emasliklarini ko'rsatadi
3.	Oilaning ijtimoiy-madaniy darajasi	Oila a'zolarining axloqi, atrofdagilar bilan munosabati, ma'lumotlilik darajasi, kasb yoki hunar egasi ekanliklari, oilaning muayyan an'anaga egaligi, oila a'zolarining qiziqishlari, ma'naviy ehtiyojlari, maishiy hayotni bирgalikda tashkil etishlarini ifodalaydi
4.	Oilaning vazifaviy holati (vaziyatli-rolli maqomi)	Oilada ota-onalar, farzandlarning o'zlariga yarasha vazifalari mavjudligini, ularning mehnat taqsimotidagi ishtiroklari, oila xo'jaligini tashkil etishdagi ishtiroklarini belgilaydi

Bizning fikrimizcha, yuqorida ko'rsatilgan mualliflarning fikrlariga qo'shilgan holda oilaning ijtimoiy maqomini belgilovchi yana bir jihatni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. U quyidagi jihatdir: oilaning tarkibiy tuzilmasi – oila a'zolarining soni, tarkibiy tuzilmasi (ota-ona, farzandlar, oilaning keksa avlod vakillari va b.q. a'zolari (amma-xolalar, tog'a-amakilar, jiyanlar va h.k.) uning

⁴⁸ Рўзиева Д., Усмонбоева М. Ижтимоий педагогика / Ўқув қўлл. – Тошкент: Низомий номли ТДПУ нашириёти, 2015. – 34-35-бетлар.

ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy hamda ijtimoiy-madaniy darjasи, shuningdek, vazifaviy holatiga ham o'z-o'zidan ta'sir o'tkazadi. Tarkibiga ko'ra oilaning mehnatga layoqatlari a'zolarga egaligi uning iqtisodiy farovonligiga o'z ta'sirini o'tkazsa, oiladagi jamiki a'zolarning ruhan bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari, hayotiy yondashuvlari hamda mavjud tajribalari yosh avlodning ijtimoiy moslashuv qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etish lozimki, ikki yoki ko'p bo'g'inli oilalarda bir bo'g'inli oilalarga nisbatan farzandlar tarbiyasini tashkil etish imkoniyatlari ko'p. Chunki bu kabi oilalarda har bir bolaning tarbiyasi, jismoniy, ruhiy va ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun bir necha shaxslar birdek javobgar sanaladi. Qolaversa, oila sharoitida har bir a'zoning xatti-harakati farzandlar uchun namuna, ibrat bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ikki yoki ko'p bo'g'inli oilalarda har bir a'zoning o'z xatti-harakatlari, muomalasi, yurish-turishini nazorat, tahlil qilib hamda baholab borishi maqsadga muvofiqdir.

Ota-onalarning huquq va burch (majburiyatlari). Oilaviy munosabatlarni tashkil etishda ota-onalarning muayyan burch va huquqqa egaliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oilaviy munosabatlarning mo'tadil kechishida ota-onalar tomonidan ularning zimmalaridagi burchlarni og'ishmay bajarishlari, ayrim holatlarda esa ota-onalik huquqlaridan foydalana olishi ham ahamiyatlidir. Ota-onalarning huquq va majburiyatlari qonunchilik asoslariga ko'ra tartibga solinishi oilaviy munosabatlarning mo'tadil kechishini ta'minlaydi. Quyida mamlakatimizda amal qilayotgan qonunchilik asoslariga ko'ra ota-onalarning burch va majburiyatlari xususida so'z yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi asoslariga ko'ra huquqiy jihatdan ota-onalarning farzandlar bilan munosabatlari: shaxsiy hamda mulkiy munosabatlar tarzida guruhlanadi.

Huquqiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, ota-onalarning farzandlar bilan bo'ladigan shaxsiy munosabatlariga quyidagilar kiradi:

- 1) ism, otaning ismi va familiyani tanlashi;
- 2) ota-onaning o'z fardantlarini tarbiyalash, shuningdek, farzandlarning ota-onadan tarbiya olishi;
- 3) ota-onaning farzandlari nomidan vakillik qilishlari;
- 4) farzandlarning o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishlari.

Farzandga ota-onaning roziligi asosida ism, otasining ismi va familiyasi qo'yiladi. Agarda ota-onaning familiyasi bir xil bo'lsa, tabiiy ravishda ana shu familiya farzandning ham familiyasi sifatida e'tirof etiladi. Bordi-yu, ota hamda onaning familiyasi turlicha bo'lsa, u holda farzandga ularning kelishuvlari asosida ulardan birining familiyasi qo'yiladi. Shunday holat ham bo'lishi mumkin, ota-onaning familiyasi turlicha va ular farzandga qaysi birlarining familiyasini qo'yish borasida kelisha olmayapti. Bu kabi vaziyatda ular vasiylik qiluvchi organga yozma ariza bilan murojaat qilishlari zarur va ushbu organ yordamida muammo hal qilinadi.

Familiya berish farzand dunyoga kelgach, uning tug'ilganligi ro'yxatga olinayotgan paytda amalga oshiriladi. Agarda ota va ona o'rtasidagi nikoh bekor qilingan bo'lsa, u holda farzand o'zi tug'ilgan vaqtida olgan familiya bilan qoladi.

Bordi-yu, farzand familiyasini o'zgartirgan ota yoki ona bilan qolgan bo'lsa, ota yoki ona farzandning o'z familiyasiga olish to'g'risida vasiylik organiga yozma ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Mazkur vaziyatda bu xususida ikkinchi tomonga ma'lum qilinishi mumkin. Biroq, ikkinchi tomonning roziligi talab etilmaydi. Aksariyat holatlarda farzandni o'z qaramog'iga olgan ota yoki onaning ariza ijobjiy ravishda qondiriladi.

Ota-onalarning farzandlarini ular to voyaga etgunlariga qadar tarbiyalash borasida muayyan majburiyatga egadirlar. Garchi ota-onalarning o'rta-sidagi nikoh bekor qilingan bo'lsa ham ota-onalarning farzandlarini tarbiyalash borasidagi burchlarini zimmalaridan soqit eta olmaydilar. Bordi-yu, ota va ona alohida yashayotgan bo'lsa, u holda farzandning kim bilan yashashini ularning o'zlari hal etish huquqiga egalar. Agarda ota va ona ushbu masalani o'zlari hal qila olmasalar, u holda yozma ariza bilan sud organiga murojaat qiladilar. Sud organi ota yoki onadan qaysi bilan farzand to'g'risida ko'proq g'amxo'rlik qilayotganligini, uning yoshini, bolaning ota-onadan qay biriga ko'proq moyillik bildirishini, uning har tomonlama kamol topishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib bera olish imkoniyatiga egaligini o'rganib chiqadi va qaror qabul qiladi. Nikohdan ajralayotgan ota-onaning qay biri bilan yashashni farzandning o'zi ham hal qilishi mumkin. Biroq, buning uchun u 10 yoshga to'lgan bo'lishi kerak.

Mamlakatimiz qonunchilik asoslariga ko'ra ota-onalarning voyaga etmagan o'z farzandi bilan birga yashash huquqiga ega.

Ota yoki onadan biri ota yoki onalik huquqidan sud organi qarori bilan mahrum etilmagan bo'lsa, u holda farzand ota yoki ona bilan yashashidan qat'iy nazar ikkinchi tomon u bilan doimiy aloqada bo'lish va uning tarbiyasida ishtirok etish huquqini saqlab qoladi.

"Ota bilan ona o'z bolasini qonun yoki sud qarori asosida ushlab turgan har qanday shaxsdan uni qaytarib berishni talab qilishi mumkin. Shu bilan birga sud bunday qilish bolaning manfaatlariga ziddir, degan xulosaga kelsa, bolani o'z ota-onasiga topshirish xususidagi da'veoni rad etishga haqlidir"⁴⁹.

O'z farzandlariga nisbatan vakillikni ham ota-onalar amalga oshiradilar. Ota-onalar o'z farzandlari yoki farzandlikka olingan voyaga etmaganlar uchun qonuniy vakil sanaladilar. Qonuniy vakillik O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi hamda Fuqarolik-protsessual kodeksi asoslari bilan tartibga solinadi.

Ota-onalar balog'atga etmagan farzandlarini nazorat qilib turishga majburdir. 15 yoshga to'limgan farzandlarga etkazilgan zarur uchun huquqiy nuqtai nazardan ota-onalar javob beradilar. Huquqiy asoslarga ko'ra, 15 va 18 yoshlar orasidagi voyaga etmagan bolalar tomonidan ijtimoiy sub'ektlarga etkazilgan har qanday zarar uchun ota-onalar umumiylar tarzda javobgardirlar. Shu sababli ushbu yosh oralig'idagi voyaga etmaganlar tomonidan keltirilgan zararning o'rnini ularning maoshi yoki shaxsiy mulki bilan qoplashning imkonini bo'lmasa, u holda ota-onalar o'z hisoblaridan to'lashlari shart.

⁴⁹ Каримова О., Фаффоров З. Давлат ва хуқуқ асослари / Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 486-бет.

O'z farzandlari yoki farzandlikka olinganlarga nisbatan ota-onan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lism bilan birga ularning tarbiyasi, kamoloti uchun javobgardirlar. Huquqiy nuqtai nazardan ota-onalar farzandlarining sog'ligi, shuningdek, jismoniy, ruhiy ma'naviy-axloqiy kamoloti to'g'risida g'amxo'rlik qilishga majbur sanaladilar. Shu bilan birga farzandlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ham ota-onalarning zimmalariga yuklatiladi.

Qonunan ota-onaning, ota-onalik huquqiga ega bo'lishi farzandlarning manfaatlariga zid tarzida amalga oshirilishi mumkin emas. Farzandlarning manfaatlarini ta'minlash nafaqat huquqiy, shu bilan birga insoniylik nuqtai nazardan ham ota-onaning asosiy vazifasi bo'lishi zarur.

Ota-onalarning, ota-onalik huquqlari farzandlar "o'n sakkiz yoshga to'lganlarida (voyaga etganda), shuningdek, voyaga etmagan bolalar nikohga kirganlarida hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollarda bolalar voyaga etmasdan to'la muomala layoqatiga ega bo'lganlarida tugaydi"⁵⁰.

Farzandlar bilan ularning ota-onalari o'rtasida shaxsiy munosabatlar bilan birga mulkiy munosabatlar ham yo'lga qo'yiladi. Ota-oni va farzandlar o'rtasidagi mulkiy munosabatlar, asosan, aliment va mulkka doir munosabatlar tarzida kechadi.

Qonunga muvofiq balog'atga etmagan farzandlarni boqish ota-onaning zimmasidagi eng asosiy vazifa sanaladi. Hayotda ko'p hollarda ota, kam vaziyatlarda esa onaning o'z farzandlarini tashlab ketishi hodisasi ham kuzatiladi. Shunday vaziyatda sud qaroriga ko'ra farzandlarini tashlab ketgan ota yoki ona aliment to'lashga majbur qilinadi. Aliment to'lashga o'z farzandlarini tashlab ketgan ota yoki ona ularning yoshi, ijtimoiy holati, ish bilan ta'minlanganlik darajasi yoki moliyaviy ahvoldidan qat'iy nazar majburiydir.

"Aliment balog'atga etmagan bolalar foydasiga undiriladi va ish haqidan bolalar soniga qarab foiz hisobida to'lanadi: bir bolaga daromadning $\frac{1}{4}$ qismi, ikki bolaga $\frac{1}{3}$ qismi, uch va undan ko'p bolaga $\frac{1}{2}$ qismi to'lanadi. Ikki yoki undan ko'p bolaga aliment to'lashda har bir bolaga aliment to'lash muddati tugaganligi ko'rsatilishi kerak"⁵¹.

O'zbekiston Respublikasida aliment to'lash tartibi Oila kodeksi asoslariiga muvofiq amalga oshiriladi.

Meros qilib, shuningdek, shartnomaga bo'yicha olingan hamda ishlab topilgan mablag'ga sotib olingan mulkka egalik qilishga farzandlar, shu jumladan, balog'atga etmagan farzandlar ham haqlidirlar. Huquqiy jihatdan farzandlar ham o'zlarining shaxsiy mulki (kiyim-kechaklari, poyafzallari, ish yoki o'quv qurollari, sovg'a sifatida olingan buyumlar, o'yinchoqlar va b.)ga ega. Ota-oni va farzandlarning mulki alohida-alohida bo'ladi. Garchi bir-birlarining buyumlaridan foydalana olsalar-da, farzandlar hayotliklari vaqtida ota-onalarining mulkiga egalik qila olmaganlaridek, ota-onalar ham farzandlarining shaxsiy mulklariga egalik qila olmaydilar.

⁵⁰ Karimova O. Huquqshunoslik / Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007. – 117-бет.

⁵¹ Каримова О., Фаффоров З. Давлат ва хукуқ асослари / Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 488-бет.

Garchi avval O'zbekistonda keng ommalashmagan bo'lsa ham ota-onalar bilan farzandlar o'rtasida mulkdan foydalanish yuzasidan qonunda ko'zda tutilgan turli bitimlarni tuzish imkoniyatiga egalar, shuningdek, ular hissadorlik asosida mulkka ega bo'lislari mumkin. M: ota-onalar va farzandlar hissadorlik asosida uy-joy, dala hovli va xizmat ko'rsatish shahobchalarini qurishlari, ularda hamkorlikda ish yuritishlari mumkin.

Demak, ota-onalar to farzandlari voyaga etgunlariga qadar ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari, boqishlari, ularning har jihatdan kamolga etishlarini ta'minlashlari zarur.

Farzndlarning huquq va burch (majburiyat)lari. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslariga ko'ra farzandlar ham ota-onalarining oldida muayyan burchlarni bajarishlari shart. Respublika Oila kodeksi asoslariga ko'ra farzndlarning zimmasida ularning ota-onalariga nisbatan munosabatlarida quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

- mehnat qobiliyatini yo'qotgan, kasal bo'lgan, boquvchisiz qolgan ota-onasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish;
- ota-onasi davlat yoki jamoat tashkilotlari vasiyligida bo'lgan paytda ularga yordam berish;
- mehnat qobiliyatini yo'qotgan, kasal bo'lgan, boquvchisiz qolgan ota-onasiga (agarda ular talab qilsa) aliment to'lash

Voyaga etmagan farzandlar ota-onalari oldida burchli (majburiyatli) ekanliklari bilan birga ma'lum huquqlarga ham egadirlar. Quyidagilar voyaga etmagan farzndlarning ota-onalari oldidagi huquqlarini ifodalaydi:

- oilada yashash va tarbiyalanish;
- ota va onasini bilish;
- ota-onaning g'amxo'rigan foydalanish;
- oilada har tomonlama kamol topish;
- ota-ona va oilaning boshqa a'zolari tomonidan insoniy qadr-qimmatining hurmat qilinishi;
- ota-onasi va boshqa qarindoshlari (bobosi, buvisi,
- aka-ukalari, opa-singillari va h.k.) bilan ko'rishish;
- o'z huquqlari va boshqa manfaatlarini himoya qilish;
- muayyan voqeа, hodisa va jarayonlarga nisbatan o'z fikrini ifoda etish;
- ism, ota ismi va familiya olish;
- ismi va familiyasini o'zgartirish;
- oilada umumiyl mulk, o'z xususiy mulkiga ega bo'lish va b.q.

Ota-ona oila tarbiyasini tashkil etishda farzndlarning manfaatlariga zid hech bir xatti-harakatni sodir etishi mumkin emas. Aksincha, ularning xatti-harakatlari farzandlar manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishi zarur. Shuningdek, ota-onalarning farzandlar bilan munosabatlari ularning jismoniy hamda ruhiy sog'liklariga, axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim. Oila tarbiyasida ota-

onalar farzandlarga nisbatan shafqatsiz, qo'pol munosabatda bo'lism, ularning insoniy qadr-qimmati, g'ururini poymol etish taqilanganadi. Respublikada amalda bo'lgan qonunchilik asoslariga ko'ra ota-onalaridan farzandlarni mensimaslik, haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Nazorat savollari:

1. Oila jamiyatda qanday o'rinn tutadi?
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida oilaning huquqiy maqomi qanday belgilangan?
3. Respublika qonunchiligiga ko'ra oila qanday huquqiy asos negizida shakllanadi?
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi nechanchi yilda qabul qilingan?
4. Oilaviy munosabatlar qanday huquqiy mazmunga asoslanadi?
5. Ota-onalarning farzandlar oldidagi burchlari nimalardan iborat?
6. Oilaviy munosabatlarni tashkil etishda ota-onalar qanday huquqlarga ega?
7. Farzandlar o'z ota-onalari oldida qanday burchlarga ega?
8. Qonuniy jihatdan farzandlar qanday huquqlarga ega?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2010.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2000.
5. Karimova O. Huquqshunoslik G' Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007.
6. Karimova O., G'afforov Z. Davlat va huquq asoslari G' Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
7. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur G' O'quv qo'll. – Toshkent: "O'qituvchi", 1999.
8. Oila pedagogikasi G' O.Hasanboeva va b. – Toshkent: "Aloqashi", 2007.
9. Safarov O. Oila ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.

Amaliy topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi bilan tanishib chiqing va kichik guruhlarda ushbu normativ-huquqiy hujjat asosida nikoh tuzish tartibi va shartlari (3-bob; 13-17-moddalar) va bolalarning nasl-nasabini belgilash (10-bob; 60-64-moddalar) masalalarining huquqiy asoslarini batafsil o'rganing.
2. "Venn diagrammasi" grafik organayzeri yordamida ota-onalar hamda farzandlarning huquq va burchlarini yoriting.


Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi bilan tanishish asosida kichik guruhlar nikoh tuzish tartibi va shartlari (3-bob; 13-17-moddalar) va bolalarning


nasl-nasabini belgilash (10-bob; 60-64-moddalar) masalalarining huquqiy asoslarini alohida-alohida o'rganib chiqadilar. Har bir guruh o'zi o'rgangan masalaning mohiyati bilan navbatdagi guruhnini tanishtiradi.

2. Ota-onalar hamda farzandlarning huquq va burchlarini yoritishda ikkita diagrammasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. 1-diagrammada ota-onalarning huquq va majburiyatları, 2-diagrammada esa farzandlarning huquq va majburiyatları bayon etiladi. O'qituvchi talabalar faoliyatini osonlashtirish uchun ularni ikki guruhga ajratib, quyidagi topshiriqlarni beradi: 1-guruhga "Ota-onalarning huquq va majburiyatları"ni yorituvchi diagrammani shakllantirish; 2-guruhga "Farzandlarning huquq va majburiyatları"ni yorituvchi diagrammani shakllantirish. Diagrammalarni shakllantirishda guruhlar quyidagi sxemadan foydalanishlari mumkin:

1-guruh. Ota-onalarning huquq va majburiyatları



2-guruh. Farzandlarning huquq va majburiyatları



1. Oilaning tarixiy turlari.
2. Zamonaviy oila turlari.

Tayanch tushunchalar: oilaning tarixiy turlari, matriarxat oila, monogam oila, patriarchal oila, zamonaviy oila turlari, nikoh holatiga ko'ra oila turlari, bolalar soniga ko'ra oila turlari, tarkibiga ko'ra oila turlari, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari xarakteriga ko'ra oila turlari, oila turlarini belgilashga nisbatan M.I.Buyanov va I.P.Podlaso'y yondashuvlari.

Oilaning tarixiy turlari. Ijtimoiy jamiyatning kichik bo'g'ini sifatida oila muayyan xalq, millat yoki elatning milliy xususiyatlari, shuningdek, mavjud tuzum mazmunini o'zida namoyon etadi. Oilaning mustahkam bo'lishi, totuvlik va

farovonlikka erishishi u mansub bo’lgan ijtimoiy tuzumning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivoji, jamiyatda amal qilinayotgan ma’naviy-axloqiy me’yorlar, olib borilayotgan davlat siyosati mazmuni bilan belgilanadi. O’z navbatida jamiyat ma’naviy qiyofasi oilalarda tashkil etilayotgan ijtimoiy tarbiyaning natijasi, samarasiga bog’liqdir. Shu bois asrlar davomida har qanday geografik makon va ijtimoiy zamonda ham yangi oilalarning shakllanishi, oilaviy hayotning yo’lga qo’yilishi, farzandlar tarbiyasini tashkil etish, sulola an’analalarini davom ettirish masalalariga alohida e’tibor berib kelingan. Oilalarning ijtimoiy jamiyatdagi muhim o’rni hamda oila tarbiyasining shaxs kamolotini ta’minlashdagi roli xususida to’xtalib o’tar ekan, O’zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: “Oila bizning xalqimiz uchun millatning ko’p asrlik an’analari va ruhiyatiga mos bo’lgan g’oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir. Respublikada oilalar asosan ko’p sonli bo’lib, ularda turli avlod vakillari birga yashashadi va birga xo’jalik yuritishadi. Bu esa bolalarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy qadriyatlardan, an’analardan bahramand qilish, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Xuddi ana shunday oilalarda odamlar bolalik chog’laridanoq mehnatsevarlikni, kattalarga hurmatni, bilim egallahsha intilishni, vatanparvarlikni o’rganadilar”⁵².

Darhaqiqat, oila muhitida shaxsning har jihatdan barkamol bo’lib voyaga etishi uchun zarur, chunonchi, oila xo’jaligini boshqarish jarayonida oila a’zolari o’rtasida yuzaga keluvchi huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ekologik, estetik va h.k. mazmundagi oilaviy munosabat, muomala, aloqa aralashuvi uning ijtimoiylashuvi, ya’ni, ijtimoiy munosabatlarni yuritish jarayonida erkin, mustaqil harakat qilish layoqatini, qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar mavjud. Shu bois O’zbekiston mustaqilligi sharoitida ijtimoiy jamiyatda yangilanish, keskin o’zgarishlar yuz berayotgan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy raqobat qaror topayotgan o’tish davrida mustahkam oilalarni shakllantirish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Insoniyat hayotining dastlabki bosqichlarida turli urug’lar munosabatlari doirasida oila shakllanmagan. Jinslar orasidagi munosabatlar poligamiya, ya’ni, jinsiy juftliklarni erkin tanlash, almashtirish tamoyili, qolaversa, bolalarni butun urug’ a’zolari bilan birgalikda tarbiyalash asosiga qurilgan.

Ibtidoiy urug’chilik bosqichida inson hayotida juda katta sifat o’zgarishlari yuz berdi. Bu davrda kishilikning ilk jamoasi – dastlabki jamoa bo’lib yashash an’anasi shakllandi. Urug’ jamoasi uning tarkib topishida onalar etakchi o’rin egalladi.

Shu sababli bu bosqich ona urug’i, ya’ni, matriarxat (lot. “mater” – ona va “arche” – ibrido, hokimiyat; aynan “ona hukmronligi”) davri deb ataladi.

“Matriarxatda ayollar hukmron mavqega ega bo’lgan, mulk va nasl-nasab sotsial mavqe ona urug’i bo’yicha o’tgan, nikohdan so’ng er xotin jamoasiga ko’chgan (matrilokal nikoh) yoki er va xotin o’z jamoalarida alohida-alohida yashagan”⁵³. Ona urug’ini bir-biri bilan qon-qarindosh bo’lgan, kelib chiqishi

⁵² Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқолол, иқтисод, сиёсат, мағкура – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 14 -бет .

⁵³ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Конимех – Мирзокуш / 6-том. – Тошкент: “Ўзбекистан миллий

jihatidan bir urug'dan tarqagan kishilar guruhi tashkil etdi. Urug' jamoasi o'rtasidagi munosabatlar guruhli nikohga asoslangan. Ushbu nikohga ko'ra ota nomalum bo'lib, qon-qarindoshlik ona urug'i bo'yicha aniqlangan.

*Ijtimoiy munosabatlarning takomillashuvi, moddiy boyliklarning yaratilishi natijasida birgalikda xo'jalikni boshqarish hamda o'z bolalarini tarbiyalovchi erxotin ittifoqi ko'rinishida **monogom** (yun. "monos" – bir, yakka, yagona, "gamos" – qo'shilishi; bir nikohlilik) oilalar shakllandi.*

Monogam oilalar "ibridoij jamiyatning emirilishi davrida juft nikoxdan paydo bo'lib, nikohning hukmron shakliga aylangan"⁵⁴.


Neolit (yangi tosh) davriga kelib, nikoh bobida garchi ikki urug' jamoasi o'rtasida guruhli nikoh hukmronlik qilgan bo'lsa-da, biroq, nikoh tub mohiyati bilan o'zining dastlabki bosqichdagi holatidan farq qilgan. Keyinchalik matriarxal urug' jamoasi negizida juftlikka asoslangan nikoh va oila vujudga kelgan. Unga ko'ra ayollar o'z farzandlarining otalaridan urug' jamoasi manfaati uchun mehnat qilishni talab qiladigan bo'ldi. Ayollar o'zlari uchun doimiy juftni tanlay boshlagan. Ushbu davrda erkaklar o'zlari mansub bo'lган urug' hamda xotinining urug'i uchun ham mehnat qilishga majbur bo'lган. Garchi juftlikka asoslangan oila shakllangan bo'lsa-da, biroq, ayolning oiladagi huquqlari cheksiz bo'lганligi sababli erkaklar ularga tobe edi.

Matriarxal davrdan keyin shakllanib, hozirga qadar mavjud bo'lган oila shakli – katta erkak etakchiligidagi bir necha avlodni birlashtirgan patriarchal (yun. "pater" "patros" – ota, "arche" – ibrido, hokimiyat; aynan "ota hukmronligi") oiladir.

Patriarxal oila, asosan, ilk xo'jalik jamoasi bo'lган, uning iqtisodiy asosini erga va ishlab chiqarish qurollariga umumiyligi egalik (ishlab chiqarishga ham, iste'molga ham) tashkil etgan⁵⁵. Bu kabi oilalarda munosabatlar a'zolarning iqtisodiy va psixologik o'zaro aloqadorligiga tayangan va avtoritar xarakter kasb etgan.

Ijtimoiy hayotning farovonlashuvi natijasida faqat er-xotin va ularni voyaga etmagan farzandlarini birlashtiruvchi nuklear (juftlikka asoslangan) oila vujudga keldi.

Zamonaviy oila turlari. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etgan har qanday zamonaviy jamiyatda ham oila muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda oilalarning quyidagi shakllari mavjud (1-rasm):



Энци
54 Ў

55 Ў


Энци

Oila va oilaviy munosabatlarga oid manbalarda oilalar, yana shuningdek, quyidagi holatlar bo'yicha ham turlarga ajratiladi:

- 1) nikohning holatiga ko'ra;
- 2) oiladagi bolalarning soniga ko'ra;
- 3) oilaning tarkibiga ko'ra;
- 4) oila a'zolari o'rtasidagi munosabatning xarakteriga ko'ra;
- 5) oilaning ijtimoiy holatiga ko'ra.

Quyidagi va yuqoridagi holatlarga ko'ra oilalarning turlari, ularga xos jihatlar yuzasidan fikr yuritiladi.

Nikohning holatiga ko'ra oilalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin (2-rasm):



2-расм. Никоҳнинг ҳолатига кўра оила турлари

Oilalar, shuningdek, bolalarning soniga ko'ra ham turlarga ajratiladi. Bolalarning soniga ko'ra zamonaviy oilalarning quyidagi turlari mavjud (3-rasm):




3-расм. Болаларнинг сонига кўра оила турлари

Ma'lumki, oilaning tarkibi shu muhitda yashovchi sub'ektlarga ko'ra ham muayyan turlarga bo'linadi. Xususan (4-rasm):



Oilalar, yana shuningdek, ijtimoiy nuqtai nazardan ham turlarga ajratiladi. Shu nuqtai nazardan M.I.Buyanovning g'oyasiga ko'ra oilalarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin (5-rasm):




5-расм. Болаларнинг сонига күра оила турлари

Oila nikohning holati, bolalarning soni hamda mazkur muhitda yashovchi sub'ektlar (tarkibi)ga ko'ra turlarga ajratilish bilan birga oila a'zolari o'rtaсидаги munosabatlarning xarakteriga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi. Yu.P.Azarov bu o'rinda oilalarni quyidagi uchta turga ajratish taklifini ilgari suradi (6-rasm):



**6-расм. Аъзолар ўртасидаги муносабатларнинг
характерига күра оила турлари (Ю.П.Азаров)**

I.P.Podlaso'y ham o'z tadqiqotlarida oila a'zolari o'rtaсидаги munosabatlarning xarakteriga ko'ra oilalarni muayyan turlarga ajratish taklifini ilgari suradi. Pedagog-olimning taklifiga ko'ra bu turdagи oilalar quyidagilardir (7-rasm):



Quyidagi I.P.Podlaso'y tomonidan oila a'zolari o'rtaсидаги munosabatlarning xarakteriga ko'ra turlarga ajratilgan oilalarning tavsifi keltiriladi:

**7-расм. Аъзолар ўртасидаги муносабатларнинг
характерига күра оила турлари (И.П.Подласый)**

1. Bolalar hurmat qilinadigan oilalar. Bunday oilalarda bolalarga hurmat bilan yondashiladi, ularga mehr-muhabbat ko'rsatiladi. Ota-onalar farzandlarning faoliyati bilan qiziqadilar, muammolari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar. Bolalarning fikrlarini hurmat qilgan holda hayotiy masalalarni hal qilishda amaliy yordam ko'rsatishga urinadilar. Farzandlarning qiziqishlari rivojlantiriladi. Bu farzandlarning tarbiyasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu kabi oilalarda bolalar tashabbuskor, mustaqil, ahil, inoq bo'lib voyaga etadilar, o'zlarini baxtli his qilishadi. Ota-onalar ham, bolalar ham oila a'zolarining o'zaro muloqotidan qoniqadilar. Oiladagi shaxslararo munosabatlarda a'zolarning umumiyligi axloqiy qiyofalari aks etadi. Tartiblik, ochiqlik, o'zaro ishonch, munosabatlardagi o'zaro tenglik bu turdag'i oila a'zolari uchun xos bo'lgan asosiy ma'naviy-axloqiy sifatlar sanaladi.

2. Rahmdil oilalar. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar o'rtacha darajada ijobiylik kasb etadi. Biroq, oila a'zolari o'rtasida ota-onalar ham, bolalar ham o'tmaydigan aniq masofa mavjud. Bolalar oilada o'z o'rnilarni bilishadi, ota-onasiga itoat etishadi. Bolalarga nima zarurligini ota-onalarning o'zlarini hal qiladi. Farzandlar gapga qulq soladigan, g'amxo'r, ahil, inoq bo'lib voyaga etishadi, biroq, kamdan kam holatda tashabbuskor bo'lishadi. Ular ba'zan o'z fikriga ega bo'lmaydi, boshqalarga tobe bo'lib qoladi. Ota-onalar farzandlarning qiziqish va ehtiyojlaridan xabardor bo'lishadi. Shu bilan birga farzandlar o'zlarining muammolarini ota-onalari bilan muhokama qilishadi. Bu turdag'i oilalarda namoyon bo'ladi salbiy holat – ota-onalar tomonidan farzandlar rivojlanish dinamikasining hisobga olmaganligi sanaladi. Shu sababli ota-onalarning o'z farzandlariga yanada ko'proq g'amxo'rlik ko'rsatishlari talab etiladi.

3. Iqtisodiy yo'nalgan oilalar. Bu kabi oilalarda asosiy e'tibor oilaning iqtisodiy ta'minlanganligiga qaratiladi. Bolalar yoshligidanoq hayotga amaliy (pragmatik) yondashishga, barcha narsadan o'zlarini uchun qulaylik yaratishga o'rgatiladi. Farzandlar yaxshi o'qishga da'vat etiladi, biroq, asosiy maqsad – oliy ta'lim muassasasiga kirishdangina iborat bo'lib qoladi. Ota-ona va bolalarning ma'naviy dunyosi qashshoq. Oilaviy munosabatlarda bolalarning qiziqishlari hisobga olinmaydi, faqat "foydali" tashabbuslari qo'llab-quvvatlanadi. Buni garchi to'liq ma'noda ijtimoiylashish deb atab bo'lmasa-da, bolalar tengdoshlariga nisbatan ertaroq "voyaga etadilar".


Ota-onalar bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini anglashga intiladi. Farzandlar ham buni tushunishsa-da, biroq, ba'zan ota-onalarning bu boradagi harakatlarini qabul qilisha olmaydi. Buning asosiy sababi – ota-onalarning pedagogik madaniyati nihoyatda past ekanligi bilan belgilanadi.

4. Adovatli oilalar. Farzandlar uchun oila – ular yoqtirmaydigan maskan. Ota-onalar o'z farzandlariga ishonmaydi, ularga nisbatan ishonchsizlik bildiriladi. Bolalar tez-tez jismonan jazolanadi. Farzandlar bir-birlari bilan ahil emas, shu bilan birga ota-onalariga yomon munosabatda bo'lishadi. Oilada farzandlar o'zaro hamda tengdoshlari bilan hamjihat bo'la olishmaydi. Ta'lim muassasasiga nisbatan salbiy munosabat shakllangan. Qolaversa, farzandlarning ba'zan oiladan qochib ketish holatlari ham kuzatiladi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar shunday mexanizmga asoslangan: farzandlarning xulq-atvori, hayotiy qarashlari oilada

ziddiyatlarning kelib chiqishiga sabab bo’ladi, munosabatlar jarayonida hamisha ota-onalar haq bo’ladi. Buning sababi – ota-onalarning hayotiy tajribaga egaliklari, yosh xususiyatlariga ko’ra farzandlar tomonidan ota-onalarning oila rivojidagi o’rni, rolining to’g’ri baholay olinmasligi hisoblanadi. Ota-onalar ko’p holatlarda farzandlarning hulq-atvoridan asosli ravishda xafa bo’lishadi. Biroq, aynan shu holat, bir tomonidan, farzandlarning o’qishlariga ziyon etkazsa, ikkinchi tomonidan, ularning amoral xulq-atvorga ega bo’lishlariga sabab bo’ladi. Ushbu vaziyatlardan chiqish uchun ota-onalar farzandlarining xulq-atvor motivlarini etarli darajada anglashga urinishlari, ular tomonidan ko’rsatilayotgan vaj (bahona) va dalillariga alohida e’tibor qaratishlari talab etiladi.

5. Antisotsial oilalar. Bu turdagи oilaning farzandlari uchun oila – bolalar uchun ularni kutmaydigan, sevmaydigan kishilar istiqomat qiluvchi boshpana sanaladi. Ota-onalar amoral hayot tarzini o’zlashtirib olishgan. Ular o’zaro ziddiyatlarga borishadi, o’zaro munosabatlarda bir-birlariga hamda bolalarga po’pisa qilishadi, spirtli ichimliklar iste’mol qilishadi. Mazkur oilalar tomonidan bolalarga ko’rsatiladigan har qanday ta’sir salbiy xususiyatga ega. Bunday oilalarda yashayotgan bolalar ko’p holatlarda davlat qaramog’iga olinadi⁵⁶.

Ijtimoiy pedagogika sohasida uzoq yillar davomida bir qator tadqiqotlar olib borgan M.A.Galaguzova ijtimoiy holati nuqtai nazaridan oilalarning quyidagi turlarini ajratib ko’rsatish taklifini ilgari surgan (8-rasm):



8-расм. Ижтимоий ҳолатига кўра оила турлари (М.А.Галагузова)

Quyida M.A.Galaguzova tomonidan kuo’rsatilgan oilalar turlariga xos xususiyatlar yuzasidan so’z yuritiladi.

1. Tinch, baxtli oilalar. Bunday oilalar zimmasidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etadi. Ota-onalar o’z farzandlarining qiziqish va ehtiyojlarini tez ilg’aydi. Bordi-yu, oilaviy munosabatlarda muammolar kelib chiqsa, u holda tinch, baxtli oilalarga bir martagina amaliy yordam ko’rsatishning o’zi kifoya qiladi.

2. Barbold bo’lish xavfiga ega oilalar. Bu kabi oilalarning farzandlarida ba’zan me’yordan og’ish holatlari kuzatiladi. Ko’p holatlarda ushbu oilalar farzandlarida ijtimoiy moslashuv qobiliyatining pastligi namoyon bo’ladi. Bunday oilalarda ota-onalar bola tarbiyasini juda qiyinchilik bilan olib boradi. Shu sababli ajralish xavfi bo’lgan oilalar ijtimoiy pedagog tomonidan o’z vaqtidagi beriladigan amaliy yordam, shuningdek, doimiy kuzatuvga ehtiyoj sezadi.

⁵⁶ Подласый И.П. Педагогика. – Москва: Владос, 2003. – С. 207-210.

3. Notinch, baxtsiz oilalar. Bunday oilalar ijtimoiy nuqtai nazardan hayotiy faoliyatning muayyan sohasi bo'yicha past darajaga ega bo'lib, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydi. Ota-onalar hamda farzandlarning ijtimoiy moslashuv imkoniyatlari nihoyatda past. Shu sababli bunday oilalarda bolalarni tarbiyalash jarayoni juda qiyinchilik bilan sekin boradi, ustiga ustak kam holatlarda kutilgan natijaga erishiladi. Notinch, baxtsiz oilalar doimiy ravishda ijtimoiy pedagogning faol, davomiy ko'magiga ehtiyoj sezadi. Bu kabi oilalar ega bo'lган muammolarning xarakteridan kelib chiqib, ijtimoiy pedagogning ularga uzoq muddatli ta'limiy va psixologik yordam ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir.

4. Asotsial oilalar. Bu turdag'i oilalarning ijtimoiy holati ularni tubdan isloh qilishni talab etadi. Mazkur oilalarda ota-onalar amoral, g'ayriqonuniy hayot kechirishadi. Ularning yashash sharoitlari eng oddiy sanitariya-gigienik talablarga ham javob bermaydi. Tabiiy ravishda bolalarning tarbiyasi bilan hech kim shug'ullanmaydi. Shu sababli bolalar nazoratsiz qolishgan. Ular doimiy ravishda yarim och holda yurishgani uchun jismoniy rivojlanishda ortda qolishgan. Ijtimoiy pedagog ushbu oilalar bilan ish olib borganda huquqni muhofaza qilish, vasiylik va homiylik organlari bilan yaqindan aloqa o'rnatishi zarur.

Oilalar turining xilma-xilligi ularning u yoki bu jihatni asos qilib olganligini tasdiqlaydi. Bu esa turli oilalarda farzandlar tarbiyasini tashkil etish jarayonining murakkabligidan dalolat beradi.

Har bir oilaning hayoti ko'p jihatli, ya'ni, ijtimoiy-biologik, xo'jalik-iqtisodiy, axloqiy va psixologik munosabatlarga asoslanishi bilan tavsiflanadi. Shunga ko'ra oilaning rivoji muayyan bosqichda ma'lum vazifaning bajarilishi, yangi vazifaning o'rtaga qo'yilishi, shuningdek, oila a'zolari ijtimoiy faoliyati ko'laming kengayishi, faollik darajasining ortib borishiga bog'liq.

Nazorat savollari:

1. Oilaning qanday tarixiy turlarini bilasiz?
2. Guruhli nikohdan juft nikohga o'tish jarayonining o'ziga xosligi nimalarda ko'rindi?
3. Nikoh holatiga ko'ra oilaning qanday turlari mavjud?
4. Bolalar soniga ko'ra oila turlari o'zida qanday jihatlarni aks ettiradi?
5. Shaxslararo munosabatlarning xarakteriga ko'ra oila qanday turlarga ajratiladi?
6. M.A.Galaguzovaning oilalarni turlarga ajratish borasidagi taklifi qanday g'oyaga asoslanadi?
6. Ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan oilalarni qanday turlarga ajratish mumkin?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
2. Musurmonova O. Oila ma'nnaviyati – milliy g'urur G' O'quv qo'll. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. Oila pedagogikasi G' Hasanboeva O. va b. – Toshkent: Aloqashi, 2007.


4. Podlaso'y I.P. Pedagogika. – Moskva: Vlados, 2003.
5. Safarov O. Oila ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
6. Xo'janiyozov T. Oila tarixi va xuquq. – Toshkent: Adolat, 2006.

Amaliy topshiriqlar:

1. Kishilik tarixi taraqqiyotida shakllangan oilalarga xos tavsiflarni yorituvchi jadvalni shakllantiring.
2. Kichik guruhlarda “Yumaloqlangan qor” strategiyasini qo’llash asosida: 1) nikohning holatiga ko’ra; 2) oiladagi bolalarning soniga ko’ra; 3) oilaning tarkibiga ko’ra; 4) oila a’zolari o’rtasidagi munosabatning xarakteriga ko’ra; 5) oilaning ijtimoiy holatiga ko’ra zamonaviy oilalarning turlari va ularning mohiyatini tahliliy o’rganing.

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko’rsatmalar:

1. Kishilik tarixi taraqqiyotida shakllangan oilalar va ularga xos tavsiflarni yoritishda ham talabalarning kichik guruhlar yoki juftliklarda ishlashlari maqsadga muvofiqdir. Talabalar kichik guruhlar yoki juftliklarda kishilik tarixi taraqqiyotida shakllangan oilalar va ularga xos tavsiflarni yoritishda quyidagi namunadan foydalanishlari mumkin:



3. “Yumaloqlangan qor” strategiyasini qo’llash asosida zamonaviy oilalarning turlari va ularning mohiyatini tahliliy o’rganishda akademik guruh talabalarini 5 ta kichik guruhga ajratish lozim. Kichik guruhlarning har biriga alohida topshiriq beriladi. Har bir kichik guruh quyidagi topshiriqlarni bajaradi:

Guruhlari	Topshiriqlarning mohiyati
1-guruh	Nikohning holatiga ko’ra zamonaviy oila turlari va ularning tavsifi
2-guruh	Oiladagi bolalarning soniga ko’ra zamonaviy oila turlari va ularning

	tavsifi
3-guruh	Oilaning tarkibiga ko'ra zamonaviy oila turlari va ularning tavsifi
4-guruh	Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatning xarakteriga ko'ra zamonaviy oila turlari va ularning tavsifi
5-guruh	Oilaning ijtimoiy holatiga ko'ra zamonaviy oila turlari va ularning tavsifi

OILANING VAZIFALARI

1. Oilaning iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy va kommunikativ vazifalari.
2. Oilaning rekreativ, felitsitologik, regulyativ va relaksatsiya vazifalari.
3. Oilaviy munosabatlarning oila vazifalarini bajarishdagi ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: oilaning vazifalari, oilaning iqtisodiy vazifasi, oilaning reproduktiv vazifasi, oilaning tarbiyaviy vazifasi, oilaning kommunikativ vazifasi, oilaning rekreativ vazifasi, oilaning felitsitologik vazifasi, oilaning regulyativ vazifasi, oilaning relaksatsiya vazifasi.

Oilaning iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy va kommunikativ vazifalari. Har qanday zamon va makonda ham oilaning zimmasiga shaxs kamolotini ta'minlash borasida muayyan vazifalar yuklatiladi. Oila zimmasiga muayyan vazifalarning yuklatilishida jamiyat taraqqiyoti, u tomonidan shaxs kamolotiga qo'yiladigan talablar, aholining ijtimoiy turmush tarzi, shaxslararo munosabatlar mazmuni, davlat siyosati hamda milliy rivojlanish maqsadlari inobatga olinadi.

Zamonaviy sharoitda oilalarning hayoti va faoliyati quyidagi vazifalarni ijobiy hal qilishga yo'naltiriladi:

- iqtisodiy;
- reproduktiv;
- tarbiyaviy;
- rekreativ;
- kommunikativ;
- regulyativ;
- felitsitologik;
- relaksatsiya⁵⁷.

Quyida zamonaviy oilalar tomonidan shaxs kamolotini ta'minlash borasida hal qilinadigan vazifalarning mohiyati yuzasidan bat afsil so'z yuritiladi.

1. Oilaning iqtisodiy vazifasi. Barcha davrlarda ham oilaning iqtisodiy vazifalarni ijobiy hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Zero, oila iqtisodiyoti va uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi uning mavjudligini ta'minlovchi muhim omillar sanaladi. Bozor munosabatlari sharoitida esa oilaning iqtisodiy vazifasini muvaffaqiyatli ado etish layoqatiga ega bo'lishi yanada muhim ahamiyatga ega.

⁵⁷ Oila psixologiyasi / Akad.litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. G.B.Shoumarov va b. G.B.Shoumarovning tahriri ostida. – Toshkent: "Sharq", 2008. – 48-62-betlar.

Iqtisodiy vazifalari sirasida oila iqtisodiyoti va byudjetini shakllantirish, oila daromadini rejali sarflash, oilaning kundalik xarajatlarini amalga oshirish, oilaviy ehtiyojlar uchun mablag' yig'ish, oila xo'jaligini yuritish, moddiy ne'matlar ishlab chiqish kabilar alohida o'rinni tutadi.

Har qanday oila o'zining iqtisodiyoti va byudjetiga ega bo'lishi zarur. O'z iqtisodiyoti va byudjetini shakllantirishda oilaning asosiy hamda qo'shimcha daromad manbalariga egaligi muhim ahamiyatga ega. Oila a'zolarining asosiy daromadi ularning doimiy ish joyidan oladigan oylik maoshlari, izchil olib turiladigan nafaqalar (keksalik yoki bolalik nafaqalari) yoki talaba bo'lgan oila a'zolarining stipendiyalari kabi manbalar negizida shakllanadi. Oila byudjetini shakllantirishga hissa bo'lib qo'shiladigan qo'shimcha daromad manbalari esa – tomorqa, issiqxona yoki yordamchi xo'jalik (chorva mollari, parrandalar)dan olinadigan meva, sabzovot hamda sut mahsulotlari, oilaviy tadbirkorlik (hunarmandchilik, maishiy xizmat ko'rsatish)ni tashkil etish hisobiga topiladigan pul mablag'lari, "suyunchi puli", turli mukofot pullari, oila a'zolarining asosiy bo'limgan ish joyidan oladigan maoshlari sanaladi.

Oila iqtisodiyotini shakllantirishda ota-onalarning iqtisodiy bilimlarga egaliklari, inson mehnatining mahsuli bo'lgan pul mablag'lariga nisbatan ham o'zlarida, ham farzandlarda ijobjiy munosabatni shakllantira olishlari muhim ahamiyatga ega. Sobiq Ittifoq davrida jamiyat hayotining "ijtimoiy tenglik" tamoyiliga asoslanganligi bois boylik, boy bo'lishga nisbatan salbiy munosabat shakllangan edi. Hatto shaxsiy mulkka ega bo'lish davlat nazoratiga olingan, ma'lum darajada o'ziga to'q, boy bo'lgan shaxslar, ularning xatti-harakatlari qoralanar edi.

Bozor munosabatlari sharoitida esa, aksincha, oila a'zolari – ota-onalar, farzandlarning ishbilarmonligi, tadbirkorligi, yaratuvchanligi hamda ushbu sifatlarga egalik asosida qo'shimcha moddiy daromad manbalarini yaratishlari qo'llab-quvvatlanadi. Binobarin, qo'shimcha daromad oilaning farovonligini ta'minlaydi, farzandlarning har tomonlama sog'lom, baquvvat bo'lib o'sishlari, chuqur bilim olishlari uchun zarur, qulay shart-sharoit yaratib berilishini ta'minlaydi. Ota-onalar o'z tadbirkorliklari evaziga farzandlarining shaxsiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga muvaffaq bo'ladilar. Iqtisodiy bilim, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tejamkorlik sifatlariga ega ota-onsa oila muhitida farzandlarning bozor munosabatlariga to'laqonli moslasha olishlariga erishadi.

Oila iqtisodiyotini yaratishda ota-onha va farzandlarning birgalikda uy xo'jaligini yuritishlari, tomorqa va yordamchi xo'jalik mahsulotlarini etishtirishlari, hunarmandchilik buyumlarini tayyorlashlari ko'p tomonlama ahamiyatga ega. Birinchidan, oila a'zolarining birgalikda mehnat qilishlari hamjihatilik, birlikni qaror toptiradi, ikkinchidan, farzandlarda mehnatga ijobjiy munosabat shakllantiriladi, ularda mehnatsevarlik xislati tarbiyalanadi, uchinchidan, bolalar o'zlarini mehnat qilar ekanlar, o'zgalarning mehnatini qadrashga o'rGANADILAR, to'rtinchidan, oila sharoitida tayyorlangan, etishtirilgan mahsulotlarni sotish jarayonida bolalarning iqtisodiy tushunchalari kengayadi, savdo ko'nikma, malakalarini o'zlashtiradi.

2. Oilaning reproduktiv vazifasi. Har qanday zamon va makonda ham oila, eng avvalo, avlodlar davomiyligini ta'minlash, naslni saqlash sanaladi. Dastlab

tayanch tushuncha (“reproduktivlik”)ning lug’aviy ma’nosini anglab olish oilaning reproduktivlik vazifasi mohiyatini to’laqonli tushunish imkoniyatini yaratadi.

Elektron manbalardan birida talqin etilishicha, “reproduktivlik” (lot. “fertillik” (“fertilis”) – nasl qoldirish) tushunchasi “voyaga etgan organizmning nasl qoldirish layoqatiga egaligi”⁵⁸ ma’nosini anglatishga xizmat qiladi. Biologiya, tibbiyat kabi sohalarda “reproduktivlik” tushunchasining antonimi sifatida “bepushtlik” atamasi ishlatiladi. Yuqorida ko’rsatilgan elektron manbada qayd etilishicha, voyaga etgan organizm sifatida odam yoki hayvonning nasl qoldirish layoqatiga ega bo’lmasligi “bepushtlik”, niholning ma’lum yildan so’ng, etarli darajada rivojlangandan keyin ham hosil bera olmasligi “sterillik” (lot. “sterilis” – ko’paya olmaslik) deb yuritiladi. “Salomatlik. Ommabop-meditrina entsiklopediyasi”⁵⁹ esa “bepushtlik” tushunchasi lug’aviy nuqtai nazardan “voyaga etgan organizmning nasl qoldirishga ojizligi”ni ifodalovchi ma’noni anglatishiga urg’u berib o’tiladi.

Ko’pgina xalqlar, shu jumladan, o’zbek xalqida oilani barpo etishdan ko’zlangan asosiy maqsad – sulolaning davomiyligini ta’minalash, nasl qoldirish hisoblanadi. Sulolaning davomiyligini ta’minalash, nasl qoldirish nafaqat shaxsiy, shu bilan birga ijtimoiy ahamiyatga ega masala sanaladi. Farzand ko’rish (nasl qoldirish) ota hamda onaning shaxsiy xarakterga ega xohish-istiklariga ko’ra amalga oshirilsa-da, biroq, bu jarayon jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi ishlab chiqarish kuchining shakllanishi nuqtai nazardan ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Shu sababli insoniyat tarixiy taraqqiyotining deyarli barcha davrlarida avlodlar davomiyligini ta’minalash kun tartibidagi muhim masalalardan biri bo’lib kelgan.

Mustaqillik yillarda O’zbekistonda ham yoshlarda reproduktiv salomatlikni shakllantirishga davlat miqyosida alohida e’tibor qaratildi. Buning isboti “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi hamda unda ifodalangan g’oyalarda o’zining yaqqol ifodasini topgan. Ushbu dasturda “reproduktiv salomatlikni saqlash va sog’lom oilani shakllantirish muammolari bo’yicha yoshlar va yosh oilalar orasida tushuntirish ishlari olib borish”⁶⁰ dolzarb ijtimoiy vazifalardan biri ekanligi alohida ta’kidlangan.

Mazkur masala G’arb mamlakatlarida nikoh va oilaga g’ayriaxloqiy qarashlar qaror topib, ularning muqaddasligiga putur etayotgan, bir jinsli nikoh tobora keng targ’ib etilayotgan, qolaversa, erkak va ayollarning bepushtligiga sabab bo’luvchi omillar (jinsiy organlardagi turli salbiy o’zgarishlar, jinsiy a’zolarning tug’ma nuqsoni (kriptorxizm), shikastlanishi (orxit, epididimit), yallig’lanishi, endokrin tizimi faoliyatining o’zgarishi, irsiy kasalliklar (m: Shereshevskiy, Terner, Daun va b. kasalliklar), Internet sahifalari va ayrim telekanallarda pornografik suratlar, sahnalarning namoyish etilayotganligi, aksariyat yoshlarning real va vizual hayotni ajrata olmayotganliklari, yigit va qizlarning jinsiy jihatdan to’g’ri, etarlicha rivojlanmayotganliklari va h.k.) sonining ortib borayotgan mavjud sharoitda, ayniqsa, o’ziga xos dolzarblik kasb etmoqda.

⁵⁸ Репродуктивность // Wikipedia.

⁵⁹ Саломатлик. Оммабоп медицина энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбек энциклопедияси Бош редакцияси. – 1985. – 41-бет

⁶⁰ “Баркамол авлод йили” Давлат дастури. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2010. – 21-бет.

Farzandning benuqson va sog'lom dunyoga kelishida onalarning roli beqiyos. Biroq, so'nggi yillarda ayollarda ham bepushtlik holatlari tobora ko'proq kuzatilmogda. Ayollarda namoyon bo'ladigan bepushtlik bachadon va ortiqlar (tuxumdon va naylar)ning yallig'lanish kasalliklari (adneksit), so'zak, jinsiy organlar sili, ichki sekretsiya bezlari (tuxumdon, qalqonsimon bez, bo'yrap ustil bezi va boshqalar) faoliyatining buzilishi, balog'atga etish davrida yuqumli (infektsion) kasalliklar bilan og'rish natijasida markaziy asab tizimida ro'y bergan o'zgarishlar, jinsiy organlarning etilmay qolishi (infantilizm) bilan bog'liq⁶¹.

So'nggi yillarda maxsus adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ham "reproduktivlik" yoki boshqacha aytganda, "reproduktiv salomatlik" tushunchalari ko'p qo'llanilmoqda. Yana bir elektron manbada "reproduktiv salomatlik" tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "insonning reproduktiv tizimi shakllanishi va o'z faoliyatini to'la bajara olishini ta'minlaydigan barcha hayotiy jarayonlarda jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan kamolga etganlik holati"⁶². Demak, reproduktivlik insonga xos reproduktiv tizim faoliyatining benuqson ishlashi asosida uning bevosita sog'lom farzand ko'ra olishidir. Shunga ko'ra har bir shaxsning reproduktiv salomatlikka egaligini quyidagi belgilar asosida baholash mumkin: 1) shaxs reproduktiv tizimining salbiy asoratlarsiz, benuqson shakllanishi; 2) reproduktiv tizimning o'z fiziologik vazifasining benuqson bajara olishi; 3) reproduktiv tizim faoliyati jarayonida shaxsning o'zini ma'naviy-axloqiy, jismoniy, fiziologik, aqliy va ijtimoiy jihatdan kamolga etganligini his qila olishi.

Shunga ko'ra "shaxsning reproduktiv salomatligi uning oilaviy hayotga ma'naviy-axloqiy, jismoniy, aqliy va ijtimoiy tayyorligi, er-xotin o'rtasidagi jismoniy yaqinlikning har ikki tomon uchun ham ijobiy xarakter kasb etishiga erishishi, farzand ko'rish xohishining qondirilishi va, eng muhimi, sog'lom farzand ko'ra olishi uchun xizmat qiladi" (N.Ashurova).

Bugungi kunda har bir oilada ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy institutlari bilan hamkorlikda yoshlarning reproduktiv salomatlikka ega bo'lishlarini ta'minlash yo'lida amaliy ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy hamkorlik asosida yoshlarni nikoh va oilaviy hayotga:

- **ma'naviy-axloqiy** (oila uchun mas'ullik, oila va nikohni muqaddas deb bilish, oila sha'ni va oila a'zolarining obro'sini himoya qila olish, er-xotin, shuningdek, ota-onal va farzandlar o'rtasida o'zaro hurmatni qaror toptirish, tasodifiy jinsiy aloqalardan o'zini tiyish),

- **jismoniy** (er-xotin o'rtasidagi jismoniy yaqinlikning har ikki shaxs uchun ijobiy xususiyat kasb etishiga erishish, bu jarayonning ixtiyoriy, hech qanday zo'rlik, majburlashlarsiz kechishiga erishish),

- **fiziologik** (erkakning tug'dirish, ayolning tug'ish qobiliyatiga egaligi),

- **aqliy** (oilaviy hayotni mo'tadil kechishini ta'minlash, ota-onaning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda farzandlar soni, farzand ko'rish davrlarini ixtiyoriy belgilash, homiladorlik muddatlari o'rtasida ma'lum oraliq (interval) bo'lishi

⁶¹ Ўша манба. – 41-бет.

⁶² Репродуктивное злоровье // <http://my.mail.ru/community/uneasyparents>.

zarurligini inobatga olish, istalmagan homiladorlikning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish; vositalari (jumladan, kontratseptsiya vositalari) va metodlaridan xabardor bo'lish, reproduktiv salomatlikka erishishni kafolatlovchi omillar (organizmda bepushtlik kelib chiqish sabablarini bartaraf etish maqsadida jinsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, o'z vaqtida davolanish yoki qo'shimcha reproduktiv texnologiyalardan foydalanish malakalarini o'zlashtirish), vositalar, metodlar hamda xizmatlar to'g'risidagi axborotlardan foydalanish qobiliyatiga egalik);

- **ijtimoiy** (oilani ongli rejajashtirish) jihatdan tayyorlash zarur.

Oila faoliyati reproduktiv nuqtai nazardan *sog'lom farzand ko'rish, uni har tomonlama sog'lom qilib voyaga etkazish*, fiziologik, jinsiy va jismoniy jihatdan *qizlarni onalik, yigitlarni esa otalikka to'laqonli tayyorlashdek vazifalarni hal qilishga yo'naltiriladi*.

Daniyalik olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, "Koka-kola" ichimligini muntazam iste'mol qilish voyaga etgan yigitlarning farzand ko'rish imkoniyatlarini sezilarli darajada pasaytiradi. 2,5 ming nafer yoshlar ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot jarayonida ushbu ichimlikni kuniga 1 litr hajmida muntazam iste'mol qiluvchilarda uni deyarli iste'mol qilmaydiganlardan farqli ravishda farzand ko'rishda muhim element sanaladigan sperma (jinsiy suyuqlik)da spermatozoid (jinsiy hujayra)lar sonining 30 foizga kam bo'lishi aniqlangan. Bu holat bepushtlikka olib keladi. Bir millilitr spermada "Koka-kola" iste'mol qilmaydigan shaxslarda o'rtacha 50 million, yoshlarning sevimli "chanqoq bosdisi" boshqa turdag'i ichimliklar bilan iste'mol qilinganda esa jami 35 million spermatozoid mavjud bo'lishi ilmiy nuqtai nazardan tasdiqlangan.

Jahon miqyosida keng tarqalgan ushbu ommaviy ichimlik, ayollarning ham farzand ko'rish qobiliyatlarini pasaytiradi. Agarda, ayollar farzand ko'rish oldidan hafta davomida qand miqdori yuqori bo'lgan mazkur ichimlikdan 5 yoki undan ortiq hissa (portsiya) iste'mol qilsalar, u holda homiladorlik vaqtida diabetga chalinish xavfi 22 foizga ortadi. Bunday xavf tarkibida qand miqdori yuqori bo'lgan yoki sun'iy moddalar qo'shilgan boshqa "chanqov bosdi" ichimliklar iste'mol qilganda u qadar yuqori bo'lmaydi⁶³.

3. Oilaning tarbiyaviy vazifasi. O'ziga xos tarbiya muhiti bo'lган oila farzandlarning kamolotini ta'minlashda muhim o'r'in tutadi. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyosdir. Bolaning tabiiy alomatlari va nasl-nasabi qanchalik ahamiyatga ega bo'lmasin, tarbiya hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Oilaning tarbiyaviy vazifasi *bolalarda ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik, mehnatsevarlik, jinsiy, ekologik, huquqiy, iqtisodiy fazilatlarni tarbiyalashdan iborat*.

Ota-onalar farzandlarda yoshlikdanoq ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishiga e'tibor qaratishlari lozim. Zero, "oilada uyuştirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, sahovat, insonparvarlik,adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash

⁶³ Репродуктивность // <http://www.malina-mix.com/topic23942.html>.

va h.k.ni shakllantirishdan iboratdir. Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondashuvilaridagi umumiylit, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobjiy natijalarga erishishning omillari sanaladi. Oilada muayyan an'anuning qaror topganligi, unga oila a'zolari tomonidan bildirilayotgan hurmat, shuningdek, keksa avlod vakillarining shaxsi, ularning ijobjiy sifatlari, mehnatda erishgan (garchi u oddiy bo'lsa ham) yutuqlari, atrofdagilar bilan munosabati borasidagi suhbat yoki xotiralarning tashkil etilishi bolalarda hayotiy e'tiqodning shakllanishini ta'minlaydi”⁶⁴.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rgansh asosida shunday xulosalarga kelish mumkin:

- 1) oilaning bolaga ta'siri boshqa har qanday tarbiyaviy harakatlardan kuchli;
- 2) oilada shunday sifatlar shakllanadiki, oiladan tashqari hech qaerda bunday sifatlar shakllanishi mumkin emas;
- 3) oila muhitida shaxsning ijtimoiylashuvi amalga oshadi, shu sababli oilada jamiyat a'zosi – fuqaro, vatanparvar shaxs, bo'lg'usi oila boshlig'i, qonunga rioya qiluvchi huquqiy faol shaxs, iste'molchi voyaga etkaziladi, binobarin, oila qanday bo'lsa, jamiyat ana shunday bo'ladi.
- 4) oila an'analarning davomiyligini ta'minlaydi;
- 5) oilaning muhim ijtimoiy funktsiyasi fuqaroni tarbiyalashda aks etadi;
- 6) oila kasb tanlashga muhim ta'sir ko'rsatadi.

4. Oilaning kommunikativ vazifasi. Odatda oila hayoti uning a'zolari o'rtasida tashkil etiladigan muloqotga asoslanadi. Zamonaviy sharoitda oila a'zolari o'rtasida faol muloqotda bo'lish tanazzulga uchramoqda. Buning asosiy sabablari ommaviy axborot vositalari sonining ortib borishi, ulardan axborot tarqatish ko'laming tobora kengayishidir. Aynan shu hodisalar tufayli har bir shaxs oila davrasida uyushtiriladigan muloqotdan ko'ra ko'proq ommaviy axborot vositalari bilan munosabatda bo'lishni ma'qul ko'rmoqda. Bu esa bir qator salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lyapti: shaxs tobora individualashib bormoqda, ommanning manfaatidan ko'ra o'z qiziqish va intilishlarini ustun qo'ymoqda, o'zgalarning holatiga nisbatan befarqlik kuchaymoqda. Oila davrasida suhbatlar odatda bolalarda kattalar – ota-on, buva-buvi va oilaning boshqa yoshi katta a'zolari namunasida atrof-muhitga, atrofdagilarga nisbatan ijobjiy yoki salbiy bo'lishidan qat'iy nazar munosabatni shakllantiradi. Shu sababli farzandlar ishtirokida tashkil etiladigan suhbatlar doimo yoqimli, insonga ko'tarinki ruh bag'ishlaydigan, bolalarni harakatga, o'qib-o'rganishga undaydigan, ularda o'ziga nisbatan ishonch, atrofdagilarga nisbatan hurmatni uyg'otadigan g'oyalarga asoslanishiga e'tibor qaratish lozim. Suhbatlar mavzusining burch, mardlik, olijanoblik, saxiylik, kamtarlik, atrofdagilarga nisbatan muhabbat, bunyodkorlik, yutuqlar (qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar), biror bir kishining ibratli xattiharakatlari xususida bo'lishi bolalarda yashashga (yashaganda ham mazmunli, unumli

⁶⁴ Педагогика назарияси / Олий таълим муассасалари учун дарслик. Муаллифлар: М.Х.Тохтаходжаева ва б. Проф. М.Х.Тохтаходжаеванинг умум.тахр.остида. – Тошкент: “Moliya-iqtisod”, 2010. – 302-бет.

hayot kechirishga) bo'lgan ishtiyoqni oshiradi, ertangi kunga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, ularni ijtimoiy faol bo'lishga rag'batlantiradi. Oila davrasidagi suhbatlarda kimningdir salbiy xatti-harakati yuzasidan fikr bildirish mumkin. Ammo bu boradagi fikrning bolalarga ibrat uchun aytish, bu kabi hodisalardan xulosa chiqarib olish zarurligini uqtirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Biroq, hech qachon inson shaxsini baholashga urinmaslik, ayniqsa, "uning o'zi yaramas odam", "u hech qachon odam bo'lmaydi", "uning ota-onasi (aka-ukasi, opa-singlisi va b.) ham yaxshi odamlar emas" kabi asosli bo'limgan hukmlarni chiqarishga urinmaslik lozim. Ota-onalar yoki kattalarning shu taxlitda yo'l tutishlari bolalarda atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlikning qaror topishiga sabab bo'ladi. Oxir-oqibat bolalar hamisha kimlarnidir o'zlar bilib-bilmagan holda ayblashni, boshqalarni g'iybat qilishni o'rganishadi. Bolalarni yoshlikdan boshqalar, ayniqsa, kattalarni muhokama qilmaslikka, aksincha, ko'proq o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishga, xatolari ustida fikr yuritishga, ularni to'g'rilash yuzasidan qarorlar qabl qilishga, o'zgalarning mummolariga befarq bo'lmalikka o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Shundagina bolalarda ijtimoiy sub'ektlar bilan to'g'ri, samimiyl muloqotni tashkil etish ko'nikmalari shakllanadi.

Oilaning rekreativ, felitsitologik, regulyativ va relaksatsiya vazifalari. Yuqorida aytib o'tilganidek, rekreativ, felitsitologik, regulyativ va relaksatsiyaga asoslangan munosabatlarni ijobiy, samarali tashkil etilishiga erishish ham oila zimmasiga yuklatiladigan vazifalar sirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Oilaning rekreativ vazifasi. Ijtimoiy jihatdan oila a'zolarining bir-birlariga nisbatan rekreativ (o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatishga asoslangan) munosabat ko'rsatishi sifatida asrlar davomida ushbu kichik birlashmaning qadriyat sifatida shakllanishini ta'minlagan. Oila tomonidan rekreativ vazifaning ijobiy hal qilinishi quyidagilarga erishish imkonini beradi:

- oila a'zolarining salomatligini mustahkamlash;
- birgalikda mehnat qilish va dam olishni tashkil etish;
- oila a'zolarining o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy, psixologik va tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikma-malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- oilaviy tadbirlarni tashkil etishda o'zaro birdamlik, hamjihatlikka erishish;
- oila a'zolaridan biri duch kelgan muammoni oilaning barcha a'zolari tomonidan o'zaro maslahatlashgan holda, yakdillik bilan hal qilish;
- muammo yoki qandaydir qiyinchilikka duch kelgan oila a'zosini yolg'izlatib qo'ymaslik, uni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash.

6. Oilaning feliotsitologik vazifasi. Azaldan oila baxt qo'rg'oni sanaladi. Chunki inson aynan oiladagina o'zini chinakamiga xavfsiz, baxtli his qiladi. Agarda oilada sog'lom psixologik muhit shakllangan bo'lsa, shubhasiz, uning a'zolari o'zaro hamjihatlikda baxtli (feliotsitologik) hayot kechirishadi. Ammo ba'zi oilalarda turli sabablarga ko'ra nosog'lom muhit yuzaga keladi. Oiladagi nosog'lom muhim a'zolarning baxtli emasliklaridan dalolatdir. Sog'lom psixologik muhit mavjud bo'lgan oilalarda har bir a'zosi yaqinlarining baxtli bo'lishlariga o'z hissasini qo'shishga harakat qiladi. Ular o'zaro bir-birlarini hurmat qilishadi, mehr-muhabbat ko'rsatishadi, har qanday vaziyatda ham yordamga tayyor

ekanliklarini amalda namoyish etishadi. Oilada har bir a'zoning qiziqishlari, xohish-istiklarini inobatga olish, shaxs sifatidagi huquqlariga hurmat bilan munosabat bildirishlari ularda shaxsan baxtga erishish imkoniyatini oshiradi. Ota-onalar va oiladagi boshqa yoshi kattalar farzandlarga hukmron sifatida munosabat bildirmasdan, aksincha, ularga hamdard bo'la olishlari lozim.

Har bir shaxs o'z oilasida baxtli bo'lishga haqli. Shu sababli oila o'z a'zolarining baxtli bo'lishi uchun sharoit bera olishi zarur.

7. Oilaning regulativ vazifasi. Har qanday ijtimoiy guruh, uyushma mavjud ekan, uning faoliyati boshqariladi. Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish, ularning faoliyatlari yuzasidan ijtimoiy nazoratni yo'lga qo'yish, oilada otaning ustunligini ta'minlash, shuningdek, otaning oilada alohida obro'ga ega bo'lishiga erishish oilaning regulativ, ya'ni, boshqaruv vazifalari sirasida alohida o'rinni tutadi. Oila faoliyatini boshqarishda uning a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish, ushbu munosabatlarning tartibga solinishida esa mehnat taqsimoti muhim ahamiyatga ega. Bunda, eng avvalo, har bir oila a'zosi zimmasiga ma'lum vazifalarni yuklanishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalar tomonidan oilaning eng kichik yoshli (3-4 yoshli) a'zolari zimmasiga ham ma'lum vazifalarning yuklatilishi qator afzalliklarga ega. Xususan, 1) yoshlikdan mehnat ko'nikmalari shakllanadi; 2) mas'uliyat hissi tarbiyalanib boradi; 3) asta-sekin bolalar ongida oilada o'z o'rniiga egaligi to'g'risidagi tushuncha shakllana boradi.

Bolalar oilada o'zaro hamjihatlikda mehnat qilar ekanlar, o'zlarining hamda boshqalarning mehnatini qadrlashni o'rganadilar. Qolaversa, bir-birlarini hurmat qilish, har qanday vaziyatda ham bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-birlariga o'zro yordam ko'rsatishga odatlanib boradilar. Oilada mehnat taqsimotining oqilona yo'lga qo'yilishi esa ijtimoiy munosabatlarda tartibga erishish, ro'zg'orga baraka kirishini ta'minlaydi. Qat'iy tartib o'rnatilgan oilalarda uning a'zolari o'rtasida o'zaro kelishmovchiliklar yuzaga kelmaydi, janjallar sodir bo'lmaydi.

Oilaning boshqaruv vazifasi sirasiga uning byudjetini yaratish, pul mablag'laridan to'g'ri, oqilona foydalanish ham alohida o'rinni tutadi. Ota-onalar bolalarga yoshlikdan qilinadigan sarf-xarajatlarning miqdori ishlab topiladigan pul mablag'lari summasidan oshmasligiga e'tiborli bo'lish kerakligini, sarf-xarajat qilishdan mavjud pul mablag'inining umumiyligi summasini inobatga olgan holda dastlab eng muhim va muhim narsalarni sotib olish zarurligini o'rgatib borishlari zarur. Oila byudjetining samarali shakllantirilishi va undan oqilona foydalanish ota-onalar tomonidan farzandlarning moddiy qo'llab-quvvatlanishi uchun imkon beradi.

Boshqaruvni tashkil etishda ota-onalar farzandlari xatti-harakatlarini *nazorat* qilib borish zimmalaridagi mas'uliyatli yumush ekanligini unutmasliklari lozim. Farzandlarning kun tartibiga ega bo'lib, unga qat'iy rioya qilishlari ular faoliyati ustidan ijtimoiy nazoratni tashkil etishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Oilada otaning ustunligini ta'minlash, uning oilada alohida obro'ga ega bo'lishiga erishish esa oila a'zolari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarning samarali kechishini, farzandlar tarbiyasining ijtimoiy mazmun kasb etishiga olib

keladi. Shu sababli onalar oilada otaning mavqeini yuqori bo'lishini ta'minlay olishlari zarur. Shundagina farzandlar har bir ishni amalga oshirishda otadan ruxsat va yuzaga kelgan katta-kichik muammolarni hal qilishda maslahat so'rash, duo olishga odatlanib boradilar. Otaning mavqeい yuqori bo'lган oilalarda farzandlar odobli, axloqli bo'lib voyaga ketishadi.

8. Oilaning relaksatsiya vazifasi. Ishlab chiqarish jarayonining tezlashuvi, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlardagi kuchli raqobat zamonaviy sharoitda shaxslarda turli darajadagi zo'riqishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa o'z-o'zidan oilaning relaksatsiya imkoniyatiga ega bo'lishi zarurligini taqozo etadi. Oilaning relaksatsiya vazifasi oila a'zolarining jinsiy, emotsiyal faoliyatini yo'lga qo'yish, ruhiy-jismoniy quvvat va mehnat qobiliyatlarini qayta tiklash⁶⁵dan iboratdir. Oila har bir shaxsning emotsiyal jihatdan to'laqonli shakllanishi mumkin bo'lgan eng qulay maskan sanaladi. Oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan ijobiy munosabatlari, o'zaro bir-birlarini qo'llay olishlari ularda ruhiy xotirjamlik, hissiy barqarorlikni yuzaga keltirsa, ota-onaning farzandlar salomatligi to'g'risida qayg'urishlari, mehnat vositasida chiniqtirib borishlari ularning jismoniy baquvvat bo'lishlari uchun zarur sharoitni yaratadi. Qolaversa, ma'lum muammolarga duch kelgan farzandlarga so'z vositasida dalda berish, oila a'zolarining birgalikdagi dam olishlari jarayonida ota-onaning suv hamda musaffo havo yordamida chiniqishlari uchun sharoit yaratish ularni kuchli ruhiy zo'riqishdan xalos etadi.

Mehnat qobiliyatini yo'qotgan oila a'zosi to'g'risida ota-onada va yaqinlarining qayg'urishlari, unga dalda bera olishlari, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari ham uning salomatligini, jismoniy-ruhiy quvvatini qayta tiklash, mehnat jarayoniga qaytarish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Bu esa o'z navbatida oilaning reklaksatsiya vazifasi to'la-to'kis bajarilishini tasdiqlaydi.

Oilaviy munosabatlarning oila vazifalarining bajarilishidagi ahamiyati. Oila hamda jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila jamiyat talablariga muvofiq faoliyat yuritadi. Jamiyatning rivoji esa, yuqorida aytib o'tilganidek, oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotiga bevosita bog'liqdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo'yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo'lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta'minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ushbu talablarning qo'llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ko'rsatkichi shuncha yuqori bo'ladi.

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Оилавий муносабатлар – ота-оналар ёки боланинг камолоти учун масъул бўлган шахслар (бува-бувилар) ҳамда фарзандлар ўртасида турли йўналишларда ташкил этилувчи муносабатлардир

Ushbu munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.

Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning etuk, barkamol bo'lib voyaga etishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. Sobiq Ittifoq davrida esa oilaning shaxs tarbiyasidagi beqiyos o'rni va roli inkor etilgan edi. Shaxs ijtimoiy muhit vositasida tarbiyalanan edi.

Oilada bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalovchi maskan sanaladi. Shunday ekan, uning muhitida tashkil etiladigan munosabatlarning oila zimmasidagi vazifalarni to'la-to'kis ado etilishiga e'tibor qaratish muhimdir. Oila zimmasidagi vazifalarning samarali bajarilishi, oilaviy munosabatlarning to'g'ri tashkil etilishida ota-onalar tomonidan tanlangan munosabat uslubi muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy sharoitda oilalarda ota-onva farzandlar o'rtasidagi munosabatni o'rganish natijasida barcha oilalar uchun quyidagi to'rtta uslub xos ekanligini ko'rish mumkin:

- 1) avtoritar uslub;
- 2) anomal uslub;
- 3) liberal uslub;
- 4) demokratik uslub.

Quyida barcha oilalar uchun xos bo'lgan to'rtta uslub mohiyati yuzasidan so'z yuritiladi.

1. Oilaviy munosabatlarning **avtoritar uslubga** asoslanishi. Bunda oilada ota-onaning obro'si hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oilada shaxslararo munosabatlarda teng xuquqlilik erkin xatti-xarakat qilish tashabbuskorlik, bolalarning yurish-turishi, xatti-harakati imkon qadar cheklab qo'yiladi. Ota-onva tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy metodi jazolashdan iborat bo'lib qoladi. Buning natijasida farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr hissi asta-sekin yo'qola boshlaydi. Keyinchalik bu tuyg'u farzandlarning ota-onadan uzoqlashishi, begonalashishiga sabab bo'ladi. Oilaviy munosabatlar bolalarni qoniqtirmaydi. Buning natijasida ular odamovilik, tortinchoqlikni o'zlashtira boshlaydilar. Avtoritar uslubga asoslangan munosabatlar odatda qo'rkoq va irodasiz shaxslarning shakllanishiga olib keladi.

2. Oilaviy munosabatlarning **anomal uslubga** asoslanishi. Bu kabi oilalarda oilaviy nizo o'zaro ajralishlarning asosiy manbai sanaladi. Oila a'zolari o'rtasidagi

munosabatlar anomal uslubga asoslanuvchi oilalar sirasiga asosan ota-oni yoki ulardan biri ichuvchi yoki giyohvand bo'lgan oilalar kiradi. Oiladagi anomal holat farzandlarning osoyishta yashashi va o'qishi uchun imkon bermaydi. Mazkur oilalarda hukmron bo'lgan muhit ta'sirida bolalarda asabiylik, xudbinlik, ota-onani hamda oilaning boshqa a'zolarini hurmat qilmaslik, mensimaslik, bo'ysunmaslik, kelishmovchilik kabi salbiy sifatlar shakllanadi.

3. Oilaviy munosabatlarning *liberal uslubga* asoslanishi. Farzand tarbiyasiga bu xildagi munosabatda bo'ladigan oilalarda tashqaridan qaraganda murosasizlik, ko'ngilchanlik, iliq psixologik iqlim, ruhiy barqarorlik hukmrondek ko'rindi. Aslida esa "liberallik" oiladagi har qanday vaziyat beandishalik bilan hal etiladi. Buning oqibatda bolalarning irodaviy sifatlari zaiflashib, ikkiyuzlamachilik, o'zgalar bilan murosa qila olmaslik, kelishmovchilik kabi sifatlari shakllanib boradi.

4. Oilaviy munosabatlarning *demokratik uslubga* asoslanishi. Ota-onaning farzandlarga nisbatan demokratik munosabati uning oilada har tomonlama shakllanishi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan sharoitni yuzaga keltiradi. Demokratik uslubga asoslangan oilaviy munosabatlar, ularni tartibga soluvchi qoidalar farzandlar hayoti va faoliyatini tartibga soluvchi mexanizm hisoblanadi. Bolalar oilada u yoki bu masalalarni bevosita o'zлari to'g'ridan-to'g'ri hal qiladilar. Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi demokratik g'oyalar asosida farzandlarning qiziqish, intilish, xohish-istiklari va manfaatlarini o'zaro muvofiqlashtirish, ularni murosaga keltirish va kelishtirish siyosati yotadi. Ota-onaning farzandiga bo'lgan demokratik yondashuvi oila a'zolarni birlashtiradi, oila mustahkamligini ta'minlaydi. Anglanganidek, ota-onaning farzandga nisbatan demokratik yondashuvi oila muhitida ijtimoiy muammolarni hal etishga yodram beradi.

Har bir oilada ijtimoiy munosabatlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi uning a'zolari ma'nnaviyati, hayotiy intilishlari, maqsadlarida aks etadi. Shuningdek, oila a'zolarining o'zaro ta'siri ota-oni va farzandlar munosabati mazmunini belgilab beradi.

Oilaviy munosabatlar mazmunini belgilovchi muhim mezon oila hayotini tartibga soluvchi ijtimoiy-axloqiy me'yorlar hamda oila a'zolarining axloqidir. Shu sababli ajdodlar oilaviy munosabatlarning ijobiy xarakter kasb etishiga katta e'tibor qaratib kelganlar. Binobarin, jamiyatning rivoji bevosita oilalarning barqarorligi, mustahkamligi hamda ijtimoiy-axloqiy munosabatlarning sog'lomligiga bog'liqdir.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning oilaga bergen ta'rifini izohlang?
2. Zamonaviy oila qanday vazifalarni hal eta olishi lozim?
3. Oilaning iqtisodiy vazifasi nimalardan iborat?
4. Oila reproduktiv vazifasi nima?
5. Oilaning rekreativ vazifasi nimalardan iborat?
6. Oilaning kommunikativ vazifasi nima?

7. Oilaning regulyativ vazifasi sirasiga nimalar kiradi?
8. Oilaning feliotsitologik vazifasi nimalardan iborat?
9. Oilaning relaksatsiya vazifasi deganda nimani tushunasiz?
10. Hozirgi zamon oilasining qanday funktsiyalari mavjud?
11. Oilaviy munosabatlar qanday muhim uslublarga asoslanadi?

Mavzuga oid adabiyotlar:


1. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
2. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi – Toshkent: ? 1999.
3. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Karimova O. Oila huquqi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
5. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1998.

Amaliy topshiriqlar:

1. “Qanday?” grafik organayzeri vositasida kichik guruhlarda zamonaviy oila tomonidan hal qilinadigan vazifalarning mazmunini aks ettiruvchi tasvirni yarating.
2. Oilaviy munosabatlar holatining zamonaviy oila oldidagi vazifalarni hal qilishga ta'siri xususida babs-munozara tashkil eting.
3. Zamonaviy oilalar uchun xos muloqot uslublari mohiyatini aks ettiruvchi jadvalni yarating.

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. Talabalar dastlab kichik guruhlarda ishlab, zamonaviy oila tomonidan hal qilinadigan muayyan vazifalar bilan tanishib chiqadilar. So'ngra talabalar har bir guruh vakili tomonidan bildirilgan mulohazalar asosida jamoa bo'lib “Qanday?” grafik organayzeri vositasida zamonaviy oila oldidagi vazifalarni ifodalovchi tasvirni yaratadilar. Jamoa tomonidan yaratiladigan tasvir taxminan shunday ko'inishga ega bo'lishi mumkin:



2. Oilaviy munosabatlar holatining zamonaviy oila oldidagi vazifalarni hal qilishga ta'siri xususidagi babs-munozara quyidagi mavzuda tashkil etiladi: “Oilaviy munosabatlarning oila vazifalarini hal qilishdagi roli”.

3. Zamonaviy oilalar uchun xos muloqot uslublari mohiyatini aks ettiruvchi jadvalni yarating.

TG'R	Muloqot uslublari	Ularning mohiyati
1.	Avtoritar uslub	
2.	Anomal uslub	
3.	Liberal uslub	
4.	Demokratik uslub	

ZAMONAVIY OILALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1. Zamonaviy oilaning ijtimoiy xususiyatlari.
2. Zamonaviy oilalarning psixologik va pedagogik xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: zamonaviy oila, xususiyat, ijtimoiy xususiyat, zamonaviy oilalarga xos ijtimoiy xususiyatlari, zamonaviy oilalarning psixologik xususiyatlari, zamonaviy oilalarning pedagogik xususiyatlari.

Zamonaviy oilalarning ijtimoiy xususiyatlari. Hozirgi vaqtida zamonaviy oilalar o'ziga xos xarakter va rivojlanish an'anasi ega. Ularni anglab etish, shuningdek, bunday o'ziga xoslikning ota-onalar tomonidan o'z faoliyatlarida hisobga olinishi oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xosliklaridan biri – bu **shahar va qishloq oilalarining ijtimoiy hayot tarzidagi farqda** namoyon bo'ladi. Masalan: qishloqlarda har bir bola o'zining boshqalar tomonidan qattiq nazorat ostida ekanligini his etadi. Bu, bir tomondan, hodisa ijobiy bo'lsa, boshqa tomondan, bunday ijtimoiy nazorat tor manfaatparastlikni keltirib chiqaradi. Shahar hududi katta bo'lganligi sababli bu kabi amaliy nazorat bo'lmaydi. Ko'pgina hollarda garchi ko'p qavatli bir uyda, hatto bir pod'ezdda istiqomat qilsalarda qo'shnilar bir-birlarining farzandlarini tanimasliklari mumkin.

Ota-onsa **qanchalik yuqori ma'lumotga ega bo'lsalar** ularning bolalari ta'lim muassasasida shunchalik muvafaqqiyatli o'qishadi. Zamonaviy ota-onalar ma'lum kasb yoki hunar egalari bo'lib, bolalarning tarbiyasini butunlay bobo va buvilarga topshirib qo'yishgan. Ko'p holatlarda katta avlod vakillari hamda yosh ota-onalar tomonidan bolalar tarbiyasini tashkil etishda qo'llaniladigan metodlarning bir-biriga mos kelmasligi bu jarayonda turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Oilalarning bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy jihatdan turlicha ta'minlanganligi ham oilada bolalarni tarbiyasini tashkil etish jarayoniga jiddiy

ta'sir ko'rsatadi. Odadta har bir oilada bolalarning turli ehtiyojlari uchun oila daromadining 25 foizidan 50 foizigacha hajmdagi mablag' sarflanadi.

Oiladagi farzandlar sonini kamaytirish, tug'ilishning oldini olish – zamonaviy oilalarning o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri. Ayni vaqtida shahar yoki qishloqda bo'lishidan qat'iy nazar oilalarda bir-ikki nafar bola tarbiyalanmoqda. Tug'ilishni kamaytirish ko'plab sabablarga bog'liq murakkab jarayon sanaladi. Bu boradagi asosiy sabablar quyidagilardir:

- 1) ота-онанинг иш билан бандлиги;
- 2) мактабгача таълим муассасаларининг болаларни ўзида етарлича қамраб олмаслиги;
- 3) бола тарбиясида моддий таъминот аҳамиятининг ортиши;
- 4) кулай бўлмаган тураг-жойга эгалик;
- 5) оиланинг хўжалик шароити;
- 6) ота-оналарнинг “ўзи учун яшаш” каби худинона қарашларга эгалиги.

Bugungi kunda tug'ilishni kamaytirish masalasini hal qilishda yana bir pedagogik muammo kun tartibiga qo'yilmoqda. Bu kam bolali oilalarda bolalarni tarbiyalashga doir samarali metodlarni ishlab chiqish va o'rganishdir.

Zamonaviy oilalarga xos bo'lган yana bir ijtimoiy xususiyat **oilaviy ajrimlar sonining sezilarli darajada ko'payganligi** bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtida oilaviy ajrimlarning 90 foizga yaqini oila shakllanishining dastlabki birinchi yilida yosh er-xotinlarning oilaviy hayotga amaliy jihatdan tayyor emasliklari natijasida ro'y bermoqda.

Har bir oila ijtimoiy tuzilma sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funksiyalarini bajaradi. Oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, bir tomondan, jamiyatning oilaga ta'siri, ikkinchi tomondan, oilaning umumiyligi ijtimoiy tuzilmadagi o'rni hamda zimmasidagi ijtimoiy vazifalarni hisobga olish lozim. Zamonaviy sharoitda oila tomonidan hal etiladigan vazifalar xususida o'quv qo'llanmaning avvalgi o'rinalarida batafsil to'xtalib o'tilgan edi. Shu sababli bu xususida qayta so'z yuritishga hojat yo'q.

Zamonaviy oilalarning o'ziga xos asosiy jihatlar xususida so'z yuritilganda muhim tavsiflarni yagona guruhda jamlashning aslo iloji yo'q. Buning sababi oila va oilaviy munosabatlar mavzusida yaratilgan adabiyotlarda oilaga xos asosiy jihatlar borasida turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan: aksariyat manbalarda uy xo'jaligini yuritish, naslni davom ettirish, farzandlarni tarbiyalash hamda oila a'zolarining o'zaro yordami kabilalar hozirgi zamon oilasining muhim jihatlari sifatida ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, U.M.Sverdlov, V.A.Resenov, V.P.Klyuchnikov va boshqalar sotsiolog olimlar esa naslni davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va uy xo'jaligini yuritish oilaga xos asosiy jihatlar ekanligiga urg'u berib o'tadi.

Agarda S.D.Laptenok esa uy xo'jaligini yuritish (maishiy yumushlarni tashkil etish), aholi sonini qayta tiklash, farzandlarni tarbiyalash, shuningdek, ko'ngilli

dam olish (hordiq chiqarish)ni tashkil etish zamonaviy oilalarga xos bo'lgan muhim jihatlar ekanligiga alohida urg'u berib o'tgan bo'lsa, N.T.Yurkevichning ilmiy izlanishlarida zamonaviy oilalarga xos bo'lgan muhim jihatlar sifatida oila a'zolari o'rtasidagi ma'naviy muloqot, seksual faoliyat, bolalarni dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini samarali yuritish uchun zarur shart-sharoitni yaratish, oila a'zolarining ko'ngilli dam olishlarini tashkil etish, ularning bir-birlarini o'zaro moddiy va ma'naviy nuqtai nazarda qo'llab quvvatlashlari kabi holatlarni e'tirof etib o'tadi.

Zamonaviy oilalarga xos bo'lgan muhim jihatlar yuzasidan fikr yuritar ekan, A.G.Xarchev quyidagi holatlarni o'zaro farqlaydi: aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, uy xo'jaligini yuritish, moddiy ne'matlarni iste'mol qilish hamda oila a'zolarining ko'ngilli dam olishlarini tashkil qilish.

Yuqoridagi fikrlardan anglanadiki, bir guruh oilashunos mutaxassislar oilaning asosiy jihatlari xususida turlicha yondashuvlarni bayon etadilar. Ularning e'tirof etishlaricha, oilaga xos muhim jihatlarni shunchaki sanab o'tish emas, balki ularni, bir tomondan, kishilarning moddiy, xo'jalik-maishiy, ikkinchi tomondan, emotsiyal, ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondirishdagi imkoniyatlarini farqlash muhim sanaladi.

Zamonaviy oilalarning psixologik va pedagogik xususiyatlari. Yosh ota-onan nikohdan o'tmasdan avval oilaviy hayotni tashkil etish hamda farzandlar tarbiyasini yo'lga qo'yishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari zarur. Nikohdan keyin esa bu boradagi mas'uliyatni yanada teran his etgan holda o'z ustilarida izlanishlari, farzand tarbiyasini to'g'ri tashkil etish borasidagi ma'lumotlarni o'zlashtirishga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqli. Biroq, ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, oilaviy hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarning barchasi ham bu borada etarlicha **pedagogik bilimlarga** ega emas. Bu esa ota-onalarni kerakli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, mazkur adabiyotlarni o'qib-o'rganishni ular orasida keng tashviq etishni talab etadi.

Zamonaviy sharoitda ommaviy axborot vositalari (OAV), ayniqsa, Internet tarmog'i orqali axborotlar tarqatilishining qulayligi, ular hajmining ko'pligi kabi sabablar tufayli ota-onalar oilaviy munosabatlar hamda oilada bolalar tarbiyasini samarali tashkil etishga oid **maxsus adabiyotlarni o'qishga etarlicha e'tibor qaratishmayapti**. Jamiyatning asosiy maqsadi har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashdir. Bunga esa kitobga mehr qo'ygan ona-onalar sonini ko'paytirish orqali erishiladi. Zero, hech bir vosita, shu jumladan, OAV ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirishda kitob (maxsus adabiyot) o'rnini bosa olmaydi. Qolaversa, kitobxon ota-onalarning shaxsiy namunasi oila muhitida bolalarning kitob o'qishga, kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Kitob o'qish esa qator afzalliklarga ega. Xususan: 1) bolalar hayot va uning mazmunini erta anglaydilar; 2) turli hayotiy vaziyatlarda oqilona, to'g'ri yo'l tutishni o'rganadilar; 3) ularda fikrlash qobiliyati rivojlanadi; 4) jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yorlardan xabardor bo'lib, ularning ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri baholashni o'rganishadi; 5) asar qahramonlari misolida haqiqat va haqsizlik, erkinlik va erksizlik, ezgulik va yovuzlik, yaxshi va yomon, oq va qoraning mohiyatini

anglash imkoniyatiga ega bo'lgan holda o'zlarida muayyan axloqiy sifatlarning shakllanishiga erishadilar.

Zamonaviy taraqqiyotning tezkorligi, shuningdek, "ommaviy madaniyat" nomi ostida targ'ib etilayotgan g'oyalarning turli mintaqalar hududiga keng yoyilayotganligi tufayli bugungi kunda oila tarbiyasini tashkil etishda avvalgidek yuqori samaradorlik ko'zga tashlanmayapti. Shu sababli oilashunos olimlar oila tarbiyasi samaradorligini oshirish borasidagi tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishga jiddiy e'tibor qaratmoqdalar. Quyida ana shunday tavsiyalar xususida so'z yuritiladi.

1. Oiladagi tarbiya jarayonining qoniqarsizligi sabablari va ularni bartaraf etish. Bolalarning oila muhitida qoniqarsiz tarbiyalanayotganligining asosiy sabablari orasida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. *Oila iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi.* Bugungi kunda ota-onalar garchi ish bilan ta'minlangan va barqaror oylik maoshlarini olib tursalar-da, biroq, oila a'zolari ehtiyojlari (Masalan: oilaning har bir a'zosini mobil telefon (ular uchun oy sayin xizmat to'lovi zarur), Notebook, Netbook bilan ta'minlash, shuningdek Internet xizmatidan foydalanish borasidagi ehtiyojlar)ning kun sayin ortib borishi tufayli oila byudjetini shakllantirish va undan oqilona foydalanishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Bu esa o'z-o'zidan ota-onalarni asosiy ishidan tashqari qo'shimcha daromad topishga imkon beruvchi mehnat bilan uzlusiz shug'ullanishlarini taqozo etadi. Asosiy vaqtlarini mehnatga sarflanayotgan ota-onalar tirikchilik vositalari (ish haqi, oziq-ovqat mahsulotlari, xom ashyo va b.q.)ni ishlab topish uchun sarflanmoqda.

2. *Turmush tarzini yo'lga qo'yishga nisbatan ongli yondasha olmaslik:* Aksariyat ota-onalarda zo'rma-zo'raki hokimiyatga intilish, ijtimoiy tanglik, ertangi kunga nisbatan ishonchsizlik, ishidan ayrılib qolishdan qo'rqish holatlari kuzatiladiki, bu ularning haddan tashqari jismoniy va ruhiy zo'riqishlariga sabab bo'ladi, buning natijasida turli kasalliklarga chalinish holatlari kuzatilmoqda.

3. Zamonaviy oilada *ayollarning zimmasiga keragidan ortiq mas'usuliyatning yuklanayotganligi.* Bugungi kun ayolining zimmasiga ham ish joyida, ham uyda ularning imkoniyatlaridan ortiq majburiyatlar yuklatilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, bugungi kunda shaharlik ayollar haftasiga 77 soat mehnat qilishsa, shundan 36 soatini uy yumushlarini bajarishga sarflaydi.

4. *Oilaviy ajrimlar sonining yuqoriligi.* Bu holat ko'plab ijtimoiy-maishiy hamda ma'naviy-axloqiy sabablar tufayli kelib chiqmoqda. Barcha davrlarda ham oilaviy ajrimlar bolalar uchun kuchli ruhiy zarba bo'lib, bu ularning axloqi hamda ruhiyatiga keskin salbiy tasir ko'rsatadi.

5. *Ota va onaning bolalar tarbiyasini tashkil etishda birdek mas'uliyatli emasliklari.* Aksariyat oilalarda erkak kishi – oila boshlig'i asosan oilaning iqtisodiyoti va moliyaviy masalalarini hal etishi lozim, bolalar tarbiyasi esa to'la-to'kis onaning zimmasida, degan tushuncha shakllangan. Bugungi kunda ayrim otalarda hatto "bolalarni boqish oilaning emas, balki onaning majburiyati" qabilidagi tushuncha shakllanmoqda. Bu kabi noto'g'ri qarashning yuzaga kelishiga ko'p holatlarda ayollarning o'zlarini ham sababchi bo'lishmoqda. Ular

erkaklarni amaliy harakatga rag'batlantirish o'rniga "Siz ishlab topmasangiz, men o'zim mablag' topaman" deyishga o'tishgan.

6. *Avlodlar orasidagi ziddiyatlarning kuchayib borayotganligi*. So'nggi paytlarda oilalarda u yoki bu arzimas sabablarga ko'ra turli mojarolar yuzaga kelmoqda. Asosiy ziddiyatlar qaynona-kelin o'rtasida kelib chiqayotganligi o'zbek xalqiga xos asriy an'analar unutilayotganligidan dalolatdir. Zero, asrlar davomida buvi va qaynonalar kelinni o'z oilalariga qiz sifatida qabul qilib, unga uy-ro'zg'or yuritishni, atrofdagilar bilan muomala qilishni o'rgatishgan bo'lishsa, bugungi kunda hali hayotiy tajribaga ega bo'lмаган kelindan ham qaynota-qaynonaga xizmat qilish, uy-ro'zg'or ishlarini bekamu ko'st bajarish, qolaversa, agar u ta'lim olayotgan bo'lsa, o'qishini davom ettirish yoki ishslash (pul mablag'ini ishlab topish) talab etilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan yosh kelinda jismoni y va ruhiy zo'riqishni yuzaga keltirmoqda. Oilaviy mojarolarning tobora avj olayotganligi ba'zan o'lim holatlarini ham keltirib chiqarmoqda.

7. *Oila bilan ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning uzluksiz bo'lishiga erishila olmayotganligi*. Ayni vaqtda O'zbekistonda ta'lim muassasasi, mahalla va oila o'rtasida mustahkam hamkorlikni qaror toptirilishini ta'minloashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim muassasasi, mahalla va oila hamkorligi Kontseptsiyasi ushbu e'tiborning yorqin misoli sanaladi. Kontseptsiya g'oyalari ta'lim muassasasi, mahalla va oila o'rtasidagi hamkorlik asosida yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etilishini ifodalandaydi. Mazkur g'oyalalar qanchalik ezgu bo'lmasin, biroq, ularga amal qilishda ta'lim muassasalari va oilalarning tashabbuskorligi etarlicha bo'lmayapti. Bu esa o'z-o'zidan oilalarda tashkil etilayotgan bolalar tarbiyasining kutilgan darajada qoniqarli bo'lmasligiga olib kelmoqda.

Ta'lim muassasasi, mahalla va oila hamkorligi Kontseptsiyasi g'oyasiga ko'ra ijtimoiy pedagoglar oilaviy masalalarni hal qilish, oila hayotiga doir turli muammolarni bartaraf etishda ota-onalarga amaliy yordam ko'rsata olishlari zarur. Ijtimoiy pedagog tomonidan o'z faoliyatining rejali amalga oshirilishi kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Hayotiy tajribalar *ijtimoiy pedagog faoliyatining quyidagi reja asosida tashkil etilishi* maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda:

- oiladagi munosabatlarni insoniyashtirish (bugungi kunda ota-onaning farzandlarga nisbatan avtoritar munosabati, ularning oldiga qo'yayotgan talablari o'zini oqlamaydi; aksincha, samimiylig, yaxshilik, ko'rsatiladigan aniq amaliy yordam, ota-onaning oila muammolariga qiziqishlari, ota va onaning o'zaro hamjihat, hamfikr ekanliklari, oila hayotiga oid turli masalalarni birgalikda, o'zaro maslahatlashgan holda hal qilish farzandlar kelajagining porloq bo'lishini ta'minlaydi);

- mahalla va oila imkoniyatlarini birlashtirgan holda turli oilalarga tegishli muammolarni samarali hal qilish;

- oila masalalari bilan shug'ullanuvchi turli ilmiy markazlar, nodavlat tashkilotlar, gumanitar yordam jamg'armalar faoliyatlarini o'zaro uyg'unlashtirish, hamkorlikda oila sharoitida bolalarni samarali tarbiyalashga doir maxsus dasturlarni ishlab chiqish.

Har qanday jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi shaxslararo munosabatlar ko'lami va mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston

Respublikasida bozor iqtisodiyoti munosabatlarining qaror topishi shaxslararo munosabatlar doirasining yanada kengayishi va bir qadar murakkablashuviga olib keldi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotida axborotlar, ularning almashinishi va tezligi ustuvor ahamiyatga ega. Axborotlar almashinuvi turli madaniyatlar, shuningdek, G'arb va Sharq axloqiy qarashlarining o'zaro uyg'unlashishini ta'minlaydi. Bu ijobjiy hol bo'lib, jamiyatning, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Biroq, so'nggi yillarda G'arb va Sharq madaniyati hamda axloqiy qarashlarining o'zaro uyg'unligi ilg'or xususiyat kasb etishi bilan birga milliy qadriyatlarning muayyan darajada inkor etilishiga sabab bo'lmoqda. Boshqada aytganda, "G'arbdan namuna olish" an'anasi yuzaga kelmoqda. Shu sababli millatning milliyligini ifodalovchi milliy madaniyatni saqlab qolish, milliy axloqiy qarashlarning avloddan avlodga meros bo'lib o'tishini ta'minlash oilaning o'ziga xos o'rni mavjudligi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oila shaxsni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda etakchi tarbiya maskani hisoblanadi. Zero, katta yoshli oila a'zolarining milliy axloqiy qarashlari va yondashuvlari misolida farzand atrofdagilar bilan munosabatda milliy axloq mezonlari (ota-onaloyi keksalarni qadrlash, kattaga hurmat, kichikka izzat, tongda turib, ezgu niyatlar qilish, shaxsiy manfaat va qiziqishlarining oila sha'ni va obro'siga ziyon etkazmasligi, mehmondo'stlik, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash, qo'ni-qo'shnilar bilan yaxshi munosabatda bo'lish, o'zgalardan yordamni ayamaslik, imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan rahm-shafqat va muruvvat ko'rsatish va b.q.)ga rioya qilish ko'nikmalarini o'zlashtirib boradilar. "Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi"⁶⁶.

Oila ijtimoiy maqomining yuqori bo'lishi, oilaviy munosabatlarning milliy xususiyat kasb etishida uning demografik holati muhim ahamiyatga ega. Ya'ni:

1) ko'p bolali o'zbek oilalarida patriarchal tartibning saqlanib qolayotganligi oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi hamda oila tarbiyasi samaradorligini ta'minlovchi omil va ko'nikmalarning avloddan-avlodga o'tishini ta'minlaydi. Bunday oilalarda jamoaviylik katta kuch bo'lib, yuzaga keluvchi har bir muammo bирgalikda hal qilinadi;

2) kam bolali o'zbek oilalarida individuallik, "men"lik ustuvor o'rinni tutadi. Ota-onaloyi katta yoshdagagi oila a'zolari bola (bir nafar) yoki bolalar (ikki nafar)ning xohish-istiklarini doimiy ravishda inobatga oladilar. Ularning shaxsiy manfaatlari oilaning umumiy manfaatlaridan ustun turadi, iste'molchilik kayfiyati yuqori.

Zamonaviy oilalarga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri – bu huquqiy mazmundagi oilaviy munosabatlarning tartibga solinishi sanaladi. Oilaning

⁶⁶ Педагогика назарияси ва тарихи. Педагогика назарияси. 1-қисм / Олий таълим муассасалари учун дарслер. М.Х.Тоҳтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. М.Х.Тоҳтаходжаева ва б. – Тошкент: "Iqtisod-moliya", 2007. – 285-бет.

huquqiy xususiyatlari o'quv qo'llanmaning "Oilaning huquqiy asoslari. Ota-onalar va farzandlarning huquq va burch (majburiyat)lari" mavzusida bat afsil yoritilganligi bois shu o'rinda ushbu masalaga qayta to'xtalib o'tishga hojat yo'q. Talabalar mazkur holatda avval o'zlashtirgan bilimlarini yodga oladilar.

Shunday qilib, oilalarda oila a'zolari sonining qisqarishi, avlodlarning uzoqlashuvi oila tarbiyasiga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirishni taqozo etmoqda. Ana shunday yondashuvlardan biri – bu oilalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish hisoblanadi. Ijtimoiy pedagoglar tomonidan oilaga tarbiyaviy yordam ko'rsatishda uning qarindoshlikka asoslanib, oila a'zolarini birga yashashlarini ta'minlovchi kichik ijtimoiy guruh yoki oila a'zolarining kundalik hayot kechirishlarini ta'minlovchi ijtimoiy institut sifatidagi rolini kuchaytirishga e'tibor qaratish zarur.

Nazorat savollari:

1. Zamonaviy oilalarning o'ziga xos xususiyatlari nimlarda aks etadi?
2. Shahar va qishloq oilalarining ijtimoiy hayat tarzida qanday farqlarni ko'rish mumkin?
3. Oilaning ijtimoiy funktsiyalari nimalardan iborat?
3. Zamonaviy oilalarda tashkil etiladigan tarbiya jarayonining qoniqarsiz bo'layotganligining asosiy sabablari nimalar bilan izohlanadi?
4. Sizningcha, zamonaviy oilalarda tashkil etilayotgan tarbiya jarayonida namoyon bo'layotgan salbiy holatlarni bartaraf etishning samarali yo'llari qaysilar?
5. Zamonaviy oilalar rivojining psixologik o'zga xosligi qanday holatlar bilan tavsiflanadi?
6. Bugungi kun oilalari rivojiga xos pedagogik xususiyatlar nimalardan iborat?
7. Oilaviy munosabatlarning milliy xususiyat kasb etishida oilaning demografik holati qanday ahamiyatga ega?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Oila farovonligi - millat farovonligi G' O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i maruzasi. Xalq so'zi, 1997 yil 5-dekabr.
2. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. Karimova V. Oilaviy hayat psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi.– Toshkent: O'qituvchi, 1998.

Amaliy topshiriqlar:

1. Quyidagi matnlar bilan tanishib chiqing va ularda oilaga xos qanday xususiyatlari aks etganligini aniqlang.

A. Oilaviy kitobxonlik shaxsning madaniy saviyasini oshirishda yo'lga qo'yish mumkin va lozim bo'lgan faoliyat turidir. Buning uchun ota-onasini yoki oiladagi yoshi va ta'siri ulug' kishi tashabbus ko'rsatib, oila a'zolarining umumiyligi qiziqishlarini hisobga olgan holda biror kitobni tanlab kechki ovqatdan so'ng qiroat bilan o'qib berishi kerak bo'ladi. Oilaviy kitobxonlik har kuni yoxud haftaning ma'lum kunlari qat'iy tartibda yo'lga qo'yilsa, bolalarda badiiy kitobga qiziqish o'z vaqtida va qat'iy tarzda shakllanadi.

V. Ota-boblarimiz farzandlarga hamisha bir-birlari bilan inoq, totuv, hamdard, hamfikr bo'lib yashash inson hayotida juda muhim ahamiyatga ega ekanligini uqtirib kelganlar... Oilada tinchlik-totuvlik, halovat ko'p jihatdan aka-ukalarning ahilliklariga bog'liq. Odatda og'alar o'z inilariga yaqin do'st, maslahatchi bo'ladilar, ukalar o'z yo'lini topib olguncha, ularga moddiy va ma'naviy yordam berib turadilar. O'zbek odatlariga ko'ra, katta o'g'llar o'z kiyim-kechaklarini, asbob-anjomlarini, qalam-dovot, kitob-daftarni avaylab tutadilar. Chunki bu buyumlar o'zlaridan keyin ukalarga o'tadi.


S. Oilaviy an'analar – oilaning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan, oila a'zolari ma'naviy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy hodisa. Oilaviy an'ana ... oila a'zolari e'tirof etgan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi. Oila ichidagi yaxshi munosabatlar shaxsning har tomonlama shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy an'analar bu munosabatlarni yanada mustahkamlaydi va bolalarga ularning ta'sirini kuchaytiradi. Ular madaniyat va ma'naviy hayotni rivojlantirishda, avlodlar vorisligini ta'minlashda, jamiyat va shaxsning barkamol rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

2. Kichik guruhlarda “Baliq skeleti” grafik organayzeri yordamida zamonaviy oilalarga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. Talabalar matnlar bilan tanishish jarayonida zamonaviy oilalar odatda ijtimoiy, pedagogik, psixologik va huquqiy xususiyatlarni aks ettirishini yodda tutishlari kerak. Tavsiya etilgan matnlar o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy, pedagogik va psixologik xususiyatlarni namoyon etadi. Ularni aniqlash esa talabalarning zimmasiga yuklatiladi.

2. Talabalarning kichik guruhlarda ishlash asosida zamonaviy oilalarga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlashtirar ekanlar, “Baliq skeleti” grafik organayzeridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Zero, ushbu grafik organayzer ham boshqa grafik organayzerlar kabi tahlil etilayotgan holat mohiyatini yaqqol aks ettirishga xizmat qiladi. Topshiriqni bajarishda talabalarning e'tiborlariga grafik organayzerning quyidagi namunasi taqdim etiladi:



II BOB. OILADA FARZAND TARBIYaSINING TASHKIL ETILISHI OILA TARBIYaSINING MAZMUN-MOHIVATI

1. Oilada tashkil etiladigan ma'naviy-axloqiy tarbiya.
2. Oilada aqliy tarbiyani tashkil etish.
3. Oilada bolalarni mehnatsevarlik va estetik ruhda tarbiyalash.
4. Oilada jismoniy va jinsiy tarbiyani tashkil etish.
5. Oilada ekologik va huquqiy tarbiyani yo'lga qo'yish.
6. Oilaning bolalarni iqtisodiy munosabatlarga tayyorlashdagi o'rni.

Tayanch tushunchalar: tizim, oilaviy muhit, ma'naviy-axloqiy tarbiya, oilada bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, oilada bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya, oilada jismoniy tarbiyani tashkil etish, oila sharoitida bolalarni iqtisodiy munosabatlarga tayyorlash.

Oilada tashkil etiladigan ma'naviy-axloqiy tarbiya. Axloq barcha insoniy munosabatlarning asosi bo'lganligi sababli ijtimoiy tarbiyani negizida bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Pedagogik manbalardan birida oilada "ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish maqsadi ko'zlanadi"⁶⁷. Yuqoridagi fikrga tayangan holda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, oilada yoki ta'lim muassasalarida bo'lishidan qat'iy nazar ma'naviy-axloqiy tarbiya quyidagi yo'naliishlarda tashkil etiladi:

- 1) болалар онгига одоб, ахлоқ ва ахлоқий сифатлар каби тушунчаларни шакллантириш;
- 2) мавжуд назарий тушунчалар асосида болаларда муайян маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш;
- 3) болаларда ижтимоий ва табиий борлиққа нисбатан ижобий ахлоқий муносабатни шакллантириш.

⁶⁷ Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. – 98-бет.

Ota-onalar oila sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyani uyushtirishda bolalarning eng oliv axloqiy sifatlar – ota-onani hurmat qilish, oilaning katta yoshli a'zolarga g'amxo'rlik ko'rsatish, atrofdagilarga mehr-muhabbatli bo'lism, kattalarni izzat qilish, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, kamtarlik, insonparvarlik, or-nomus, g'urur, vijdon, saxiylik, har qanday jarayonda ham adolatl bo'lism, intizomlilik, ijtimoiy faollik, chin fuqarolik, oilaparvarlik va boshqalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

"Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondashuvilaridagi umumiylig, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi. Oilada muayyan an'anuning qaror topganligi, unga oila a'zolari tomonidan bildirilayotgan hurmat, shuningdek, keksa avlod vakillarining shaxsi, ularning ijobiy sifatlari, mehnatda erishgan (garchi u oddiy bo'lsa ham) yutuqlari, atrofdagilar bilan munosabati borasidagi suhbat yoki xotiralarning tashkil etilishi bolalarda hayotiy e'tiqodning shakllanishini ta'minlaydi"⁶⁸.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya negizida vatanparvarlik tarbiyasi, uni tashkil etish ham muhim o'rinn tutadi. Mustaqillik yillarda oilalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Zero, mamlakat mustaqilligi va yurt ozodligi vatanparvar shaxslarning sa'i-harakatlari evaziga ta'minlanadi. Vatan mustaqilligiga erishish qanchalik qiyin bo'lsa, uni himoya qilish, mustaqillikni saqlab qolish ham shunchalik murakkab jarayondir. Shu sababli oilalar ham ta'lim muassasalari kabi mamlakat mustaqilligini himoyalashga tayyor bo'lган vatanparvar shaxslarni tarbiyalab voyaga etkazishga o'z hissasini qo'sha olishi kerak. Oilada vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etar ekanlar, ota-onalar, eng avvalo, o'z farzandlari ongiga vatanparvarlik va vatanparvar shaxs tushunchalarini singdira olishlari lozim bo'ladi.

Vatanparvarlik – shaxsning o'zi mansub bo'lган millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi, uning porloq istiqboliga bo'lган ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Vatanparvar – bu o'z Vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevadigan, vatan manfaatlari uchun kurashadigan, bu yo'lida fidoiylik ko'rsatadigan shaxs⁶⁹.

Shu bilan birga ota-onalar o'z farzandlari bilan birgalikda vatanparvarlik mavzusidagi kinofilm, teatr spektakllarini tomosha qilish, oila davrasida birgalikda

⁶⁸ Педагогика назарияси ва тарихи. Педагогика назарияси. 1-қисм / Олий таълим муассасалари учун дарслик. М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. М.Х.Тохтаходжаева ва б. – Тошкент: "Iqtisod-moliya", 2007. – 302-бет.

⁶⁹ (Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. – 100-бет)

vatanparvarlik g'oyalarini yorituvchi kitoblarni mutolaa qilish, shuningdek, xizmat vazifasini bajarish, vatan mudofaasini tashkil etish chog'ida yuksak vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan shaxslarning hayoti, iboratli faoliyatiga oid hikoyalarni bayon qilishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Qolaversa, bolalar xonasi devoriga asl vatanparvar bo'lgan shaxsning portretini osib qo'yish ham bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni mazkur shaxsdan namuna olishga ruhlantiradi.

Oilaviy suhbatlar farzandlarga vatanparvar shaxsga xos bo'lgan quyidagi sifatlar xususidagi quyidagi ma'lumotlarni bera olishi zarur: Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat; o'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlari, an'analar, qadriyatlariga sodiqlik; Vatan va millat tarixidan g'ururlanish; yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish; Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat faoliyatini tashkil etish; yurt ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish; Vatan va millat obro'si, sha'ni, or-nomusini himoya qilish; yurt ravnaqi va millat taraqqiyotiga ishonish.

Ota-onalar oiladagi suhbatlar jarayonida odob, axloq, axloqiy me'yor, axloqiy ong, axloqiy munosabat va axloqiy e'tiqod nima ekanligini bolalarga tushuntirib borishlari lozim.

Odob (arab. “adab” so'zi. ko'pligi) – jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'zgalar bilan munosabat (oila, mehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo'ladi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga tegishli qoidalar (Masalan: sharm-hayo, kamtarlik, xushmuomalalik, ozodalik singarilar)ni o'z ichiga oladi. Insonning diniy e'tiqodi uning odobli bo'lib kamol topishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Odob ta'lim-tarbiya, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi⁷⁰.

Axloq (lot. “moralis” – xulq-atvor) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sanaladi⁷¹.

Axloqiy me'yor – jamiyat tomonidan tan olinib, uning a'zolari tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo'lgan, ularning xulq-atvori, muomalasi, yurish-turishi, ijtimoiy borliq va tabiatga munosabatini tartibga solib turadigan qoidalari⁷².

Axloqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishi⁷³.

⁷⁰ (Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Мирий – Пархиш / 6-том. – Тошкент: “Ўзбекистан миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – 461-бет).

⁷¹ (Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иногомова. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. – 99-бет).

⁷² (Педагогика. Қисқача изоҳли лугат / Ў.Аскарова ва б. – Тошкент: “Navro’z” nashriyoti, 2014. – 30-бет).

⁷³ (Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иногомова. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. – 99-бет).

Axloqiy munosabat – jamiyat tomonidan e’tirof etilgan ijtimoiy me’yorlar, ezgu g’oyalarga tayangan holda shaxsning o’ziga, atrof-muhitga, tabiiy borliqqa bo’lgan ijobiy yondashuvi⁷⁴

Axloqiy e’tiqod – jamiyat tomonidan e’tirof etilgan tartib, odob, o’zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor, odob qoidalari, axloqiy me’yor va tamoyillarning ezgulikka xizmat qilishiga bo’lgan ishonch; ma’naviy-axloqiy asosga ega bo’lgan ezgu g’oyalarga shubhasiz ishonish. Axloqiy e’tiqod “iymon” tushunchasi bilan ham ifodalananadi⁷⁵.

Oilada aqliy tarbiyani tashkil etish. Oilaning tarbiyaviy vazifalari sirasida ota-onalarning farzandlar o’rtasida aqliy tarbiyani tashkil etishi ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar oila muhitida aqliy tarbiyani samarali tashkil etishga e’tibor qaratar ekan, asosiy maqsad bolalarni “ilm-fan, texnika va texnologiya sohasida erishilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan xabardor qilish, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo’yicha bilimlarni berish orqali ularda tafakkur, dunyoqarashni rivojlantirish”⁷⁶dan iborat ekanligini nazarda tutishlari lozim. Shuningdek, oila muhitida tashkil etiladigan aqliy tarbiya jarayonida ota-onalar quyidagi vazifalarni samarali hal etishga erisha olishlari muhimdir:

1. Turli ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar hamda jurnallar yordamida, shuningdek, Internet axborot tarmog’i vositasida bolalarni ilmiy ma’lumotlar bilan tanishtirib borish.

2. Bolalarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalariga oid qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishtirish orqali ularda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.

3. Oila sharoitida uy-ro’zg’or ishlarini bajarish, ayniqsa, elektr asboblari bilan ishslash, turli jihozlarni tayyorlash, texnika (Masalan: mashina, mototsikl, veloseped, moped, telefon, mobil telefon va b.q.) hamda mashiy texnika buyumlari (muzlatkich, mikro to’lqinli pech, gaz, televizor, radio, magnitafon,sovutkich va h.k.), uy-ro’zg’or jihozlari (shkaf, shifoner, javon, stol, stul, krovat, divan, kreslo va b.q.)ni ta’mirlashda bolalar tomonidan o’zlashtirilgan nazariy ilmiy bilimlarni amalda qo’llay olish ko’nikmalarini shakllantirish.

4. Ilm-fan va texnika sohalarida yuksak natijalarga erishgan yoki texnika, maishiy texnika hamda uy-ro’zg’or jihozlarini yasash, ta’mirlash bo’yicha alohida mahoratga ega shaxslar faoliyati namunasida bolalarda o’zlarining ilmiy bilimlarini doimiy ravishda boyitib borish istagini yuzaga keltirish.

5. Oila muhitida bolalarda ilmiy bilimlarni samarali, puxta o’zlashtirishga yordam beradigan “psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrslash, ijodiy tafakkur yuritish, o’z fikrini asoslash, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va h.k.)ni rivojlantirish”⁷⁷ga erishish.

⁷⁴ (Педагогика. Қисқача изоҳли луғат / Ў.Аскарова ва б. – Тошкент: “Navro’z” nashriyoti, 2014. – 30-бет).

⁷⁵ (Педагогика. Қисқача изоҳли луғат / Ў.Аскарова ва б. – Тошкент: “Navro’z” nashriyoti, 2014. – 30-бет).

⁷⁶ Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.кўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоев, Д.Иноғомова. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. – 102-бет.

⁷⁷ Ўша манба. – 102-бет.

6. Farzandlar o’rtasida musobaqa, o’zaro bellashuv, bahs-munozara shaklida zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiyaga oid bilimlarni o’zlashtirishni rag’batlantirish orqali ularda ilmiy dunyoqarash shakllanishini ta’minlash.

Aqliy tarbiyani oila sharoitida tashkil etishda “dastlabki va muhim vazifa ota-onada tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko’ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg’ulotlarga jalb etishdan iborat. Shuningdek, ma’lum yo’nalishlar bo’yicha bolada qiziqishni uyg’ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-onada yoki oilaning boshqa a’zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasasi hamda ular tomonidan ko’rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo’lib xizmat qiladi. Oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o’yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano (tasvir)lar hosil qilish va boshqalar), fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o’yinlari (shaxmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko’rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbatlarning uyushtirilishi bu borada o’zining ijobiy samarasini beradi”⁷⁸.

Oilada bolalarni mehnatsevarlik va estetik ruhda tarbiyalash. Oila tarbiyasining muhim yo’nalishlaridan biri – oilada farzandlarni mehnatga o’rgatish, ularda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalashga erishish sanaladi. Ota-onalar va oilaning katta yoshli a’zolari tomonidan oila sharoitida tashkil etiladigan mehnat tarbiyasi mehnatga, mehnat faoliyati natijalariga ijobiy munosabatni shakllantirish olishi lozim. Oilada mehnat tarbiyasini tashkil etishda ota-onalar quyidagi vazifalarning ijobiy hal etishga e’tibor qaratishlari kerak:

- 1) tushuntirish, suhbat orqali bolalarga mehnat, uning ahamiyati va mohiyatini anglatish;
- 2) shaxsiy namuna ko’rsatish, shuningdek, atrofdagilarning ibrati asosida bolalarda mehnat qilishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish;
- 3) bolalarda o’qish ham mehnat ekanligi to’g’risidagi tushunchani hosil qilish;
- 4) turli o’quv qurollari, kichik yoshli bolalar uchun rangli, o’smir va o’spirinlar uchun esa ularning yoshiga mos ertak, qissa, sarguzasht kitoblarni sovg’a qilish orqali bolalarning o’qishga bo’lgan qiziqishlarini rivojlantirish;
- 5) farzandlar bilan birgalikda mehnat qilish, uy xo’jaligini yuritish, uy-ro’zg’or ishlarini bajarish asosida bolalarda amaliy mehnat ko’nikmalarini shakllantirish;
- 6) “ustoz-shogird” an’anasiga ko’ra farzandlarning turli hunar sirlaridan voqif bo’lishiga erishish, shuningdek, qiziqishlari asosida ularni bo’lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash;
- 7) mehnat va iqtisodiy tarbiyani umumlashtirish asosida bolalarni oila sharoitida mehnatsevarlik va tejamkorlikka o’rgatish.

⁷⁸ Педагогика назарияси ва тарихи. Педагогика назарияси. 1-қисм / Олий таълим муассасалари учун дарслик. М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. М.Х.Тохтаходжаева ва б. – Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 301-302-бетлар.

Mehnat shaxsning jismoniy jihatdan sog'lom, baquvvat, mustahkam xarakter va qat'iy iroda egasi bo'lishi uchun sharoit yaratish bilan birga unda ma'naviy-axloqiy, aqliy sifatlarni ham tarbiyalaydi. Buning mohiyati shundaki, birinchidan, shaxs o'zi mehnat qilgandagina o'zgalarning mehnatini, ular mehnati hisobidan yaratilgan ne'matlarni qadrlaydi, ikkinchidan, mehnat qilar ekan, u qanday yo'l tutsa, vaqt sarfini qisqartish, ish sifatin oshirishga muvaffaq bo'lishni, mahsulot tayyorlayotganda esa uning shakli, rangini o'zgartirishga yangicha yondashishni, atrofdagilarga chiroyli ko'rinishda taqdim etish haqida fikrlaydi. Fikrlash jarayoni esa shaxsning "aqlini charxlaydi", bolalarni "ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo'lish"⁷⁹ga o'rgatadi.

Ota-onalar mehnatning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini yuqori baholash bilan birga oila muhitida ularni mehnatga jalb etishda muayyan shartlarni ham yodda tutishlari zarur. "Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti darajasidan ortiq bo'lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo'lishlariga sabab bo'lmasligi lozim. Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarning taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishi va ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo'lgan havasini oshiradi, unda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yuzaga keltiradi"⁸⁰.

Oila muhiti farzandlarni **estetik tarbiyalash** uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lishi lozim. Buning uchun ota-onalardan, eng avvalo, uyda tartib o'rnatish, barcha buyumlarning doimo o'z o'rniда bo'lishiga erishish talab etiladi. Binobarin, ozodalik, saranjomlik, tartib, go'zallik mavjud bo'lgan joydagina bolaning estetik didi shakllanadi. Qadim-qadimdan onalar oila sharoitida to'g'rilanmagan (yig'ishtirilmagan) o'rн, supurilmagan hovli, yuvilmagan idish kabilarga erkak kishi (er)ning ko'zi tushmasligiga e'tibor qaratishgan va tabiiyki, aynan shu harakatlar bolalarda go'zallikka nisbatan muhabbatni tarbiyalashga xizmat qilgan. Shu bilan birga onalarning uyda so'zana, kashta, qiyiq, do'ppilarning tikishlari, gilam to'qishlari, hovlilarga turli-tuman anvoyi gullarni ekib, ularni parvarish qilishlari ham bolalar didini o'stirishga yordam bergen. Buning aksi bo'lgan holatlar (betartiblik, xunuklik) esa ularda didsizlikni shakllantirgan.

E'tibor berilsa, nikoh to'yi oldidan kelinning sepi sifatida kuyovning xonadoniga olib borilgan ko'rpa-to'shaklarni mehrobga, sandiqlar ustiga taxlash yumushi har kimga topshirilmagan, balki uni nihoyatda didli, ularni katta-kichikligi, qalin-yuqaligiga ko'ra muayyan tartibda, nihoyatda chiroyli taxlay oladigan ayollargina bajarishgan. Xuddi shunday to shu kunga qadar odat bo'lib kelgan kelin sarpolarini maxsus ajratilgan xonada (osib qo'yilgan holda) namoyish qilish ham ana shu ishning "ustasi" bo'lgan ayollar zimmasiga yuklatilgan.

Bizning nazarimizda, yangi oila shakllantirilayotgan dastlabki paytlardayoq muhitning estetik jihatdan ko'rimli bo'lishiga intilish zaminida nafaqat atrofdagilarga kelin uyining chiroyli tarzda namoyish qilishdan ham ko'ra ko'proq estetik didi yuqori farzandlarni tarbiyalovchi ota-onaning o'zida uni hosil qilishga

⁷⁹ Ўша манба. – 303-бет.

⁸⁰ Ўша манба. – 303-бет.

bo'lgan intilish aks etadi. Qolaversa, "axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq soxta go'zalliklar (yarim yalang'och yoki yalang'och badan, me'yordan ortiq qo'llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar "mahsuli", o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go'zallikning timsoli emasligini anglab etishlari lozim. Bola tasavvurida haqiqiy, tabiiy go'zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg'ubor osmon, viqorli tog'lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, "chuchvara"lar hosil qilayotgan yomg'ir tomchilar, kamalak jilosи, shuningdek, ochiq, xushsurat, chiroqli tabassum, shirali ovoz, ta'sirchan badiiy va san'at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o'yinchoqlar (bolaning asabini junbushga keltiradigan elektron o'yinchoqlar emas), yarashiqli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda haqiqiy go'zallikni his etish tuyg'usi tabiat bag'rida, muzey, ko'rgazma, kino va teatrлarda bo'lish tufayli shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tabiat bag'rige, muzey, ko'rgazma, kino va teatrлarga yushtiriladigan ekskursiya va tashriflar katta tarbiyaviy kuchga egadir"⁸¹.

Oilada jismoniy va jinsiy tarbiyani tashkil etish. Oila muhitida jismoniy tarbiyani tashkil etish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar tomonidan farzandlarda jismoniy madaniyat sifatlarining tarbiyalanishiga e'tibor qaratilishi ularning komil inson bo'lib shakllanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. "Bolalarning sog'lom bo'lishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta vakil avlodlari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak. Organizmning bir maromda ishlashi bola salomatligini saqlash va mustahkamlashgagina yordam berib qolmay, shu bilan birga uning barcha yumushlarni tartibli va sifatli bajarishi uchun imkon yaratadi.

Inson salomatligini saqlashda ertalabki badan tarbiyaning ahamiyatini bolalarga tushuntirish hamda ularning ertalabki badan tarbiya bilan shug'ullanishga ko'niktirib borish ota-ona nazoratini talab etadi. Badan tarbiya bolani saranjomlik, intizomga ham o'rgatib boradi.

Ovqatlanishning to'g'ri tashkil etilishi ham bolaning sog'lom bo'lib o'sishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo'lni yuvish, ovqatdan keyin og'izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho'milish, qo'l va oyoq tirnoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi"⁸².

Bolalarning jismonan etuk bo'lib voyaga etishlarida ota-onalar, yana shuningdek, quyidagi masalalarga ham jiddiy e'tibor qaratishlari zarur: farzandlarning kun tartibiga ega bo'lishlariga hamda irodalarini chiniqtirishga

⁸¹ Ўша маңба. – 302-бет.

⁸² Ўша маңба. – 301-бет.

erishish, asab tizimi mustahkam bo'lishi uchun uyquning me'yorida bo'lishi uchun sharoit yaratish, ularda doimiy ravishda jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirish, bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazilishini ta'minlash.

Oila tarbiyasining muhim yo'naliшlaridan yana biri – oilada **jinsiy tarbiyani** to'g'ri, samarali tashkil etish sanaladi. "Jinsiy tarbiya – bolalar, o'smirlar va yoshlarda jinsiy masalalariga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirib borishga qaratilgan tibbiy va pedagogik tadbirlar tizimi"⁸³ sanaladi. Oilaning jinsiy tarbiyani tashkil etishdagi roli mohiyatiga ko'ra kichik ijtimoiy birlashmaning reproduktiv vazifasini ifodalaydi. Kichik ijtimoiy birlashmaning reproduktiv vazifasi yuzasidan esa yuqorida batafsil so'z yuritildi. Ayni o'rinda shuni qo'shimcha qilish mumkin, jinsiy tarbiya yoki oilaning reproduktiv vazifasi shakllarida ifodalanishdan qat'iy nazar ota-onalar o'g'il va qiz bolalarning jinsiy jihatdan rivojlanishiga xos xususiyatlar, bosqichlar, shuningdek, tabiiy va g'ayritabiyy (lot. "akseleratsiya" – tezlashuv, ya'ni, individning ruhiy va fiziologik jihatdan rivojlanishining sun'iy ravishda tezlashishi) jinsiy etilish mohiyati, oilada jinsiy tarbiyani to'g'ri tashkil etish yo'llaridan xabardor bo'lishlari zarur.

Oilada ekologik va huquqiy tarbiyani yo'lga qo'yish. Oilada, shuningdek, ekologik tarbiyani tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalarni yoshlikdan tabiat bilan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatib borishlari, ularda "inson tabiatning bir qismi, shu sababli tabiatga etkazilgan har qanday zarar uning o'ziga falokat olib keladi" degan tushunchani singdirib borishlari kerak. Oilada tashkil etilayotgan ekologik tarbiya bolalarda atrof-muhitga, xususan, tabiatga nisbatan ijobiy, mas'uliyatli munosabatni shakllantirish bilan birga ularda estetik didning o'sishini ham ta'minlaydi. Binobarin, tabiatning o'zi eng go'zal, eng mukammal asaridir. Bolalar tabiat go'zalliklaridan bahra olar ekanlar, o'zlarini uning bir bo'lagi, shu sababli uni asrab-avaylashga mas'ul ekanliklarini chuqur anglab etadilar. Shuningdek, "oila muhitida tashkil etilayotgan hovli sahnini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko'chatlarni o'tkazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo'lish kabi harakatlar bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas'ullik tuyg'usini shakllantiradi"⁸⁴.

O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etilayotgan mavjud sharoitda yoshlarning huquqiy bilim va madaniyatga ega bo'lishlari alohida ahamiyatga ega. Shu sababli ta'lim muassasalari bilan bir qatorda oila ham yoshlarning huquqiy bilim va madaniyatga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun mas'uldir. Oilada bolalarni farzand, ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisi hamda iste'molchi sifatidagi huquq va burchlari bilan yaqindan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki shaxsning aynan shu kabi ijtimoiy maqomlari ijtimoiy munosabatlar jarayonida ular tomonidan burchlarining bajarilishi, huquqlaridan

⁸³ Тарбия / ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия. Тузувчи: М.Н.Аминов. Масъул мухар.

А.Мажидов. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2010. – 141-бет.

⁸⁴ Тохтаходжаева М.Х. ва бошқалар. Педагогика назарияси / Олий таълим муассасалари учун дарслик. – Тошкент: "Moliya-iqtisod", 2010. – 302-бет.

o’rinli foydalanish, ayrim hollarda esa huquqlari poymal etilishining oldini olish imkonini beradi.

Oilada tashkil etiladigan huquqiy tarbiya farzandlarda “intizomlilikni, o’z xatti-harakatlari uchun javob bera olish qobiliyatini tarbiyalashdan boshlanadi”. Huquqiy tarbiyaning samaradorligi farzandlarda jamiyatda amal qilayotgan qonunlarning ahamiyatini to’g’ri tushunish, ularning hayotdagi rolini oqilona baholash, atrofdagilarning huquqlarini hurmat qilish, o’z huquq va burchlarini etarli darajada anglash, burchlarni vijdonan ado etish, shaxsiy huquqlarini himoyalash kabi ko’nikma-malakalarning shakllanganligi bilan belgilanadi.

Oilaning bolalarni iqtisodiy munosabatlarga tayyorlashdagi o’rni. Zamonaviy sharoitda yosh avlodning chuqur iqtisodiy bilimlarga ega bo’lishi muhim o’ziga xos dolzarblik kasb etadi. Binobarin, bozor sharoitida iqtisodiy bilimlardan xabardor bo’lmaslik barcha (ayniqsa, kasbiy faoliyat, savdo-sotiq va iste’molchi sifatida maishiy xizmat ko’rsatish) sohalarida sust faoliyat ko’rsatishga olib keladi. Shu sababli ota-onalar oilada ham bolalar tomonidan iqtisodiy bilimlarning o’zlashtirilishi uchun sharoit yaratib bera olishlari lozim. Bunda oila iqtisodiyoti (oila xo’jaligini yuritish) va byudjetini shakllantirish jarayoniga farzandlarni bevosita jalgan etish, qolaversa, ularda pul mablag’lariga nisbatan ijobjiy munosabatni shakllantirish, “o’zining shaxsiy hamda oila a’zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas’uliyatli yondashishga”⁸⁵ o’rgatib borish zarur. Samarali tashkil etilgan iqtisodiy tarbiya natijasida bolalar “pulning inson mehnatiga to’lanadigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlar uchun ishlatalish lozimligini”⁸⁶ tushunib etadilar.

Nazorat savollari:

1. Oilada tashkil etiladigan ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?
2. Ota-onalar oila sharoitida aqliy tarbiyani tashkil etishda nimalarga e’tiborni qarata olishlari lozim?
3. Sizningcha, bolalarda mehnatsevarlik xislatini shakllantirish oson kechadimi?
4. Oilada bolalarni estetik ruhda tarbiyalashda nimalar e’tiborga olinishi zozim?
4. Oilada jismoniy tarbiyani tashkil etish qanday holatlarda samarali kechadi?
5. Oila tarbiyasi negizida jinsiy tarbiya va uni samarali tashkil tashkil etish qanchalik muhim?
6. Farzandlarning ekologik ongga ega bo’lishlari uchun ota-ona qanday yo’l tutishlari zarur?
7. Oila muhitida bolalarni huquqiy savodxon qilib tarbiyalash mumkinmi?
8. Oilaning bolalarni iqtisodiy munosabatlarga tayyorlashdagi o’rni qanday?

Mavzuga oid adabiyotlar:

⁸⁵ Тохтаходжаева М.Х. ва бошқалар. Педагогика назарияси / Олий таълим муассасалари учун дарслик. – Тошкент: “Moliya-iqtisod”, 2010. – 303-бет.

⁸⁶ Ўша манба. – 303-бет.

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
2. Jamoa. Oila pedagogikasi. – Toshkent: "Aloqachi", 2007.
3. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur G' O'quv qo'll. – Toshkent: "O'qituvchi", 1999.
4. Safarov O. Oila ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
5. Quronov M. Oila tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.

Amaliy topshiriqlar:

1. Oilada tashkil etiladigan tarbiya yo'nalishlarini aks ettiruvchi tasvirni yarating.
2. Kichik guruhlarda oilada tashkil etiladigan tarbiya yo'nalishlarining mohiyatini aks ettiruvchi "Kichik esse"ni yarating.

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. Talabalar oilada tashkil etiladigan tarbiya yo'nalishlarini aks ettiruvchi tasvirni shakllantirishda ikki guruuhda ishlaydilar. Har ikki guruuh tomonidan yaratilgan tasvir muhokama qilinishi, ular orasidan oilada tashkil etiladigan tarbiya yo'nalishlarini to'liq aks ettira olgan tasvir tanlanadi.
2. Kichik guruhlarda oilada tashkil etiladigan tarbiya yo'nalishlarining mohiyatini aks ettiruvchi "Kichik esse"ni yaratishda talabalar kichik guruhlarda ishlaydilar. Har bir kichik guruuhga alohida-alohida topshiriq beriladi. M: kichik guruhlarga beriladigan topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Tg'R	Guruhlar	Topshiriq mazmuni
1.	1-guruh	Oiladagi ma'naviy-axloqiy tarbiya
2.	2-guruh	Oiladagi aqliy tarbiya
3.	3-guruh	Oiladagi mehnat tarbiyasi
4.	4-guruh	Oiladagi estetik tarbiya
5.	5-guruh	Oiladagi jismoniy tarbiya
6.	6-guruh	Oiladagi jinsiy tarbiya
7.	7-guruh	Oiladagi ekologik tarbiya
8.	8-guruh	Oiladagi huquqiy tarbiya
9.	9-guruh	Oiladagi iqtisodiy tarbiya

OILA TARBIYASINING ShAKL METOD VA VOSITALARI

1. Oila tarbiyasini tashkil etishda qo'llaniladigan asosiy metodlar.
2. Ijobiy xarakterga ega ayrim metodlarning mohiyati.
3. Salbiy xarakterga ega ayrim metodlarning mohiyati.
4. Talab va uning tarbiyaviy ta'sirchanligi.

Tayanch tushunchalar: metod, oila tarbiya, oila tarbiyasi metodlari, ijobiy xarakteraga ega metodlar, salbiy xarakterga ega metodlar.

Oila tarbiyasini tashkil etishda qo'llaniladigan asosiy metodlar. Oila tarbiyasini tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar asrlar davomida shakllanib, takomillashib borgan. Ular bevosita ajdodlardan avlodlarga hayotiy faoliyat jarayonida vorisiylik tamoyiliga muvofiq uzatilib kelingan. Shu bilan birga ular avlodlar tomonidan to'plangan hayotiy tajribalar asosida boyitib borilgan. Oila tarbiyasini tashkil etishda samarali bo'lgan metodlar ijtimoiy munosabatlarining yo'nalishi, mazmuni va asosiy g'oyasiga muvofiq tanlab olinadi hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish maqsadida foydalanadi.

Oila tarbiyasi metodlari – muayyan jamiyatda ijtimoiy maqsadni amalga oshirish jarayonida pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlash maqsadida foydalilaniladigan tarbiyaviy ta'sirlar tizimidan iborat. Bu metodlar shaxsiga yo'naltirilgan bo'lib, bolalarda ijobiy mazmundagi sifatlarni tarbiyalash, ularni har tomonlama, barkamol shaxs bo'lib kamolga etishlarini ta'minlashga xizmat qiladi

Pedagogika fanida e'tirof etilgan qarashlarga muvofiq tarbiya metodlari o'sib kelayotgan avlod tarbiyasini tashkil etish, ularda ma'naviy-axloqiy, aqliy hamda irodaviy sifatlarni tarbiyalash maqsadda qo'llaniladi. Milliy xususiyatlarni namoyon etuvchi tarbiyaning muhim omillari bo'lgan tarbiya metodlari esa yosh avlodni muayyan jamiyatda tan olingan ma'naviy-axloqiy me'yorlarga asoslanib tarbiyalashni nazarda tutadi.

Oila tarbiyasini tashkil etish chog'ida qo'llanilayotgan tarbiya metodlari o'zlarining yo'nalishi, mazmuni va asosiy g'oyasiga ko'ra rang-barangdir. Oila tarbiyasi metodlarini quyidagi tarzda guruhlash mumkin:


1. Mazmuniga ko'ra.
2. Qo'llanilishiga ko'ra.
3. Ta'sir darajasiga ko'ra.

O'z navbatida oila tarbiyasida qo'llaniladigan metodlar guruhining har biri ham alohida guruhlarga ajratiladi. Ular:

I. Mazmuniga ko'ra: 1) ijobiy xarakteraga ega metodlar; 2) salbiy xarakteraga ega metodlar.

II. Qo'llanilishiga ko'ra: 1) faol qo'llaniladigan metodlar; 2) kam qo'llaniladigan metodlar.

III. Ta'sir darajasiga ko'ra: 1) faoliyatdan norozilikni ifoda etuvchi metodlar; 2) faoliyatni rag'batlantiruvchi metodlar; 3) faoliyatning ta'qilishiga olib keluvchi metodlar (9-rasm):



Ijobiy xarakterga ega ayrim metodlarning mohiyati. Quyida ijobjiy mazmunga ega metodlardan namunalar keltirilib, ularning mohiyati yoritiladi.

Iltimos metodi oilada bevosita talabning eng ta'sirchan va tez-tez ishlataladigan shakllaridan biri. U ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi samimiy munosabatlarga tayanadi va ularning hamkorligiga erishish vositasi hisoblanadi.

Iltimos qilish muomalaning boshqa turlaridan shu bilan farq qiladiki, faoliyatni tashkil etishda bola mustaqil harakat qiladi. Iltimos shunday ohangda bayon etilishi kerak-ki, bola so'rалayotgan harakatni majburan emas, balki o'z ixtiyori bilan bajarishi lozimligini anglasin. Shuni ham qayd etish zarurki, iltimos o'rtoqlarcha o'zaro yordam ko'rsatishga turtki beradi.

Ishonch bilan talab qilish – eng kuchli tarbiyaviy vositadir. U bolaga o'zining oilada muayyan o'rni borligini anglash hamda oila manfaatlari yo'lida mehnat qilishi maqsadga muvofiq ekanligini his qilish, ularning ishonchini oqlashga intilishga yordam beradi. Aksariyat holatlarda ishonch bilan talab qilish bolani ancha murakkab, mas'uliyatli, ayrim vaziyatlarda faxrli topshiriqni bajarishga yo'naltiriladi.

Bunda shuni eslatib o'tish kerakki, ishonch talabning faqat xususiy metodgina emas, balki, eng avvalo, bolalarga bo'lgan munosabat mazmunini anglatuvchi tamoyildir. Talabning mazkur ko'rinishini amalda qo'llashda me'yorga rioya qilish, bolaga ishonchni ta'kidlayverish emas, balki u tomonidan topshiriqni ongli amalga oshirilishi muhim ekanligini yodda tutish kerak.

Ma'qullash – muayyan sharoitda bolalar faoliyatining kuchli omiliga aylanadi. Bola tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan faoliyatni ma'qullash kelgusida

uning ijtimoiy faolligini oshirish ko'rsatkichlardan biri bo'ladi. Shuningdek, farzandlar ota-onalarining fikrlarini qadrlasalar, ma'qullah yanada samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zan o'smirlar ma'lum ishni bajarishda harakatlarining ota-onalari tomonidan ma'qullanishiga nisbatan ehtiyoj sezadilar. Ma'qullah ularda o'z kuchiga ishonch uyg'otib, bundan keyingi intilishlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Ma'qullah bolani quvontiradi, tabiiyki, u ana shu quvonchni o'z muvaffaqiyatlari bilan qiyoslab ko'radi. Vaqt o'tishi bilan faoliyatda erishilgan muvaffaqiyatdan qoniqishning o'zi amaliyotdagi eng kuchli omil bo'lib qoladi.

O'git bolaga yo'l-yo'riq ko'rsatishdan iborat bo'lib, u yoki bu xatti-harakat, amaliy vazifani ijobiy hal etish borasida bolaning mustaqil ravishda qaror qabul qilishi uchun ota-onalar tomonidan ko'rsatilgan amaliy tavsiya sanaladi.

Iltimos singari *maslahat* ham boladan muayyan faoliyat yoki xatti-harakatni amalga oshirishni majburiy ekanligini anglatmaydi, ushbu vaziyatda bola tanlash huquqiga ega bo'ladi. Tarbiya jarayonida maslahat metodidan foydalanish bolada ishga ongli munosabatni shakllantiradi. Bundan tashqari, ota-onalarni do'st sifatida qabul qilishlariga imkon beradi. Ota-onaning obro'si atroflicha bilimlarga, katta hayotiy tajribaga, mahoratga asoslanadi. Shu bilan birga maslahat – bu hamma narsani ipidan ignasigacha tasvirlab beradigan yo'l-yo'riq emas, balki ko'pincha echimlarni mustaqil izlashga undashdan iboratdir.

Maslahat berish yana shunisi bilan foydaliki, u bolalarni muayyan vaziyatlarda, ayniqsa, ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelganda ota-onalari bilan maslahatlashishga o'rgatadi. Ota-onalar bolalarning bunday xatti-harakatlarini qadrlar ekanlar, ularda kichik yoshdag'i o'rtoqlariga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berishlari lozim.

Sha'ma qilish – bolalarni muayyan xatti-harakatlarga rag'batlantirishning yashirin shakli va eng nozik vositalardan biri. Sha'ma ilgari ishlatilgan, yaxshi tanish bo'lgan, shuningdek, mohiyati ochib berilmaydigan talablarni o'ziga xos shartli qisqartmalaridir. Tajribali ota-onalar sha'ma qilish metodini qo'llaganlarida aksariyat holatlarda ko'z tikib qarash, qoshlarini harakatlantirish, "sirli" savolni berish bilan kifoyalananadilar. Bu o'rinda "O'tkan kunlar" romanida Yusufbek Hojining o'g'li Otabekka: "Hamma narsaga etgan aqling shu narsaga qolganda nega oqsaydi?"⁸⁷, degan sha'masini keltirish mumkin. Muayyan sharoitda sha'ma iltimos, talabning "yashirin" vazifasini bajaradi.

Shart metodi shundan iboratki, bola uchun yoqimli bo'lган biror faoliyat turi yoqimsiz yoki qiyin faoliyat uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. "Darslaringni qilsang – o'ynagani borasan" kabi murojaat so'z yuritilayotgan metodning yorqin ko'rinishidir.

Shartdan foydalanilganda bajarilishi shart bo'lgan faoliyatni tashkil etishga sarflangan kuch (jismoniy yoki aqliy) evaziga «mukofot» sifatida taklif etiluvchi faoliyat o'rtasidagi aloqa ko'zga tashlanadi. Aks holda bolalarda shartdan o'z manfaati yo'lida foydalanish istagi paydo bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda talab

⁸⁷ Кодирий, А. Ўткан кунлар / XX аср ўзбек роман туркуми. Тахрир хайъати И.Шоғуломов ва б. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа концерни, 1995.

ota-onalar tomonidan emas, aksincha, bolalar tomonidan qo'yiladi, ya'ni, "Bizning futbol o'ynashimizga ruxsat etsangiz, uyni yig'ishtirib chiqamiz" va h.k. tarzida.

Shart qo'yish bolalarning xulq-atvorlari, ularning qiziqish va mayllarini yaxshi bilish, ularning individual qobiliyatları va imkoniyatlari darajasini inobatga olishni nazarda tutadi. Bu usulni ham boshqa metodlar kabi suiiste'mol qilmaslik kerak.

O'yin shaklidagi shart odatda bolalar uchun qiziqarli bo'lмаган, balki zerikarli mashg'ulotlarni tashkil etishga to'g'ri kelganda, kichik yoshdagi bolalar bilan ishslash jarayonida samaradorlikka erishish maqsadida qo'llaniladi.

Salbiy xarakterga ega ayrim metodlarning mohiyati. Quyida salbiy mazmunga ega metodlardan namunalar keltirilib, ularning mohiyati yoritiladi.

Bolaning u yoki bu harakatlariga salbiy baho berish, uning salbiy odatlarini bartaraf etish hamda zararli xatti-harakatlarining oldini olish maqsadida *qoralash metodidan* foydalanish muhim ahamiyatga ega. Uning yordamida ijobjiy xulq-atvor rag'batlantiriladi. Bunda xushmuomala murojaat qilish zarurdir.

Qoralash metodini uzluksiz ishlatish, ayniqsa, muayyan bolaga nisbatan qo'llayvermaslik kerak. Zero, bunday holda bu metod o'zining ta'sirchanligini yo'qotishi yoki bolada o'z imkoniyatlariga ishonchsizlikning qaror topishi uchun zamin yaratishi mumkin. Pedagogik texnika talablariga muvofiq qoralash metodini yumshoqroq ohangda aytilgan ta'na va ginadan g'azab va jahning paydo bo'lishiga qadar oraliqda qo'llash mumkin.

Ishonchsizlik bildirish – bilvosita talab shakli bo'lib, boshqa, ta'sir kuchi kamroq metodlarni qo'llash ish bermagan vaziyatlarda qo'llaniladi. Agar ota-onalar tomonidan bildirilayotgan ishonchiga qisman putur etgan, bola xulqida salbiy odatlar namoyon bo'layotgan bo'lsagina ushbu metodni ishga solish o'rinnlidir. Shu bilan birga ishonchsizlik bildirish bolalar bilan tashkil etilayotgan munosabatlar mezoni darajasiga ko'tarilmasligi zarur. Aks holda ularning ota-onalari bilan bo'lgan munosabatlarida to'g'rilib bo'lmas xatolar yuzaga keladi. Xususan, ovqat eyilib fotiha o'qilgach, dasturxon yig'ishtirilmay qoldi. Ertasiga onaning bolalar bilan suhabatda jiddiy tarzda: "O'zlariningizdan bilib hech narsa qilolmaysizlar. ... Men bo'lsam sizlarga ishonib o'tiribman-a!", - deyishi maqsadga muvofiqdir.

Bilvosita talabning bu shakli hamisha bolalarga o'zlarini oqlash, ota-onalarga ishonishi mumkinligini ish bilan isbotlash imkonini berishi lozim. Bordi-yu ishonchsizlik bildirish bolaning ijobjiy harakatlari va muomalasini rag'batlantirmasa, uni tarbiya amaliyotida qo'llamagan ma'qul.

Qo'rqtish – tarbiya metodlaridan biri bo'lib, salbiy mazmunga ega. Undan foydalanishda bolalarning zarur harakatlarini rag'batlantiruvchi omil ularni yoqimli faoliyat turi bilan shug'ullanish, qandaydir huquqlardan mahrum qilish haqidagi ogohlantirishdir. Masalan, uyga berilgan topshiriqlarni bir necha marta bajarmay borgan bolaga ota: "Agar yana shunday qilsang, endi topshiriqni mening nazoratim ostida bajarasan" deydi.

Qo'rqtish tarbiyaning eng oxirgi usullaridan biri bo'lib, undan keyin jazolash qo'llaniladi. Ushbu metoddan samarali foydalanishning muhim qoidasi ota-onalar harakatlarining izchilligidir. Agar talab bajarilmay qolsa, amalda qo'rqtishdan

foydalanimiladi. Ishonchisizlik bildirish va qoralash bilan birga qo'rqtish pedagogik talabning shunday shakllariga mansubki, ularning kuchi va ta'siri o'zining qo'llanish tezligiga teskaridir.

40 dan ortiq oila, ota-onalarning faoliyatini kuzatish ularning bolalar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yishda ijobiy yoki salbiy metodlarning turli ko'rinishlaridan foydalanishlarini tasdiqladi. Oilalar hayoti, ota-onalarning tarbiyachi sifatidagi tajribasi bugungi kunda o'zbek oilalarida quyidagi metodlarga ko'proq murojaat etilayotganligini tasdiqladi:

O'zbek oilalarida tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metodlar

Ijobiy metodlar	Salbiy metodlar	
So'rash	Arazlashish	Sovg'a berish
Talab qilish	Ayblast	Homiylit qilish
Tasalli berish	Bahslashish	Qarg'ash
Ta'birlash	Begona qilish	Xo'mrayish
Ta'kidlash	Biriktirish	Zorlanish
Taqdirlash	Bitim tuzish	Aldash
Buyurish	Girgiton bo'lism	Bachkanalashish
Va'da olish	Tahsinlash	Vaysash
Ta'qiqlash	Tenglashish	Gij-gijlash
Hamdard bo'lism	Tergash	Gina qilish
Hurmat qilish	Uyaltirish	Yomonlash
Kafil bo'lism	Shavqlantirish	Zarda qilish
Kengashish	Erkatalish	Ko'r-ko'rona ishonish
Koyish	Yalinish	Majbur qilish
Kuzatish	O'ynatish	Nizo keltirib chiqarish
Ko'rsatish	O'rgatish	So'kish
Maqtash	O'qitish	Urishish
Nasihat qilish	Qaytarish	Ishonchisizlik bildirish
Ovutish	Hazillashish	"Men"ligini tan olmaslik
Odatlantirish		
Oqlash		
Tushuntirish		
Ishonch bildirish		
Baholash		

Talab va uning tarbiyaviy ta'sirchanligi. Oilada bolalarning muayyan xarakterga ega bo'lislari, shuningdek, ular tomonidan ma'lum xatti-harakatlar sodir etilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali metodlardan biri – talab sanaladi. Mohiyatiga ko'ra talab quyidagi ikki maqsadni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Xususan:

1) bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini tashkil etishga rag'batlantirish. Ushbu o'rinda talab ota-onalar hamda bolaning hayotiy maqsadlari birligiga erishish ta'minlanadi, jamiyat tomonidan tan olingan ma'nnaviy-axloqiy me'yorlar in'ikosining bolalar xulq-atvori, xatti-harakatlari, shuningdek, ijtimoiy faoliyati jarayonida aks etishi uchun zamin yaratadi;

2) bolalarni oila manfaati yoki ota-onalarning xohish-istiklarini ro'yobga chiqarish yo'lida muayyan xatti-harakatlarni amalgalashirishga undash.

Bu vaziyatda ota-onalarning talablar aksariyati bolalarning yosh, psixologik va shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq kelmaydi. Natijada talablar garchi ijobji mazmunga ega bo'lsa-da, kutilgan samarali ta'minlamaydi. Aksincha, bolalarda ularga nisbatan jiddiy norozilikni keltirib chiqaradi.

Talab o'z mohiyatiga ko'ra ikki: bevosita va bilvosita kabi turlarga bo'linadi. Ayni o'rinda talabning asosiy turlarining mohiyatini ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Talabning u yoki bu turini tanlash pedagogik vaziyatning hisobga olinishiga bog'liq. Bevosita talablarning qo'yilishi uchun zarur omil bo'lib xizmat qilinuvchi pedagogik vaziyatda quyidagi ikki holat yuzaga keladi va ular qo'yilayotgan talabning to'la bajarilishi uchun imkoniyat yaratadi:

- 1) tarbiyalanuvchining muayyan talabni qo'yayotgan sub'ektga nisbatan munosabati;
- 2) tarbiyalanuvchining bajarilishi talab etilayotgan faoliyatga bo'lgan munosabati.

Mavjud munosabatlarni ijobji, betaraf va salbiy kabi guruhlarga bo'lish mumkin. Biroq, tarbiyaviy faoliyat amaliyotida bunday munosabatlarning ko'plab ko'rinishlari kuzatiladi.

Bevosita talab ota-onalarning "Faqat shunday qilasan" degan umumiy formula yordamida ifodalanuvchi murojaati bo'lib, u qat'iy, dadil ohangda ifodalangan va aniq ko'rsatmaga asoslanadi. Bunday holatda bolalarni harakatga undovchi omil – talabning o'zi hisoblanadi.

Bevosita talab bola tarbiyasining boshlang'ich bosqichida ayniqsa ta'sirchan bo'ladi. Samimiy, oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa, bolani tarbiyalab bo'lmaydi. Agarda tarbiya jarayonida ota-onalar talablarni qo'yishda ikkilansalar, ularning bolalar tomonidan to'laqonli bajarilmasligiga e'tiborsiz munosabatda bo'lsalar, qo'yilayotgan talab pedagogik jihatdan muayyan ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shuningdek, ota-onalar bunday vaziyatlarda o'z xatti-harakatlari jiddiy xatoga yo'l qo'yadilar.

Bolalarning yangi yo'nalish va mazmunga ega faoliyatlarini tashkil etish jarayonida ham bevosita talab zarur. Mazkur o'rinda bevosita talab mohiyatiga ko'ra yo'l-yo'riq berish kabi namoyon bo'ladi. Bevosita talab aksariyat vaziyatlarda farzand ota-onalarining fikri yoki ma'lum faoliyatga nisbatan betaraf munosabatda bo'layotgan bo'lsa qo'llaniladi. Qayd etilayotgan jarayonda bevosita talabning quyidagi qoidalarga muvofiq bo'lishi muhim ahamiyatga ega:

1) talab ijobji mazmunga ega bo'lishi, bolalarni aniq xatti-harakatlarni tashkil etishga yo'naltirishi, ular tomonidan tashkil etilayotgan muayyan harakatlarni ta'qiqlash yoki to'xtatishga xizmat qilmasligi lozim. Albatta, tarbiya jarayonida ma'lum ta'qiqlardan bolalar belgilangan ijtimoiy xulq-atvor qoidalarni buzganlarida samarali foydalanish zarur. Biroq talablarning faqatgina ta'qiqlardan iborat bo'lishi pedagogik jihatdan noto'g'ridir. Talablarning qo'yilishidan ko'zlangan asosiy maqsad ular e'tiboriga bolalarning ijobji xulq-atvori va faoliyati uchun harakat dasturining berilishi bilan tavsiflanadi.

2) bevosita talab aniq maqsadga yo'naltirilgan, to'laqonli ifodalangan mazmunga ega, aniq va tushunarli bo'lishi lozim. Dastlabki paytlarda bolalarning yangi harakatlarini rag'batlantirganda talab yo'l-yo'riq berish bilan qo'shilib ketganday bo'ladi. Bunday holat talablar mazmunini soddalashtirib, mohiyatini aniq yoritib beradi;

3) ota-onalar tomonidan ifodalanayotgan har bir oqilona talab, albatta, bajarilishi, yakuniga etkazilishi kerak.

Shuni yodda tutish kerakki, har bir yangi talabning bajarilishi ota-onalar tomonidan qo'yiluvchi navbatdagi talablarining kuchi va ta'sirchanligini oshiradi, bolada ota-onasining irodasiga ongli yondashish odatini shakllantiradi. Har bir bajarilmagan talab esa, aksincha, navbatdagi talablarining samaradorligini pasaytirdi.

Bevosita talablarning ijrosi haqida so'z yuritilganda, ularning qat'iy, ishonarli ohangda bayon etilishi muhim ekanligiga e'tiborni qaratish talab etiladi. U vazmin, jiddiy holatda ifoda etilishi, baqiriqla, bolani haqorat qilishga aylanib qolmasligi kerak.

Bilvosita talablarda ota-onalarning maqsadi to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmay, balki, bir qadar yashirin tarzda bo'ladi. Talabalarni qo'yishda rag'batlantirishdan ham foydalilanildi. Rag'batlantirish omili sifatida faqat talabning o'zidan emas, balki bir qator psixologik omillar, ya'ni, bolaning ichki kechinmalar, histuyg'ulari, hayotiy ehtiyojlari va qiziqishlariga tayaniladi. Bevosita talablarni mohiyatiga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'lisch mumkin:

1. Ota-onalarning farzandlariga bo'lgan ijobiy munosabatini ifodalovchi talablar. Bular – iltimos, ishonch, ma'qullahdir. Ayni o'rinda ularni *ijobiy talablar* deya nomlash mumkin.

2. Ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabatini yaqqol ifodalovchi hamda farzandlarni muayyan faoliyatga rag'batlantiruvchi munosabatlar mohiyatini yorituvchi talablar. Bular – maslahat, sha'ma, shartli talab va o'yin shaklidagi talabdir.

3. Bolalarning u yoki bu axloqiy xislatlariga salbiy munosabatni namoyish etuvchi talablar. Bular – ishonchszlik bildirish va do'q qilishdir. Ularni *salbiy talablar* deb atash mumkin.

Talab mazmun jihatidan ham, shakl jihatidan ham rivojlanib boradi. Yuqorida aytil o'tilganidek, pedagogik vaziyatlar o'zgarmas holat emas, ular doim o'zgarib turadi. U yoki bu metodlarni tatbiq etib, bolalar faoliyatida muvaffaqiyatga erishar ekanlar ota-onalar mavjud vaziyatning zarur yo'nalihsida rivojlanishini boshqaradi. Ota-onsa bevosita talablarni qo'yar ekan, bolalar bilan muayyan munosabatlarga kirishadi va ayni vaqtda ularda bajariladigan faoliyatga munosabatni shakllantiradi. Shu bilan u bevosita talablarning muvaffaqiyatli tatbiq etilishi uchun shart-sharoit hozirlaydi.

Shu bilan birga, tarbiya jarayonida ijobiy talablardan ko'proq foydalanimayotgan oilalarda ota-onalarning bolalarni hurmat qilishlari, ularga nisbatan mehribon ekanliklariga guvoh bo'ldik. Shuningdek, bunday oilalarda bolalar tomonidan ota-onalar tomonidan bildirilayotgan ko'rsatmalarning aniq bajarilishi kuzatildi. Aksincha, salbiy metodlarni suiiste'mol qiladigan ota-onalarni bolalar hurmat

qilmaydilar, oilada intizom mavjud emas, tarbiyaviy jarayon samarali tashkil etilmaydi.

Bu albatta, tasodifiy emas. Bolalarga ijobiy munosabatda bo'ladigan, ularga bo'lgan munosabatlarini ishonch bilan ifodalaydigan ota-onalarning o'z faoliyatlaridan qoniqish hosil qiladi. Bunday muhitida bolalar bilan ota-onalarning samimiy munosabatlari rivojlanadi. Va aksincha, ota-onsa bolalar faoliyatini nazorat qila olmasa, ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni, shuningdek, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantira olmasalar tarbiyasi samaradorligi to'g'risida so'z yuritish befoydadir. Bunday oilalarda tarbiyaviy jarayon doimiy do'q-po'pisa, asabiylik asosida tashkil etiladi.

Shunday qilib, oila muhitida tarbiya metodlaridan samarali foydalanish, bolalarni ijtimoiy-foydali mehnatga o'rgatish alohida o'rinni tutadi. Shuning uchun ham bolalar bilan yaxshi munosabat o'rnatish uchun ijobiy metodlarni ko'proq va salbiy metodlarni kamroq ishlatish zarur.

Nazorat savollari:

1. "Oila tarbiyasi metodlari" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Oila tarbiyasida asosan qanday metodlar qo'llaniladi?
3. Ijobiy xarakterga ega qanday metodlarni bilasiz?
4. Oila tarbiyasida qo'llaniladigan salbiy xarakterdagi metodlar bilan tanishmisiz?
5. Talablarning tarbiyaviy ta'sirchanligi nimalarda aks etadi?
6. Oila tarbiyasida qo'llaniladigan talablarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
2. Jamoa. Oila pedagogikasi. – Toshkent: "Aloqashi", 2007.
3. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur G' O'quv qo'll. – Toshkent: "O'qituvchi", 1999.
4. Safarov O. Oila ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
5. Quronov M. Oila tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.

Amaliy topshiriqlar:

1. O'z ota-onalaringiz faoliyati misolida oila tarbiyasiga qo'llanilgan ijobiy va salbiy xarakterdagi metodlar ro'yxatini tuzing.
2. "T-jadval" grafik organayzeri yordamida o'zingizga ma'lum bo'lgan oila tarbiyasida muayyan metodlar qo'llanilishida ularning ta'sirchanligini oshiruvchi va pasaytiruvchi holatlarni tahlil qiling.
3. Oila tarbiyasida faol qo'llaniluvchi ijobiy va salbiy talablarni o'zida aks ettiruvchi buklet tayyorlang.

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. Topshiriqni bajarishda talabalar mustaqil ishlaydilar. Mashg'ulotda jamoa o'qituvchi rahbarligida har bir talabaning ishi bilan tanishib chiqadi. Barcha javoblar o'r ganilib, oilalarda eng ko'p qo'llaniladigan metodlar umumlashtiriladi. Shu asosida o'zbek oilalarining tavsifi haqidagi ma'lumotga ega bo'linadi.

2. Talabalar topshiriqni kichik guruhlarda bajaradilar. Har bir guruh "T-jadval" grafik organayzeri vositasida oila tarbiyasida qo'llaniladigan metodlar ta'sirchanligini oshiruvchi va pasaytiruvchi holatlar yuzasidan o'z javoblarini yoritadi. Jamoa guruhlari ishi bilan tanishib, eng yaxshi ishni aniqlaydi.

3. Topshiriqni bajarishda jamoa a'zolari ikki guruhgaga birlashgan holda ishlaydilar. O'qituvchi guruhlarga quyidagi topshiriqni beradi:

TG'R	Guruhlari	Topshiriq mavzusi
1.	1-guruh	Oila tarbiyasida faol qo'llaniluvchi ijobiy talablar
2.	2-guruh	Oila tarbiyasida faol qo'llaniluvchi salbiy talablar

Guruhnинг har bir a'zosi ixtiyoriy ravishda biror-bir metodni tanlaydi va uning mohiyatini to'liq yoritishga harakat qiladi. Shu asosida guruh a'zolarining o'zaro hamjihatligida yaxlit buklet shakllantiriladi. Har bir guruhi o'ziga berilgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarni bayon qilishda quyidagi jadval asosida ish ko'rishi mumkin:

1. Oila tarbiyasida faol qo'llaniluvchi ijobiy talablar

Tg'R	Metodlar	Ularning mohiyati
1.	Iltimos	
2.	Ishonch bildirish	
3.	Ma'qullah	
...	...	

2. Oila tarbiyasida faol qo'llaniluvchi salbiy talablar

Nº	Metodlar	Ularning mohiyati
1.	Ishonchsizlik	
2.	Do'q qilish	
3.	O'rinsiz tanqid	
...		

OILADA BOLALARINI MILLIY IFTIXOR VA MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYaLASh

Reja:

- Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning ahamiyati.
- Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalash yo'llari.
- Oilada milliy tarbiya vositalaridan foydalanish.

Tayanch tushunchalar: milliylik, milliy tarbiya, milliy ruh, milliy iftixor, milliy g'urur, oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalash, milliy tarbiya vositalari.

Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston XI asrga intilmoqda" nomli asarida erkin fuqaro va ozod shaxs haqida so'z yuritib, uni shakllantirishda quyidagi to'rt jihatga e'tibori qaratish maqsadga muvofiq ekanligi aytildi: o'z haq huquqini taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashsin; o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'ra olsin; atrofida sodir bo'layotgan voqealarga hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin; shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'un holda ko'rib, faoliyat yuritsin.

Har bir jamiyatning taraqqiyoti millat yoshlarini milliy ruhda tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy hayot, turmush tarziga qay darajada samarali tayyorlanishiga bog'liq. Shu sababli asrlar davomida har bir millat, xalq o'z milliy qadriyatlarini negizida yosh avlod tarbiyasini tashkil etishga oid qarashlarni shakllantirib kelgan. Milliy yondashuv asosida tarbiya jarayonini tashkil etish natijasida yoshlar milliy mentalitet xususiyatlarini o'zida namoyon etuvchi sifatlarga ega bo'lганлар.

Lotin tilidan tarjima qilingan "mentalitet" tushunchasi "aql", "tafakkur", "fikrlash tarzi" degan ma'nolarni anglatadi. "Milliy mentalitet" atamasi milliy ong va faoliyat xarakterini ifodalovchi tushuncha sanaladi. Shaxsning milliy mentalitet xususiyatlariga ega bo'lishi uning milliy an'analari, madaniyati va turmush tarzi negizida kechadi. Avlodlarning milliy mentalitet xususiyatlarini o'zlarida namoyon eta olishlari ikki tomonlama xarakterga ega, birinchidan, bu hodisa konservativizmni, ya'ni, milliy xususiyatlarning ajdodlardan avlodlarga hech bir o'zgarishsiz o'tib borishini hamda milliy an'analarning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, milliy mentalitetda muayyan darajada bo'lsa-da, o'zgaruvchanlik ko'zga tashlanadi va u milliy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Millatning o'zga millatlardan farqlovchi asosiy jihat – bu uning milliyligi sanaladi.

Миллийлик – ўз миллатини улуғлаш ва унинг манфаатини ҳимоя қилиш, миллий турур ва миллий нафсоният туйғулари, ўз тили, адабиёти, маданияти ва санъати, дини, тарихи ва урф-одатлари байрам сайллари маданий маънавий қадриятларини қадрлаш, ўз туғилиб вояга етган диёрини ардоклаш, унинг мусаффо осмони билан фахрланиш туйғуси.

millatlarning o'zaro farq qiladigan jihatlari bo'ladi. Milliylik, eng avvalo, milliy ong va milliy g'ururda o'z aksini topadi.

Миллий онг деб миллатнинг тарихи, тақдири ва истиқболи билан боғлиқ манфаатлар ва мақсадларини ifodalovchi, миллат вакиллари фаолиятини мақсад, йўналишлар томон бошқариб турадиган ғоялар, фикрлар тизими.

Hal qiluvchi omil sifatida milliy ong “millatning mavjud bo’lishi, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqboli”ni belgilaydi hamda millatning “shakllanishi, uning taraqqiy etishi va abadiyligini ta’minlaydi”⁸⁸. Milliy ong asoslari millat paydo bo’lgan ilk daqiqalardan shakllana borgan va uning o’zi bilan parallel ravishda rivojlanib keladi.

Milliy ong o’zida millatning orzu-niyatlari, o’y-fikrlari, hayotiy yondashuv, intilish va maqsadlarini, ijtimoiy-milliy turmush tarzi hamda tabiiy borliqqa, ijtimoiy sub’ektlarga, oilaga, farzandlar tarbiyasi hamda shaxsning o’ziga bo’lgan munosabatlari mazmunini aks ettiradi. Shu sababli oila sharoitida bolalar tarbiyasini tashkil etishda ularda milliy ongni samarali shakllantira olish dolzarb ahamiyatga ega. Yoshlarning milliy ongga ega bo’lishlari ularda milliy g’ururning samarali shakllanishiga, milliy jihatdan o’zliklarini anglashlariga yordam beradi.

Миллий ғурур – шахс, ижтимоий гурухнинг миллий ўз-ўзини англаши асосида шаклланадиган аждодлари қолдирган моддий ва маънавий меросдан, ўз халқининг жаҳон цивилизациясига қўшган ҳиссаси, ўзга миллатлар олдидағи қадрқиммати, обрў-эътиборидан фахрланиш ҳиссини ifodalovi тушунча

kayfiyati milliy g’urur uning o’zi yashaydigan zamin, o’tmishi, ajdodlar moddiy va ma’naviy merosining jahon tsivilizatsiyasiga qo’shgan hissasi, o’zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro’-e’tibori, xalqaro maydonda tutgan o’rnidan faxrlanish hissini ifodalovi tushuncha sanaladi.

Oila sharoitida ota-onalar tomonidan “milliy iftixor” iborasi mohiyatini so’zmaso’z anglanishi hamda bu haqida bolalarga ma’lumot berilishi ularda ushbu tuyg’uning shakllanishini ta’minlaydi. Bu o’rinda ota-onalar “iftixor” tushunchasi “ulug’ bir narsaga daxldorlikdan faxrlanish, quvonish, g’ururlanish”⁸⁹ bo’lsa, “milliylik” muayyan millatga daxldorlikni ifodalashi haqida ma’lumotlarni bera olishlari zarur. Yaxlit holda esa “milliy iftixor” iborasi “o’z millati, uning tarixi, milliy qadriyat va an’analari bilan faxrlanib yashash tuyg’usidir”⁹⁰.

Milliy g’urur – milliy iftixor demakdir. Milliy iftixor millat o’zining o’zini yaxlit ijtimoiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma’naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi muayyan millat vakillarining qalbidan chuqur o’rin egallaydi. Milliy iftixor millat ma’naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarni o’z ichiga oladi. Milliy mustaqillik natijasida erishilgan va erishilajak iqtisodiy va ma’naviy yutuqlar ko’paygani sari O’zbekiston bilan faxrlanish hissi - milliy iftixor shunchalik ko’payib boraveradi. Milliy iftixor mamlakatimizning barcha fuqaroldari uchun birdek tegishli va uning yuksala borishi uchun barcha fuqarolar barobar ma’suldirlar.

“Milliy iftixor tuyg’usi – o’z milliy mansubligidan faxrlanish, o’z millatining boy tarixi, madaniy va ma’naviy merosidan, uning jahon tsivilizatsiyasiga qo’shgan

⁸⁸ Фалсафа. Қисқача изоҳли лугат / Масъул мухар. А.Жалолов. Ташрир ҳайъати: М.Абдуллаева ва б. Муал.: М.Абдуллаева ва б. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2004. – 209-бет.

⁸⁹ Тарбия / Ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия. Тузувчи: М.Н.Аминов. Масъул мухар.: А.Н.Мажидов. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2010. – 178-бет.

⁹⁰ Ўша манба. – 179-бет.

hissassidan g'ururlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg'usi – o'zligini anglash o'zgalarni tushunishga da'vat etuvchi qudrali kuch”⁹¹.

Ma'lumki, tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan⁹² bo'lsa-da, barcha davrlarda ham milliy qadriyatlar, ularning mohiyati tarbiya jarayoniga chuqur singdirilib borilgan. Eng muhim, tarbiya jarayonida asosiy e'tibor sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga etkazishga qaratilgan.

Sog'lom avlod – jismonan baquvvat, ma'naviyati boy, axloqli, yuksak tafakkurga ega avlod.

Har jihatdan etuk, sog'lom kishilar o'zlarida asrlar davomida o'zi mansub xalq tomonidan e'zozlanib kelingan eng ulug' fazilatlar – iymon, insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillilik, uyat va andisha, or-nomus, o'zaro hurmat, yuksak Vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarni va g'oyalarni mujassamlashtirgan bo'lishlari lozim.

Barkamol shaxs qiyofasida quyidagi fazilatlar o'z aksini topadi:

- ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'yisi, qishloq doshlari va xalq farovonligi, mamlakat obodligi va istiqboli uchun qayg'urish;
- tevarak-atrofdagi insonlar unga kerak bo'lganligi kabi o'zi ham ularga kerakli bo'lishga intilishi;
- odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblash;
- ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlash;
- milliy qadriyatlarni e'zozlash va ularga sodiq bo'lib qolish;
- vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularining barqaror bo'lishi;
- o'zaro muomala-munosabatda o'rnak bo'lishga moyillik, birovning og'irini engil qilishni odat qilish;
- umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qilish va unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatish;
- Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashash;
- diyonat vaadolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilish;
- va'daga vafoli bo'lish va b.

Ma'naviy barkamol inson shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bukilmaydi, ba'zan uyushtirilgan tuhmatu-fitnalarga uning ruhini tushira olmaydi. Demak, har qanday shum taqdir va qismat pokiza, mard, ma'naviy barkamol inson ma'naviyatini buza olmaydi, balki mustahkamlaydi, chiniqtiradi. Yuksak darajadagi ma'naviyatga ega inson – fidoyilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan fahrlanish kabi oljanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning

⁹¹ Ўша манба. – 179-бет.

⁹² Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм: Педагогика назарияси / М.Х.Тохтаходжаева ва б. – Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 380-бет.

insonligi, birinchi navbatda uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi.

Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalash yo'llari. Ma'naviy va ma'rifiy barkamollikning qirralari va mezonlari qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Mustaqillik tafakkurini har bir kishida shakllantirish nihoyatda zarur. Toki, mustaqillik tafakkuri, milliy iftixor, g'urur bo'lmas ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlar jo'sh urmaydi.

- Mustaqillik tafakkuri keng qamrovli bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:
- Vatan istiqlolni va istiqboli haqida qayg'urish;
 - xalqi, yurti qadr-qimmati, or-nomusini anglash va buni himoya qilish;
 - butun mehnati, iste'dodi, imkoniyatini, zarur bo'lsa jonini ham yurt istiqboli, xalq baxti uchun baxshida etish va b.

Mustaqillik bugungi kun yoshlariga ajdodlar tomonidan qoldirilgan ulug' imkoniyat, boy meros, muqaddas tuyg'udir. Shunday ekan uni xoh oila sharoitida, xoh ta'lim muassasalarida bo'lsin tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlar (bolalar) ongiga singdirib borish, uni asrashni o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, bugungi kun yoshlari yurt mustaqilligini asrab-avaylash har bir fuqaro zimmasidagi sharaflı burch ekanligini anglay olsin. Ota-onalar ham o'z navbatida oila muhitida farzandlarni yurt mustaqilligini himoya qilish, asrab-avaylashni so'zdagina emas, balki amalda ham o'z xatti-harakatlari namunasida tushuntira olishlari zarur. Bunda har bir fuqaro, shu jumladan, o'quvchilar zimmasiga yuklatilgan eng oddiy vazifalar, jumladan, o'quv fanlari asoslarini chuqur o'zlashtirish, bilimlarni puxta egallash kabilarni muvaffaqiyatli ado etish yurt mustaqilligini mustahkamlash, Vatan ravnaqi, yurt obodligini ta'minlashga qo'shilgan hissa ekanligini anglatishga e'tibor qaratishlari kerak.

Yuqorida aytib o'tilganidek, shaxs ma'naviy barkamolligining muhim ko'rinishlaridan biri – bu uning milliy iftixor tuyg'usiga egaligi sanaladi. Milliy iftixor o'z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an'analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashdir.

O'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan, o'z millatining istiqboli uchun qayg'urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g'urur ham, millat va faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi. Bunday shaxslar ma'naviy barkamol sanalmaydi.

Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash qanchalik murakkab bo'lsa-da, biroq, bu maqsadga erishish millatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi rivojini, yuuqlarini kafolatlaydi.

Bugungi keskin va murakkab vaziyatdan tegishli xulosalar chiqarib olish kerak. Ayni vaqtda avangard bo'la oladigan yoshlarning siyosiy tashkilotini qaytadan tiklashni davr taqozo etmoqda. Ushbu tashkilot yoshlarni fidoiy, faol, bunyodkor bo'la olishlarida namuna ko'rsata olishi, ularning e'tiborlarini maishiy ikir-chikirlardan oliy maqsadlar, ulkan yaratuvchanlikka qarata olishi zarur. Bu esa o'z

navbatida oila sharoitida ota-onalar tomonidan voyaga etmagan farzandlar e'tibori nimaga qaratilganligi, ularning ongida qanday g'oyalilar mustahkam o'ren olganligiga qarata olishlari darkor. Ota-onalar o'z farzandlarini ularning rahbarligida yoki mustaqil ravishda o'zlarida chinakam vatanparvarlik, baynalmilallik sifatlarini tarbiyalay olishlari uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratib bera olishlari muhimdir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib, esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Oilada milliy tarbiya vositalaridan foydalanish. Oila sharoitida tarbiya jarayonining samarali kechishida ota-onalarning ta'sirchan pedagogik vositalardan foydalana olishlari ham muhim ahamiyatga ega. Muammoni nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish natijasida oilada tarbiyani amalga oshirishda quyidagi tarbiyaviy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga ishonch hosil qilindi:

- 1) xalq pedagogikasi g'oyalari;
- 2) xalq og'zaki ijodi namunalari (ertaklar, topishmoqlar, maqollar, afsonalar, dostonlar, xalq qo'shiqlari, pand-nasihatlar, o'gitlar);
- 3) milliy axloq-odob, urf-odat, udum, qadriyatlar, bayram va marosimlar;
- 4) mutafakkirlarning o'git va pandlari, taniqli kishilarning hayoti va faoliyatiga oid ibratli misollar;
- 4) oilaviy an'analar, udumlar (oila a'zolari uchun ahamiyatli bo'lgan sanalarni nishonlash, o'tganlarni yod etish va h.k.);
- 5) sulola uchun qadrli bo'lgan moddiy ashyolar (yodgorliklar, kitoblar, sulola vakillarining kasb-koriga dahldor bo'lgan buyumlar, binolar, inshootlar (jumladan, tegirmon, ustaxona) va b.);
- 6) sulola haqida ma'lumot beruvchi shajara;
- 7) sulola vakillarining kasb-korlariga oid hayotiy lavhalar, xotiralar;
- 8) keksa avlod vakillari, ota-onalar hamda katta yoshli oila a'zolarining shaxsiy namunasi;
- 9) oila va oila tarbiyasiga oid ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop asarlar;
- 10) vaqtli matbuot materiallari va h.k.

Ezgu g'oyalarni targ'ib etuvchi hikoya bolaning ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim o'ren tutadi. Shu bois har bir oilaning kitob javonida ertaklar to'plamining bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Keyingi vaqtarda O'zbekistondagi nashriyotlardan ko'pgina qiziqarli, ezgu g'oyalarni targ'ib etuvchi to'plamlar chop etildi. Yosh bolalarga hikoya qilinadigan ertaklar mazmunan qisqartirilishi, bayon uslubining o'zgartirilishi, ertakning tushunarli hikoya qilinishi ularning tarbiyaviy ta'sirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ertakni tanlay bilish katta ahamiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga devu-parilar, shayton, yalmog'iz kampir, alvasti, ajina, suv parisi va shu kabi obrazlar mavjud bo'lgan ertaklarni aytmaslik kerak. Bunday ertaklarni katta yoshdag'i bolalarga tavsiya qilish mumkin, negaki, ular bu vaqtida muayyan darajada tafakkurga ega bo'lib, ular ustidan ezgulikning, ijobiy qahramonlarning g'olib kelishlariga ishonishadi. Qolaversa, ular ertakdag'i turli devu parilar, yalmog'iz kampir va boshqa salbiy obrazlar ertaklarga atayin kiritilgan obrazlar

ekanligini, ular vositasida insonlarga yomonlikni tilovchi yot g'oyalar ifodalanganligini tushunib etadilar. Kichik yoshdagি bolalar esa devu parilar va boshqa shu kabi obrazlarni haqiqatan mavjud deb qabul qilishlari mumkin, buning natijasida bolada vahima uyg'onadi, kechalari yaxshi u xlabel olmay, bosinqirab chiqishadi.

Yosh bolalar uchun eng ma'qul ertaklar – bu hayvonlar va ularning hayoti. Faoliyati, xatti-harakatlariga oid ertaklar sanaladi. O'zbek xalq ertaklari xazinasida bunday ertaklar juda ko'p va ular juda ta'sirchan ertaklardir. Xuddi shuningdek, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi boshqa xalqlar ham tarbiyaviy ahamiyatga ega ertaklarga boy sanaladi.

Bola voyaga etib borishi bilan kishilarning bir-birlariga bo'lган munosabatlarining ertaklarga ko'chganligini anglay boradi. Shu sababli ular orasidan tarbiyaviy ahamiyatga egalarini tanlay olish maqsadga muvofiқdir. Jumladan, Nasriddin Afandi haqida ko'plab qiziq latifalar mavud bo'lsa-da, biroq, ular orasidan kishini o'ta ahmoq qilib ko'rsatmaydigan latifalarnigina tanlagan holda oila tarbiyasida ulardan foydalanish talab etiladi. Kichik va o'rta yoshli bolalarga ezgu niyatli qahramonlar yoki bolalar halok bo'ladigan qayg'uli ertaklarni hikoya qilish to'g'ri emas. Aksincha, bolalarni harakatga undaydigan, faollikka da'vat etadigan, o'z kuchiga ishonchi ortadigan, hayotga ishonch bilan qarashga o'rgatadigan ertaklarni hikoya qilib berish maqsadga muvofiq sanaladi. Yordamga muhtojlarga ko'mak berishni targ'ib etuvchi ertaklar bolalarda ularni notavon va ojiz kishilar ekan, degan tasavvurning hosil qilishiga olib ketmasligiga e'tibor qaratish lozim. Zulm va zo'ravonlikning ayanchli oqibatlarini tasvirlovchi ertak, qissa va dostonlarni faqatgina katta yoshdagи bolalar bilan birga o'qish va tinglash pedagogik jihatdan to'g'ri yo'l hisoblanadi.

Bolalarning xayollarini boyitish va ularni maishiy hayot, ijtimoiy munosabatlar bilan yaqinroq tanishtirish uchun turli surat va tasvirlardan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Bunda faqat bolalar jurnallaridan olingan rasmlardan foydalanibgina qolmay, balki ixtiyoriy rasm, gravyura yoki fotosuratlarning ko'chirmalaridan foydalanish mumkin. Asosiy e'tibor ularning mazmunan bolalarning yoshi, xususiyatlariiga mos bo'llishiga qaratish kerak, xolos. Odatta bolalar bunday rasmlarni tomosha qilayotganlarida nihoyatda ko'p savollar beradilar, tafsilotlarini, sabablarini bilib olishga qiziqadilar. Savollarga hamma vaqt bola uchun tushunarli qilib javob bermoq kerak. Bordi-yu, javob berish mushkul bo'lган savol berilsa, u holda: "Sen hali tushunmaysan, katta bo'lгanidan keyin bilib olasan", – deyish lozim. Bu kabi javoblarning hech qanday ziyoni yo'q, hatto bu javoblar bolalarni berilgan savolga imkon darajasida javob berishga odatlantiradi. Kerakli rasmlarni "Funcha" hamda "Gulxan" kabi boshqa jurnallardan topish mumkin.

Bolalar uchun kitob sotib olishda yirik harflar bilan chop etilgan, rasmlari ko'p, mazmuni tushunarli bayon etilganlarini tanlash zarur. Bunday kitoblar bolalarda o'qishga bo'lган qiziqishni uyg'otadi, shuningdek, savod chiqarish yo'lidagi muayyan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi.

Savod o'rgatishdan bolalik hayotining ikkinchi davri – o'qish va bilim ottirishga bag'ishlangan davri boshlanadi. Bu davrda bola hayotida maktab eng

muhim o'rin oladi, ammo bundan aslo, ota-onalar o'z bolalarini tarbiyalash vazifasini unutib, faqat maktabgagina tayanishlari mumkin, degan xulosaga kelish yaramaydi. Aksincha, ota-onalar tomonidan oilada tashkil etiladigan madaniy-ma'rifiy ishlari, barcha a'zolarning madaniy muomalasi bolaning mактабдаги о'қиши учун, о'қишнинг сифати учун, ота-onлари, о'ртоqlари va mактаб jamoasi bilan ijobjiy munosabatda bo'lshi учун katta ahamiyatga ega. Gazeta, kitob, televiedenie va ma'naviy tarbiyaning qolgan boshqa vositalari xuddi ana shu darajada juda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Quyida ana shu vositalarning har biri va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari xususida batafsil so'z yuritiladi.

Bolaning savodi chiqqach, gazetaning uning hayotida mustahkam o'rin olishiga erishish kerak. Ota-onalar bolalarga mo'ljallangan gazetalardan biriga obuna bo'lshi kerak. Ushbu gazetani ular bolaga eshittirmasdan o'qimasliklari, har birlari alohida gazeta bilan tanishib chiqmasliklari lozim. Har bir gazetada bolalarga maxsus o'qib berish учун mo'ljallanmagan bo'lsa-da, har holda ularning oldilarida ovoz chiqarib o'qish va fikr almashish mumkin bo'lgan material topiladi, albatta. Agar gazetadan o'qigan material bolalar учун mo'ljallanmagan bo'lsa, yanada yaxshi. Bola baribir quloq soladi, agarda ota-onalar o'zlarini xotirjam tutishsa, u shu qadar diqqat bilan quloq soladi. Xalqaro ahvol, mustaqillik bayrami, mamlakat chegarasidagi voqealar, fidoiy fuqarolar tomonidan ko'rsatilgan qahramonliklar, shaharlarning qurilishi va bezatilishi, ijtimoiy hayotga oid yangi tartib-qoida va qonunlar bolalarning dunyoqarashini boyitish bilan birga ularni shaxslararo munosabatlarga samarali tayyorlashga yordam beradi.

Bolalar voyaga etgan sari, ayniqsa, ularning o'zлари o'qishni o'rgangan vaqtidan boshlab, gazetaning ular hayotidagi ahamiyatini tobora oshirishga erishish lozim. Albatta, agar iloji bo'lsa oildagi har bir farzandning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ular учун gazeta va jurnallariga obuna bo'lsh yanada afzal hisoblanadi. Biron sababga ko'ra buning iloji bo'lmasa, ushbu holat unchalik ziyon keltirmaydi. Chunki gazetalarning bayon uslubi har bir kishi учун tushunarli, shu sababli ularda bola учун ham biron-bir qiziq materialni hamma vaqt topish mumkin. Ota-onalar shunga e'tibor berishlari kerak, gazetani bolalarning o'zлари ham o'qishsin. Imkon qadar gazetaning har bir bola учун hayotiy zaruratga aylantirish maqsadga muvofiq.

Biroq, ayni o'rinda shuni ham unutmaslik kerakki, har bir bola tomonidan o'qilgan material oila davrasida muhokama qilib borilishi yoki hech bo'limganda bu to'g'rida suhbat uyushtirilishi zarur. Muhokama jarayonida ota-onalar unutmasliklari kerakki, suhbatlar rasmiyatichilikka aylantirib yuborilmasin. Shuningdek, suhbatlar учун alohida soat ajratib o'tirmaslik hamda unga ko'p vaqt sarf qilmaslik lozim. Odatda oila davrasidagi suhbatlarning maxsus saboq berishga asoslanishi, ezmalik qilish, buyruq, talab ohangida so'zlash bolalar tomonidan o'qilgan materialning tarbiyaviy ta'sirchanligini kamaytiradi. Shu bois o'qilgan materialni muhokama qilish erkin suhbat bo'lshi, munozaraning samimiylilik kasb etishiga diqqat qaratilishi kerak. Agarda, bu kabi suhbatlar biron-bir uy yumushi bilan bog'liq ravishda yoki oila a'zolaridan birov aytgan fikr bahonasida "bexosdan boshlanib ketguday" bo'lsa, u yanada samarali uyushtiriladi. Bordi-yu,

suhbatlarni boshlash uchun yaxshi bahonalar topilmasa, u holda ota-onalar o’z farzandlarigna “Xo’sh, bugun gazetada qanday qiziq xabar chop etilgan ekan?”, deya murojaat qilishlari mumkin.

Katta yoshdagи bolalar uchun gazeta madaniylikning, kichik yoshdagи o’g’il yoki qiz bolalar uchun esa ijtimoiy va tabiiy borliq mohiyatini anglashga imkon beruvchi vosita bo’lib qolishi zarur.

Oila muhitida farzandlarni kitob bilan tanishtirish ham ota-on, yoshi kattalar tomonidan ovoz chiqarib o’qishdan boshlanishi kerak. Farzandlarning savodi chiqqandan keyin ham iloji boricha ota-on va katta yoshli oila a’zolarining ovoz chiqarib kitob o’qishlari oila tarbiyasining eng samarali usuliga aylanishi zarur. Shunga erishish zarurki, kitoblar mutolaasi kunlari bolalar uchun bayram kabi kun bo’lib qolsin. Bunga erisha olish ota-onalarning eng katta yutug’i bo’lgan bo’lardi. Asta-sekin avvallari ota-onalar tomonidan asarlarning o’qib berilishi o’rnini keyinchalik farzandlarning o’zlariga topshirish kerak. Jarayonning samarali bo’lishi quyidagicha yo’l tutilishiga bog’liq:

- 1) ota-onha tomonidan asarlarni maxsus o’qib berishda dastlab bolaning tinglovchi bo’lishga o’rgatish;
- 2) asta-sekin asarlarning ota-onha yoki yoshi katta oila a’zolarining bolalar bilan birgalikda, o’zaro hamkorlikda (muayyan sahifalarni navbatma-navbat) o’qishga erishish;
- 3) o’qilgan asarni oila davrasida jamoa bo’lib muhokama qilish;
- 4) asar yuzasidan o’zaro fikr almashishga erishish.

Oila davrasida farzandlarning badiiy asarlarni mutolaa qilishga bo’lgan qiziqishini jamoa asosda rivojlantirish hamda ularda o’qilgan asarga tanqidiy yondashish, bayon etilgan voqelikdan xulosa chiqarish, qahramonlarning ijobiy fazilatlarini o’zlashtirishga intilish ko’nikmasini tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Ota-onha va oilaning katta yoshli a’zolari o’zлari namuna ko’rsatish orqali bolalarda sekin-asta ularning o’zлari mustaqil ravishda ishtiyoq bilan badiiy asarlarni o’qishga bo’lgan qiziqishlarini oshirishga e’tibor qaratishlari oila tarbiyasida yuksak samaradorlikka erishishni kafolatlaydi. Bolalarning, ayniqsa, katta yoshdagи bolalarning badiiy asarlarni mustaqil o’qishlari maktab ta’limi jarayonida yana mustahkamlanadi. Ammo ota-onalar shu unutmasliklari kerakki, agarda bolalarning badiiy kitoblarni mutolaa qilishlariga oila sharoitida e’tibor qaratilmas, bolalarda bu boradagi dastlabki ko’nikmalar shakllantirilmas ekan, ta’lim muassasalari bu borada hech bir natijaga erisha olmaydi.

Ayni o’rinda ota-onalarning e’tiborlariga farzandlarni oila sharoitida kitob, xususan, badiiy asarlarni mutolaa qilishga o’rgatish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni havola etish maqsadga muvofiqdir:

- a) ota-onalar bolalar tomonidan badiiy asarlar va maxsus adabiyotlarni tanlashni nazorat qilib borishlari kerak, zero, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi, bilim darajasiga mos bo’lmagan adabiyotlar, asarlarni mutolaa qilishlari ularda noto’g’ri tasavvurlarni hosil qiladi, qolaversa, vaqtlarining behuda sarflanishiga olib keladi.
- b) oilaning katta yoshli a’zolari, xususan, ota-onalar bolalarning badiiy asarlar, maxsus adabiyotlarni qanday o’qishlaridan xabardor bo’lishlari lozim; ular

bolalarni kitoblarni o'qishda ularning mazmuniga e'tibor bermay, sahifama-sahifa tez-tez o'qishdan, qiziqarli voqealarni yuzaki kuzatib borishdan saqlanishga o'rgatib borishlari kerak;

v) ota-onalar va oilaning katta yoshli a'zolari bolalarni kitoblarni ehtiyyot qilib tutishga odatlantira olishlari zarur.

Bolalar kitobxonligi masalalarini o'rganish natijalarining ko'rsatishicha, ota-onalar kitob tanlashga ko'pincha yaxshi e'tibor bermaydilar. Bundan tashqari, bolalar uchun lotin alifbosida yozilgan kitoblar hali kam. Har holda, kitobga doir hamma masalalar yuzasidan ota-onsa yoki kutubxonachidan maslahat olish mumkin va hech kim bunday maslahat berishdan bosh tortmaydi.

Televidenie va radio, ular orqali namoyish etiladigan kino, video filmlar, teatr spektakllari, dam olish dasturlari nafaqat bolalarni, balki kattalarni ham tarbiyalovchi ta'sirchan vositalardir. Biroq, zamonaviy sharoitda suratga olinayotgan kino, video filmlar, teleseriallar, sahnalashtirilayotgan teatr tomoshalarini ham birdek tarbiyaviy ahamiyatga ega deb bo'lmaydi. Aksariyat kino, video filmlar, teleseriallar esa o'zbek xalqiga xos milliy mentalitetga zid g'oya, qarashlar bilan boyitilgan, ayrimlari esa "ommaviy madaniyat" ko'rinishlarini targ'ib qilishga mo'ljallangan bo'lib, ular bolalar ongida salbiy fikr, xulqida esa axloqsiz sifatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Shu sababli ota-onalar kino, video filmlar, teleseriallarning davlat kinostudiylarida yaratilganligi yoki davlat buyurtmasi bilan tayyorlanganligiga e'tibor qaratishlari zarur. Binobarin, bu kabi san'at mahsulotlarigina o'zida milliy g'oya va mafkura tamoyillarini targ'ib etish bilan birga, milliy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qiladi. Ularni tomosha qilgan bolalar o'zлari uchun zarur bo'lgan "ma'naviy ozuqa"ga ega bo'ladilar.

Mustaqillik yillarda yaratilgan kino, video filmlar, teleseriallarning deyarli barchasi badiiy jihatdan yuksak bo'lib, ulardan oila tarbiyasini tashkil etishda foydalanish kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Shunga qaramay, ota-onalar bolalarni kino-teatrlarga olib borishdan butunlay voz kechmasliklari, ularni nazoratsiz qolishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Ota-onalar, avvalo, bolalarning kinofilmga bo'lgan munosabatlariga e'tibor qaratishlari kerak. Ba'zan shunday hollar bo'ladiki, bolaning fikri-yodi kinoda bo'lib qoladi. Namoyish etiladigan kino, video film yoki teleserailni deb bolalar boshqa vazifalarni, jumladan, dars tayyorlashni ham unutib qo'yadilar. Birorta ham filmni qoldirmay ko'radir, vaqtlarini asosiy qismini televizor qarshisida o'tkazadilar.

Televizorni ko'p ko'rish bir talay zararli oqibatlarga olib keladi. Masalan:

- 1) doimiy kam harakatlilik tana vaznining oshishini ta'minlaydi;
- 2) ko'rish gigienasiga rioya qilmaslik ko'zni toliqtiradi;
- 3) bolalarning miyasi muhim-nomuhim, kerak-nokerak axborotlarni qamrab oladi, buning oqibatida miya toliqib, bosh og'rig'i yuzaga keladi;
- 4) televizorni doimiy tomosha qilish bolalarda ishtyoqsizlikni yuzaga keltiradi, natijada ular asta-sekin har bir filmni zavqsiz tomosha qilishga odatlanshadi; bora-bora bolalar kartinani shunchaki kuzatib o'tirishga o'rganadilar; bu esa bolalarni fikrlashga undamaydi; filmga nisbatan hech bir savol yuzaga kelmaydi. Bu tariqa

film ko'rishning foydasi juda kam bo'ladi, ba'zan esa katta zarar ham keltiradi. Shu sababli yuqorida aytib o'tilganidek, ota-onalar kino, video filmlar, teleseriallarni tomosha qilishda yo'l-yo'riq ko'rsatib, rahbarlik qilib turishlari zarur.

14-15 yoshgacha bola badiiy yoki videofilmlarni ota-onalari yoki opa va akalari bilan birga ko'rgani ma'qul. Bu nafaqat bolalarni nazorat qilish shakli bo'lib qolmay, balki, ko'proq, birgalashib kitob o'qish to'g'risida bergen tavsiyamizda ko'zlangan maqsad uchun zarurdir. Har bir film oilada hech bo'limganda bir necha minut muhokama va muzokara uchun mavzu bo'lishi kerak. Ota-onalar bu to'g'rida bolaning ham o'z fikrini bayon qilishiga, unga nima ma'qul bo'lib, nima ma'qul bo'limgaganini, nimasi qattiq ta'sir etganini gapirib berishiga erishmoqlari kerak. Agar bunda ota-onalar bolani faqat tashqi hodisalar, syujetning qiziqligi, kino qahramonining sarguzashtlarigina qiziqtirayotganini payqasalar, bir-ikki savol yordamida uning e'tiborini kinofilmning mazmuniga qaratishlari lozim. Ba'zan, hatto bolaga hech qanday savol bermay, faqat uning oldida o'z fikringizni aytishingizning o'zi ham kifoya qiladi.

Bolalarning qanday filmni ko'rishlari ko'proq ma'qul ekanini ota-onalar hal qilishi kerak. Biron kartinani ilgariroq ko'rgan va u to'g'rida ba'zi narsalarni aytib bera oladigan shaxsni deyarli har vaqt uchratish mumkin. Ba'zi kartinaning mazmuni bolaga og'irlilik qiladi, bola undan hech narsa tushunmaydi, boshqa bir xillarining mazmuni bolaga aks ta'sir qilishi mumkin, uchinchi bir xillarida bolaning anglashi uchun hali juda erta bo'lgan muhabbat yoki tibbiyotga doir mavzular ko'rsatiladi. Bolalarni bunday lavhalarni ko'rishdan saqlanish kerak. O'z-o'zidan ravshanki, kartina tanlashda bolaning ahvolini ham, mактабдаги o'qishini, xulqini ham inobatga olish kerak.

Oila tarbiyasi samaradorligini oshirish va bu yo'lida muvaffaqiyatlarga erishish omillaridan yana biri ota-onalarga mo'ljallangan tarbiyaviy mazmundagi bukletlardir. Bukletlar mazmunida hayotiylik, bugungi kun qiyofasi aks etib turishi kerak. Ana shunda ularning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

Oilada jamoa bo'lib gazeta va jurnallarni mutolaa qilish bolalarning jamiyatda ro'y berayotgan ijobiylar, erishilayotgan yutuqlarni to'g'ri anglash, Vatan himoyasi yo'lida jon bergen fidoiylardek bo'lishga intilish hissiga ega bo'lishlariga yordam beradi. Mamlakat sportchilarining xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlari, musiqa festivallari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi. Ota-onalar bolalarni dastlab u yoki bu mazmundagi xabarlar olamiga olib kirishlari va astasekin ularni mustaqil mafkuraviy ma'lumot olishga o'rgata borishlari kerak.

Odatda oilada tashkil etilgan har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha kundalik yoki xotira daftarlarini yuritish, do'stlar bilan xat yozishish, bolalarni sayr yoki sayohatga olib chiqish, bolalarning mahalla, hovlini obod qilish ishlarida ishtirok etishi, turar-joy uylarinining hovlilaridagi bolalarni uyushtirish, uchrashuvlar, o'yinlar, sayrlar va boshqa shu kabilar tadbirlarni tashkil etish ham bolalarni oila muhitida atrofdagilar – qo'ni-qo'shnilar yordamida, ularning ibratlari vositasida samarali tarbiyalash imkonini beradi.

Uy sharoitida bolalar tomonidan milliy axloq talablarini o'rganishlariga erishishda ham tarbiya metodlarini tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Bunga ularning nafaqat mazmuniga, balki shakliga ham e'tibor berish kerak. Har bir ishda bolalarning faol bo'lishlariga erishish lozim, ularda faqat ko'rish va eshitish malakasinigina tarbiyalab qolmay, balki istak, xohish, qiziqish, g'alabaga intilish, to'sqinliklarni engish, o'ziga o'rtoqlarini va kichik bolalarni jalg qila olish malakalarini ham tarbiyalab borish talab etiladi.

Uy-ro'zg'or yumushlarni turli metodlar yordamida amalga oshirish mumkin. Bu holat o'z-o'zidan bolalarni ham aqliy, ham jismoniy jihatdan fikrlashga, o'ylashga majbur qiladi. Oila sharoitida bajarilayotgan ishlarning barchasini doimo madaniy faollikdan ijtimoiy-siyosiy faollikka aylanib borishiga erisha olish lozim. Zero, shundagina bolalar o'zlarini shu jamiyat a'zosi ekanligini tobora chuqur his qilib boradi va samarali mehnat qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Sobiq Ittifoq davrida bolalar tarbiyasiga nisbatan umumiy, mavhum, ya'ni, "soviet o'quvchisi", "soviet bolasi"ni tarbiyalashga yo'naltirilgan talablar qo'yib kelindi. Bolalarning kamolotiga qo'yiladigan milliy talablar ularda shaxsiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni yuzaga keltiradi, shaxsiy hayotining jamiyat ijtimoiy hayoti bilan uzviy aloqadorlik va bog'liqlikda kechishi borasidagi qarashni qaror toptiradi, shuningdek, oilaning muqaddasligini tushunish, uning sha'ni, obro'si uchun kurashish oddiy insoniy burch ekanligini anglashga imkon beradi. Ota-onalar bilan bolalar o'rtasida samimiy munosabatni o'rnatish oila tarbiyasini samarali tashkil etishning asosiy shartlaridan biridir.

Millatparvarlik milliy mustaqillik sharoitida xalqning ijtimoiy-g'oyaviy birligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fazilat bo'lib, u jamiyat fuqarolarining manfaatlari uchun kurashishni ifoda etadi.

Shunday qilib, bolalar bilan ishslashning boshlang'ich davrida ota-onalarning talabchanligi ularni foydali faoliyatga yo'naltirish, shuningdek, noma'qul, befoya harakatlarning oldini olish hamda to'xtatishning muhim omillaridan biri sanaladi.

Bugungi kunda oila tarbiyasi jarayonida milliy istiqlol talablari asosida bolalarda muayyan sifatlarni tarbiyalashni ijtimoiy maqsadga aylantirish talab etilmoqda. Bu yo'lida qo'llaniladigan metodlardan biri – bolalarda istiqbolga ishonchni hosil qilish hisoblanadi.

Istiqbolga bo'lgan ishonchni hosil qilish bolalar bilan birga muayyan tadbirlerda ishtiroy etish, birgalikda istirohot bog'i yoki mehmondorchilikka borishdan iborat bo'lishi mumkin. Mazkur metodni har bir bolaning hayotiy ehtiyoji, talabini inobatga olish asosida qo'llab, keyinchalik uni rivojlantirib, oilaviy, hatto, umummilliyl munosabatlar darajasigacha ko'tarish mumkin.

Agar ota-onalar bolalarga istiqbolni ma'lum ko'rsatmalarsiz tushuntirsalar, ular ijtimoiy, umummilliyl maqsadlarni shaxsiy maqsadlar sifatida qabul qiladilar. Buning oqibatida kelajakda ular tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat shaxsiy manfaatlarga asoslanib qolishi mumkin. Bordi-yu, bolalarning istiqbol maqsadlari ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lsa, ularning faoliyatlarini mazmunli bo'lish bilan birga, ularning faoliyatini boshqarish muayyan natijalarning kafolatlanishi asosida kechadi.

Shuning uchun bolalarda istiqbolli, ya’ni, shaxsning qiziqish va intilishlariga daxldor holda uni ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga undaydigan maqsadni shakllantirish pedagogik jihatdan eng to’g’ri yo’ldir.

Bolalarda kelajakka bo’lgan ishonchni shakllantirish o’smir shaxsiga ta’sir ko’rsatishning ta’sirchan metodi bo’lib, uning yordamida zerikarli, uzoq muddatli faoliyatni ham maroqli jarayonga aylantirish, uni yangi mazmun bilan to’ldirish imkoniyati yuzaga keladi.

Kelajakka bo’lgan ishonch – bola faoliyatini aniq maqsadga yo’naltirish, uni zavqli jarayonga aylantirishga yordam beruvchi vosita hisoblanadi. Istiqbol yoshlarning ichki ehtiyojlariga javob berib, bu ehtiyojlarni milliy istiqlol g’oyasi talablari, ijtimoiy maqsad va vazifalarga muvofiq rivojlantirishga zamin yaratadi. Istiqbolning shaxs va millat manfaatlariga mos kelishi – muvaffaqiyat garovidir. Bu qoida nafaqat oila tarbiyasi, balki bolalarning har qanday faoliyatiga taalluqlidir.

Ma’lumki, bajarilish muddatiga ko’ra yaqin, o’rta, uzoq hamda ishtirok etuvchi sub’ektlar tarkibiga ko’ra – jamoa, guruh va shaxsiy istiqbol farqlanadi. Biroq, istiqbolni turlar bo’yicha emas, balki faoliyat sabablariga ko’ra ham farqlash maqsadga muvofiq. Istiqbol qanchalik yorqinroq va mazmuniroq bo’lsa, unga muvofiq keluvchi sabablar shunchalik asosli va murakkab bo’ladi. Istiqbolning aniq ifodalanishi inson xatti-harakatlarining umumiyo yo’nalishi va xarakterini belgilab beradi. Ya’ni, istiqbol harakat motivi, sababini shakllantirish va rivojlantirishning manbai bo’lib xizmat qiladi.

Shaxsning yoshi qanchalik katta bo’lsa, istiqbolning zarurati shunchalik jiddiy va murakkablikka asoslanadi. Biroq, kichik yoshdagи bolalar tomonidan anglanayotgan yaqin istiqbol ham faqatgina yoqimli omillar asosida bo’lishining oldini olish lozim.

Istiqbol, shuningdek, tashkil etilishi zarur bo’lgan faoliyatning murakkabligiga ko’ra ham farqlanadi. Chunonchi:

- a) qiyinchiliklarni engishni talab qilmaydigan istiqbol;
- b) qiyinchiliklarni engish bilan bog’liq bo’lgan istiqbol.

Qiyinchiliklarni engishni talab qilmaydigan istiqbollar ko’ngil ochuvchi istiqbollar sifatida tavsiflanadi. Bizning fikrimizcha, O’zbekiston Respublikasida keng ko’lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ijtimoiy mehnat faoliyatini tashkil etishda ommaviy safarbarlikka erishish, bu yo’lda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni hamjihatlikda bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilishi zarur. O’yin yoki ko’ngil ochar tadbirlar yo’nalishini ham eng muhim ijtimoiy maqsad asosida belgilash maqsadga muvofikdir.

Agarda yaqin istiqbol o’ziga xos murakkablikka ega bo’lsa, u holda umumiyo “loyiha”da o’rta istiqbol vaqt nuqtai nazardan bir qadar orqaga surilishi va unga muvofiq tashkiliy tadbirlarni belgilash taqozo etiladi.

Uzoq istiqbolni belgilash eng qiyin va muhim vazifalardan biridir. Tajribali ota-onalar bolalarning kelajagini doimo jiddiy va asosiy maqsad sifatida tan oladilar.

Bolalarning istiqbol hayotiy maqsadlarini O’zbekiston Respublikasining ravnaqi yo’lida mehnat qilishdek ijtimoiy maqsad bilan uyg’unlashtirish oila tarbiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanishiga erishish bugungi kunning

dolzARB vazifasi hisoblanadi. Istiqbolni aniq anglash bolalarda shaxsiy manfaatlarini millat manfaatlari bilan muvofiqlashtirishga imkon beradi, buning natijasida ularning buzg'unchi, yot g'oyalari ta'siriga tushishlarining oldi olinadi.

Sobiq sho'ro pedagogikasida tarbiya jarayonini to'la boshqarib bo'lmas edi. Buning asosiy sababi nomilliy, sinfiy pedagogika g'oyalari jamiyat tomonidan to'laqonli qabul qilinmaganligidadir. Bu boradagi ziddiyat shaxsning milliy muhitdagi manfaatlari to'qnash kelib, uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatardi. Shu bois oila tarbiyasi jarayonini tashkil etishda shunday vositalarning tanlanishi talab qilinmoqdaki, ular bolaning har tomonlama etuk, barkamol va erkin shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qilsin.

Tarbiya jarayonini samarali boshqarishda shaxs tomonidan muayyan pedagogik andoza (namuna yoki ideal)ning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqbul pedagogik andoza (namuna yoki ideal)ni o'zlashtirish shaxs ehtiyojlariga mutanosib bo'lishi zarur.

Namuna (yoki ideal)ning shaxs faoliyatida o'z in'ikosiga ega bo'lishi tarbiya, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlarini boshqarishda samarali yo'llardan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. O'z-o'zini tarbiyalashning bunday ko'rinishini istiqbolli namuna deb atash mumkin.

Tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli boshqarishning garovi istiqbollar, birinchi navbatda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan jamoa istiqbollarini ilgari surishdan iboratdir. Bu jarayonda amal qilinishi zarur bo'lgan shart istiqbol mohiyatini sekin-asta murakkablashtirib borish, uning vaqtı jihatidan uzoqlashuvi, shuningdek, shaxsiy, oila va millat istiqbollarning o'zaro uyg'unligiga erishishdir. Pedagogik namuna shaxsning ehtiyojlarini bilan uyg'un bo'lgandagina faoliyatning ichki mazmuni bo'lib qoladi. Istiqbol mazmunan takomillashtirilib borilmas ekan, mohiyatan bir xil, oddiy istiqbollarning tez-tez takrorlanishi bolalarda hafsalasizlik va uquvsizlikni keltirib chiqaradi. Buning natijasida tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonini boshqarib bo'lmaydigan bo'lib qoladi.

Istiqbolni ko'rsatish metodi ta'sir kuchini oshirish uchun tarbiyalanuvchilarning o'z ota-onalariga hamda ota-onalarning ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan pedagogik faoliyat, uning mazmuni va yo'naliishiga bo'lgan munosabatlari darajasini o'rganish talab etiladi.

Demak, ota-onalar hamda bolalar o'rtasida samimi, o'zaro yordam va ishonchga asoslanuvchi munosabatlarni o'rnatish oila tarbiyasi jarayonini samarali boshqarishga yordam beruvchi sog'lom oilaviy muhitni yaratadi. Oila tarbiyasi jarayonini boshqarish shaxsning o'z-o'zini g'oyaviy tarbiyalashni tashkil etishning zarur shartidir. O'z-o'zini tarbiyalash jarayoni, shuningdek, bola psixologiyasining jamiyat mafkurasi asoslari bilan boyitib borilar ekan, pirovard natijada uning yo'naliishini shart qilib qo'yadi.

Nazorat savollari:

1. "Milliylik" va "milliy ruhda tarbiyalash" tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
2. Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalash qanday ahamiyatga ega?
3. Sizningcha, milliy g'urur nima?
4. Barkamol shaxs o'zida qanday sifatlarni aks ettira olishi zarur?

5. Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning qanday yo'llari mavjud?
6. Oilada milliy tarbiyaning qanday vositalaridan foydalanish mumkin?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
2. Oila pedagogikasi. – Toshkent: "Aloqashi", 2007.
3. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur G' O'quv qo'll. – Toshkent: "O'qituvchi", 1999.
4. Safarov O. Oila ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
5. Quronov M. Oila tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.

Amaliy topshiriqlar:

1. "Klaster" metodi yordamida jamoa bo'lib, barkamol avlod portretini yarating.
2. Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning yo'llari bo'yicha bahsmunozara tashkil eting. Bahs-munoazarada ilgari surilgan g'oyalar asosida oilada bolalarni milliy ruhda samarali tarbiyalashga oid amaliy tavsiyalarni ishlab chiqing.
3. "FSMU" strategiyasi yordamida oilada bolalarni milliy ruhda samarali tarbiyalashga xizmat qiluvchi vositalar va ularning mohiyatini yoriting.

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. Topshiriqni bajarishda talabalar jamoa bo'lib ishlaydilar. O'qituvchi klasterlar yordamida barkamol avlod portretini yaratishda akademik guruhdagi har bir talabaning faol bo'lishini nazorat qilib borishi lozim. Portretni shakllantirish jarayonida talabalar tomonidan bildirilgan har bir fikr inkor qilinmaydi. Biroq, portretning yakuniy variantini tahlil qilishda o'zaro o'xshash yoki bir-birini takrorlovchi sifatlar olib tashlanishi mumkin.
2. Talabalar topshiriqni bajarishda mavzuga oid bilimlari, o'z ota-onalarining faoliyatlari va tajrbalariga tayanadilar. Ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalarning oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishdagi ahamiyati inobatga olinishi lozim.
3. Topshiriqni bajarish uchun talabalarning e'tiborlariga oilada bolalarni milliy ruhda samarali tarbiyalashga xizmat qiluvchi vositalar va ularning mohiyatini quyidagi jadval tavsiya etiladi:

Tg'R	Vositalar	(F)	(S)	(M)	(U)
1.	Ota yoki onaning so'zi				
2.	Ota yoki onaning namunasi				
3.	Oila davrasidagi suhbat				
...					

Izoh: shartli belgilar quyidagi mazmunni anglatadi:

(F) – fikringizni bayon eting;

(S) – fikringizni asoslovchi biron sababni ko'rsating;

(M) – ko'rsatilgan sababning asosli ekanligini isbotlovchi misol keltiring;

(U) – fikringizni umumlashtiring!

OILADA BOLALAR BILAN MULOQOTNI YO'LGA QO'YISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ShART-ShAROITLARI

Reja:

1. “Muloqot” tushunchasining mohiyati.
2. Oiladagi shaxslararo muloqot uslublari va ularning o'ziga xosliklari.
3. Oilada bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishning o'ziga xos pedagogik-psixologik jihatlari.

Tayanch tushunchalar: muloqot, muloqot uslublari, oilaviy munosabatlarda qo'llaniladigan muloqot uslublari, oilada bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yish, oilada bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishning o'ziga xos pedagogik-psixologik jihatlari.

“Muloqot” tushunchasining mohiyati. Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi - bu farzand ko'rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda er yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir.

Darhaqiqat, oila har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istiklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining qadriyatları va ma'naviy merosi ravnaqini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. “Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan”. Bola shakllanishining ilk muktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatlari majmui bo'lib hisoblanadi. “Oila haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo ko'z o'ngimizda ona siymosi shakllanadi. Oila muqaddasligini ta'minlovchi birinchi omil – ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehru-muruvvati, sadoqati va vafodorligidir”. Ota-onalar munosabatlarda namoyon bo'lувчи o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy toifadagi qadriyatlar ularning o'zaro munosabatlarida uyg'unlasha borib, oilada o'zaro munosabatlar maromini vujudga keltiradi. Oiladagi ushbu ijtimoiy jarayon yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy turmush haqidagi tasavvurlari, nuqtai nazarlari,

tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona odob-axloq qoidalari va ularga amaliyotda rioya etishning to'g'ri yo'l-yo'rqlarini ko'rsatadi. Yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning xatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida shakllanadi).

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko'rsatadi. Qadimgi xalqlardan qolgan asori-atiqlarda, muqaddas diniy manbalarda, o'zbek xalqining og'zaki ijodi durdonalarida, sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarida sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan odob-axloq qoidalari, me'yorlari, insoniy fazilatlar ifodasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Manbalarda oilasiz insoniy hayotni tasavvur qilib bo'lmaslik, barkamol farzand tarbiyasi, undagi er-xotin va o'zaro munosabatlar madaniyati, baxtli va farovon turmush kechirish yo'llari, hayotiy misollar yordami bilan hikmatlar va nasihatlar ko'rinishida bayon etilgan. A.Fitrat intizomlilikning ijtimoiy mohiyatini ta'riflar, o'zining "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida shunday deb yozadi: "Har bir millatning saodati va izzat, albatta, shu xalqning ichki intizom va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli qv muntazam bo'ladi"⁹³.

O'z-o'zidan ravshanlashadiki, oilaviy tartib-intizom muammolari uning xuquqiy vazifalarini belgilaydi. Bunda eng muhimi, oilaning har bir a'zosiga xos ichki ntizom madaniyati, o'z burchi va ma'suliyatini anglashi bilan birga ular oilaviy muhitda o'z o'mini belgilay olishi, oilaviy munosabatlarni hurmat qila bilishi, oila iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olishi, oila sha'nini sharaflashi, xullas, oilada o'z shaxsiy halovatini his qilmoq uchun halol va samimiy bo'lmoqqa erishishi zarur⁹⁴.

Oilaviy turmush bilan jamiyat taraqqiyotining doimiy mushtarakligi tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham oilaviy muammolar uning ilg'or vakillari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyotida va farzandlarning kamoloti uchun shu qadar muhimki, xuddi shu bois uni biror soniya ham diqqat-e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Respublika psixologlari tomonidan o'zbek oilalariga xos muammolarni o'rganish yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o'rganilib tahlil qilingan.

Biroq, yuqoridagi ilmiy izlanishlarda oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Aslida oilaviy turmushda yuzaga keladigan muammolar, hatto oilaning buzilishi va uning salbiy asoratlari, hamma-hammasi

⁹³ Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблар. –Тошкент: "Маънавият" нашириёти, 1998. – 53-бет.

⁹⁴ Сафаров О. Махмудов М. Оила маънавияти. –Тошкент: "Маънавият" 2009. – 247-бет.

undagi shaxslararo munosabatlar ta'sirining natijasi ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak. Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, oila barqarorligi, baxtli va farovon turmush kechirish, albatta, shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli, aynan shu muammo yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.

“Muloqot” tushunchasi lug'aviy jihatdan arab tilidan tarjima qilinganda “uchrashish”, “ko'rishish”, “qabul qilish”⁹⁵ degan ma'noni anglatadi. Mazmunan esa muloqot “ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'zaro bir-biriga ta'siri etishi” hisoblanadi.

Har bir shaxs “muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga etadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalardan biri hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi”⁹⁶.

Muloqot – 1) kishilarning o'zaro aloqasi, bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari kishilar o'rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni;

2) kishilarning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishi asosida ular o'rtasida ro'y beradigan axborot almashinushi⁹⁷.

Psixologiya fanida muomala kategoriysi keng ma'noda tushuniladi hamda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni aks ettiradi va ijtimoiy protsessual faoliyatni ifodalarydi.

Oila sharoitida ota-onalarning o'zлari atrofdagilar bilan ijobiy muloqot qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari hamda farzandlarda ham juda yoshlikdan muloqot madaniyati sifatlarining shakllanib borishiga e'tibor qaratishlari zarur.

Muloqot madaniyati – yuksak darajadagi muloqot ko'nikmalariga egalik⁹⁸.

Aksariyat holatlarda muloqot madaniyati “kommunikativlik” (“muloqotga kirisha olish”) tushunchasi bilan ham ifodalanadi. **Kommunikativlik** – shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo'lish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o'rnatish, axborot to'plash, turli

⁹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли лухати. Е – М / 5 жилдли. Иккинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир хайъати: Э.Бегматов ва б. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 636-бет.

⁹⁶ Холиков А. Педагогик маҳорат. – Тошкент: Фан, 2010. 425 б.

⁹⁷ Большая психологическая энциклопедия. Самое полное современное издание. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 287.

⁹⁸ Ўша манба. – 197 стр.

ijtimoiy munosabatlar o'rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq-atvorini kuzatish⁹⁹.

Oilada bolalar bilan muloqot deganda, ota-onalari va bolalarining o'zaro muloqotga kirishish tizimi tushuniladi, uning asosiy mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. Ota-onalar bu jarayonni faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi.

Bolalar bilan oiladagi muloqotning tarbiyaviy ahamiyati, ota-onaning bolalari bilan faol muloqotga kirisha olishi tarbiya jarayonida ularni bilishi va o'rganish kaliti va tarbiyaviy faoliyatining ijodiy xarakteri, bola shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, tarbiyada maqbul bo'lган emotsiyonal muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlarning paydo bo'lishini oldini oladigan, bolalarda ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan muhim vositadir.

Oiladagi shaxslararo muloqot uslublari va ularning o'ziga xosliklari. Oilada ota-onalar bolalar bilan muloqot jarayonida muntazam tarbiyaviy ta'sir o'tkazish metodlari bilan ishlaydi. Masalan: biror-bir voqe, hodisaning mohiyatini tushuntirishda, bolaga u tomonidan sodir etilgan biror-bir noto'g'ri xatti-harakat uchun dashnom berishda. Ushbu vaziyatda ota-onalar, avvalo, nimalarga e'tibor berishi kerak: birinchidan, vaziyat tahlil qilinadi; ikkinchidan, murakkab vaziyatdan chiqishning mumkin bo'lган variantlari saralanadi, uchinchidan, ushbu faoliyat, odadta tezkor amalga oshiriladi (bunda ham pedagogik kommunikatsiyaning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi) va optimal metodlar tanlanadi, faqat shundan keyingina pedagogik ta'sir tashkil qilinadi. Biroq hali tanlangan ta'sir metodiga adekvat bo'lган, u orqali pedagogik ta'sir amalga oshiriladigan muloqot tizimini topishimiz kerak. Ya'ni, ma'lum bir maqsadga qaratilgan umumiyy pedagogik vazifani hal etgandan so'ng, ta'sir metodini tanlab bevosita ta'sirni tashkil qilish uchun asosiy vazifa sifatida kommunikativ vazifa belgilanishi kerak.

Kommunikativ vazifa pedagogik faoliyatda, nisbatan ishlab chiqaruvchi xarakterga ega bo'lib, murakkab vazifani hal etadi. Zero u pedagogik vazifadan kelib chiqqan, shu sababli ota-onalari tomonidan tanlanadi va belgilanadi. Aytish mumkinki, kommunikativ vazifa aynan kommunikatsiya tiliga o'tkazilgan pedagogik vazifaning o'zi. Kommunikativ vazifa pedagogik vazifaning asosini aks ettirib, unga nisbatan yordamchi, instrumental xarakterga ega bo'lган jarayondir.

Amaliyot shundan dalolat beradiki, ota-onalari o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikning o'ziga xos to'g'ri metodini tanlab hamda vaziyatni to'g'ri baholagan taqdirda ham, ko'pincha o'z pedagogik ta'sirini kommunikativ jihatdan ta'minlay olmaydi, ya'ni kommunikatsiyani o'zaro muloqotda amaliy jihatdan tatbiq eta olmaydi.

⁹⁹ Эгамбердиева Н.М. Ижтимоий педагогика. Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 104-бет.

O'quvchilar bilan muloqotda pedagogik tayyorgarlikning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan ota-onaning kommunikativ ko'nikma va malakalarini egallashiga va uni qo'llay olish layoqatiga bog'liq.

Muloqotning muhim komponenti, ota-onaning o'z fikr va mulohazalarini, emotsiyal his-tuyg'ularini aniq ifoda eta olish mahoratidir.

Turli tasodifiy pedagogik vaziyatlarda ota-onada g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganida, tushkun bir ahvolga tushganida ichki his-tuyg'ularini bir holatdan boshqa holatga, bir shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan rol o'ynab vaziyatdan chiqishni ham bilishi lozim.

Shu ma'noda taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o'z asarlarida ota-onaning kasbiy fazilati to'g'risida fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: "Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rolni o'ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan ota-onada kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma'lum ma'noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe'limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogik qurol bo'lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni qalb va ko'ngil azoblari bilan, hijronli his-tuyg'ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axir biz insonmiz. Har qanday boshqa kasb egalarida ko'ngil zahmatisiz ish bitirish mumkin bo'lsa, pedagog ham ko'ngil azobisiz faoliyat olib borishi lozim bo'ladi. O'quvchiga ba'zan muloqotda ko'ngil azobini namoyish etishga to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobjiy rol o'ynashni ham bilishi kerak.

Biroq, shunchaki tashqi, sahnaviy rol o'ynash yaramaydi. Bu o'yinda pedagogning ajoyib shaxsiy mahorati bilan bog'laydigan qandaydir kamar bor, bu sizning go'zal xulqingizni namoyish etib bog'lovchi rolingiz. Bu sahnadagi o'yin o'lik bir holat yoki texnika emas, balki qalbingizdagi yashirin his-tuyg'ularingizni, mehringizni namoyon etuvchi haqiqiy jarayondir".

Hozirgi kunda ham turli tasodifiy pedagogik vaziyatlarda, ota-onada g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganida, tushkun bir ahvolga tushganida ichki his-tuyg'ularini bir holatdan boshqa holatga, bir shakldan boshqa shaklga o'tkazishni bilishi pedagogik mahoratning muhim shaklidir.

Ma'lum ma'noda ota-onada pedagogik faoliyatida uning ruhiy ta'sirlanishi, qayg'urishi, boshqa kasb egalarining tabiiy his-tuyg'ularidan farq qiluvchi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ta'kidlash joizki, ota-onada o'zining kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida boshqa kasb egalari kabi tashqi muhitning turli ta'siri ostida va insoniy his-tuyg'ular girdobida yashaydi, kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi ham ana shunda namoyon bo'ladi va ota-onaning ta'sirlanishi, his-tuyg'ulari, hayajoni pedagogik maqsadga muvofiq bo'lishi lozim.

Oilada ota-onaning manfaatlari bitta umumiyl maqsadga qaratilgan bo'lib, ular o'z farzandlarini jismoniy, ma'naviy, axloqiy jihatdan barkamol inson qilib o'stirishdan iboratdir. Bola tarbiyasiga alohida ahmiyat berish, har bir fuqaroning, oilada ota-onalarning burch va vazifalari hisoblanadi.

Oiladagi tarbiyaviy jarayon o'ziga xos xususiyatga ega. Bola ota-onaning xattiharakatlarini taqlid qilish orqali o'rganadi, ular aytgan so'zlarni takrorlaydi. Demak, ota-onada shaxsi shakllanishi uchun ideal tarbiyachi bo'lishi lozim. Oiladagi tarbiyaviy jarayon avvalo bola bilan ota-onada o'rtasidagi doimiy muloqot

jarayoniga bog'liq bo'ladi. Xo'sh, biz bola bilan muloqotga qancha vaqt ajrata olayapmiz? Bir sutka mobaynida bir soat vaqt ajratsak bu albatta yaxshi. Ammo tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ota-onasini va bola o'rtasidagi muloqot bir sutkada 1,8 soatni tashkil qilar ekan. Shundan ona 35 minut muloqotda bo'lishi lozim. U ham bo'lsa, "qorning ochmi?, nima eding?" kabi gaplar. Bola savol bersa, ayrim xollarda javob berishga ham qiynalamiz. Turli yoshdagi farzandlarda u yoki bu muammo bo'lishini biz kattalar bilishimiz, unga vaqt ajrata olishimiz kerak. Faqatgina moddiy g'amxo'rlik qilish bolaga, uning tarbiyasi uchun, muloqoti shakllanishi uchun etarli emas.

Ota-onalar o'rtasida nizolarning kelib chiqishi, bola tarbiyasidagi nuqsonlar, muloqot madaniyatining shakllanmaganligi, bolaga e'tibor bermaslikdandir.

Ma'lumki, 2 yosh bilan 5-6 yosh o'rtasida bolaning nutqi tez o'sa boshlaydi va so'z boyligi 3-4 mingga eta oladi. Bola ko'rgan, eshitgan narsalari to'g'risida ko'p savol beradi, yangi so'z va tushunchalarni egallay boshlaydi. Buning uchun bolaga to'g'ri tarbiya berish, u bilan so'zlashish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, ertaklar gapirib berish, kitoblar o'qib eshittirish lozim. Bola nutq qobiliyatiga ega bo'lsa, o'z fikr va maqsadini boshqalarga mukammal va aniq etkazib bera oladi.

Shuning bilan birga muloqot jarayonida to'g'ri va odobli muomalani, ya'ni suhbat vaqtida juda ham baland ovoz bilan shoshib gapirmaslik, so'zlarni aniq talaffuz qilish, bir gapni takrorlamaslik, boshqaning gapini qaytaravermaslik, bo'lmaslik kabilarga o'rgatib borishimiz zarur. Shuningdek, bolaning yoshiga qarab atrofdagi kishilar bilan muomala madaniyatiga o'rgatib borish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari tinglash madaniyatini shakllantirish ayni paytda qiyin kechayapti. Agarda bola o'z ota-onasini tinglay olsa va aytganlariga amal qilsa uning tarbiyasi yomon bo'lishi mumkin emas. Bolaga salomlashish odobidan tortib tinglash madaniyatigacha o'rgatmasak keyin bu qusurni to'g'irlash bir muncha qiyin kechadi.

Ba'zi oilalarda ota-onalardan oldin farzandlar gapiradi. Ota-onasi kattalar bilan gaplashayotgan bo'lsa luqma tashlab turadi. Ba'zilar ota-onasining imo-ishorasidan dildagini ilg'aydi. Dildagini nigohlardan ilg'ay bilish uchun ham tinglay bilish kerak.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A.Shopengauer "Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang" deb yozgan edi. Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o'z-o'ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas. Tinglash jarayonining ahamiyati shundaki, u muloqotning samarali bo'lishida muhim o'rinnegallaydi. Chunki, tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi.

Tinglash san'ati yuksak bo'lgan xalq madaniyatlidir. Buning uchun esa biz farzandlarimizda muloqot madaniyati hamda tinglay bilish san'ati yuqori bo'lishini shakllantirishimiz muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, muloqot oila sharoitida ota-onada va farzandlar o'rtasidagi eng muhim aloqa, o'zaro axborot almashish, hissiy kechinmalarni bayon qilish vositasi sanaladi. Oila a'zolarining barcha munosabatlari bevosita yoki bilvosita muloqot yordamida amalga oshiriladi. Psixologik nuqtai nazardan esa muloqot katta tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu sababli ota-onada va farzandlar, umuman olganda, oilaning barcha a'zolari o'rtasida tashkil etiladigan muloqotning ijobiliy ahamiyat kasb etishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu borada asosiy mas'uliyat shubhasiz ota-onaning zimmasiga yuklatiladi. Ota-onalarning o'zлари samarali muloqot qilish uslublarini o'zlashtirgan holda farzandlarga ham shaxslararo munosabatlar jarayonida ushbu vositadan o'rinni, maqsadli foydalanish ko'nikmalarini tarbiyalab borishlari lozim.

Nazorat savollari:

1. Oila pedagogikasi fanining predmeti nimalardan iborat?
2. Oila pedagogikasi fani o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yishini tushuntiring.
3. Oila pedagogika fanini bilan umumiy pedagogika o'rtasida qanday uзвиy aloqadorlik mavjud?
4. Oila pedagogikasi fani va psixologiya fani o'rtasida ham aloqadorlik bormi?
5. Oila pedagogikasi qanday metodlardan foydalanishini izohlang.
6. Oila pedagogikasi fan sifatida qanday rivojlandi?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. – 52-58-betlar.
2. Oila pedagogikasi. – Toshkent: "Aloqashi", 2007. – 5-16-betlar.
3. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur G' O'quv qo'll. – Toshkent: "O'qituvchi", 1999. – 42-50-betlar.
4. Safarov O. Oila ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 14-39-betlar.
5. Quronov M. Oila tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.

Amaliy topshiriqlar:

1. Ushbu matn bilan tanishib chiqing va uning mazmunini tahlil qiling.

Sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida muloqot (kommunikativ aloqa) chog'ida shaxslararo munosabatlar yuzaga keladi, namoyon bo'ladi va shakllanadi. Kommunikativ aloqa shaxslararo munosabatlar chog'ida ularning fikrlari, his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari va boshqalarning almashinishini nazarda tutadi. Bunday aloqa yaxlit holda kommunikativ faoliik, muloqot chog'idagi hissiy ta'sirlanish, o'z-o'ziga bo'lgan kommunikativ ishonch, kommunikativ ob'ektlar kabi elementlarni aniqlaydi. Shaxslararo munosabatlardagi muloqotning asosiy manbalari – bu suhbatdoshlarning tajribalari, tafakkurlari, hayotiy yondashuvlari, e'tiqodlari hamda maxsus ilmiy metodlarni o'zlashtira olganliklari

sanaladi. Kommunikativlik asosida ichki (bir) ovozli kommunikatsiyadan ikki ovozli kommunikatsiyaga o'tish yotadi¹⁰⁰.

2. Kichik guruhlarda “Taqdimot” strategiyasi asosida quyida berilgan muloqot turlarining oila tarbiyasidagi ahamiyatini yoriting.

- A. O'zaro ijodiy faoliyatga qiziqtiradigan muloqot.
- V. O'zaro do'stona munosabatga asoslangan muloqot.
- S. Muayyan masofani saqlagan holda tashkil etiladigan muloqot.
- D. Qo'rqtish, tahdid qilishga asoslangan muloqot.
- E. Hazil-mutoyibaga, yumorga asoslangan muloqot.

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. Jamoa matn bilan umumiy holda tanishib chiqadi. O'qituvchi matn mazmunini tahlil qilishda talabalarning o'z bilim va shaxsiy tajribalariga tayana olishlari, fikrlarini dalillay olishlari hamda o'z fikrlarini himoya qilishlariga e'tibor qaratishi zarur.

2. Topshiriqni bajarishda talabalar kichik guruhlar (5 ta guruh)da ishlaydilar. Har bir guruh alohida-alohida topshiriqni bajaradi. O'qituvchi guruhlarga quyidagi topshiriqlarni berishi mumkin.

Tg'R	Guruhanlar	Topshiriqlar mavzusi
1.	1-guruh	O'zaro ijodiy faoliyatga qiziqtiradigan muloqot.
2.	2-guruh	O'zaro do'stona munosabatga asoslangan muloqot.
3.	3-guruh	Muayyan masofani saqlagan holda tashkil etiladigan muloqot.
4.	4-guruh	Qo'rqtish, tahdid qilishga asoslangan muloqot.
5.	5-guruh	Hazil-mutoyibaga, yumorga asoslangan muloqot.

Guruhanlar o'zlariga berilgan mavzu yuzasidan topshiriqni bajarishda o'z oilalari yoki o'zlariga tanish bo'lgan oilalar misolida fikrlarini dalillar bilan, shuningdek, ommaviy axborot vositalari materiallari asosida boyitishlari mumkin. O'qituvchi esa bu borada talabalarga o'z yordamini taklif eta oladi.

BOLA TARBIYAsIDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGI

Reja:

- 1. Oila, mahalla va maktab hamkorligi kontseptsiyasi va uning mohiyati.
- 2. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligini amalga oshirish mexanizmi.

¹⁰⁰ Общение и виды общения // <http://perevodovedcheskiy.academic.ru>.

3. Oila, mahalla va maktab hamkorligida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat mazmuni.

4. Oilalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-pedagogik yordam.

Tayanch tushunchalar: oila, mahalla, ta'lif muassasasi, ta'lif muassasasining oila bilan olib boradigan faoliyati, oila, mahalla va ta'lif muassasasi hamkorligi.

Oila, mahalla va maktab hamkorligi kontseptsiyasi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda oila, mahalla va ta'lif muassasasi hamkorligi va unda shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyatlar yil sayin qadr topib, nufuzi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi davlatimiz tomonidan ijtimoiy institulgarda har tomonlama e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan mustaqillik bergen imkoniyat tufayli qo'lga kiritilgan milliy qadriyatlarning qayta tiklanayotganligidir. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy inostitutlar va uning muammolari bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlarning yuzaga kelishi dolzarb ahamiyatga molik bo'lib qolaveradi.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'yi harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla va ta'lif muassasasi hamkorligi" Kontseptsiyasi yoshlarni istiqlol g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar qilib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida dasturulamal bo'ldi.

"Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Kontseptsiyasining **asosiy maqsadi** yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqining boy milliy, madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlari va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash, ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollarining umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish, respublika fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirishdan iboratdir.

Kontseptsiyada jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy negizi bo'lgan milliy va umuman insoniy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy tarbiyaning o'zaro aloqasi hamda muhim yo'nalishlari belgilab olingan. Chunonchi, mahalla, oila va ta'lif muassasasi hamkorligida milliy tarbiya yo'nalishda yoshlarning o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik kabi fazilatlarni o'zlashtira olishlari zarurligi ko'rsatilgan bo'lsa, umuminsoniy yo'nalishda hamkorlikdagi pedagogik faoliyatning huquq, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigienik va boshqa tarbiya sohalarini qamrab olishi muhim ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Oila, mahalla va maktab hamkorligida quyidagi tamoyillar asosida yo'lga qo'yildi:

1. Ta'lif va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi.
2. Tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi.
3. Hamkorlik jarayoni sub'ektlarining teng

huquqliligi va yuksak mas'uliyati.

4. Faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi.

5. Hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

Kontseptsiyada yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligiga erishish muayyan bosqichlarda amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Ular quyidagilardir:

1-bosqich. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalarni berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro'li xotin-qizlarni, ota-onalarni jalb qilib, "Yosh onalar va otalar maktablari" faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

2-bosqich. Farzandning maktabgacha bo'lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, harf tanish, qo'shiq aytish va raqs tushish, turli o'yinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan maktabga tayyorlash guruhlari, "Yakshanbalik maktablar" ishini tashkil qilish.

3-bosqich. Kichik yoshdagi (6-11 yosh) maktab davrida bolalarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, uning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, o'z xatgi-harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lib, do'stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish.

4-bosqich. O'smirlarning (11-16 yosh) qiziqishini, bilimga chanqoqlik va akl zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish, o'smirlar guruhlari va jamoatchilik orasida o'z o'rnni topa olishiga ko'maklashish, o'z xatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy faolligi va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

5-bosqich. Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliqlarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, Davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash.

O'zbekistonda sog'lom avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini ta'minlash samaralarining garovidir. Bu borada hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ustivor yo'nalishlar quyidagilardan iboratdir:

- oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini ta'minlashning huquqiy bazasini takomillashtirish, hamkorlikning kuchayishiga qaratilgan uslubiy ta'minotni mustahkamlash;
- oilada yoshlar va ota-onalarning ijtimoiy faolligini oshirish; o'quvchi yoshlarga ta'lim berish, ularni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni qiziqishlari bo'yicha kasbga yo'naltirish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- voyaga etmagan o'smirlar va yoshlar o'rtasida xuquqbuzarlik va nazoratsizlikning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish;
- yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish orqali sog'lom oilaga tayyorlash;
- barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mazmunan takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish mexanizmini yaratish;
- sog'lom avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnalogiyalaridan samarali foydalanish.

Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla, muktab hamkorligini amalga oshirish mexanizmi. O'zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o'z tarkibiga mahallalar faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning vakillaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuziladi. Jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, uning tarkibida turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlar shakllantiriladi.

Jamoatchilik kengashi muayyan muddatga mo'ljallangan ish dasturiga ega bo'ladi. Mazkur dastur mahalla Fuqarolar yig'inining yig'ilishida rasman tasdiqlanishi zarur. Dasturda ko'rsatilgan tadbirlar rejasi davra suhbatlari, muayyan mavzu yoki muammoga bag'ishlangan kengash (majlis)lar, anjumanlar, mahalla aholisini birlashtiruvchi, ularni sog'lom turmush tarziga etaklovchi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman yoki tantanalardan tashkil topishi mumkin.

Belgilangan tartibga ko'ra jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot berib boradi. Zarurat bo'lganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam ko'rsatadi.

Kengash mahalla hududida istiqomat qiluvchi, o'z farzandlari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda turli ma'muriy choralarni qo'llash huquqiga ega. Uning tashabbusi bilan dolzarb mavzularda favqulodda mahalla yig'inlari, o'quv-tarbiya muassasalarining pedagogik kengashlari yoki boshqa zarur tadbirlar tashkil etilishi mumkin. Kengash mahalla hududida o'zbek milliy tarbiya an'analarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o'tkazish, bolalar va kattalarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish borasidagi faoliyatni, shuningdek, maktablar, o'yingohlar, madaniyat muassasalari, sport inshootlari, o'smirlar klublari, muktabgacha va muktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi.

O'z vakolatiga ko'ra Kengash mahalla hududida tashkil etilgan tadbirlar mazmuni va samaradorligini tahlil qiladi, ular yuzasidan uslubiy maslahatlar tayyorlab, bu haqida ommaviy axborot vositalarida xabarlar berib boradi. Kengash yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, muktab va oila hamkorligi borasidagi masala

va muammolarni mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalari, tashkilot va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ular o'rtasida o'zaro hamjihatlikka erishishni ta'minlaydi.

Oila, mahalla va ta'lif muassasalari hamkorligida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat mazmuni. Oila, mahalla, ta'lif muassasalari hamkorligini ta'minlash samaradorligini oshirishga qaratilgan ushbu ustivor masalalar mazmuni quyidagi samarali faoliyat shakl, metod va vositalarni amaliyotga tatbiq etishni taqoza etadi.

Mahallada va ta'lif muassasalarida qolaversa, mehnat jamoalaridagi yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tuyg'usi va mamlakatda ro'y berayotgan voqealarga dahldorlik hissini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish tartibi, namunaviy stsenariy va tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, jumladan:

- davlat bayrog'i, madhiyasi va boshqa davlat ramzlariga hurmat tuyg'usini tarbiyalash bilan bog'liq tadbirlar;
- o'quvchilik, talabalik va mehnat jamoalari safiga tantanali ravishda qabul qilish marosimlarini o'tkazish;
- umumi bayramlar, ijtimoiy hayotimizni o'zida aks ettirgan tadbirlarni va boshqalar sog'lom avlodni shakllantirishning ma'naviy poydevorini mustahkamlashning muhim negizi hisoblanadi.

Shuningdek, yoshlarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, pedagoglar, psixologlar va huquqshunoslar hamkorligida mактабгача ta'lif muassasalari tarbiyalanuvchilari hamda o'quvchi va talabalarining huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan sodda, ravon tilda bayon qilingan huquqiy axborotlarni o'z ichiga olgan buklet, qonunlarga sharh, ma'lumotnomalar va tarqatma materiallar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bu boradagi hamkorlikni metodik ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sog'lom avlodni shakllantirishda yuqorida ko'rsatilgan yo'naliishlarda olib boriladigan ta'lif-tarbiya ishlarining zamonaviy shakllaridan ko'rik tanlov, seminar-trening, savol-javob kechasi, o'quv seminari, bahs-munozara, uchrashuv, reyd, davra suhbat, muloqot, ilmiy-amaliy konferentsiya, sport musobaqalari, kitoblar aktsiyasi, taqdimot, she'rxonlik kechasi, do'stlik festivali va boshqalardan foydalanish ularning ijtimoiy faolligini oshirishda, sog'lom oilaga tayyorlashda, sog'lom turmush madaniyatini shakillantirishda samaradorlikning garovidir.

O'zaro hamkorlik dasturi asosida o'tkaziladigan mazkur tarbiyaviy tadbirlar ota-onalar, tarbiyachi ota-onalar va keng jamoatchilik hamkorligida yoshlarning yosh va psixologik xususiyatlarini, ijtimoiy turmush tarzini, oilaviy sharoitini, imkoniyatlarini, qiziqishlarini hamda yoshlarga oid davlat siyosatini mohiyatidan kelib chiqqan holda tashkil etilgan taqdirdagina u o'zining ijobiy samarasini berishi tabiiydir.

Sog'lom avlodni tarbiyalash va shakillantirishda jamiyatdagi barcha institutlarning yoshlar ta'limi va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi mutassadilarining pedagogik, psixologik, tibbiy bilimga ega bo'lishlari davr talabidir.

Oilalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-pedagogik yordam. Alovida ijtimoiy institut sifatida oila o'zining tarbiya uslubi, tajribasiga ega. Biroq, bugungidek,

tezkor davrda ota-onalarning barchasi ham etarli darajada pedagogik bilimlarga ega emaslar. Bu esa o'z-o'zidan ta'lismuassasalari tomonidan oilalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatilishini taqozo etadi.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan oilalarga ko'rsatiladigan yordam uch asosiy xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni: 1) ta'limi - ta'lism berish va tarbiyalash; 2) psixologik - ruhiy jihatdan qo'llab quvvatlash, ruhiy zo'riqishlarni bartaraf etish va qayta tiklash; 3) vositachilik - tashkil etish, ta'lism va tarbiyada yuzaga keluvchi muammolarning oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bola xulqatvoridagi og'ishlarni yoki fiziologik nuqsonlarni bartaraf etish hamda zarur axborotlar bilan ta'minlash.

Oilalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatishning dastlabki bosqichida ijtimoiy-pedagog tomonidan "Oila xaritasi"ning shakllantirilishi jarayon muvaffaqiyatini ta'minlaydi. "Oila xaritasi" shartli ravishda ikki qismga ajratiladi. Ya'ni:

1) asosiy qism - unda oilaning har bir a'zosining tavsifi, tug'ilgan sanasi, oila maqomi, yashash sharoitlari, qo'shnichilik, oilaning diniy va milliy mansubligi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi;

2) ilova - unda oilada bola tarbiyasini tashkil etish jarayonining mohiyati (ota-onalarning bola tarbiyasi uchun ajratayotgan vaqtлari, uning shakllari, bu jarayondagi faoliyatlari, farzandlar shaxsini yorituvchi (masalan: bolaning qiziqishlari, xohish-istaklari, intilishlari, do'stlari, salomatligi holati va boshqalar to'g'risidagi) ma'lumotlar yoritiladi.

Ota-onalar tomonidan qo'yilayotgan talablarning aksariyati bolalarning yosh, psixologik va shaxsiy imkoniyatlarga muvofiq kelmaydi. Natijada talablar garchi ijobjiy mazmunga ega bo'lsa-da, o'z natijalarini bermaydi. Aksincha, bolalarda ularga nisbatan jiddiy norozilikni keltirib chiqaradi.

Ba'zan o'smir axborot ko'laming kengligi, tashqi g'oyaviy ta'sirlar tufayli muayyan vaziyatlarda qat'iy qarorlar qabul qilishga qiynaladi. Kuzatishlar umumiy o'rta ta'lism muktablarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirdilar aksariyat holatlarda bolalarning mavjud ehtiyojlariiga javob bermayotganligini ko'rsatadi. Ayrim tadbirdilar tarbiyaviy tadbirdilar rejasining bajarilishi uchungina tashkil etilayotgan bo'lib, o'quvchilarning xohish-istaklari, qiziqishlari hamda hayotiy intilishlarini inobatga olish asosida uyushtirilmaydi. Shuningdek, oilada ham muayyan vaziyatlarda ota-onalarning noto'g'ri yo'l tutishlari, o'z istaklarini bolalarning ehtiyojlaridan ustun qo'yishlari tufayli ichki ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Natijada ular hech qanday tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lmayapti.

Mavjud maishiy qulayliklar, texnika taraqqiyotining tezkor rivoji zamonaviy shaxs ehtiyojlari ko'laming kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda yoshlardan hayotida ommaviy axborot vositalari etakchi o'rinni egallagan bo'lib, endilikda pand-nasihatlar yordamida ularning axborot vositalari ta'siridan xalos etish mumkin emas. Shu bois oilaviy tarbiyani tashkil etish jarayonida zamonaviy yondashuvlarni ham qaror toptirishga erishish - pedagogik jihatdan eng to'g'ri yo'l sanaladi.

Zamonaviy yoshlarda mustaqil rivojlanishiga bo'lgan intilish kuchli. O'z-o'zini tarbiyalash ko'p hollarda ijtimoiy tarbiyadan ilgarilab ketishga imkon yaratadi

hamda pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yayotgan sub'ektlarga ma'lum vaziyatda qanday yo'l tutish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Natijada tarbiya jarayonining mantiqi buziladi. Talablarning bolalar yoshi, psixologik xususiyatlari hamda shaxsiy imkoniyatlariga mos kelishiga erishish ma'lum pedagogik masalalarning eng maqbul echimlarini topishga imkon beradi.

Ota-onalar bolalarning kundalik faoliyatini tashkil etar ekan, o'z ko'rsatmalari bilan ularning ayrim xatti-harakatlarini rag'batlantiradi. Ularga nisbatan ayrim mulohazalarini bildiradilar, tanbeh beradilar yoki qo'llab-quvvatlaydilar. Odatda ota-onalar tomonidan bildirilayotgan ayrim ko'rsatmalar qisqa, asosli bo'lib, qisman bolalarni majbur qilishga yo'naltirilsa, boshqalari vaziyatlar mohiyatini batafsil tushuntirish, ushbu jarayonlarda harakatlanish yo'nalishini tushuntirishga xizmat qiluvchi yo'l-yo'riqlar ko'rinishida bo'ladi.

Talablarning bir guruhi bolalarni muayyan faoliyatga jalb qilish zarurati tufayli, boshqa guruhi esa bolalarni ma'lum faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga yo'naltirish ehtiyoji asosida qo'yiladi; yana bir guruhii bolalar tomonidan tashkil etilayotgan o'rinsiz va noto'g'ri harakatlarni to'xtatishga xizmat qilsa, to'rtinchi guruhga kiruvchi talablar bolalarning muvaffaqiyatli faoliyatlarini rag'batlantirish, ularni qo'llab-quvvatlashga imkon beradi. Ota-onalar tomonidan berilgan barcha tushuntirish, ko'rsatma, mulohaza va tanbehlar pedagogik ta'sir ko'rsatishning ana shu eng muhim metodi bo'lgan talabning turli shakllari hisoblanadi. Shu bois ota-onalar talabchan bo'lmasa bolalarning o'quv va ijtimoiy-foydalni faoliyatini samarali tashkil etishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Tajribali ota-onalarning faoliyati kuzatilganda ularning o'z farzandlariga keng ko'lamli harakat dasturini tavsiya etishlari ma'lum bo'ldi. Talab metodi mazkur dastur talablarini bolalarning xatti-harakatlarida namoyon bo'lishi uchun yordam beradi. Ularning yana bir yutuqlari shundaki, farzandlarining har biri qachon va qanday faoliyat bilan shug'ullanayotganliklaridan doimo xabardor bo'ladilar.

Talablar bola hayotining boshlang'ich davrida, ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. Binobarin ushbu bosqichda oilaviy munosabatlarning mazmuni, yo'nalishi, ma'naviy-axloqiy darajasi, bolalar tomonidan u yoki bu harakatlarning bajarilish holati, ota-onalar hamda farzandlar o'rtasidagi munosabatlar mohiyati ota-onalarning talabchanliklariga ko'p jihatdan bog'liq.

Faol ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga rag'batlantirish, kelajakka bo'lgan ishonchni qaror toptirish bolalarda o'z oldilariga to'g'ri hayotiy maqsadlarni qo'ya olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur jarayonda talab bolalarning yosh, psixologik va shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish asosida qo'yilishi pedagogik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Oqilona maqsad bolalarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga imkon berish bilan birga, ularning qiziqishlari darajasini oshiradi.

Yoshlarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish va ularni boyitish, ular tomonidan o'zi hamda jamiyat uchun foydali xatti-harakatlarning tashkil etilishiga erishish maqsadida qo'shimcha rag'batlantirish, shuningdek, ularni zararli odatlardan xoli qilish maqsadida izza qilish metodidan foydalanish maqsadga muvofiqli. Mazkur metod o'ziga xos xususiyatga egaligi bois ularni qo'llash jarayonida ota-onalardan alohida ehtiyyotkorlik va pedagogik mahorat talab qilinadi.

Jamoatchilik fikri (oddiy munosabatlar jarayonida “ko’pchilik (boshqalar)ning fikri” tarzida qo’llaniladi) o’zbek mahallalari, qishloq, shaharlarida qadimdan ijtimoiy tarbiyaning ta’sirchan metodi bo’lib kelgan. U asosida jamiyat a’zolarining umum tomonidan tan olingan ma’naviy-axloqiy me’yorlarga amal qilish holati tahlil qilib borilgan, shuningdek, ijtimoiy-foydali mehnat (hashar, saxovat va hokazolar) har tomonlama va muntazam rag’batlantirilib borilgan. Ushbu metod oila muhitida ham tarbiyaviy masalalarni to’liq amalga oshirishga yordam beradi. Ya’ni, bolalarning ijtimoiy faolligi hamda shaxsiy kamolotini ta’minlashga yordam beradi.

Biroq sobiq Ittifoq davrida tarbiya tizimida ustuvor o’rin tutgan «yagona sovet xalqini shakllantirish» g’oyasi, yoshlarni nomilliy ruhda tarbiyalash borasidagi qarashning asorati bugungi kunda ham sezilib turadi. Quyidagi misol fikrimizning yorqin dalilidir:

“Bugun bir mudhish voqeani eshitdim. Qarshida bir yigit 81 yoshga kirgan otasining boshiga tayeq bilan urib o’ldirib qo’yibdi. Buni qanday qilib tushuntirish mumkin? Islom ruhida, o’zbekchilik ruhida tarbiyalangan odamlar, o’zbek udumlari asosida tarbiya topgan odam shunday ish qilishi mumkinmi? Men buni tushuntirolmayman, nima bilan izohlashni ham bilmayman. Otasi ming yomon, yaramas, badbaxt odam bo’lsin, lekin farzandi unga tik qarashga, qo’l ko’tarishga haqli emas”¹⁰¹.

Ota-onalar tomonidan oila tarbiyasini tashkil etishda qo’llaniladigan metodlar mohiyati xususida alohida-alohida to’xtalishdan oldin ularni muvaffaqiyatlari qo’llashning umumiyligini qoidalari borasida so’z yuritib o’tish maqsadga muvofikdir.

Oila tarbiyasi metodlaridan samarali foydalanishning zarur sharti – oila muhitida ota-onalar va bolalar o’rtasidagi psixologik, shu jumladan, fikriy birlikning qaror topishiga erishish sanaladi.

Ota-onalar bilan farzandlar o’rtasidagi munosabatlarning oila tarbiyasining mohiyati nimada? Bu savolga oila tarbiyasining boshqa tarbiyaviy yo’nalishlardan asosiy farqi – bolaga shaxs sifatida munosabatda bo’lish, uning kamolotiga nisbatan millay xususiyatlarni yorituvchi talablar qo’yishda deya javob berish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Oila, mahalla va maktab hamkorligi kontseptsiyasining maqsadi nimadan iborat?
2. Oila, mahalla va maktab hamkorligida qanday tamoyillar asosida yo’lga qo’yiladi?
3. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligiga erishish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
4. Oila, mahalla va maktab hamkorligi qanday mexanizmga asoslanadi?
5. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligi negizida qanday tadbirlar uyushtiriladi?

¹⁰¹ Фофуров И. Ўзбекистон киёфаси: мозийга назар, мухокама, мушохада. Давра сұхбати / Миллий тикланиш газетаси, 1996 йил, 6 март.

6. Oilalarga qanday ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatiladi?

Mavzuga oid adabiyotlar:

1. Oila, mahalla va ta'lif muassasasi Kontseptsiyasi. – Toshkent: RTM, 1993.
2. Inomova M.O. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. –Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 1999.
3. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
4. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur G' O'quv qo'lli. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
6. To'raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.

Amaliy topshiriqlar:

1. Quyida berilgan matnlar yordamida yoshlarni tarbiyalash borasidagi pedagogik hamkorligi negizida oila, mahalla va maktabning vazifalari bilan tanishib chiqing. Har bir sub'ektning yoshlarni tarbiyalash borasidagi pedagogik hamkorligi negizidagi vazifalarini ifodalovchi tezislarni tayyorlang.
2. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligi mohiyatini aks ettiruvchi klasterni yarating.

Amaliy topshiriqlarni bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar:

1. Oila, mahalla va maktabning yoshlarni tarbiyalash borasidagi pedagogik hamkorligi negizidagi vazifalarini ifodalovchi tezislarni tayyorlashda talabalar guruhlarda ishlaydilar. Bunda uchta katta guruhni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi har bir guruhga alohida-alohida topshiriq beradi. Topshiriqlarning quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

Tg'R	Guruuhlar	Topshiriqlar mavzusi
1.	1-guruh	Oilaning yoshlarni tarbiyalash borasidagi pedagogik hamkorligi negizidagi vazifalari
2.	2-guruh	Mahallaning yoshlarni tarbiyalash borasidagi pedagogik hamkorligi negizidagi vazifalari
3.	3-guruh	Maktabning yoshlarni tarbiyalash borasidagi pedagogik hamkorligi negizidagi vazifalari

Topshiriqni bajarish chog'ida guruhlarning e'tiboriga quyidagi matnlar taqdim etiladi:

I. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligi negizida oila tomonidan bajariladigan vazifalar:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-onalarga har tomonlama o'rnatish, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;

- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va

burchlarini anglab etishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;

- farzandlarga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib etishishlarini ta'minlash;

- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

- bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlol g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;

- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

- o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatlari bo'lish;

- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;

- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirish;

- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'naliшlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishdagi mas'ulligini ta'minlash;

- bolalarda sanitariya-gigienik, ekologik ko'nikmalarni shakllantirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi immunitetni hosil qilish;

- sog'ligida va aqliy nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasbu-kor o'rgatish.

II. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligi negizida mahalla tomonidan bajariladigan vazifalar:

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashish va oqilona echimlarini topishda faollik ko'rsatilish;

- mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlash va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lish;

- ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko'rish;

- mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;

- ota-onalar orqali bolalarda tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi xislatlarini tarbiyalash;

- yoshlarning diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab etishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ajdodlarning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borish;

- mahalla yig'inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarni, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda respublikada erishilayotgan yutuqlar targ'ibotini tashkil etuvchi tadbirlarni uyushtirish;

- Respublika “Ma’naviyat targ’ibot” markazi, “Sog’lom avlod uchun”, “Mahalla”, “Ekosan”, “Nuroniy”, “Kamolot” jamg’armalari, xotin-qizlar qo’mitalari, turli jamiyatlar, birlashmalar va ijodiy uyushmalarni yosh avlodni milliy istiqlol g’oyalari asosida tarbiyalash ishiga, muammoli masalalarning echimini topishga faol jalg qilish;
- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarining imkoniyatlarini o’quv-tarbiya muassasalari moddiy negizini mustahkamlashga yo’naltirish;
- mahalla hududida o’quv-tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli ko’rik-tanlovlari, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish;
- turli yo’nalishda iqtidorli o’quvchilarni maktablar tavsiyasiga ko’ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo’llab-quvvatlash;
- ilg’or pedagogik xodimlar, tarbiyachilarga mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqib, har tomonlama yordam ko’rsatish;
- farzandlariga ta’lim va tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida “Oila saboqlari” mashg’ulotlarini tashkil qilish;
- mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san’atkorlar, ziyolilar va barcha ijodkorlarning imkoniyatlaridan foydalanib, bilim, kasb sirlarini o’rgatishga asoslangan turli to’garak va “Ustoz-shogird” rusumida faoliyatini yo’lga qo’yish;
- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari kvotasining ajratilishiga erishish;
- yoshlarda O’zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirish.

III. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligi negizida maktab tomonidan bajariladigan vazifalar:

- mактабда болага бирон-бир қасб-корни егалиши учун mustahkam poydevor yaratish;
- o’quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug’ullanishlariga yordam berish, ularning bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishni tashkil qilish;
- bolalarga ta’lim berishni ilg’or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o’quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o’quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta’minlash;
- o’quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo'yicha қасб asoslariga yo'naltirish va ta'limda tabaqlashtirilgan yondashuvni joriy etish;
- yosh oilalar bilan ishslash, tibbiy tarbiyaviy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy tushunchalar berish учун maxsus tadbirlarni amalga oshirish;
- o’z hududidagi mahalla jamoalarining faoliyatini tarbiyaviy maqsad yo’lida muvofiqlashtirish;
- tarbiyasi “og’ir”, qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishslash, oilalarga pedagogik yordam berish;
- bola tarbiyasi yaxshi yo’lga qo’yilgan oilalarni tegishli idoralar

hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirish;

- o'qish va ishlashni xohlamaydigan, bezorilik yo'liga kirib ketgan o'smirlarni hisobga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda zarur choralar ko'rib, ota-onalar yig'inlarida muhokama qilish;

- tarbiya sub'ektlari bo'lmish huquqiy, tibbiy, ijodiy uyushmalar, yoshlar, tabiatni muhofaza qilish va "Ekosan", "Qizil yarim oy", barcha jamg'arma va jamoatchilik markazlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari bo'yicha milliy markazlar, kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari, mahalliy boshqaruv idoralarining bola tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyat va javobgarligini muvofiqlashtirish;

- turar joyda va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi – maktab bo'lismiga erishish;

- o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashishni tashkil etish;

- ta'lim muassasalari nizomlari asosida o'quvchilarining maktabda joriy qilingan tartibga amal qilishlarini va nizomda belgilangan o'quvchilar libosida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishlarini ta'minlash;

- mahallada, xotin-qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, o'smir yoshlarning dunyoviy bilimlarga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish;

- maktab negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi "Ota-onalar universitetlari" faoliyatini tashkil qilish.

2. Yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va maktab hamkorligi mohiyatini aks ettiruvchi klasterni yaratishda akademik guruh jamoa bo'lib ishlaydi. Klasterlar "Klaster" grafik organayzeri vositasida yaratiladi. Bunda o'qituvchi har bir talabaning faol ishtirok etishini nazorat qilib borishi zarur. Klasterlarni shakllantirish jarayonida bildirilgan har bir g'oya inobatga olinadi. Yaratilgan klasterning mazmunini muhokama qilish jarayonida esa bir-birini takrorlovchi g'oya va fikrlar tahlil qilinadi. Takroriy bildirilgan g'oyalar aniqlanib, takrorlanishlar bartaraf etiladi.

TEST TOPShIRIQLARI

1. “Oila pedagogikasi” fanining vazifalari qaysi bandda to’g’ri ko’rsatilgan?

- A) yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash;
- B) bolalar tarbiyasiga oid umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarga etkazish;
- C) oilaviy muammolarni bartaraf eta olish ko’nikmalarini shakllantirish;
- D) * barcha javoblar to’g’ri.

2.“Oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo’lish huquqiga ega”. Ushbu jumlalar O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida ko’rsatilgan?

- A) *63- moddasida;
- B) 42- moddasida;
- C) 14- moddasida;
- D) 5- moddasida.

3. Seqblfub Oila bu...

- A) birga yashaydigan qarindoshlar guruhi: «er-xotin, ota-on-a-farzandlar»;
- B) umumi manfaatlar, qiziqishlar orqali jipslashgan kishilar birlashmasi;
- C) nikoh birligi, o’zaro axloqiy javobgarlik va o’zaro yordam orqali bir-biriga bog’langan, nikohga yoki qondoshlikka asoslangan kichik guruh;
- D) *barcha javoblar to’g’ri.

4. Baxt nima

- A) sog’lik, farovonlik, boylik;
- B)*qoniqishning yuksak darajasi;
- C) o’z-o’zini yuqori baholash;

D) sevish va sevilish.

5. Muloqot jarayonining asosiy tarkibiy qismlari...

- A) *so'zlash, tinglash va tushunish;
- B) gapirib berish, tinglash;
- C) tushunish, imo-ishora qilish;
- D) so'zlash va tinglash.

6. Oila va oilada bolalar tarbiyasi haqida mutafakkirlardan kimlar fikr yuritganlar?

- A) Kaykovus, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy;
- B) Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy;
- C) Muhammad Sodiq Qoshg'ariy, Jaloliddin Davoniy;
- D) *barcha javoblar to'g'ri.

7. "Oila kodeksi" nechanchi yil qabul qilingan?

- A) 1992 yil 8 dekabr;
- B) 1996 yil 10 may;
- C) *1998 yil 30 aprel;
- D) 2001 yil 30 yanvar.

8. « Kimki qisqa so'zda deydi ko'p ma'no, Ravonlik bobida ul kishi a'lo». Ushbu so'zlar kimning qalamiga mansub?

- A) *Abulqosim Firdavsiy;
- B) Sa'diy Sheroziy;
- C) Xusrav Dehlaviy;
- D) Abduqodir Bedil.

9. Mamlakatimizda 1998 yilga qanday nom berilgan?

- A) "Sog'lom avlod yili";
- B) "Inson manfaatlari yili";
- C) * "Oila yili";
- D) "Mehr-muruvvat yili".

10. "Eng birinchi galda nasl-nasabni toza saqlamoq, qadr-qimmatni bilmoq inson tarbiyasining gultojidir" - Ushbu jumlalar qaysi muallifning qanday asarida keltirilgan?

- A) Navoiyning "Xamsa" asarida;
- B) *Kaykovusning "Qobusnomा" asarida;
- C) A.Fitratning "Oila" asarida;
- D) A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" asarida.

11. O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi" nechta bob va necha moddadidan iborat?

- A) *30 bob va 238 moddadan;

- B) 45 bob va 312 moddadan;
- C) 22 bob va 187 moddadan;
- D) 36 bob va 300 moddadan.

12. “Endogamik nikoh” nima?

- A) yakka nikoh;
- B) guruhiy nikoh;
- C) *boshqa qabilalarga mansub qiz yoki yigit bilan nikoh;
- D) nikohlanmagan holda birga yashash.

13. “Oila-bu tabiatning shoh asarlaridan biridir” bu fikr qaysi faylasuf tomonidan bildirilgan?

- A) Beruniy;
- B) Aflatun;
- C) *Satayana;
- D) Suqrot.

14. O’zbekistonda 1999 yil qanday yil deb e’lon qilindi?

- A) *“Onalar va bolalar yili”;
- B) “Inson manfaatlari yili”;
- C) “Oila yili”;
- D) “Mehr-muruvvat yili”.

15. “Onalik huquqi” asari kimning qalamiga mansub?

- A) *Vaxofen;
- B) Beruniy;
- C) Ibn Sino;
- D) Farobiy;

16. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida nikoh yoshi qizlar uchun necha yosh qilib belgilangan?

- A) *qizlar uchun 17 yosh;
- B) qizlar uchun 16 yosh;
- C) qizlar uchun 19 yosh;
- D) qizlar uchun 18 yosh.

17. “Aliment” so’zi qanday ma’noni anglatadi?

- A) *oziq-ovqat, nafaqa;
- B) stipendiya;
- C) moddiy yordam;
- D) rag’bat.

18. G’arbda oila tarixini o’rganishga qanday asar turtki bo’lgan?

- A) *Vaxofenning “Onalik huquqi” asari;
- B) Navoiyning «Maxbubul kulub» asari;

- C) Vaxofenning “Onalik maktabi” asari;
- D) Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari;

19. B.Umarov o’zining ilmiy tadqiqotida oilaviy nizolarni qanday turlarga ajratadi?

- A) yolg’izlik, yaqin kishisining o’limi;
- B) muvaffaqiyatsiz sevgi bilan bog’liq bo’lgan nizolar;
- C) ota-onasi yoki oilaning boshqa a’zolari tomonidan bolalarni jismoniy va ma’naviy xo’rlash;
- D) *barcha javoblar to’g’ri.

20. Nodonlardek yuzlab so’zni qilma qator,
Donolardek bir so’z degil, lek ma’nodor.
Ushbu so’zlar kimning qalamiga mansub?

- A) Abulqosim Firdavsiy;
- B) *Sa’diy Sheroziy;
- C) Xusrav Dehlaviy;
- D) Abduqodir Bedil.

21. Ruhshunos olim G’. Shoumarov o’zining “Muhabbat va oila” kitobida oilaning tinch-totuv yashashida o’zaro qovushishini necha turga bo’lib o’rganadi?

- A) 2 turga;
- B) 5 turga;
- C) *3 turga;
- D) 4 turga.

22. “Oilada otaning shirin so’zli, yumshoq ko’ngil, tabiatan muloyim bo’lishi bola tarbiyasini buzadi, oilada bosh tarbiyachi ota hisoblanadi” – yuqoridagi fikr Abu Ali ibn Sinoning qaysi asaridan olingan?

- A) “Donishnoma” asaridan;
- B) *“Tadbiri al-manozil” asaridan;
- C) “Navodir ul-vaqoe” asaridan;
- D) “Ishorat” asaridan.

23. 2000 yilga O’zbekistonda qanday nom berildi?

- A) “Onalar va bolalar yili”;
- B) “Inson manfaatlari yili”;
- C) * “Sog’lom avlod yili”;
- D) “Mehr-muruvvat yili”.

24. Vaxofen “Onalik huquqi” asarini qachon yozgan?

- A) 1821;
- B) *1861;
- C) 1681;

D) 1530.

25. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida nikoh yoshi o'g'il bolalar uchun necha yosh qilib belgilangan?

- A) 16 yosh;
- B) 17 yosh;
- C) 20 yosh;
- D) *18 yosh;

26. Tarkibiga ko'ra oilalar qanday turlarga bo'linadi?

- A) bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli, ko'p bo'g'inli;
- B) notinch, baxtli, sotsial;
- C) bir bolali, ikki bolali, ko'p bolali;
- D) ziyoli, ishchi, xizmatkor.

27. Qaysi qatorda nikoh tuzish shartlari noto'g'ri ko'rsatilgan?

- A) nikoh yoshi erkaklar uchun 18, ayollar uchun 17 yosh bo'lishi lozim;
- B) *nikoh tuzishda ayollar erkaklar familiyasiga o'tishi lozim;
- C) erkak va ayollar o'rtaсидаги tenglik;
- D) nikoh o'zaro xohish asosida tuzilishi lozim.

28. "Ado etilgan burchdan ulug'vorlikdan ko'ra zo'rroq ulug'vorlik yo'q, undan zo'rroq quvonch ham yo'q". Ushbu fikr kimga tegishli?

- A) I. Gyote;
- B) Ibn Sino;
- C) *E. Rejan;
- D) A.Blok.

29. Ota-onaning farzandi oldidagi burchi nimalardan iborat?

- A) yaxshi ism qo'yish;
- B) to'g'ri tarbiya berib, uyli, joyli qilish;
- C) voyaga etgach uylantirish yoki turmushga berish;
- D) *barcha javoblar to'g'ri.

30. Nikoh tuzishga mone'lik qilmaydigan holatni belgilang!

- A) loaqlal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtaсида;
- B) *ayol yoshining erkak yoshidan katta bo'lishi;
- C) loaqlal bittasi ruhiyat buzilishi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtaсида;
- D) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtaсида.

31. Zardushtiylik dinida oila qurishning qanday motivlari mavjud bo'lgan?

- A) ota yoki homiy, hohish-irodasi tufayli;
- B) sevgi-muhabbat tufayli;

- C) farzarzandlari bo'lishi hohishi tufayli;
- D) *barcha javoblar to'g'ri.

32. O'zekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada to'y-marakalarini o'tkazishni tartibga keltirish to'g'risida"gi Farmoni qachon qabul qilingan?

- A) 1996 yil 26 oktyabr;
- B) 1997 yil 27 oktyabr;
- C) *1998 yil 28 oktyabr;
- D) 1999 yil 30 oktyabr.

33. Hadislarda uch kishining duosi Alloh oldida ijobat bo'ladi deyiladi. Ular kimlar?

- A) ota-onas, ota-onas, musofir;
- B) qariyalar, ota-onas, mazlum;
- C) mazlum, musofir, qariya;
- D) *ota-onas, musofir va mazlum.

34. "Bolalarni katta ma'suliyat bilan va puxta o'ylab tarbiya qilish ota-onaning burchi". Bu fikr kimga tegishli?

- A) Aristotel;
- B) Platon;
- C) Ahmad Donish;
- D) Al-Buxoriy.

35. To'liqliligiga ko'ra oilalar kaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) farzandli va farzandsiz;
- B) ishchilar, xizmatchilar, ziyolilar;
- C) ko'p bo'g'inli va kam bo'g'inli;
- D) *to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan.

36. Ibn Sino bola tarbiyasini nimadan boshlash lozim deb ta'kidlaydi?

- A) *ism tanlashdan;
- B) yozishni o'rgatishdan;
- C) o'qishni o'rgatishdan;
- D) axloq o'rgatishdan.

37. Islomiy tarbiyada o'g'il va qizlar tarbiyasining o'ziga xos xususiyati necha yoshdan shakllanadi?

- A) 6 yoshdan;
- B) *7 yoshdan;
- C) 10 yoshdan;
- D) 12 yoshdan.

38. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida "Sovg'a ayirboshlash"ning yuzaga kelishiga sabab nima bo'lган?

- A) ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarni bildirish sababli;
- B) *shaxsiy mulkning paydo bo'lishi sababli;
- C) boshqa qabilalardan ajralib turishi sababli;
- D) sevgani sababli.

39. Qaysi mutafakkir insonning axloqiy tushunchalarini insonning tabiatini bilan baholagan?

- A) Abu Ali Ibn Sino;
- B) Yusuf Xos Xojib;
- C) Abu Nasr Farobi;
- D) *Abu Rayhon Beruniy.

40. Nikoh tuzish uchun erkaklar uchun 18 yosh ayollar uchun 17 yosh belgilangan, biroq turli sabablar bo'lganda hokim nikoh yoshini ko'pi bilan necha yilga kamaytirishi mumkin?

- A) 2 yilga;
- B) *1 yilga;
- C) 0,5 yilga;
- D) 1,5 yilga.

41. "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olish darkor". Ushbu so'zlar kimga taalluqli

- A) M. Maximudov;
- B) *I.A Karimov;
- C) G'.B. Shoumarov;
- D) A.Oripov.

42. Bir oiladagi o'zaro qon-qarindoshlar turmush qurishlari mumkinmi?

- A) yoshlari etganda mumkin;
- B) o'zaro rozi bo'lganda;
- C) *umuman mumkin emas;
- D) sevgi-muhabbat bo'lganda.

43. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning fikricha, uylanishda qizlar yigitlardan to'rt narsada ustun bo'lishi kerak, ular qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) omadda, boylikda, did va farosatda;
- B) *qomatda, husnda, hulqda, iffatda;
- C) bo'yda, did-farosatda, odobu-iffatda, omadda;
- D) xulqda, chiroyda, boylikda, farosatda;

44. Yusuf Xos Hojib, oilaning shakllanishi va mustahkamlanishida nimaning roliga alohida e'tibor beradi?

- A) hurmat;

- B) *mehr-muhabbat;
- C) tinchlik;
- D) sadoqat.

45. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy fikricha, turmushga chiqayotganda qizlar yigitlardan to'rt narsada past bo'lishlari kerak, ular qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilagan?

- A) *umrda, qomatda, molda va nasabda;
- B) didda, farosatda, amalda, qomatda;
- C) molda, nasabda, omadda, chiroyda;
- D) farosatda, boylikda, chiroyda, omadda.

46. G'.Shoumarov oilada er-xotinning o'zaro qovushishlarini shartli ravishda necha qismga bo'ladi?

- A) iqtisodiy, mantiqiy, biologik qovushish;
- B) *biologik, psixologik, sotsial qovushish;
- C) ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy qovushish;
- D) mantiqiy, biologik, sotsial qovushish.

47. Ibn Sino bola tarbiyasida kimning rolini alohida ta'kidlaydi?

- A) otaning;
- B) *onaning;
- C) davlatning;
- D) mahallaning.

48. Oila kodeksi nechta bo'lim, bob va moddadan iborat?

- A) 8 bo'lim, 30 bob, 823 moddadan iborat;
- B) 6 bo'lim, 26 bob, 628 moddadan iborat;
- C) * 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat;
- D) 7 bo'lim, 28 bob, 168 moddadan iborat.

49. O'zining ijtimoiy mazmuniga ko'ra oila, odatda o'zaro aloqadagi uchta ijtimoiy guruhdan iborat bo'lib, ular nimalardan iborat?

- A) oilaning asosi sifatida nikox;
- B) nikoxning natijasi sifatida er-xotin munosabatlari;
- C) er-xotin munosabatlarining oqibati sifatida farzandlardan tashkil topadi;
- D) *barcha javoblar to'g'ri.

50. "Voyaga etmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish to'g'risida Nizom" necha bo'limdan iborat

- A) *2 bo'limdan iborat;
- B) 1 bo'limdan iborat;
- C) 4 bo'limdan iborat;
- D) 3 bo'limdan iborat.

51. “Bolali oilalarни ijtimoiy qo’llab-quvvatlash to’g’risi”даги qарор qачон yaratilgan?

- A) 1996 yil 1 yanvar;
- B) *1997 yil 1 yanvar;
- C) 1997 yil 31 dekabr;
- D) 1996 yil 31 dekabr.

52. BMT tomonidan qaysi kun xalqaro oila kuni sifatida e’lon qilingan?

- A) *15 may;
- B) 10 fevral;
- C) 5 avgust;
- D) 10 dekabr.

53. “Nikoh tomonlarining ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi” deb yozilgan fikr qaysi kitobda belgilangan?

- A) O’zbekiston Respublikasining “Oila” kodeksida;
- B) *“O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”da;
- C) “Oila huquqi” darsligida;
- D) “1001 savolga 1001 javob” kitobida;

54. Nikohga kirish vaqtida o’z familiyasini o’zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyasida qolishga haqlimi?

- A) yo’q, haqli emas;
- B) er-xotinning xohishiga qaraladi;
- C) sud chiqargan qarorga asoslanadi;
- D) *nikohdan ajratish to’g’risidagi qarorga muvofiq nikohgacha bo’lgan familiyasi qaytarilishi mumkin.

55. «Oila» tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?

- A) *ayolmand, niyozmand;
- B) nafosat, did-farosat;
- C) dilnavoz, xotirjamlik;
- D) inoqlik, farosatlik.

56. Nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan tuzilgan nikohni haqiqiy deb topish mumkinmi?

- A) har qanday sharoitda ham bekor qilinadi;
- B) *sudgacha er yoki xotin nikoh yoshiga etgan bo’lsa haqiqiy deb topiladi;
- C) yo’q, bu nikoh haqiqiy emas;
- D) har qanday sharoitda ham nikoh haqiqiy hisoblanadi.

57. “Oila pedagogikasi” asarining muallifi kim?

- A) O.Hasanboeva;
- B) M.Inomova;
- C) O.Musurmonova;

D) *A.Munavvarov.

58. “Oila, mahalla, məktəb xəmkorlığı” kontsepsiyası qəchən işlab çıxılğan?

- A) 1997 yıldız;
- B) *1993 yıldız;
- C) 1992 yıldız;
- D) 1998 yıldız.

59. Oılanı tarixiy kategoriya sıfatında to’rt xil munosabatlara asoslangan birlik sıfatında o’rganamız. Ular qaysı bandda to’g’ri aks etgan?

- A) *tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy;
- B) tabiiy, mafkuraviy, madaniy, ma’naviy;
- C) madaniy, diniy, ma’rifiy, mafkuraviy;
- D) biologik, iqtisodiy, diniy, madaniy.

60. “O’zbekiston Respublikasining Oila huquqi” darsligining müallifi kim?

- A) pedagogika fanları doktori, professor J.Yo’ldoshev;
- B) *yuridik fanlar doktori, professor F.Otaxo’jaev;
- C) pedagogika fanları doktori, professor R.Jo’raev;
- D) yuridik fanlar nomzodi D.Xidirov;

61. «Bola huquqları to’g’risidagi konvensiya»ning qabul qılınishi qaysı bandda to’g’ri ko’rsatılğan?

- A) *1989 yil 10 noyabr;
- B) 1999 yil 10 noyabr;
- C) 1998 yil 22 noyabr;
- D) 1997 yil 15 noyabr.

62. Aliment undirishning qanday tartiblari belgilangan?

- A) aliment to’g’risidagi kelishuv tuzish;
- B) alimentni ixtiyoriy to’lash;
- C) alimentni sud tartibida undirish;
- D) *barcha javoblar to’g’ri

63. “O’zbekiston Xotin-qızlar qo’mitasi faoliyatını qo’llab quvvatlash borasıdagı qo’shimcha chora-tadbırlar to’g’risida”gi farmonining chiqqan vaqtı qaysı bandda to’g’ri ko’rsatılğan?

- A) 2002 yil 25 may;
- B) 2005 yil 25 may;
- C) *2004 yil 25 may;
- D) 2003 yil 25 may.

64. BMT tomonidan qabul qilingan “Inson huquqları umumjahan deklaratsiyası” ning qabul qilingan vaqtı qaysı bandda to’g’ri ko’rsatılğan?

- A) *1948 yil 10 dekabr;

- B) 1958 yil 12 dekabr;
- C) 1955 yil 12 dekabr;
- D) 1978 yil 10 dekabr.

65. “Oila pedagogikasi” fanining vazifalari qaysi bandda to’g’ri ko’rsatilgan?

- A) yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash;
- B) bolalar tarbiyasiga oid umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarga etkazish;
- C) oilaviy an’analarga binoan bolalarning tug’ilishlari bilan bog’liq bo’lgan marosimlar va urf-odatlarni yoshlarga etkazish;
- D) *barcha javoblar to’g’ri.

66. Oila va oilada bolalar tarbiyasi haqida quyidagi mutafakkirlardan qaysilari fikr yuritganlar?

- A) Ibn Sino, Beruniy;
- B) A.Navoiy, Farobiy;
- C) Muhammad Sodiq Qoshgariy, Davoniy;
- D) *barcha javoblar to’g’ri.

67. Zamonaviy sharoitda bolalar tarbiyada nimalarga muhtoj?

- A) hordiq chiqarishga, boylikka, uddaburonlikka;
- B) mehnatkashlikka, erkinlikka, aqliy omilkorlikka;
- C) aqliy omilkorlikka, amaliy hisob-kitobga, uddaburonlikka;
- D) *barcha javoblar to’g’ri.

68. Quyidagilardan qaysilari zamonaviy oilalar rivojlanishining o’ziga xosliklari bo’la oladi: 1) moddiy ta’minlanganlik; 2) ko’p bolalik; 3) tug’ilishni oldini olish; 4) shahar va qishloq oilalarining ijtimoiy hayot tarzi; 5) ayollarning katta mavqega egaligi; 6) ota-onalarning doimiy ishda bo’lishlari

- A) 1, 2, 4, 6;
- B) *1, 3, 4, 6;
- C) 1, 3, 5, 6;
- D) 1, 2, 5, 6.

69. Kim o’zaro munosabatlar xarakteriga ko’ra oilani ideal, o’rta, salbiy turlarga bo’ladi?

- A) *Yu.Azarov;
- B) M.Buyanov;
- C) A.Munavvarov;
- D) Fitrat.

70. Maktabning oila bilan olib boradigan ishlarini qanday shakllari mavjud?

- A) ommaviy, guruhiy;
- B) individual, zamonaviy;
- C) *individual, jamoaviy;
- D) to’g’ri javob yo’q.

71. “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” asarining muallifi kim?

- A) I.Podlaso'y;
- B) A.Munavvarov;
- C) Yu.Azarov;
- D) *Fitrat.

72. Zamonaviy oilalarda muloqotning qanday usullari aniqlangan?

- A) matriarxat, patriarxat, egoizm;
- B) totalitar, avtoritar, majoritar;
- C) demokratik, avtoritar, diktatura;
- D) *avtoritar, liberal, demokratik.

73. I.Podlaso'y shaxslararo munosabat xarakteriga ko'ra oilalarni qanday turlarga ajratadi?

- A) ideal, sotsial, tarqoq, o'rta, salbiy, yuqori darajali;
- B) *bolalarni hurmat qiluvchi, rahmdil, moddiylikka yo'nalgan, adovatli, antisotsial;
- C) ideal, rahmdil, moddiylikka yo'nalgan, tarqoq, sotsial, adovatli;
- D) ko'p bo'g'inli, kam bolali, o'rta, salbiy, bolalarni hurmat qiluvchi.

74. Maktabning oila bilan olib boradigan ishlarining individual shakllariga nimilar kiradi?

- A) ota-onalar seminariyasi, ochiq eshiklar kuni, pedagogik topshiriq;
- B) sinf ota-onalar majlisi, ota-onalar universitetlari, oilaga tashrif buyurish;
- C) *pedagogik topshiriq, oilaga tashrif buyurish, pedagogik maslahatlar;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

75. Quyidagi qaysi fikrni ma'qul deb hisoblaysiz?

- A) ota-ona ota-onaning avtoretitini tushirmsligi kerak;
- B) ota-onalarning tarbiyalovchi imkoniyatlariga ishonish kerak;
- C) *ota-onalarga topshiriq bermaslik kerak;
- D) barcha javoblar to'g'ri.

76. Quyidagilardan qaysi fikrni to'g'ri deb hisoblaysiz?

- A) oilada bolalar bilan munosabat do'stona bo'lsa, bunda asosiy metod-jazolash;
- B) *qancha ota-ona bo'lsa, shuncha metod turi bor;
- C) ota-onalarning shaxsi metodlarda aks etmaydi;
- D) to'g'ri javob yo'q.

77. Ota-onalarning shaxsiy tajribasi bolani tarbiyalashning metodini tanlab olish sharti bo'la oladimi?

- A) *ha;
- B) yo'q;

- C) ba'zan;
- D) hech qachon.

78. Quyidagilardan qaysilari zamonaviy oila tarbiyasining tamoyillari bo'la oladi 1) merosiylik; 2) qattiqqo'lllik; 3) kreativlik; 4) insoniylik; 5) itoatda tutish; 6) fuqarolik; 7) retrospektiv.

- A) 1, 2, 4, 5, 7;
- B) 1, 2, 3, 6, 7;
- C) *1, 3, 4, 6, 7;
- D) 1, 3, 5, 6, 7;

79. Quyidagilardan qaysilari oilada tarbiyaviy vazifalarni hal qilishning vositalari bo'la oladi: 1) o'yin; 2) jazo; 3) so'z; 4) ishontirish; 5) mehnat; 6) an'analar; 7) rag'bat; 8) radio; 9) adabiyot.

- A) 1, 2, 4, 5, 6, 9;
- B) 2, 3, 4, 7, 8, 9;
- C) 1, 3, 5, 6, 8, 9;
- D) *1, 3, 4, 6, 8, 9;

80. M.Buyanov sotsiologlarning tadqiqotlariga tayanib oilani qanday turlarga bo'ladi?

- A) *o'zaro mos (uyg'un), tarqoq (nosoz), ajrashib ketgan, to'liqsiz;
- B) ideal, rahmdil, moddiylikka yo'nalgan, tarqoq, asotsial, adovatli;
- C) ko'p bo'g'inli, kam bolali, o'rta, salbiy, bolalarni hurmat qiluvchi;
- D) ideal, asotsial, tarqoq, o'rta, salbiy, yuqori darajali.

81. Qishloq oilalari shahar oilalaridan nimasi bilan farq qiladi?

- A) ota-onalarning ma'lumoti o'rtaligi;
- B) *qishloq joylarida har bir bola hamqishlog'ining qattiq nazoratida bo'ladi;
- C) bolalar soni kam bo'ladi;
- D) ajralishlar sonining ko'pligi.

82. Qoidaga muvofiq oilada bolalarga oilaviy mablag'ning necha foizi sarf qilinadi?

- A) 30 foizdan 40 foizgacha;
- B) 20 foizdan 60 foizgacha;
- C) *25 foizdan 50 foizgacha;
- D) 40 foizan 90 foizgacha.

83. Quyidagilardan qaysi biri tug'ilishning kamayishi sababi bo'la olmaydi?

- A) ota-onalarning ishda bandligi;
- B) bola tarbiyalashda moddiy ta'minotning o'sishi;
- C) ota-onalarning "o'zi uchun yashamoq" singari egoistik qarashlari;
- D) *yoshlarning erta turmush qurayotganligi.

84. Necha foizgacha ajralishlar turmush qurbanligining birinchi yilida ularning oilaviy hayotga tayyor emasliklari natijasida kelib chiqmoqda?

- A) 70 foizgacha;
- B) *90 foizgacha;
- C) 60 foizgacha;
- D) 50 foizgacha.

85. Bolalar soniga bog'liqlikda zamonaviy oilalar qanday turlarga bo'linadi?

- A) o'zaro mos (uyg'un), tarqoq (nosoz), ajrashib ketgan, to'liqsiz;
- B) ideal, rahmdil, moddiylikka yo'nalgan, tarqoq, sotsial, adovatli;
- C) ko'p bo'g'inli, kam bolali, o'rta, salbiy, bolalarni hurmat qiluvchi;
- D) *ko'p bolali, kam bolali, bir bolali, bolasiz.

86. Agar oilada faqat ota-onha bo'lsa, bunday oila qanday ataladi?

- A) to'liq;
- B) *to'liqsiz;
- C) sotsial;
- D) ideal.

87. Quyidagi qaysi fikrlarni to'g'ri deb hisoblaysiz?

- A) oila bola uchun u yashayotgan hayotning modeli (andozasi)ni yaratadi;
- B) ota-onalarning o'z bolasiga ta'sir ko'rsatishi ularning jismoniy kamoloti va axloqiy pokizaligini ta'minlashi kerak;
- C) ko'pincha bola tug'ilgan va katta bo'lgan oilaviy shart-sharoitlar va holatlar ularning butun hayotlariga o'z ta'sirini o'tkazadi va hatto taqdirini belgilab qo'yadi;
- D) *barcha javoblar to'g'ri.

88. Oila tarbiyasi samarador bo'lishi uchun ota-onalar qanday tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim?

- A) ota-onalar ko'proq pul topishlari lozim;
- B) *ota-onalarning o'zida o'z farzandlari bilan o'zaro foydali va doimiy bir butun yo'nalganlikni shakllantirish lozim;
- C) oilada kattalarning mavjud bo'lishi;
- D) to'g'ri javob yo'q.

89. Oila tarbiyasining maqsadi nimalarda aks etadi?

- A) umuminsoniy qadriyatlarni va rostgo'ylik, adolatlilik, olivjanoblilik, mehnatga va odamlarga muhabbatni shakllantirish;
- B) intellektual va ijodiy qobiliyatlarini, bilish va dastlabki mehnat tajribalarini rivojlantirish;
- C) axloqiylik va estetiklikni rivojlantirish;
- D) *barcha javoblar to'g'ri.

90. O'zaro munosabatlar xarakteriga ko'ra oilalar qanday turlarga bo'linadi?

- A) *ideal, o'rta, salbiy (negativ) yoki janjalli-serzarda;
- B) o'zaro mos (uyg'un), tarqoq (nosoz), ajrashib ketgan, to'liqsiz;
- C) ideal, rahmdil, moddiylikka yo'nalgan, tarqoq, asotsial, adovatli;
- D) ko'p bo'g'inli, kam bolali, o'rta, salbiy, bolalarni hurmat qiluvchi.

91. Quyidagilardan qaysi biri oilada bola tarbiyasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi?

- A) ota-onalarning ishda bo'lishi;
- B) ota-onalarning o'qimishliligi;
- C) *katta avlod va yosh ota-onalarning bola tarbiyalashdagi turli metodlari;
- D) to'g'ri javob yo'q.

92. Tug'ilishning kamayishi qanday pedagogik muammoni keltirib chiqaradi?

- A) yoshlarni oilaviy hayotga tezroq tayyorlash;
- B) qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash;
- C) *kam bolali oilalarda tarbiyaning metodlarini ishlab chiqishni va o'rghanish;
- D) to'g'ri javob yo'q;

TAYaNCh TUShUNChALARING LUG'AVIY MAZMUNI

Adaptatsiya - insonning ijtimoiy muhit bilan faol o'zaro munosabatda bo'lismasi, va uning potentsialini shaxsiy rivojlanish uchun ishlatish qobiliyatini.

Amaliy ishlar metodi – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Anamnez - ota-onalar yoki bolani tarbiyalovchi boshqa shaxslardan shifokor, pedagog yoki psixolog tomonidan bola haqida ma'lumot olish. Anamnez to'planayotganda bolaning irsiyligi, boshdan kechirgan kasallikkari, nutq, o'yin faoliyati rivojlanish xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar aniqlanadi.

Anomaliya - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishning umumiyligi normalaridan og'ish.

Anormal bolalar - normal ruhiy va jismoniy rivojlanishda buzilishlar bo'lgan bolalar. Ularni engib o'tish uchun maxsus metodlar talab qilinadi.

Axloq (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong – shaxsga axloqiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalari to’g’risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va riosa qilinishi zarur bo’lgan tartib, odob, o’zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o’quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko’nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to’g’risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Baynalminallik («inter» – orasida, o’rtasida, aro, «natio» – xalq)– o’zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon etkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma’naviy-axloqiy fazilat.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko’rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Bilim olish – borliqni idrok etish, o’rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko’nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish - ob’ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o’zlashtirish jarayoni.

Bolalar jinoyatchiligi - salbiy ijtimoiy huquqiy hodisa bo’lib, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan barcha g’ayri huquqiy xatti-harakatlar majmuasi hisoblanadi.

Bolaning ijtimoiylashuvi - uning ijtimoiy hayotga qo’shilishi bo’lib, shu jamiyatda xos bilimlar, qadriyatlar, norma-qoidalari, xulq-atvor namunalarini o’zlashtirishdan iborat. (M.Galaguzova)

Bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi - bolaning ijtimoiy muhit sharoitlariga faol ko’nikishi, bolaning ijtimoiy muhit bilan o’zaro munosabatlari turi.

Bolaning ijtimoiy dezadaptatsiyasi - uning ijtimoiy muhit sharoitlariga muvaffaqiyatli ko’nikishiga to’sqinlik qiluvchi ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarning yo’qotilishi.

Bolalikni ijtimoiy himoyalash - qonunchilik va bola huquqlari to’g’risidagi xalqaro konvensiyada mustahkamlangan voyaga etmaganlar huquqlarining kafolatini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar. Bu bolalarning optimal biologik va ijtimoiy rivojlanishini, ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarga ko’nikishini ta’minalab beruvchi huquqiy, iqtisodiy, tibbiy va psixologik-pedagogik choralar kompleksidir.

Bolalarga ijtimoiy yordam ko’rsatish - ijtimoiy himoyaning shakllaridan biri bo’lib, kam ta’minalangan oilalar farzandlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasi- ijtimoiy pedagog bolalarga turli yordam ko’rsatadi. Biroq ularning ichida ustuvor yordam bolalikni ijtimoiy pedagogik qo’llab-quvvatlash hisoblanadi.

Bolalikka olish - bolalikka oluvchi va bolalikka olinuvchi o’rtasida ota-onva farzandlar o’rtasida mavjud huquq va majburiyatlarni o’rnatuvchi yuridik akt.

Vasiylik - muomalaga layoqatsiz shaxslarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish.

Vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) - shaxsning o’zi mansub bo’lgan millat, tug’ilib o’sgan vatani tarixidan g’ururlanishi, buguni to’g’risida qayg’urishi hamda uning porloq istiqboliga bo’lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal – bilim (ma’lumot, axborot)larni so’z yordamida (og’zaki) etkazib berish, ifoda etish.

Gnoseologiya (yunon tilidan gnosis – bilim, ong, o’rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlar, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo’lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta’limot.

Deviant xulq atvor - ijtimoiy yoki axloqiy normalarga mos kelmaydigan xulq-atvor.

Delinkventlik (ing. “gunohkorlik”) - o’rnatilgan normalarni buzuvchi va huquqbazarlikka olib keluvchi xulq-atvor.

Dinamik steriotip - bosh miya faoliyatining fiziologik shakli bo’lib, inson xatti-harakatining shartli reflektor tartibida namoyon bo’ladi. Ularga insonning odatlari, oddiy mehnat ko’nikmalari kiradi.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimi.

Etim bolalar - 18 yoshgacha bo’lgan bir yoki ota-onasining ikkisi ham vafot etgan bolalar.

Etimlik - jamiyatda ota-onasidan judo bo’lgan bolalarning borligi bilan izohlanadigan ijtimoiy hodisa.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha «kollektivus» so’zining tarjimasi bo’lib, yig’ilma, omma, birlashtirilgan majlis, birlashma, guruh kabi ma’nolarni anglatadi) - bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo’lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiyligi maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jinsiy tarbiya - o’zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o’rgatish, o’z sog’ligi uchun g’amxo’rlik qilish va mas’uliyatli bo’lishni ta’minalashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya - o’quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Jinoyat - delinkvent xulq-atvor turi bo’lib, shaxsga, qonun bilan qo’riqlanadigan ob’ektlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli xatti-harakat.

Jinoiy xulq-atvor - jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga etganda jinoiy ish qo’zg’atishga asos bo’luvchi g’ayri huquqiy harakatlar.

Ijtimoiylashuv - insonning butun hayoti mobaynida o’z-o’zini o’zgartirish va rivojlantirishning boshqariladigan va maqsadga yo’naltirilgan jarayoni.

Insoniylik - bolani shaxs sifatida qadrlaydigan, uning g'ururi va erkinligini himoyalash bilan xarakterlanadigan, inson manfaatini ijtimoiy institutlarni baholashning asosiy me'yori deb hisoblaydigan qarashlar tizimi.

Infantilizm - organizmning ruhiy rivojlanishidagi to'xtab qolish bo'lib, bolalik davridagi rivojlanish bosqichi jihatlarini saqlab qolish bilan xarakterlanadi.

Inqiroz - shaxs rivojlanishining diskret vaziyatida uning maqsadga qaratilgan hayotiy faoliyatining to'xtab qolishi. Surunkali inqiroz ijtimoiy dezadaptatsiya, o'z joniga qasd qilish, asab-ruhiy va psixologik kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Ishontirish - mantiq, isbot-dalilga asoslangan aqliy emotsiyal ta'sir. Uning mohiyati inson ongiga ta'sir qilishga qaratilgan, demak ishontirishning muvaffaqiyali bo'lishi ong qonunlariga mos kelishiga bog'liq. Ishontiruvchi so'zlar tushunarli bo'lishi kerak. Ishontirish individual tajribaga qaratilishi lozim.

Ichki ishonch - axborotni tanqidsiz qabul qilish va unga muvofiq kayfiyat, xulq-atvorni o'zlashtirishga qaratilgan ta'sir. Ishontirishning samaradorligi ishontiruvchi shaxsning kuchi va boshqa shaxsning ishonuvchanligi, shuningdek ular o'rtaсидagi munosabatlarga bog'liq.

Iqtidorlilik - bolaning o'z yoshi normalariga nisbatan aqliy rivojlanishda ancha ilgarilab ketishi.

Kategoriya - fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Katamnez - davolash yakunlangandan so'ng kasal haqida olinadigan ma'lumotlar. Maxsus kuzatuv ostida bo'lgan bolalarning mehnat hayoti, ta'limi to'g'risida davriy ma'lumot to'plash.

Kommunikativlik - shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo'lish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o'rnatish, axborot to'plash, turli ijtimoiy munosabatlar o'rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq-atvorni kuzatish.

Kompensatsiya - buzilgan funksiyalar o'rnini to'ldirish, rivojlantirish.

Konkretlik - umumiyl fikrlardan voz kechish va savollarga aniq javob berish qobiliyati.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) - oliv nerv faoliyatining zaxira imkoniyatlari tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurish.

Korreksiya (yunoncha «correctio» - tuzatish) - pedagogik uslub va tadbirdan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha «defectus» – nuqson, kamchilik, «logos» – fan, ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Korreksion tarbiya - jamiyatdagi hayotga ko'nikish uchun sharoitlar yaratish, ba'zi toifa odamlarni rivojlanish nuqsonlarini engib o'tish yoki bartaraf etish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar - shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiyl pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimi.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Madaniyatlichkeit - bola tarbiyasi va ijtimoiylashuvi jarayoni shu jamiyat va millatning ma'naviy va moddiy madaniyati asosida qurilishi lozim.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mafkura (arabcha «mafcura» - naqtai nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy yuksalish, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda etakchi o'rinn tutuvchi g'oyalar tizimi.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari - muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) – mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Metod - yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Metodika (fan sifatida) – xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqr anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

“Men” kontseptsiyasi - insonning o'zi haqidagi tasavvurlari tizimi.

Mikrosotsium - o'z tarkibiga oila, qo'shnichilik, tengdoshlar guruahlari, turli ijtimoiy, davlat, diniy, xususiy va tarbiyaviy tashkilotlari mavjud, muayyan hududda faoliyat yurituvchi jamiyat.

Munozara (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Nazoratsizlik - bolalarni, ularning xulq-atvorini, bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishlarini nazorat qilmaslik, ularning tarbiyasi haqida qayg'urmaslik.

Nafosat didi - shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'ektiv nafosat o'lchovi.

Nafosat madaniyati - go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Nafosat ongi - go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya- lotincha «estezio» go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiylar turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lган shaxslar) hamda farzandlar o'rtaida turli yo'naliishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Pedagogik tashxis - o'quvchi va o'quvchilar jamoasi shaxsiyatini ta'lim-tarbiya jarayoniga individual va differentsiyal yondoshuvni ta'minlash uchun o'rganish.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'naliishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik qarovsizlik - shaxs rivojlanishiga barcha omillar majmuasining dezintegratsiya ta'siri oqibati. Ular avvalambor to'laqonli individual-psixologik rivojlanishni ta'minlovchi etakchi faoliyat turlarini qoniqarsiz o'zlashtirishda namoyon bo'ladi.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtiroy etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lган ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Professional ijtimoiy pedagogik faoliyat - bolalar va o'smirlarni o'rab turuvchi mikrojamiyatda ijtimoiy tarbiyasi bo'yicha bosqichma-bosqich ish olib borish bo'lib, bolalarning muvaffaqiyatli adaptatsiyasi, individuallashuvi va integratsiyasiga qaratilgan. Uning ob'ekti bola hisoblanib, predmeti-bolalarning ijtimoiy tarbiyasi jarayonidir.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy bahol berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Rahmdillik - kimgadir yordam berishga tayyor bo'lish yoki kimnidir hamdardlik, insonparvarlik tufayli kechirish.

Reabilitatsiya - bemorning psixofizik imkoniyatlari doirasida normal mehnat va hayotga qaytishi. Bu avvalambor tibbiyot yordamidan insonning jismoniy nuqsonlarini bartaraf etish, ikkinchidan maxsus o'quv metodlarini qo'llash, uchinchidan professional tayyorgarlik asosida erishiladi.

Referent guruh - inson uchun o'lchov birligi hisoblangan tavsiyalar, ma'lumotlar.

Refleksiya - insonning ichki ruhiy faoliyati bo'lib, o'z xatti - harakatlari, xislatlari, holatlarini anglab olishga qaratilgan; insonning o'z ma'naviy dunyosini anglab olishi.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha adapto - moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruqlik xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ijtimoiy ongi shakllantiruvchi metodlar - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, histuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha rehabilitas – layoqati, qobiliyatini tiklash) - anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va mehnatga jalb etish.

Izohlash (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

Ilmiy duyoqarash - uzlucksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqeа-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea» - g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya.

Individ (lotincha “individium” bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Institut - bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy va qoidaga ko'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta'lif - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Sotsium - insonning ijtimoiy atrof-muhiti, hamjamiyati.

Submadaniyat - muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta'sir qiluvchi ijtimoiy psixologik belgilar (norma, qadriyat, steriotip, did) majmuasi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lif metodi.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - ota-onada o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtaida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarining ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tashxis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Tafakkur (ijtimoiy voqe-a-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli).

Tayanch shaxs - insonning asosiy hayotiy intilishlarini belgilab beruvchi tabiiy qolipdir. Tayanch intilishlar hammada bir xil bo'ladi, biroq ularning namoyon bo'lishi genetik va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi.

Tibbiy-ijtimoiy yordam - ta'lif-tarbiya jarayonida sog'likni tiklash yoki mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) - o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtaсидаги mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlik.

Shaxslararo munosabatlar - ommaviy ijtimoiypsixologik hodisalar bo'lib, bir guruhda bo'lgan va bиргаликдаги фаолият hamda muloqot jarayonida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Shaxslararo muomala - insonlar orasida aloqalar o'rnatishning murakkab jarayoni. Pedagogik jamoada shaxslararo muomalaning quyidagi xususiyatlari to'g'rilanishga muhtoj: ba'zi pedagoglarning sabrsizligi, irodasizligi, kasbdoshlarini tinlay olmaslik, o'z maqomini oqlash. ijtimoiy pedagogik treninglar, boshlang'ich pedagog maktablari orqali sabr-matonat, tinglash madaniyati kabi xislatlarni shakllantirsa bo'ladi.

Shaxsning hayot tarzi - maqsadga muvofiq shakllangan qiziqishlar, faoliyat turlari va hayot yo'llari tizimi.

Shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi - bu insonning o'z hayotiy faoliyatining sub'ektiga aylanishidir. Sub'ektlik-insonning hayotdagi faol, mustaqil holati va maqomi. U inson tug'ilishidanoq unga xos bo'lib, uning ilk psixologik namoyon bo'lishi bolaning jonlanishi hisoblanadi. Yosh o'tgan sari u o'z shakllarini o'zgartiradi-insonda axloqiy, estetik, ijtimoiy va psixologik qo'zg'atuvchi sabablar paydo bo'ladi. Inson o'z-o'zini anglash, muomala va faoliyat sub'ektiga aylanadi. Bu faollik ham shaklan ham mazmunan o'zgaradi. Inson qanchalik yoshi o'tsa u shunchalik ko'proq o'z-o'zini rivojlantirish sub'ekti bo'ladi.

Xayriya - alohida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan kam ta'minlangan oilalar, muhtojlarga ko'rsatiladigan yordam.

Homiylik - voyaga etmaganlarning (boshqa toifa insonlarning ham) shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish shakli, ya'ni homiylikda vasiylikka qaraganda ancha keng toifadagi bolalar huquqlari himoya qilinishi mumkin.

Xuquqbuzarlik - biror-bir huquqni buzuvchi har qanday xatti-harakat. Huquqbuzarliklar ijtimoiy xavfli harakat va jinoyatlarga bo'linadi.

Usul - muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs.

Fuqarolik – huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy etuklik assosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Emotsional zararlanish - bevosita emotsional holatlarni uzatish orqali ta'sir ko'rsatish (qo'l, yuz xatti-harakatlari, intonatsiya).

Empatiya - dunyoga boshqalar nazari bilan qarash, uni boshqalar kabi tushunish, boshqalarning xatti-harakatlarini ularning nuqtai nazariga ko'ra qabul qilish va shu bilan birga o'zining tushunchasini bildirishga qodirlilik.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik ong - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qibiliyati.

Ekologik tarbiya - o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ekologik ta'lim - o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzlusiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon.

Ekologik faoliyat - ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik tarbiya - o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

E'tiqod - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.

O'zaro munosabatlar - jamoada ijtimoiy psixologik iqlimni shakllantirish asosi.

O'z-o'zini aktuallashtirish - insonning o'z shaxsiy imkoniyatlarini to'liq aniqlashga va rivojlantirishga qaratilgan doimiy intilish.

O'z-o'zini anglash - inson onginging eng oliy irodasi bo'lib, o'zi haqidagi tasavvurlar, xulq-atvori, faoliyati, ehtiyojlarini anglashdan namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini tarbiyalash - insonning o'zida ijobjiy xislatlarni shakllantirish va salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan, tashkillashtirilgan faoliyati.

Qadriyatlar - harakat usuli, metodikasi va uning individual etimga aylanishi uchun shart-sharoit yaratish.

Qurilma (ustanovka) - muayyan xulq-atvor, tasavvurni boshdan kechirishga tayyor bo'lish. Qurilmalar faoliyatning barqaror kechishini belgilab berishadi. Agar shaxsiy qurilmalar kasbiy faoliyatning xarakterini belgilab bersa ijtimoiy

qurilmalar mutaxassisning mijoz bilan o'zaro munosabati usullariga oydinlik kiritadi.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari - o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullar.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish - o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash – shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyatini jarayoni.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Hikoya – ota-onalar tomonidan dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy ong - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobjiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Huquqiy ta'lim - o'quvchilarga huquqiy me'yolar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallahsga bo'lган ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayoni.

Huquqiy faoliyat - huquqiy me'yolar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2015. – 21-22-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010.
3. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 14 -bet.
4. Karimov I.A. Oila farovonligi - millat farovonligi G' O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i maruzasi. Xalq so'zi, 1997 yil 5-dekabr.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 52-bet.
5. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. – Toshkent: Ozbekiston, 2011. – 134-bet.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 66-bet.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'zbekiston, 1992. – 160 b.
8. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2010. – 21-bet.
9. Boboev X., Hasanov S. “Avesto” – ma'naviyatimiz sarchashmasi. – Toshkent: “Adolat”, 2001.
10. Bolshaya psixologicheskaya entsiklopediya. Samoe polnoe sovremennoe izdanie. – Moskva: Eksmo, 2007. – S. 287.
11. Immanuil Kant Pedagogika to'g'risida. Nemis tilidan M. Akbarov tarjimasi. –Toshkent. “Niso Poligraf”, 2013. – 232b.
12. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari. 1-kitob. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1959. – 293-bet.
13. Inomova M. Oilada bolalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – 258 b.

14. Inomova M. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari dok. diss. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 1998. – 258 b.
15. Karimova O., G’offorov Z. Davlat va huquq asoslari G’ Darslik. – Toshkent: O’qituvchi, 1995. – 463-bet.
16. Karimova O. Huquqshunoslik G’ Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007. – 106-bet.
17. Karimova V. Oila psixologiyasi. – Toshkent. O’qituvchi, 2007. - 316 b
18. Karimova O. Oila huquqi asoslari – Toshkent: “O’qituvchi”, 2003. 154 b.
19. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi – Toshkent: Fan, 2006. 142 b.
20. Kvintilian. O vospitanii oratora. Chast 1. – Moskva: Sank-Petrburg – S. 118.
21. Maxmudov T. “Avesto” xaqida. – Toshkent: “Sharq”, 2001.
22. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 1994.
23. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g’urur G’ O’quv qo’ll. – Toshkent: “O’qituvchi”, 1999. – 200 b.
24. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlар tarbiyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 1996.
25. Oila, mahalla va ta’lim muassasasi Kontseptsiyasi. – Toshkent: RTM, 1993.
26. O.Hasanboeva va b. Oila pedagogikasi. – Toshkent: “Aloqashi”, 2007. – 384 bet.
27. Oila psixologiyasi G’ Akad.litsey va kasb-hunar kollejlari o’quvchilari uchun o’quv qo’llanma. G.B.Shoumarov va b. G.B.Shoumarovning tahriri ostida. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – 296 bet.
28. Pedagogika tarixi G’ K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov. – Toshkent: O’qituvchi, 1996.
29. Podlaso’y I.P. Pedagogika. – M.: Gumanist.izd.tsentr VLADOS, 2003. – 256 s.
30. Pedagogicheskiy entsiklopedicheskiy slovar – Moskva: Vlados, 2002. – S.257.
31. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika nazariyasi. 1-qism G’ Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. M.X.Toxtaxodjaeva va b. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 285-bet.
32. Pedagogika nazariyasi G’ Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. Mualliflar: M.X.Toxtaxodjaeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umum.tahr.ostida. – Toshkent: “Moliya-iqtisod”, 2010. – 302-bet.
33. Pedagogik mahorat: sxema va rasmlarda G’ Metodik qo’ll. N.Erkaboeva, M.Usmonboeva, M.Irgashova, N.Xo’janazarova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 57-bet.
34. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob G’ Met.qo’ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog’omova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 98-bet.
35. Slastyonina V.A. Obhaya pedagogika. – M.: Vlados, 2003. Ch.1.

36. Salomatlik. Ommabop meditsiina entsiklopediyasi. – Toshkent: O’zbek entsiklopediyasi Bosh redaktsiyasi. – 1985. – 41-bet.
37. Safarov O. Oila ma’naviyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – 248 b.
38. Safarov O. Maxmudov M. Oila ma’naviyati. –Toshkent: “Ma’naviyat” 2009. – 248-bet.
39. Tarbiya G’ ota-onalar va murabbiylar uchun entsiklopediya. Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas’ul muhar. A.Majidov. – Toshkent: “O’zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 141-bet.
40. Trosyan V. Istorya obrazovaniya i pedagogicheskoy mo’sli. – Moskva: Pedagogika, 2006.
41. To’raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 1990. 154 b.
42. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblar. –Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 1998. – 53-bet.
43. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: IQTISOD MOLIYA, 2011. 425 b.
44. Xo’janiyozov T. Oila tarixi va xuquq. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2006. – 255 bet.
45. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 bet.
46. O’zbek tilining izohli luhati. E – M G’ 5 jildli. Ikkinchchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. Tahrir hay’ati: E.Begmatov va b. – Toshkent: “O’zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 636-bet.
47. O’zbek tilining izohli lug’ati. N – Tartibli G’ 1jildli. Uchinchi jild. – Toshkent: “O’zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 680 bet.
48. O’zbekiston Milliy entsiklopediyasi. Miriy – Parxish G’ 6-tom. – Toshkent: “O’zbekiston Milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 469-bet.
49. O’zbekistan Milliy entsiklopediyasi. Sharq – Qizilqum G’ 10-jild. Tahrir hay’ati A.Azizzxo’jaev va b.q. – Toshkent: “O’zbekistan milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 269-bet.
50. Qodiriy, A. O’tkan kunlar G’ XX asr o’zbek roman turkumi. Tahrir hay’ati I. Shog’ulomov va b.q. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa kontserni, 1995.
51. Quronov M. Otalar kitobi (Yosh otalar uchun tarbiya to’g’risida birinchi kitob). – T.: “Ozbekiston”, 2006. – 80b.
52. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Manaviyat, 2007. – 240 b.
53. Quronov M. Bolam baxtli bo’lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. - T.: “Manaviyat”, 2013. – 320.
54. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tavsiri G’ Tarj.va tafsir mual. Shayx A.Mansur. Tahr.hay’ati: U.Alimov va b.q. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” NMB, 2012. – 404-bet.
55. G’ofurov I. O’zbekiston qiyofasi: moziyga nazar, muhokama, mushohada. Davra suhbatি G’ Milliy tiklanish gazetasi, 1996 yil, 6 mart.

56. Hasanboeva O. va boshqalar. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2010. – 361 bet.
57. Hoshimov K., Ochil S. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: “O’qituvchi”, 2010. – 421 b.
58. Istorya pedagogiki G’ http: G’G’ top. 100. rambler.ru.
59. Obhenie i vido’ obheniya G’G’
<http://G'G'perevodovedcheskiy.academic.ru>.
60. Reproduktivnost G’G’ Wikipediya.
61. Reproduktivnoe zlorove G’G’
<http://G'G'my.mail.ruG'communityG'uneasyparents>.
62. Reproduktivnost G’G’ <http://G'G'www.malina-mix.comG'topic23942.html>.

GLOSSARY

O'zbek tilida	Рус тилида	Инглиз тилида
Axloq	Нравственность	Ethics
Axloqiy ong	Нравственное сознание	Ethical consciousness
Aloqiy tarbiya	Нравственное воспитание	Ethical upbringing
Aqliy tarbiya	Интеллектуальное воспитание	Mental upbringing
Baynalminallik	Байналмилол интернациональны	Internationalism
Bakalavriat	Бакаловр	Bachelor
Bashoratlash	Пророчество	Predicting
Baho	Оценка	Mark
Bilim	Знания	Knowledge
Bilim olish	Получать знания	Acquire knowledge
Bilish	Знать	Knowing
Boshlang'ich talim	Начальное обучения	Elementary education
Boshlang'ich talim pedagogikasi	Педагогика начального образования	Pedagogy of elementary education
Vatanparvarlik	Патриотизм	Patriotism
Verbal	Вербальное	Verbal
Gnoseologiya	Гносеология	Gneosology
Davlat ramzları	Государственная символика	State symbols
Davlat ta'lif standarti	Стандарт государственно го образования	State educational standards
Dars	Урок	Lesson
Darslik	Учёба	Textbook
Didaktika(talim nazariyasi)	Дидактика (теория преподавания образования)	Didactic
Didaktika tamoyillari	Направления дидактики	Orientation of didactic
Didaktik tashhis maqsadi	Дидактические цели диагноза	The aim of didactic analysis
Talim va tarbiya mazmuni	Содержание образования и воспитания	The content of education and upbringing
Talim vositalari	Средство образования обучение	Educational means
Talim jarayoni	Процесс образования	Educational process
Talim menejeri	Менеджер образования	Educational manager
Talim metodlari	Методология образования	Educational methods
Talim muassasi Ustavi	Устав образовательного учреждения	The charter of educational institutions

Talim kontsepsitsiyalari	Концепции образования	Educational conceptions
Talim mazmuni	Содержание образования	The meaning of education
Talim maqsadi	<u>Цель образования</u>	<u>The goal of education</u>
Talim natijasi (talim mahsuli)	Заключение образования (продукт образования)	The result of education (the product of education)
Talimni boshqarish	Управление образования	Leading the education
Talimning sinf-dars tizimi	Система класс-урок образования	The class – study system of education
Talim tizimi	Система образования	Educational system
Talim shakli	Форма образования	The form of education
Tizim	Система	System
Tiflopedagogika	Тифлопедагогике	Typhlopedagogy
Test	Тест	Test
Topshiriq	Задание	Task
Tushuntirish	Объяснение	Explaining
To'garak	Кружок	Circle
Umumiy pedagogika	Общая педагогика	General pedagogics
Universitet	Университет	University
Usul	Метод	Method
Faoliyat	Деятельность	Activity
Fuqaro	Гражданин наследие	Citizen
Fuqarolik	Гражданский	Citizenship
Fuqarolik tarbiyasi	Воспитание гражданства	The citizenship education
Shaxs	Личность, особа, персона	Person
Shaxsni ijtimoiylashhtirish	Социализация личности	Socialization of the person
Shkalalash	Шкала щмерения	Scaling
Ekologik madaniyat	Экологическая культура	Ecological culture
Ekologik ong	Экологическое сознание	Ecological consciousness
Ekologik tarbiya	Экологическое воспитание	Ecological upbringing
Ekologik talim	Экологическое образование	Ecological education
Ekologik faoliyat	Экологическая деятельность	Ecological activity
Estetik tarbiya	Эстетическое воспитание	Aesthetic education
Etiqod	Убеждение, вера	Faith

Yakuniy nazorat	Итоговая контрольная	Final control work
O'z-o'zini baholash	Самооценка	Self - assessing
O'z-o'zini tarbiyalash metodlari	Методы саповоспитание	Self upbringing methods
O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish	Самоанализ (самоконтроль)	Self- analysis
O'z-o'zini qayta tarbiyalash	Перевоспитание себя	Self re-educating
O'zlashtirish	Осваение успеваемость	Advancement
O'rgatish	Обучать учить	Teaching
O'qituvchi (pedagog)	Учитель (педагог)	Teacher
O'qish	Учиться читать	Study
O'quv dasturi	Учебная программа	Curriculum
O'quv fani	Учебный предмет наука	Science
O'quvchilar jamoasi	Коллектив учеников	Group of pupils
O'quvchilarning o'z o'zini boshqarishi	Самоуправление учеников	Self – control
O'quv qo'llanmasi	Учебное пособие	Educational supplies
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi	Военно патриотическое воспитание	The education of military patriotism
Metodika (fan sifatida)	Методика (как наука)	Method (as a science)
Mehnat tarbiyasi	Трудовое воспитание	Labour education
Munozara (tarbiya metodi sifatida)	Дискуссия диспут полемика	Discussion (as an educational method)
Nazorat (talim rayonida)	Контроль (в процессе оброзования)	Control (during education)
Nafosat didi	Чувство изящества	Aesthetic taste
Nafosat madaniyati	Культура изящества	Aesthetic culture
Nafosat ongi	Сознание изящества	Aesthetic consciousness
Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya lotincha "estezio" go'zallikni his qilaman)	Воспитание изящесто (эстетическое воспитание)	Aesthetic education
Oila	Семья	Family
Oilaviy munosabatlar	Семейши отношения	Family relations
Oila tarbiyasi	Семейное воспитание	Family education
Oraliq nazorat	Прометуточный контроль	Current control work
Pedagogika (yunoncha "paidagogike" bo'lib	Педагогика (с греч "paidagogike" вадить ребенка)	Pedagogy (in Greek "pedagogyc" leading the child)

bola etaklayman)		
Pedagogik mahorat	Педагогическое умение мастерство	Pedagogical skill
Pedagogik paradigma (yunoncha “paradeigma” misol namuna	Педагогическая парадигма	Pedagogical paradigm
Pedagogik talab	Педагогическое требование	Pedagogical demand
Pedagogik texnologiya	Педагогическая технологии	Pedagogical technology
Pedagogik maxorat	Педагогическое мастерство	Pedagogical skill
Rag’batlantirish	Поощрять	Stimulation
Rivojlanish	Развитие	Progress
Tarbiya	Воспитание	Upbringing
Tarbiya jarayoni	Процесс воспитания	Upbringing process
Tarbiya mazmuni	Содержание воспитания	The content of education
Tarbiya metodi (yunoncha metodos yo’l)	Метод воспитания	The methods of upbringing
Tafakkur	Мышление	Thought
Tashhis	Диагноз	Analysis
Talim	Образование	Education
Talim kontsepsiyalari (lotin tilidan “conception” tizim)	Концепции образования	The conceptions of education
Talim maqsadi (o’qish bilim olish maqsadi)	Цель образования (учиться цель учебы)	The goal of education
Talim natijasi (talim mahsuli)	Продукт оброзование	The result of education (product of education)
Hikoya	Рассказ	Story
Aruz sher tuzulishida qisqa va cho’ziq hijo (bo’g’in)	Метрическое система стихосложения	Short and long stress in poetry
Varvarizmlar	Варваризм	Barbarian
Voiz	Оратор проповедние	Orator
Ilmiy dunyoqarash	Научное мировозренне	Scientific outlook
Individ (lotincha “ individium” bo’linmas yagona aloxida degan manolarni anglatadi	Индивид (лат “ individium” единая особая)	Individ

Individuallik	Индвидуальность	Individuality
Institut	Институт	Institution
Iqtisodiy tarbiya	Экономическое воспитание	Economical upbringing
Iqtisodiy talim	Экономическое образование	Economical education
Yosh xususiyatlari	Возрастные особенности	Age peculiarities
Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash	Повтение кадровой квалификации преподготовна кадров	Improving and repreparing cadres
“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”	Национальная программа подготовии кадров	“National program of preparing cadres”
Kadrlar tayyorlash milliy modeli	Национальная подготовка кадров	National model of preparing cadres
Shaxs (kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti talim soxasidagi xizmatlarning istemolchisi va ularni amalga oshiruvchi	Личность объект и субъект главной системы подготовки кадров служба подребителя в	Person (The main subject and object of the system of preparing cadres)
Davlat va jamiyat – talim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlaash va ularni qabul qilib olishning kafillari	Государство и общество образование и подготовка Системы кадров приведение их в порядок и контроль за кадрому	Country and society (putting in order the activity of preparing the system of education and preparing cadres)
O’zluksiz talim-malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo’lib talimning barcha turlarini davlat talim sdandartlarini kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko’rsatish muhitinio’z ichiga	Непрерывность безпрерывность обучения Квалифицированны подготовка конкуренцио способных кадров виды всего оврозования госуд. стандарт оброзов	Continuous education (it consists of preparing skilled and qualified cadres)

oladi.		
Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalariniishlab chiqaruvchi	Наука- высоко квалифицированные специалисты подготовка и пользование передовые педагогические и информации	Subject – it can prepare high qualified cadres and use pedagogical informational technologies
Ishlab chiqarish-kadrlarga bo’lgan ehtiyojni shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy – texnikaviy jixatdan taminlash jarayonining faol ishtirokchisi.	Производство- подобность в кадрах и подготовка их кадрах и подготовка их качества и уровень требования система подготовка кадров финансовый и материальный технический обеспечение активного учёстъя	Producing – the active participant of the process of providing financial, material and technological objects and defining the quality of the preparing education
Korreksion (mahsus) pedagogika (difektologiya yunoncha “defektus” nuqson kamchilik “logos”-fan talimot	Коррекционное (специальное) педагогика (дефектология с грекшъен недостаток)	Special pedagogy (“defectus” defect, short coming, “logos” study”
Korreksion pedagogik faoliyat	Коррекциониал педагогическое деятельность	Special pedagogical activity
Korreksion tarbiyaviy ishlar	Коррекционная воспитательная работа	Special educational works
Ko’nikma	Навык	Experience
Ko’rgazmali metodlar	Выставочные методы	Visual methods
Litsey (kollejda) maruza	Лицей (колледже) лекция	Lecture at lyceum (collage)
Loyihalashtirish (rejalahshtirish)	Проектировать (планирование)	Projecting(planning)
Logopediya (yunoncha “logos”-so’z, nazariya, talimot “paideia”- tarbiyalash)	Логопедия (с грек – слово, теория, учение	Logopedy (in Greek “logos” word, theory “paedie” educate
Magistratura	Магистратура	Magistrature
Madaniyat	Культуре цивилизация (Culture (from “cultura”

(“cultura”so’zidan olingan bo’lib parvarish qilish ishlov berish manosini bildiradi).	от слова культура воспитание уход)	which means caring and polishing)
Mazmun (talim (bilim olish) mazmuni)	Содержание смысл (учиться обучаться)	Content (studying and educating)
Maktabgacha talim	Дошкольное образование	Preschool education
Maktabgacha talim pedagogikasi	Педагогика дошкольного образования	Pedagogy of preschool education
Maktabdan tashqari talim	Внешкольное образование	Education out of school
Malaka	Навык квалификация	Qualification
Materialni og’zaki bayon qillish metodlari	Методы устного изложения материала	The method of narrate verbal information
Mafkura (arabcha mafkura nuqtai nazar va etiqodlar tizimi)	Идеология (с араб убеждений)	Ideology (in Arabic the system of faith and point of view)
Mashq va o’rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari	Упражнение и обучение методы	Exercise and teaching (the methods of training)
Malumot	Сведение данные образование	Information
Manaviyat (arabcha manaviyat manolar majmui)	Духовность (с арабского маинавият совонутость	Spirituality (in Arabic collection of meanings)
Marifat	Образование просвищение	Knowledge
Maruza	Доклад лекция	Lecture
Menejment	Менежмент	Management
Metod	Метод	Method
Maktabgacha talim	Дошкольное образование	Preschool education
Maktabgacha talim pedagogikasi	Педагогика дошкольного образования	Pedagogy of preschool education
Maktabdan tashqari talim	Внешкольное образование	Education out of school
Malaka	Навык квалификация	Qualification
Materialni og’zaki bayon qillish metodlari	Методы устного изложения материала	The method of narrate verbal information
Mafkura	Идеология	Ideology
Mashq va o’rgatish	Упражнение и обучение методы	Exercise and teaching (the methods of training)
Malumot	Сведение данные образование	Information

Manaviyat	Духовность	Spirituality
Marifat	Образование просвищение	Knowledge
Maruza	Доклад лекция	Lecture
Menejment	Менежмент	Management
Metod	Метод	Method
Metodika	Методика	Methodics
Mehnat tarbiyasi	Трудовое воспитание	Labour upbringing
Munozara	Дискуссия диспут полемика	Discussion
Nazorat	Контроль присмотр	Control
Nafosat didi	Чувство изящества	Aesthetic taste
Nafosat madaniyati	Культура изящества	Aesthetic culture
Nafosat ongi	Сознание изящества	Aesthetic consciousness
Nafosat tarbiyasi	Воспитание изящество	Aesthetic education
Oila	Семья	Family
Oilaviy munosabatlar	Семейши отношения	Family relations
Oila tarbiyasi	Семейное воспитание	Family education
Oligofreniya	Олигофрения	Oligophreny
Oliy talim	Вышее образование	Higher education
Oliy o'quv yurtidan keyingi talim	Обучение после высшего учруждения образования	Post higher education
Oraliq nazorat	Прометуточный контроль	Current control work
Pedagogika	Педагогика	Pedagogics
Pedagogika tarixi	История педагогическая	History of pedagogy
Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari	Методы педагогического научного исследования	Scientific research methods of pedagogy
Pedagogik mahorat	Педагогическое умение мастерство	Pedagogical skill
Pedagogik paradigma	Педагогическая парадигма	Pedagogical paradigm
Pedagogik talab	Педагогическое требование	Pedagogical demand
Pedagogik texnologiya	Педагогическая технологие	Pedagogical technology
Pedagog kadrlar tarkib	Педагогический состав кадров	The staff of educational specialists
Rag'batlantirish	Поощрение	Stimulation
Rivojlanish	Развиваться	Development
Reyting	Рейтинг	reyting
Sinf	Класс	Class
Surdopedagogika	Сурдопедагогика	Surdopedagogy
Suhbat	Беседа	Conversation
Tamoyil	Склонность направление	Tendency
Tarbiya	Воспитание	Upbringing
Tarbiya jarayoni	Процесс воспитания	The process of

		upbringing
Tarbiya mazmun	Содержание воспитания	The goal of upbringing
Tarbiya metodi	Метод воспитания	The method of upbringing
Tafakkur	Мышление	Thought
Tashhis	Диагноз	Analysis
Talim	Образование	Education
Tarbiya nazariyasi	Тиорея воспитания	Educational theory
Didaktik tizim	Система дидактики	Didactic system
Didaktik o'yin	Дидактическая игра	Didactic game
Dunyoqarash	Мировоззрение	Outlook
Jazolash	Наказание	Punishing
Jamoa Jamoa ananalari	Коллектив сообщество Традиции сообщество	Staff The traditions of the stuff
Jamoaning norasmiy tuzilmasi	Неформальная структура общества	The informal structure of the stuff
Jamoaning rasmiy tuzilishi	Формальная структура общество	The formal structure of the stuff
Jinsiy tarbiya	Половое воспитание	Sexual education
Jismoniy tarbiya	Физическое воспитание	Physical education
Joriy nazorat	Текущий контроль	Current control work
Idrok	Восприятие	Quick wits
Ijtimoiy adaptatsiya	Социальное адаптация	Social adaptation
Ijtimoiylashuv	Принимать общественную окраску	Socialization
Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar	Методы формирующие социальный разум	The method of forming social consciousness
Ijtimoiy pedagogika	Социальная педагогика	Social pedagogy
Ijtimoiy reabilitatsiya	Социальная реабилитация	Social reabilition
Izohlash	Разъяснять	Explaining
Ilmiy dunyoqarash	Научное мировоззрение	Scientific outlook
Ilmiy tafakkur	Научное мышление	Scientific thought
Ilmiy qarash	Научное точка зрения	Scientific view
Individ	Индивид	Individ
Individuallik	Индивидуальность	Individuality
Institut	Институт	Institution
Iqtisodiy tarbiya	Экономическое воспитание	Economical upbringing
Iqtisodiy talim	Экономическое образование	Economical education

Yosh xususiyatlari	Возрастные особенности	Age peculiarities
Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash	тение кадровой квалификации преподготовна кадров	Improving and repreparing cadres
“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”	Национальная программа подготовии кадров	“National program of preparing cadres”
Kasb - xunar kolleji	Профессионально колледж	Vocational collage
Kategoriya	Категория	Category
Kompensatsiya	Конпенсация	Adaptation
Korreksiya	Коррекция	Correction
Korreksion (mahsus) pedagogika	Коррекционное (специальное) педагогика	Special pedagogy (“defectus” defect, short coming, “logos” study”
Korreksion pedagogik faoliyat	Коррекциониал педагогическое деятельносить	Special pedagogical activity
Korreksion tarbiyaviy ishlар	Коррекционная воспитательная работа	Special educational works
Ko'nikma	Навык	Experience
Ko'rgazmali metodlar	Выставочные методы	Visual methods
Litsey (kollejda) maruza	Лицей (колледже) лекция	Lecture at lyceum (collage)
Loyihalashtirish (rejalahshtirish)	Проектировать (планирование)	Projecting(planning)
Logopediya	Логопедия	Logopedy (in Greek “logos” word, theory “paedie” educate
Magistratura	Магистратура	Magistrature
Madaniyat	Культура	Culture (from “cultura” which means caring and polishing)
Mazmun	Содержание смысл	Content (studying and educating)
Hikoya	Рассказ	Story
Hisobga olish	Учёт	Considering
Huquqiy madaniyat	Правовая культура	Legal culture
Huquqiy ong	Правовое сознание	Legal consciousness
Huquqiy tarbiya	Правовое воспитание	Legal upbringing
Huquqiy talim	Правовое образование	Legal education
Huquqiy faoliyat	Правовая юридическая	Legal activit

